ISSN 2181-2500

ADABIY MEROS

2024-YIL 2-SON / ILMIY JURNAL

Jadid nigohli adib
Bir ruboiy matni tahlili
Bir nuqta, o‘zga so‘z va talqin
Go‘rog‘li-Ko‘ro‘g‘li dostonlarida epik makon
Debocha istilohi, genezisi va shakllanish tarixi
“Boburiynoma” nashrlarining matniy-qiyosiy tadqiqi
“Arbain”ning ikki tildagi nazmiy ifodasi qiyosiy tahlili
Folklorshunos Kenesboy Allambergenovning ijod olami
“Alanga” jurnalining o‘zbek-lotin alifbosiga o‘tish davridagi o‘rni
Obrazli nomlanishlar va ba’zi obrazli toponimlarning etimologik tahlili
Salohiyning Yusuf va Zulayho dostonida yetakchi obrazlar spetsifikatsiyasi
“Gul va bulbul” dostonining ayrim toshbosma nusxalarining qiyosiy-matniy tadqiqi
Alisher Navoiy she’riyatida Mutrib va Mug‘anniy obrazlarining tasavvufiy mohiyati
Deyksis hodisasi va uning badiiy asarlarda qo‘llanilishi (Abdulla Qahhor asarlari misolida)
O‘zbek tilidagi so‘zlarning fonetik moslashuvi hamda me’yorlashuvi masalasi
Tilshunoslikda frazeologik tadqiqotlar va Qodiriy ijodiga lingvistik yondashuv
“Hajnoma” va “Haj daftari”da obraz tasviridagi uyg‘unlik va o‘ziga xoslik
Cho‘lponning milliy estetik tafakkur yangilanishidagi o‘rni
Toponimiya va unda mikro va makrotoponimlarning o‘rni
Komil Xorazmiyning Toshkentga bag‘ishlangan qasidasi
Balog‘at, ritorika va stilistikaning tipologik xususiyatlari
“Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida inson va tabiat
uyg‘unligi talqinining ijtimoiy-falsafiy asoslari

ADABIY MEROS

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI

2024
2-son (12)

Bosh muharrir:
Jabbor Eshonqulov

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Otabek Jo‘raboyev

Mas’ul kotib:
Feruza Abdurahmonova

Muharrir:
Lochinbek Axmadaliyev

Texnik muharrir:
G‘iyosiddin O‘narov

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
e-mail: adabiymeros@gmail.com
Tel.: (99871) 241-02-75
Jurnal 2020-yil 26-noyabrda
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Axborot
va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan №200936238
raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
ISSN 2181-2500

Jurnal 2024-yil 4-aprelda
nashrga berildi.

“Adabiy meros” ilmiy jurnali
O‘zbekiston Respublikasi VM
huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining qaroriga ko‘ra
(№327/6, 30.11.2022-y.) filologiya
fanlari bo‘yicha PhD va DSc
ilmiy darajasiga talabgorlarning
dissertatsiya ishlari yuzasidan ilmiy
nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Tahrir hay’ati:
Asadov Maqsud
Abdirashidov Zaynobidin
Barakayev Rahmatulla
Bekimbetov Azamat
Boltaboyev Hamidulla
Davlatov Olim
Jabborov Nurboy
Jo‘raqulov Uzoq
Karimov Bahodir
Kamilova Saodat
Mamajonov Zokirjon
Mahmudov Nizomiddin
Palimbetov Kamalboy
Soriyev San’at
Sulaymonov Mo‘minjon
Sabirova Nasiba
Rajabova Burobiya
Rashidova Ma’mura
Rahmonov Nasimxon
Turdimov Shomirza
Tursunov Yusuf
To‘xliyev Boqijon
Tilavov Abdumurod
Sheraliyeva Mashhura
Shodmonov Nafas
Shofiyev Obidjon
Hamdamov Ulug‘bek
Hasanova Shafoat
Eshchanova Gavhar
Qalandarova Dilafro‘z
Qosimov Abdug‘ofur
Qobilov Usmon
Quronov Dilmurod
Qobilova Zebo
Yodgorova Mehribon
Chulliyeva Nilufar

Hakamlar hay’ati a’zolari:
Abduhalimov Bahrom *(O‘zbekiston)*
Abdullajon Axmataliyev *(Qirg‘iziston)*
Ayşe Yücel Çetin *(Turkiya)*
Açik Fatma *(Turkiya)*
Almas Ulvi *(Ozarbayjon)*
Anarboy Boldiboy *(Qozog‘iston)*
Ahmet Bican Ercilasun *(Turkiya)*
Ali Duymaz *(Turkiya)*
Asel Isayeva *(Qirg‘iziston)*
Baydemir Husayn *(Turkiya)*
Bakchiyev Talantaali *(Qirg‘iziston)*
Basangova Tamara *(Rossiya)*
Demir Necete *(Turkiya)*
Fayzulloyev Baxtiyor *(Tojikiston)*
Fikrat Turkman *(Turkiya)*
Gurer Gulseven *(Turkiya)*
Vahit Turk *(Turkiya)*
Veli Savaş Yelok *(Turkiya)*
Ismat Çetin *(Turkiya)*
Ibrayev Shokir *(Qozog‘iston)*
Karl Rechl *(Germaniya)*
Metin Ekici *(Turkiya)*
Mirzayeva Salima *(O‘zbekiston)*
Ocal Oğuz *(Turkiya)*
Emek Uşenmez *(Turkiya)*
Eunkyung Oh *(Koreya)*
Rixsiyeva Gulchehra *(O‘zbekiston)*
Sakaya Heroki *(Yaponiya)*
Sirojiddinov Shuhrat *(O‘zbekiston)*
Sodiqov Qosimjon *(O‘zbekiston)*
Selami Fedakar *(Turkiya)*
Temur Khocaoğli *(AQSH)*
To‘laganova Sanobar *(O‘zbekiston)*
Zaytsev Ilya Vladimirovich *(Rossiya)*
O‘rayeva Darmanoy *(O‘zbekiston)*

“ADABIY MEROS”
ILMIY JURNALI
2024-YIL, № 2 (12)
USHBU SONDA:

MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK

Farida Karimova. Debocha istilohi, genezisi va shakllanish tarixi.....4
Bilolxon Abdullayev. “Gul va bulbul” dostonining ayrim toshbosma nusxalarining qiyosiy-matniy tadqiqi.....14
Sitora Tojiddinova. “Boburiynoma” nashrlarining matniy-qiyosiy tadqiqi.....21

NAVOIY ABADIYATI

Ma’mura Rashidova. “Arbain”ning ikki tildagi nazmiy ifodasi qiyosiy tahlili.....29
Ozoda Tojiboyeva. Bir nuqta, o‘zga so‘z va talqin.....37
Alisher Razzoqov. Alisher Navoiy she’riyatida Mutrib va Mug‘anniy obrazlarining tasavvufiy mohiyati...43

JADID ADABIYOTI

Veli Savash YELOK. “Alanga” jurnalining o‘zbek-lotin alifbosiga o‘tish davridagi o‘rni.....51

OLTIN BESHIK

Aynur Ibrahimova. Go‘rog‘li-Ko‘ro‘g‘li dostonlarida epik makon.....57

TANQID VA TAHLIL

Jabbor Eshonqulov. Jadid nigohli adib.....64
Salimaxon Rustamiy. Balog‘at, ritorika va stilistikaning tipologik xususiyatlari.....70
Nodirjon Qurbonov. Obrazli nomlanishlar va ba’zi obrazli toponimlarning etimologik tahlili.....75
Oybek Normurodov. Bir ruboiy matni tahlili.....83
Surayyo Shodiyeva. Salohiyning Yusuf va Zulayho dostonida yetakchi obrazlar spetsifikatsiyasi.....87
Kishin Xajiboyev. “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida inson va tabiat uyg‘unligi talqinining ijtimoiy-falsafiy asoslari.....96
Dilfuza Avazova. “Hajnoma” va “Haj daftari”da obraz tasviridagi uyg‘unlik va o‘ziga xoslik.....100
Shahlo Hojiyeva. Cho‘lponning milliy estetik tafakkur yangilanishidagi o‘rni.....110

TILSHUNOSLIK

Umidjon Qo‘ziyev. O‘zbek tilidagi so‘zlarning fonetik moslashuvi hamda me’yorlashuvi masalasi.....110
Sofiyaxon Usmonova. Toponimiya va unda mikro va makrotoponimlarning o‘rni.....115
Maxbuba Xujamkulova. Mohtoba Zaylobiddinova. Deyksis hodisasi va uning badiiy asarlarda qo‘llanilishi(Abdulla Qahhor asarlari misolida).....121
Go‘zal Qo‘ziboyeva. Tilshunoslikda frazeologik tadqiqotlar va Qodiriy ijodiga lingvistik yondashuv....125

FANIMIZ FIDOYILARI

Kamalbay Palimbetov. Folklorshunos Kenesboy Allambergenovning ijod olami.....131

ADABIY MANBALAR XAZINASIDAN

Shahobiddin Nuriddinov. Komil Xorazmiyning Toshkentga bag‘ishlangan qasidasi.....138

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham, albatta, bo‘ladi.

SHAVKAT MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

FARIDA KARIMOVA,
NamDU dotsenti, filologiya fanlari doktori

DEBOCHA ISTILOHI, GENEZISI VA SHAKLLANISH TARIXI

Annotatsiya: *Maqolada debocha istilohi, genezisi va shakllanish tarixi o‘rganilgan. Xususan, mo‘tabar manbalar, lug‘atlar va ilmiy tadqiqotlardagi ma’lumotlar tahlil qilingan, ularga munosabat bildirilgan va xulosalar chiqarilgan.*

Kalit so‘z va iboralar: *devon, debocha, muqaddima, hamd, na’t, devonning yaratilish tarixi, adabiy-estetik qarashlar, nasriy debocha, she’riy debocha.*

Abstract: *The article examines the revolution, genesis and history of the formation of the preface. In particular, informations from reliable sources, dictionaries and scientific research are analyzed and conclusions are given.*

Key words and word expressions*: divan, preface, introduction, hamd, nat, history of the creation of the divan, literary and aesthetic views, prose preface, poetic preface.*

Sharq adabiyoti tarixidagi debochalar uzoq tarixga ega bo‘lib, shoir hayoti va ijodini o‘rganishda muhim adabiy manbalardan biri hisoblanadi. Debochalar, asosan, devonlarga bitiladi va boshqa asarlardan masalalarning qo‘yilishi va mazmuni, kompozitsiyasi, bayon uslubi kabi ko‘pgina jihatlari bilan tubdan farq qiladi. Ayniqsa, debochalar shoirning tarjimayi holiga oid ma’lumotlar, adabiy faoliyati, asarlarining yaratilish tarixi, adabiy-estetik qarashlarini ifoda etishi jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastlab debocha istilohiga turli manbalarda berilgan ta’riflarga nazar tashlasak, ular o‘rtasida umumiylik bilan birga ayrim farqli jihatlar borligini kuzatamiz. “Farhangi zaboni toҷiki”da uning ma’nolari shunday izohlanadi: “Debocha – 1. Libosi ro‘yi shohonai az debo do‘xtashuda, ki bo zaru ҷavohir zinat medodaand. 2. Avvali muqaddimai kitobhoi qadim, ki bo zarhal va ranghoi po‘rqiymat oroish doda meshud. 3. Maҷ. sarsuxan, muqaddima, peshguftor. 4. Maҷ. avval, ibtidoi harchiz. 5. Maҷ. ruxsora, ro‘y”. [34.360-361] (Tarjimasi: “Debocha – 1. Qimmatbaho ipak matodan tikilgan va zaru javohir bilan ziynat berilgan shohona libos. 2. Zarhal va qimmatbaho ranglar bilan sayqal berilgan qadimgi kitoblar muqaddimasi. 3. Maj. so‘zboshi, muqaddima, kirish so‘z. 4. Maj. avval, har narsaning ibtidosi. 5. Maj. yuz, chehra”).

Yuqoridagi ta’rifdan ko‘rinadiki, qimmatbaho ipak matodan tikilgan va zar-u javohir bilan ziynat berilgan shohona libos, zarhal va qimmatbaho ranglar bilan sayqal berilgan qadimgi kitoblar muqaddimasi, ya’ni boshi debocha deb ataladi. Shuningdek, majoziy ma’noda so‘zboshi, muqaddima, har narsaning ibtidosi hamda yuz, chehra ma’nolarini ham ifodalaydi.

“G‘iyos ul-lug‘at”da keltirilgan ta’rifda debocha podshohlarning bezakli ustki kiyimi, kitobning ziynat berilgan bosh qismi ma’nolarini ifodalashi aytib o‘tiladi. Shu bilan birga, “G‘iyos ul-lug‘at” muallifi Muhammad G‘iyosiddin turli manbalarga tayangan holda debochaning quyidagi ma’nosiga ham to‘xtaladi: “... va ba munosabati oroish xutbai kitobro niz go‘yand. Va ba’ze muhaqqiqon navishtaand, ki debocha ba yoyi ma’ruf va chimi arabӣ, ya’ne “diboҷa” lafzi arabist,

ba ma’nii chehra va ro‘y va ruxsora (az “Kanz”), chun xutbai kitob ba manzalai ro‘i kitob ast, lihozo xutbai kitobro niz maҷozan debocha guftand” [22. 460]. (Tarjimasi: “... kitob xutbasini, ya’ni boshlanish qismini bezash munosabati bilan aytilgan kirish qismiga ham debocha deyiladi. Yana bu so‘zning haqiqatini aniqlovchilarning ba’zilari yozadilarki, debocha so‘zi bizga ma’lum yuqoridagi “yo” harfi bilan va arabcha “jim” harfi bilan ifoda etilganda arabcha lafz bo‘lib, chehra, yuz, yonoq degan ma’nolarni bildiradi. “Kanz ul-lug‘at”da shunday deyilgan. Chunki kitobning murojaat – kirish qismi kitobning yuzi maqomidadir. Shuning uchun kitobning xutbasini, kirish qismini ham debocha deb atashgan”). Bundan ko‘rinadiki, debocha kirish so‘z, so‘zboshi demakdir. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, kitob muallifi xatib, ya’ni xitob qiluvchi, murojaat etuvchi hisoblanadi. Uning o‘quvchilari esa muxotab, ya’ni eshituvchi, muxlis sanaladi. Xatib (muallif) o‘z o‘quvchilariga mazkur kitobi nima haqida ekanligi, nima sababdan ta’lif etilgani, nomi qandayligini aynan mazkur xutba (murojaat) qismida bayon etadi.

Shuningdek, Sayyid Amir Rizaviy tomonidan tuzilgan “Farhangi forsiyi amid” lug‘atida debocha va debo so‘zlariga quyidagicha izohlar berilgan: “Debo (kasrali dol) nav’e az porchai abrishamiy, porchai abrishamii rangin, deboh va dibah niz gufta shuda, ba arabiy deboj meguyand”. (Tarjimasi: Dibo – ism (ot so‘z turkumi) (kasrali dol) ipak matosining bir turi. Rangli ipak mato. Diboh va diba ham deyishadi. Arablar diboj deb atashadi). Keyingi ma’lumot quyidagicha: “Deboj – (arabiy: kasrali dol) muarrabi debo, porchai abrishamiy, dayobij va debobij jam’”. (Tarjimasi: Diboj – (arabcha: kasrali dol) debo so‘zining arabcha varianti. Ipak mato. Ko‘pligini dayobij va debobij ham deyishadi). So‘zning lug‘aviy ma’nolari izohidan so‘ng uning istilohiy ma’nosi haqida ma’lumot beriladi: “Debocha – (kasrali dol) – muqaddima, sharhe, ki dar avvali kitob navishta shavad, ba ma’niyi ro‘y va ruxsora ham gufta shuda, ba arabiy deboja meguyand” [30.430]. (Tarjimasi: Debocha – ism (ot so‘z turkumi). Muqaddima, kitobning boshiga yoziladigan sharh. Yuz, ruxsor mazmunlarini ham anglatadi. Arabchada diboja deb aytishadi). Demak, mazkur lug‘atlardagi ma’lumotlardan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, debochaning asl o‘zagi debo, ya’ni rangli ipak material bilan bog‘liqdir. Odatda, kitobni muqovasozlar chiroyli jildlar bilan bezagani kabi, so‘z san’atkorlari ham asarlariga chiroyli boshlanma bilan oroyish berishgan va uni debocha deyishgan. Shuning uchun ham debochaning boshqa bir ma’nosi yuz, chehra, ruxsor bo‘lib, bu o‘sha ijodkor asarining yuzi, go‘zalligini ifodalovchi qismi, sharhi degan ma’noni anglatadi. Bizningcha, fors tilidagi “zebo yoki zeboro‘y” (go‘zal va go‘zal chehrali) so‘zlari ham aynan mazkur debo so‘zi bilan bog‘liqdir. Boborahim Mashrabning quyidagi baytlari bunga dalil bo‘la oladi:

Zebo sanamim gul yuzidin parda ko‘tardi,
Olam hama ko‘z bo‘ldi tomosho qilayin deb[9.28].

Zebo sanamim yo‘l uza ko‘rgach tura qoldim,
Nazzorasidin mahv o‘lubon o‘ltura qoldim[9. 81].

Keyingi kuzatishlar jarayonida ayrim manbalardagi ma’lumotlar debocha istilohi va uning yuzaga kelish jarayonlari xususidagi fikrlarimizni oydinlashtirishga xizmat qilishi aniqlandi. Xususan, Hasan Anusha boshchiligida tuzilgan “Donishnomai adabii forsiy” (Fors adabiyoti ensiklopediyasi” turkumidagi ensiklopedik lug‘at “Farhangnomai adabii forsiy”da boshqa manbalarga nisbatan mukammalroq ma’lumotlar keltirilgan. Unda ta’kidlanishicha, debocha pahlaviy tilidagi “deb” so‘zi o‘zagidan olingan bo‘lib, “xutba”, ya’ni boshlanma degan ma’noni anglatadi va kitoblarning kirish so‘zlariga nisbatan qo‘llaniladi[35.599]. Yuqorida tilga olingan manbalardagi fikrlarga qo‘shimcha tarzda, diboja so‘zi til urmoq (gapirmoq, bayon qilmoq), nur sochmoq va

yorishmoq lug‘aviy ma’nolarini ifoda etishi, shuningdek, sumariy tilidagi “dub” so‘zidan olingan bo‘lib, istiloh sifatida lavha va xatt (chiziq) ma’nolarini anglatishi xususida ma’lumot beriladi. Lug‘at muallifi muqaddimalar, avvalo, mantiq fani sohasidagi asarlarga, keyinchalik adabiyot faniga oid kitoblarga, xususan, ilmi bade’ga doir asarlarga yozilganligini ta’kidlaydi. “Durratul-toj” va “Kashshofi istilohoti al-funun” kitoblarida debocha (muqaddima) uchun zarur bo‘lgan sakkiz jihat sanab o‘tilganligi va ular “Sakkiz ildiz” nomi bilan mashhur ekanligiga e’tibor qaratadi:

1. Ilmdan maqsad uning g‘oyasi ifodalanishi uchun.
2. Mazkur ilmning foydasi haqida.
3. Ilmning yo‘nalishini belgilash uchun.
4. Kitobning muallifi, musannifi, mudavvani (devon tartib beruvchi) haqida bahs yuritish uchun.
5. Mazkur ilmning o‘rni, ilmlar orasidagi yaqinlik, aloqadorlik, munosabatlar va boshqalar haqida fikr yuritish uchun.
6. Mazkur ilmning ilmlar orasidagi darajasini belgilash uchun.
7. Ilmning bo‘limlarini ko‘rsatib berish uchun.
8. Mazkur ilmni o‘qitish tarzini ko‘rsatish uchun.

Debochalarning tarkibi bilan bog‘liq mazkur jihatlar ko‘proq turli fan sohalariga taalluqli bo‘lgan ilmiy va adabiy bo‘lmagan asarlarga aloqadordir. “Adabiy kitoblarning debochalari boshqacha shaklda yozilgan. Asosan, adabiy matnlarning yozuvchilari o‘z mahoratlari va ilmlarini debocha yozishda qo‘llashgan. Zero, debocha kitob yozuvchisining uslubi va tilini namoyon qiluvchi manba bo‘lgan”[35.599]. Manbadagi debochalar kompozitsiyasining tavhid (hamd), na’t, ittihof kabi tarkibiy qismlari ilmi badoye’dan foydalangan holda bayon qilinishi, shu bois debochalarning uslubi kitob(asar)ning uslubiga nisbatan ilmiylik va badiiylik kasb etishi, hatto nazmiy debochalarning uslubi hajm va badiiyligi jihatidan asl matndagi she’rlardan ajralib turishi xususidagi fikrlar ahamiyatlidir. Muallifning fikricha, debochalarda eng ko‘p qo‘llangan she’riy san’at baroati istehloldir. Mazkur san’at asarning qaysi mavzuga bag‘ishlanganiga ishora qilishga asoslanadi. Ya’ni debocha orqali shoir va uning devoni, undagi she’rlar haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Shuningdek, kitob muallifi va boshqalar tomonidan yoziladigan debochalar, debochalarning nazmiy va nasriy turlari haqida ma’lumot beriladi. Fikrlar so‘ngida debocha bilan kitob (asar) matni o‘rtasidagi aloqadorlik bo‘lishi lozimligi alohida ta’kidlanadi: “Odatda debochalar o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, hajmi, yozilish uslubiga ko‘ra kitob matniga mos keladi va uning mavzusi bilan hamohanglik kasb etadi”[35.600].

Ko‘rinadiki, keltirilgan ma’lumotlarning aksariyati barcha asarlarga, xususan, ko‘proq diniy va ilmiy asarlarga yozilgan muqaddimalarga aloqadordir. Chunki debocha istilohining lug‘aviy ma’nosi so‘zboshi, muqaddima, kirish so‘z ma’nolarini ifodalaganligi uchun debocha va muqaddima so‘zlari sinonim tarzda qo‘llangan. Fikrimizni Hakim Sanoiy G‘aznaviyning “Hadiqatul-haqiqa” (“Haqiqat bog‘lari”), Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy”, Firdavsiyning “Shohnoma”, Sa’diyning “Guliston” asarlarining misol tarzida keltirilishi ham tasdiqlaydi. Manbada ta’kidlanganidek, barcha kitoblarga yozilgan so‘zboshilar forsiyda debocha, arablarda muqaddima istilohi bilan atalgan[35.600]. Bizningcha, devon so‘zboshilariga nisbatan debocha, dostonlarning kirish qismlariga nisbatan muqaddima istilohini qo‘llash ma’qul.

Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari turkiy tildagi dastlabki adabiyot nazariyasiga oid qimmatli manbadir. Asardagi debocha va uning tarkibiy qismlari xususidagi muallif fikrlari xarakterli. Nazariyotchi olim, avvalo, nazm va nasr hamda ularning farqli jihatlari haqida fikr yuritadi: “...Va ulamo qoshinda nutq ikki nav’dur: nazm va nasr. Onikim, istisvob bobinda murattab ko‘rdilar, “nazm” atadilar. Va onikim, avroq visoqinda parishon topdilar, “nasr” dedi-

lar”[36.32]. Taroziy fikrlarini davom etib, hamd va na’tga to‘xtaladi: “Tengri azza va jallag‘a hamd aytsalar, oni tavhid derlar. Va agar Muhammad Mustafo alayhis-salom vas-salomin vasf qilsalar, na’t derlar”. Shundan so‘ng nasriy va she’riy asarlarning kompozitsion uzvlari haqida to‘xtalib, debocha va uning tarkibiy qismlarini sanab o‘tadi: “Nusxaning ibtidosin, agar nasr bo‘lsun yo nazm, fotiha o‘qurlar. Va avvalindin og‘ozi dostongacha debocha derlarki, ul tavhid va munojot va na’t va manoqib va madh va sababi ta’lif bo‘lg‘ay”[36.32]. Demak, Taroziy fikricha, debocha dostonning boshlanish qismigacha yoziladigan bo‘lagi bo‘lib, unga Alloh madhi, munojot, Rasulullo na’ti, avliyolar manoqibi, podshoh madhi hamda asar yozilish sabablari kirgan.

Umuman, mumtoz adabiyotda har qanday asarni “Bismillohir rahmonir rahim” oyati bilan boshlash odat bo‘lgan. Shundan so‘ng Alloh hamdi, munojot (Allohga iltijo), Rasulluloh na’ti, kitobning yozilishiga homiylik qilgan shaxsning fazl va martabasi maqtovi, zamona hukmdori madhi keltiriladi. Keyingi o‘rinda asarning yozilish sabablari bayon qilinadi. Garchi Taroziy ta’rifida debochaning ma’lum uzvlari to‘g‘ri e’tirof etilgan bo‘lsa-da, olimning fikrlari devonlar emas, balki dostonlarga (og‘ozi dostongacha) taalluqlidir.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlarida yaratilgan ayrim tadqiqot va lug‘atlarda ham debochaga berilgan ta’riflar mavjud. Xususan, nazariyotchi olim U.To‘ychiyev “Adabiy tur va janrlar” kitobining 2-jildida debochani quyidagicha ta’riflaydi: “Debocha (forscha) – devonga yozilgan muqaddima, bosh so‘z (kirish so‘z), ko‘pincha masnaviy tarzida yoziladi. Debochaning g‘azal, masnaviy tarzida yozilishi uning lirika janrlari sirasiga kiruvchi badiiy asar ekanligini ko‘rsatadi. Debocha nasr va nazmda yozilishi mumkin. Agar nasrda yozilsa, unda bayt qit’a, ruboiy, nazmlar keltirish mumkin bo‘lgan. Navoiy, Nodira devonlaridagi debochalar nasriydir”[5.177]. Izlanishlar jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Sharq adabiyotida devonlarga yozilgan masnaviy shaklidagi debochalar kam uchraydi. O‘zbek adabiyotida Muhammad Sharif Shavqiy[25], Nodir-Uzlat[27] devonlariga she’riy debocha yozilgan. Turk shoiri Ahmad Posha devoniga ham katta hajmda masnaviy shaklida debocha yozilgan[33]. Xullas, Sharq adabiyotida yaratilgan debochalarning aksariyati nasriy uslubda bitilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, U.To‘ychiyevning debochalar “...ko‘pincha masnaviy tarzida yoziladi. Debochaning g‘azal, masnaviy tarzida yozilishi uning lirika janrlari sirasiga kiruvchi badiiy asar ekanligini ko‘rsatadi”, degan fikri e’tirozlidir. Chunki she’riy debochalar yozilish uslubiga ko‘ra debochalarning bir ko‘rinishi, xolos.

Debocha istiloh sifatida keng va tor ma’noda qo‘llanilishini nazarda tutish lozim. Debocha istilohi keng ma’noda barcha asarlarning kirish qismlarini ifodalaydi va ko‘pincha muqaddima deb yuritiladi. Tor ma’noda esa devonlarga yoziladigan kirish so‘zlarni anglatadi va “debocha” deb yuritiladi.

Adabiyotshunoslikka oid qator lug‘atlarda ham yuqoridagi manbalarga asoslangan holda shunga o‘xshash ta’riflar beriladi[42,20,39,10,26]. Lekin turli tillarda yaratilgan barcha adabiyotshunoslik terminlari lug‘atlarida berilgan ta’riflar debochaning mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. Faqat debochalarni har tomonlama chuqur o‘rganish va shu asosda uni mukammal ta’riflash mumkin.

Qadimgi Sharq xalqlari adabiyotida barcha asarlarni an’anaviy muqaddima bilan boshlash odat tusiga kirgan edi. Buni professor N.M.Mallayev “An’anaviy muqaddimot haqida” nomli maqolasida ta’kidlab o‘tadi[18.10-12].

Adabiyot tarixida yaratilgan turli janrdagi asarlarning kirish qismi, an’anaga muvofiq, hamd-u na’t bilan boshlangan, asar bag‘ishlangan shaxs va uning madhiga keng o‘rin berilgan, asarning yozilish sabablari hamda asarga qo‘yilgan masalalar bayon etilgan. O‘zbek adabiyotining ilk namunalari bo‘lgan “Devonu lug‘otit-turk” (Mahmud Koshg‘ariy), “Qutadg‘u bilig” (Yusuf Xos Ho-

jib), “Qisasi Rabg‘uziy” (Nosiriddin Burhoniddin Rabg‘uziy), “Muhabbatnoma” (Xorazmiy) kabi asarlarda shu xarakterdagi an’anaviy muqaddimalar mavjud.

Alisher Navoiyning barcha asarlari ham an’anaviy muqaddima bilan ta’minlangan bo‘lib, ularning xarakteri turlichadir. Bunga “Xamsa” dostonlari, “Nazm ul-javohir”, “Arbain”, “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon”, “Munshaot”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarining muqaddimalarini misol keltirish mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, devon debochalarini odatdagi muqaddimalardan farqlash lozim. Debocha va muqaddima o‘rtasida o‘xshash jihatlar bo‘lsa-da, ular bir-biridan ajralib turadi. Debochalar, asosan, devonlar uchun maxsus yoziladi. Undan tashqari, debochalar o‘ziga xos kompozitsion tuzilish, shakl va mazmun hamda nisbiy mustaqillikka ega bo‘ladi.

Atoqli navoiyshunos olim, professor A.H.Hayitmetov ilk marta o‘zbek shoirlarining adabiy-tanqidiy qarashlarini ifodalovchi shakllardan biri sifatida Alisher Navoiy debochalariga murojaat qildi[41.56]. Akademik B.Valixo‘jayev ham debochalarni adabiy-tanqidiy qarashlarning ifodalanish “janr”laridan biri, deb e’tirof etadi[13.33-35]. Shuningdek, afg‘on olimi Muhammad Ya’qub Vohidiy Juzjoniy Alisher Navoiy asarlarini tavsiflar ekan, “Badoye’ ul-bidoya” debochasini “xutbai davovin” deb ataydi va shoirning alohida asarlari qatorida tilga oladi[23.96]. Rus adabiyotshunosligida qadimiy qolyozma kitoblarning she’riy so‘zboshilarini o‘rgangan V.K.Bilinin zamonaviy filologlarning ko‘pchiligi ularni asarning an’anaviy va tuzilishi jihatidan aniq belgilangan qismi, deb hisoblashlarini ta’kidlar ekan, o‘zi ham shu fikrga qo‘shiladi[12.5]. A.S.Demin esa qadimiy rus qo‘lyozmalaridagi so‘zboshilarni asarning mustaqil qismi, o‘ziga xos janr, deb e’tirof etadi[14.257].

Keyingi yillar matbuotida navoiyshunos Sultonmurod Olimning Alisher Navoiy asarlarining janrlar miqdori xususidagi maqolasi e’lon qilindi[31]. Maqolada debocha alohida janrlar qatorida sanab o‘tilgan. To‘g‘ri, debocha faqat devonning tarkibiy qismi sifatida mavjuddir. Ammo mohiyatan shoirning tarjimayi holi, faoliyati, ma’naviy qiyofasi, ijodiy merosi, devon badiiyati va shoir adabiy-tanqidiy qarashlarining o‘ziga xosligini ifoda etuvchi debochalar alohida olinganda ham mustaqil ma’no va kompozitsion yaxlitlikka ega bo‘ladi. Axborot berish tamoyili ustunlik qilsa-da, debochalar nasriy va she’riy qismlardan tashkil topgan badiiyat namunasi sifatida ham ahamiyatlidir. Debochaning janr sifatidagi maqomini debochalardan alohida to‘plamlar tuzilishi yoki mustaqil asar tarzida ko‘chirilishi ham tasdiqlaydi. Xususan, “Ketobxonai majlisi sho‘roi islomiyi Eron” qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan “Majma’ al-afkori nodir va kamyob” deb nomlangan 14609-raqamli qo‘lyozmada 60 dan ortiq turli asarlarga, jumladan, devonlarga yozilgan debochalar jamlangan[21]. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondidagi 401/III-raqamli qo‘lyozmada Amiriy debochasi alohida asar sifatida ko‘chirilgan [7].

Ularda qo‘yiladigan masalalar keng ko‘lamli va aniq belgilangan bo‘lib, mazmun va shakl uyg‘unligi doirasida badiiy tasvir vositalari orqali bayon etiladi. Shuningdek, debochalar o‘ziga xos kompozitsion tuzilishga ega. Ishimizda, asosan, devon debochalari tadqiq etildi.

Devon debochalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega va boshqa asarlarning muqaddimalaridan, garchi ayrim o‘rinlarda sinonim tarzida ishlatilsa-da, ko‘p jihatlari bilan farq qiladi. Debochalar, eng avvalo, o‘ziga xos kompozitsion tuzilishga ega bo‘ladi: hamd-u na’t bilan boshlanib, sahvu xatolar uchun uzrxohlik bilan yakunlanadi. Shoir hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar, davr hukmdori madhi, shoirning o‘z ustozlariga bo‘lgan muhabbati, devon mundarijasi bilan tanishtirish kabi qator masalalar debocha kompozitsiyasida muhim o‘rin egallaydi. Debochalar, asosan, devonning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yoziladi. Shuning uchun devonning o‘ziga xosligi, uning tuzilish tarixi bilan tanishtirish muhim o‘rin tutadi. Masalan, Alisher Navoiy “Badoye’ ul-bidoya” debochasida devon tuzish tarixida yangilik bo‘lgan devonining qay tarzda bunyodga

kelganligi va boshqa devonlardan farqli jihatlarini bayon etishga alohida e'tibor beradi. Debochalarning muhim xususiyatlaridan biri uning ijodiy-biografik xarakterda bo'lishidir.

Shuningdek, ilmiy-filologik, tarixiy, memuar va boshqa nasriy asarlarda ham kuzatilishi mumkin bo'lgan bir qancha xususiyatlar debochada o'zining yorqin ifodasini topgan. Xususan, fikrlar bayonidagi ko'tarinkilik, obrazlilik, ya'ni dabdabali sharqona uslubning hukmronligi debochalarga xos xususiyatlardandir. Bunda debocha muallifi fikrlarini uzundan uzoq jumlalar, murakkab tashbehlar, istiora va obrazli parallelizmlar orqali ifodalashga intiladi.

Debochalarda Qur'on oyatlari va hadislar keltirish yoki ularga ishora qilish, ya'ni iqtibos san'ati ham ko'p qo'llanadi. "Iqtibos – mushtarak san'atlar jumlasidan bo'lib, nasr va nazmda bayonning yorqin va go'zal ifodasi uchun oyat va hadislar keltirish usuli"[16.27]dir. Hakim Sanoiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhsiniy va boshqa shoirlar debochalarida bu san'atning namunalari ko'p uchraydi.

Debochalardagi nasriy bayon davomida masnaviy, ruboiy, qit'a, bayt kabi turli janrdagi she'riy parchalar berib boriladi. Bu parchalar, Xusrav Dehlaviy ta'kidlaganidek, nasr go'zalligini oshiradi, shuningdek, nasrdagi fikrlarni dalillash, davom ettirish, xulosalash kabi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda debochani shunday tavsiflash mumkin: *shoirning tarjimayi holiga doir ma'lumotlar, shoir va zamon, shoir va adabiy muhit mavzusi, asarlarining yaratilish tarixi, devonning o'ziga xos xususiyatlari, adabiy-estetik qarashlari ifodalangan, muayyan kompozitsion tuzilish, uslub va poetik xususiyatlarga ega bo'lgan hamda devonlarga muqaddima o'rnida yoziladigan ilmiy-badiiy xarakterdagi nasriy, she'riy yoki nasriy-she'riy asar debochadir.*

Navoiydan keyingi davrda yashagan qator shoirlar ham o'z devonlariga debocha yozganlar va bu sohadagi an'analarni davom ettirishga intilganlar. Ularning debochalarida yuqoridagi xususiyatlar bilan birga o'ziga xos jihatlar ham paydo bo'ldi. Bular biografik ma'lumotlarga debochada kengroq o'rin berish, davrning ijtimoiy-siyosiy voqealarini tasvirlashda aniqlikka intilish (Munis debochasi), barcha asarlar ro'yxatini keltirish (Ogahiy debochasi), fikrlarni dalillash maqsadida ko'plab Qur'on oyatlaridan foydalanish (Tabibiy, Muhsiniy debochalari), debochaning yozilgan vaqtini ko'rsatish (Muhsiniy debochasi) kabi xususiyatlardir.

Debochaning o'ziga xosligini bilish uchun alifbo tartibidagi devonning vujudga kelish jarayoniga oydinlik kiritish muhimdir. Devon tuzish, asosan X-XI asrlardan boshlangan. XI asr shoirlari Unsuriy, Farruxiy, Manuchehriy, Mas'ud Sa'di Salmon, Hakim Sanoiylarning devonlari bizgacha yetib kelganligi xususida E.E.Bertels tadqiqotlarida ma'lumot beriladi. Bu davrdagi devonlarda asosiy o'rinni qasida janri egallagan bo'lib, g'azalga esa kam e'tibor berilgan. Muallif faqat XI asrning ikkinchi yarmi va XII asr boshlarida yashab ijod etgan Hakim Sanoiy ijodida g'azal alohida poetik janr sifatida rivojlana boshlaganligini ta'kidlaydi[8.455]. I.S.Braginskiy ham XI asr shoiri Hasan G'aznaviy devoni yaratilishi bilan g'azal janri devonlarda alohida bo'lim sifatida o'rin egallay boshlaganligini uqtirib o'tadi[11.169]. Sharqshunos Sh.Shomuhamedov fors-tojik adabiyotida g'azalning paydo bo'lishi xususida fikr yuritar ekan, shunday yozadi: "Fors adabiyoti tarixida g'azal formasi X-XI asrlardayoq ma'lum edi. Hatto Hasan G'aznaviy (XI asr) kabi shoirlar g'azalni o'z devonlarida ayrim bo'lim qilib ajratganlar. Ammo, shunga qaramay, g'azal u davrda hali tamoman mustaqil janr darajasiga ko'tarila olmagan edi"[37.40].

X-XII asrlarda shakllana boshlagan g'azal XIII-XIV asrlarga kelib Sa'diy va Hofizlar ijodida o'zining yuksak takomiliga erishdi. Buni A.Mirzoyev[19.50-55], A.Hayitmetov[40.82-114], Yo.Ishoqov[15], N.Mallayev[17.3-13], O.Nosirov[28] kabi adabiyotshunos olimlar ham o'z tadqiqot va maqolalarida ta'kidlab o'tishgan. Sharq xalqlari adabiyotida g'azalchilikning rivojlanishi bilan devon qat'iy bir shaklga ega bo'la boshladi.

Sadriddin Ayniy “Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy” nomli ilmiy tadqiqotida dastlab alifbo asosida devon tartib berish odat emasligini ta’kidlab, Sa’diy devonini alifbo asosida tartibga solish Besutun taxallusli Ali binni Ahmad ibni Abubakr degan shaxs tomonidan amalga oshirilganligini so‘zlaydi. Shu o‘rinda S.Ayniy Sa’diy “Kulliyot”iga Besutun tomonidan yozilgan debochaning qisqacha mazmunini keltiradi: “...Bir g‘azalni Sa’diy kulliyotidan qidirib topolmadik. Shu munosabat bilan do‘stlar mendan Sa’diy devoniga fehrast tuzishimni iltimos qildilar. Men 726 (1326)-yilda bu ishni bitirdim. Shu vaqtda do‘stlardan biri Sa’diyning bir baytini menga yozib berib, bu bayt bor g‘azalni topib berishimni so‘radi. Men o‘z fehrastim bo‘yicha qancha qidirsam ham, u g‘azalni topolmadim. Chunki men fehrastni g‘azalning bosh harfi bo‘yicha tuzgan edim. Haligi bayt g‘azal o‘rtasidagi bayt bo‘lgani uchun topib bo‘lmadi. Shu voqeadan so‘ng bu tartibning xato ekanligini anglab, qaytadan ishlab, fehrastni har g‘azalning oxirgi harfi bo‘yicha tuzdim va bu ishni 734 (1334)-yilda tugatdim”[6.178].

Shuningdek, professor Sh.Shomuhamedov ham Sa’diy “Kulliyot”idagi she’rlarning qofiya va radifga qarab alifbo asosida Ali binni Ahmad ibni Abubakr Besutun tomonidan joylashtirilganligini ta’kidlaydi[38.25].

Demak, Sharq xalqlari adabiyotida alifbo asosida devon tartib berish shundan so‘ng qat’iy bir qoidaga aylangan. Ayni paytda, Sa’diygacha bo‘lgan shoirlarning devonlari ham shu asosda qayta tuzila boshlagan.

O‘zbek adabiyotida Lutfiy, Sakkokiy, Atoyi kabi shoirlar fors-tojik shoirlari ijodidagi an’analarni davom ettirganlari holda o‘zbek g‘azalchiligini muhim yutuqlar bilan boyitdilar. Ular o‘z asarlarining keng xalq ommasiga tezroq yetib borishini istar edilar. Shu istak faqat til tanlashdagina emas, adabiy janr tanlashda ham ahamiyatli bo‘ldi”[29.49]. Ular o‘z she’rlaridan devon tuzdilar va bu devonlarda, asosan, xalq ommasiga yaqin bo‘lgan g‘azal janri yetakchi o‘rin egallagan edi. Mutafakkir shoir Navoiy o‘zigacha bo‘lgan o‘zbek shoirlarining g‘azalchilikda to‘plagan yutuq va tajribalarini o‘rganish, shuningdek, fors-tojik she’riyatining yirik namoyandalari an’analarini ijodiy o‘zlashtirish asosida o‘zbek g‘azalchiligini jahon miqyosiga olib chiqdi. Devonlarda g‘azalga keng o‘rin berish o‘zbek adabiyotida Lutfiy, Gadoyi, Atoyilardan boshlangan edi. Devon tuzishning bu xususiyati Navoiy ijodida yanada qat’iylashdi va keyingi davr shoirlari tomonidan bu an’ana davom ettirildi. Tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, Navoiyga qadar ijod qilgan o‘zbek shoirlari orasida eng ko‘p g‘azal muallifi Hofiz Xorazmiydir. Uning devonida jami 1052 ta g‘azal mavjud. M.Sulaymonovning ta’kidlashicha, Hofiz Xorazmiy g‘azallari Navoiygacha bo‘lgan turkigo‘y shoirlar merosidan ko‘proqdir. Lekin qandaydir sabablarga ko‘ra, shoir ijodi Navoiyga ma’lum bo‘lmagan[32.54].

Ta’kidlash kerakki, devon tuzishdek mashaqqatli va zahmatli ish nihoyasiga yetgandan so‘ng, devonning yaratilish tarixi va o‘ziga xos jihatlari xususidagi tafsilotlar bilan kitobxonni xabardor qilish istagi ehtiyojga aylanadi. Ana shu zarurat tufayli devonning boshlanish qismida ko‘tarinki uslubda (devon yakunlanganligi uchun shoirning kayfiyati bayramona bo‘lishi tabiiy) bitilgan lirik boshlanma paydo bo‘ldi va debocha deb ataldi. Sharqdagi shoirlarning she’riy to‘plamlari – devonlar odobi tasnif, ya’ni kitob tasnif qilish qonun-qoidalari asosida shakllana boshladi. Unga ko‘ra, har qanday asar basmala – “Bismillohir rahmonir rahim” oyati bilan boshlanishi, hamd-u na’tdan so‘ng kitob ta’lif etilishi sabablari bayon etilishi, shundan so‘ng asarning asosiy mazmuniga o‘tish odat tusiga kira boshladi. XI asr oxiri va XII asr 1-yarmida yashab ijod etgan Hakim Sanoiydan so‘ng o‘nlab fors-tojik shoirlari debochanavislik an’analarini ijodiy davom ettirdilar. XV asrga kelib odobi tasnif takomillashdi, Navoiy ijodi misolida rasmiy devon uslubi shakllandi. Uning birinchi sharti devonning debocha bilan boshlanishidir. Shuni ta’kidlash lozimki, rasmiy devonlarning boshqa xususiyatlari ham debochada aks etadi va ular devon kompozitsiyasi bi-

lan uzviy aloqadorlik kasb etadi. Mutafakkir shoir devon va har bir harf g‘azaliyotining avvali Allohning hamdi va Rasulullоh na’tiga bag‘ishlanishi, keyin orifona va oshiqona g‘azallar o‘rin olishi, g‘azallarning misra oxiridagi tovushlarga ko‘ra alifbo tartibida joylashtirilishi va arab-fors alifbosidagi 32 ta harfning barchasida yaratilishi, devondagi g‘azallarning mavzu jihatidan kengligi va kompozitsion yaxlitligi kabi masalalarga alohida e’tibor qaratdi. Navoiy Sharq devonchiligi an’analarini mukammallashtirib haddi a’losiga yetkazdi. Uning “Badoye’ ul-bidoya” va “Xazoyin ul-maoniy” devonlari Sharq devonchiligining yuksak namunalari sifatida maydonga keldi. Shu jarayonning mahsuli sifatida rasmiy devon uslubi shakllandi.

Alisher Navoiy o‘z ijodiga fors-tojik shoirlari Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiylarning ta’siri katta bo‘lganligini “Badoye’ ul-bidoya”, “Xazoyin ul-maoniy” debochalarida, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub” va boshqa asarlarida ta’kidlab o‘tadi. Xususan, Xusrav Dehlaviy she’riyatining soddaligi va badiiy go‘zalligi shoirning qalbini o‘ziga rom etgan. Bu haqda A.Hayitmetov shunday yozadi: “Uning, ya’ni Navoiy g‘azallarining tili va stili o‘sha davrga nisbatan soddaligi, anglashilarligi bilan hatto dostonlari, prozaik va ilmiy asarlaridan ham yaqqol ajralib turadi. Bunda, ayniqsa, Xusrav Dehlaviyning roli katta bo‘ldi. Dehlaviy g‘azallaridagi badiiy soddalik, turkistoniy stil ko‘p o‘zbek shoirlarining diqqatini o‘ziga tortgan va bu davrda Dehlaviy g‘azallarining muxlislari boshida esa Navoiy va Husayn Boyqaro turar edi”[40.88].

Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” debochasida yozishicha, Husayn Boyqaro unga Xusrav Dehlaviy to‘rt devon tuzganligi, lekin ularning nomi ma’lum bo‘lsa ham, o‘zi yetib kelmaganligi haqida gapiradi. Shu o‘rinda shoirga dastlabki ikki devonini tugatganidan so‘nggi davrda yozilgan she’rlari ham “ikki devon chog‘li”, balki undan ham ortiqroq miqdorga yetganligini aytadi va bu tarqoq she’rlarni tartibga solishni buyuradi: “Bir o‘z asrida ganji ma’naviy Mir Xusrav Dehlaviyni derlarkim, sulton Malikshoh Alp Arslon otiga to‘rt devon murattab qilmish bo‘lg‘ay va xotimasini aning oti bilan muzayyal etmish bo‘lg‘ay, bu ish ul zamonning yaxshi-yomoni qulog‘ig‘a yetmish bo‘lg‘ay, agarchi bu so‘z mazkurdur, ammo ul devonlar ma’dumdur va ul ma’dumlarning agarchi asomiysi mavjuddur, ammo vujudi noma’lumdur... Chun senga tavfiq madad qilibturu bu maqsudning hech kimga yig‘ilmog‘on moddasi yig‘ilibtur, tilarbizkim, fursatni g‘animat bilgaysen-u bu muddao husulig‘a rag‘bat qilg‘aysen”[2.14].

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Navoiy Xusrav Dehlaviyning besh devoni bilan tanish bo‘lmagan. Hatto beshinchi devonining borligi ham ma’lum bo‘lmagan. Buning sababi qo‘lyozma asarlarning o‘sha davrda juda qiyinchilik bilan tarqalishidir. Xusrav Dehlaviy g‘azallari o‘z zamonasida ham katta shuhrat qozongan edi. Kotiblar Xusrav Dehlaviyning beshta devonidagi o‘zlariga yoqqan eng yaxshi she’rlarini ko‘chirib olganlar va terma devonlar tuzganlar. Shuningdek, devondagi she’rlarni alfavit tartibida tuzish odat tusiga kira boshlagach, shoir she’rlari, xususan, g‘azallaridan alohida devonlar tartiblangan[24]. Bunday devonlar xalq orasida keng shuhrat qozongan. Shuningdek, ular Navoiy davrida ham mashhur bo‘lgan. Shoir “Badoye’ ul-bidoya” debochasida yozadi: “Ammo ash’or tadvin qilg‘onlardin ba’zikim, baqo mulkida foniydurlar va ba’zikim, holo fano dayrida boqiydurlar – avvalgi zumradin bovujudi dard beshasining g‘azanfari va ishq otashgohining samandari, javohiri ma’naviysi Amir Xusrav Dehlaviy va ... Xo‘ja Hofiz Sheroziy ... Mavlono Abdurahmon Jomiy devonlari oroda bo‘lg‘ay”[1.14]. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da esa quyidagilarni o‘qiymiz: “O‘qurig‘a davovindin bu faqir mutolaasig‘a ko‘p mashg‘ul bo‘lmog‘on devon oz ermish. Bataxsis ishq va dard ahlining rahbar va peshravi Xusrav Dehlaviy devonikim, oshiqlikda dard va niyoz, so‘z va gudoz tariqin ul muntashir qildi va oning ishqi mash’alidin bu partav olam tiyra xokdonig‘a yoyildi”[3.19]. Demak, Navoiy Xusrav Dehlaviyning Xurosonda keng tarqalgan terma devoni, shuningdek, devon debochalari bilan tanish bo‘lganligi shubhasizdir. Navoiy devonlariga debocha bitar ekan, o‘z salaflarining bu sohadagi taj-

ribalariga suyangan, ulardan ko‘p narsa o‘rgangan. Shuningdek, shoir ijodiy tamoyillaridan kelib chiqqan holda ularga o‘ziga xos tarzda yondashgan.

Xusrav Dehlaviy debochalarida badiiy ijod masalalarining juda ko‘p jihatlari qamrab olinadi. Navoiy, albatta, Dehlaviy debochasida qo‘yilgan masalalarning nihoyatda keng ko‘lamli ekanligini va devon debochasi doirasi bu masalalarning bayoni uchun torlik qilishini yaxshi anglagan. Shuning uchun shoir o‘zining so‘z va she’r, nazm va nasr, til va vazn, poetik san’atlar, ustozlari ijodiga munosabati kabi qator masalalar haqidagi adabiy-nazariy qarashlarini, o‘rni-o‘rni bilan ularning ko‘pchiligiga debochada ham to‘xtalsa-da, asosan, “Xamsa”, “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mezon ul-avzon” kabi asarlarida batafsil yoritadi. Navoiy debochada birinchi galda bevosita devonning yaratilishi va undagi she’rlar bilan bog‘liq masalalarni bayon etishga intiladi. Bu bilan shoir debochalarining hajman ixcham, mazmunan yetuk bo‘lishiga erishadi. Zotan, Navoiy debochalari o‘zining g‘oyaviy mazmuni, o‘ziga xos shakli, badiiy go‘zalligi bilan diqqatga sazovor bo‘lib, nihoyat darajada mukammaldir. Badiiy va ilmiy asardagi mukammallik esa o‘z-o‘zidan bunyodga kelmaydi. Zero, an’analarni chuqur o‘rganmay, ularni ijodiy rivojlantirmay turib, yangilik yaratish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ, 20 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1987.

2. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. МАТ, 20 жилдлик, 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1988.

3. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ, 20жилдлик, 16-жилд. – Тошкент: Фан, 2000.

4. Алишер Навоий: қомусий луғат. 2 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2016.

5. Адабий тур ва жанрлар. 3 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1992.

6. Айний С. Асарлар. 8 жилдлик, 8-жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967.

7. Амирий. Девон. ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат Адабиёт музейи фонди, 401// III-рақамли қўзёзма.

8. Бертельс Е.Э.. Избраннные труды. История персидско-таджикской литературы. – М.: ИВЛ, 1960.

9. Бобораҳим Машраб. Меҳрибоним қайдасан. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.

10. Болтабоев Ҳ. Адабиётшунослик энциклопедияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2015.

11. Брагинский И.С. Из истории персидско-таджикской литературы. Избранные работы. – М.: Наука, 1972.

12. Былинин В.К. Стихотворение “Предисловия многоразлична” в рукописях первой половины 17 века // Записки отдела рукописей. – М.: Книга, 1983.

13. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент:Ўзбекистон, 1993.

14. Демин А.С. Писатель и обшество в России 16-17 веков. – М.: Наука, 1985.

15. Исҳоқов Ё. Навоийнинг илк лирикаси. –Тошкент: Фан, 1965.

16. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006.

17. Маллаев Н. Ўзбек адабиётида ғазал ва унинг ривожида Навоийнинг роли ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1961, 3-сон.

18. Маллаев Н. Анъанавий муқаддимот ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1971, 1-сон.

19. Мирзоев А. Рудаки и развитие газели в X-XV вв. – Душанбе: Госиздат, 1958.

20. Миллер Б.В.. Персидско-русский словаръ. – М.: 1953.

21. Мажмаъ ал-афкори нодир ва камёб. Кетобхонаи мажлиси шўрои исломии Эрон, қўлёзма № 14609.

22. Муҳаммад Ғиёсиддин бинни Жалолиддин бинни Шарофиддин. Ғиёс ул-луғат, иборат аз се чилд, чилд I. – Душанбе, Адиб, 1987.

23. Муҳаммад Яъқуб Воҳидий Жузжоний. Мусаннифоти Амир Алишер Навоий // Амир Алишер Навоий "Фоний". – Қобул: 1346 ҳ.

24. Мусаев Б. Амир Хусрав Деҳлавийнинг "Туҳфат ус-сиғар" девони ғазалларининг текстологик тадқиқоти. Монография. – Тошкент: 2020.

25. Муҳаммад Шариф Шавқий. Дебочаи девон ва ғазалиёти Шавқий, қўлёзма, инв. № 1634.

26. Навоий тили луғати. – Тошкент: Шарқ, 2018.

27. Нодир-Узлат.Девон. ЎзФА Ғафур Ғулом номидаги Қўқон адабиёт музейи фонди, қўлёзма, инв. № 474.

28. Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.

29. Носиров О. Ўзбек классик адабиётида ғазал жанрининг шаклланиши ва такомили: филол. фанлари номзоди. ... дисс.. – Тошкент: 1968.

30. Саййид Амир Ризавий. Фарҳанги форсийи амид. – Теҳрон: Интишороти Фуъод. 1374(1995).

31. Султонмурод Олим. Навоий қанча ва нечта жанрда асар битган? //Янги Ўзбекистон, 2023 йил 1 февраль, 21-сон, 6-саҳифа.

32. Сулаймонов М.Адабий таъсир ва ижодий муштараклик // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017, 1-сон.

33. Tahir Üzgör. Türkçe Dîvân dîbâceleri. – Ankara: Kültür Bakanliği, 1990.

34. Фарҳанги забони тоҷики. Иборат аз ду ҷилд, ҷилди I. – М.: СЭ, 1969.

35. Фарҳангномаи адабии форсий. Ҷилди дуввум. Ҷилди 1. – Теҳрон: Созимони чоп ва вузароти фарҳанг ва иршоди исломий,1381/2003.

36. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996.

37. Шомуҳамедов Ш. Ҳофиз Шерозий. – Тошкент: Фан, 1965.

38. Шомуҳамедов Ш. Саъдий Шерозий. – Тошкент: Фан, 1964. Носиров О. Ўзбек классик адабиётида ғазал жанрининг шаклланиши ва такомили: филол. фанлари номзоди. ... дисс.. – Тошкент: 1968.

39. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат миллий нашриёти, 2006.

40. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.

41. Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Тошкент: Фан, 1959.

42. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент:1970.

BILOLXON ABDULLAYEV,
O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti

“GUL VA BULBUL” DOSTONINING AYRIM TOSHBOSMA NUSXALARINING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiy an’ana sifatida yaratib kelingan asarlar sirasiga kiruvchi “Gul va Bulbul” tipidagi dostonlardan biri bo‘lgan, XVIII asrda yashab ijod etgan Salohiy qalamiga mansub asarning XIX asr boshlarida nashr etilgan ikki toshbosmasi manbalari manbaviy qiyoslanadi, matniy muqoyasa qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Gul, Bulbul, nusxa, manba, muqoyasa, toshbosma, matn, misra, bayt.*

Annotation: *In this article, the sources of two lithographs published in the beginning of the 19th century, which is one of the “Flower and Nightingale” epics of the “Flower and Nightingale” type, written in the 18th century, and published in the beginning of the 19th century, are compared.*

Key words: *Flower, Nightingale, copy, source, comparison, lithograph, text, verse.*

Tadqiq etilayotgan ushbu ikki toshbosma manba “Gul va Bulbul” nomi bilan ma’lum va mashhurdir. Dastlabki manba Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi toshbosma asarlar fondida 1295 inventar raqami ostida saqlansa, ikkinchi manba esa Sharqshunoslik qo‘lyozmalar insitutining asosiy fondida 4250 inventar raqami ostida saqlanmoqda[1]. Bu ikki manba o‘zaro taqqoslanganda ular bir asarning turli yillarda ayri hududlarda nashr etilgan nusxalari ekanligi ayon bo‘ladi[2]. Asar XVII asrda Qashqarda yashab ijod etgan Salohiy ismli shaxsga tegishli ekanligi ta’kidlanadi. Ikki manbada ham “Xotimat-ul kitob” qismida asar ijodkori nomi bayon etiladi. Bevosita manbalarning holatiga keladigan bo‘lsak, Adabiyot muzeyida saqlanayotgan manbaning holati yaxshi. Nusxani tadqiq etishga xalal beruvchi jiddiy zararlangan o‘rinlar ko‘zga tashlanmaydi. 4250 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxa yaxshi saqlanmagan. Nusxaning 3-betidan to 22-betiga qadar varaqlarning mahkamlangan qismidan ajralish, ayrim o‘rinlarda matn yozilgan asosiy o‘rinlarda teshilish holatlari mavjud. Ushbu nusxaning muqovasi va ikkinchi beti mavjud emas.

Ikki manbaning hajmi bir xil, ya’ni 71 betdan (35 varaq) iborat. Aksar toshbosmalarda bo‘lgani kabi biz o‘rganayotgan manbalarda ham asosiy qism ikkinchi betdan boshlanadi. Dastlabki betda asarning nomi turli bezakli naqshlar bilan ziynatlangan holda ifodalangan. Ushbu betda asar nomidan tashqari manbaning bosmaxonasi, nashr ettiruvchi shaxs haqida ma’lumotlar berilgan. Ta’kidlanganidek asosiy qism ikkinchi betdan boshlangan. Nisbatan ancha yaxshi holatda saqlangan 1295 raqamli “Gul va Bulbul” dostonining asosiy voqealari ikkinchi sahifadan basmaladan (basmala gulli naqshlar bilan bezalgan) so‘ng quydagicha boshlanadi:

“Ammo roviyon axboru noqilon osori Bulbulni qizil Gulga oshiq bo‘lg‘onini andoq rivoyat qilurkim Sabo Bulbulg‘a qizil Gulni ta’rifini qilib Bulbul qizil Gulg‘a oshiq bo‘lgon ekan”.

[1] Keyingi o‘rinlarda 1295 raqamli manba “A” manba (nusxa) nomi bilan, 300 raqamli toshbosma esa “B” manba (nusxa) nomi bilan yuritiladi.

[2] Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan 1295 raqamli toshbosma asarning so‘ngida nashr etilgan yil sifatida hijriy 1324 (milodiy 1906) ko‘rsatigan bo‘lsa, 4250 inventar raqamli toshbosma asarning xotimasida nashr sanasi sifatida hijriy1326 (milodiy 1908) yil berilgan.

Ikkinchi manba hisoblangan 300 inventar raqamli manbaning muqovasi, birinchi hamda ikkinchi betlari mavjud emas. Shu boisdan asarning boshlanish qismi mavjud emas. Lekin dastlabki manbadan kelib chiqqan holda keyingi manbaning yo‘qotilgan dastlabki sahifasida nima ifoda etilganligi borasida tasavvur hosil qilish mumkin. Manbalarning nashr xususiyatlari haqida gap ketganda Sharqshunoslik Qo‘lyozmalar insitutida saqlanayotgan 343, 576, 577, 578, 579, 4002, 4248, 4249, 4250, 9143, 9593, 9594, 9595, 11021, 13857, 13858, 13859 raqamli toshbosmalarni tahlil qilinib, shu narsaga guvoh bo‘lindiki, yuqorida sanab o‘tilgan manbalarning hammasi ikki shaharda Toshkent va Buxoro shahrida joylashgan turli matbaalarda turli yillarda bosilgan. Tahlil ostiga olingan ikki manba Buxoro shahrida bosilgan degan xulosaga kelish mumkin. Chunki Toshkent hamda Buxoro matbaalarida chop etilgan toshbosmalar o‘zaro bir necha jihatlarda keskin farqlanadi. Tahlilga tortilgan manbalar manbaviy hamda tekstologik nuqtayi nazaridan Buxoro bosmaxonalarida bosilgan manbalarga o‘xshab ketadi.

“A” manbada doston voqealari ikki chiziqli jadval ichiga ikki ustun ko‘rinishida 13 baytli holatda joylashtirilgan, biroq 43dan to 64-sahifaga qadar bu ana’anadan chekinilgan, ya’ni sahifalardagi matnlar asosiy maydonga zinapoya shaklida 13 bayt emas 13 misra ko‘rinishida beriladi. “B” manbada esa biroz o‘zgacha holat, sahifaning asosiy maydoni kvadrat shaklida bir chiziq bilan ajratib olinib, voqealar ikki chiziqli jadval ichida ikki ustun ko‘rinishida 11 qator holida ifodalangan. Ikki manbada ham fasllar sarlavhalar bilan berib boriladi. Sarlavhalarni asosiy matndan ajratish maqsadida kattaroq o‘lchamda berilgan. Bu ikki toshbosmaning har bir sahifasi raqamlangan bo‘lib, betlarning raqamlari sahifa yuqori qismining o‘rtasiga qo‘yilgan. Biroq raqamlarning ifoda shaklida ayrim tafovutlar mavjud. “A” manbaning 3,13,33-betlarining chap qismida Davlat adabiyoti muzeyining muhrlari mavjud. “B” manbada esa hech qanday muhr bosilgan o‘rinlar ko‘zga tashlanmaydi. Ushbu ikki bosmaning muhim farqlaridan biri shundaki, Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan toshbosma nisbatan mukammal tuzilishga egadek tasavvur uyg‘otadi kishida. Sababi, manbada kitobatchilik an’analariga to‘liq amal qilgan holatda poygirlar qo‘yib borilgan, biroq ikkinchi manba bo‘lmish “B” manba borasida bunday deyish qiyin. Biror bir o‘rinda poygirlar berilmagan, ammo birlamchi nusxadan farqli o‘laroq asosiy matn maydoni jadvalga olinib undan so‘ng yana kvadrat ko‘rinishida chiziq tortilib, izoh va qaydlar uchun maxsus hoshiya yaratilgan. Hoshiyaga asosiy matnni to‘ldiruvchi, xato o‘rinlarni tuzatuvchi, uning mazmunini konkretlashtiruvchi so‘z va jumlalar kerakli o‘rinlarda berib borilgan.[3]

Ikki nusxada asosiy voqealar bir necha fasllardan tashkil topgan. Birinchi nusxa 28 fasldan iborat bo‘lsa, keyingisi 29 faslni o‘z ichiga oladi. Asar tarkibida keluvchi g‘azal va munojatlar ham alohida boshlanma bilan ifodalanadi. Manbalardagi boshlanmalarda ham ba’zi o‘rinlarda farqlar kuzatiladi.

Dostonda uchrovchi g‘azallar Bulbul tomonidan kuylanadi, ularning aksari 5 baytlik. Quyidagi jadvalda nusxalar tarkibidagi g‘azallarda mavjud farqlar borasida ma’lumotlar berilgan.

G‘azal nomi va hajmi	**Farqlanuvchi xususiyatlar**
1. “Jamoling vasfini”, 4 bayt	“A” nusxada g‘azal keyingi fasl bilan qo‘shilib ketgan.
2. “Firoqing birla, ey Gul” 5 bayt	Nusxalarning matni tarkibida so‘z qo‘llash bilan bog‘liq farqlar mavjud.
3. “Sani, ey Gul…” 5 bayt	—
4. “Muhabbat o‘tiga kuydim nigorim” 5 bayt	Nusxalarning matni tarkibida so‘z qo‘llash bilan bog‘liq farqlar mavjud.

[3] 3,13,17,25,41,43,46,48,57,61,64- sahifalarda yuqoridagi kabi matn mazmuniga bevosita dahldor bo‘lgan, matn mazmunini to‘ldiruvchi, aniqlovchi va boshqa bir necha maqsadlar tufayli berib borilgan so‘z va so‘z birikmalari mavjud.

Nusxalar matniy-qiyosiy tadqiq etilganda ular o‘rtasida ba’zi matniy tafovutlar borligi ayon bo‘ladi. Biz ulardan ayrimlarinigina keltirib o‘tamiz.

Gul va Bulbul o‘rtasidagi muhabbat mojarolari ikki manbada ham bir xil “Sabo Bulbulg‘a qizil Gulni ta’rifini qilg‘oni” kabi sarlavha bilan boshlanadi. Ushbu bo‘limda ikki manbada ham ayrim tafovutlar mavjud. Misol uchun quydagi baytlarda bu farqlar yaqqol namoyon bo‘ladi. “A” manbaning quyidagi baytlari:

Chechaklar orasinda bir chechak bor,
Kiromi ul qilur bo‘lsang giriftor.
Oti erur qizil Gul ul chamanda,
Sifotini qilurlar anjumanda.

“B” manbada ayrim o‘zgarishlar bilan ifodalangan.

Bu gullar orasinda bir gul bor,
Anga loyiq agar bo‘lsang giriftor.
Aning oti qizil guldur chamanda,
Sifotini qilurlar anjumanda.

Berilgan baytlarga e’tibor qaratilsa, birinchi baytning ikkinchi misrasi manbalarda keskin farqni yuzaga keltirgan. Dastlabki keltirilgan baytning ikkinchi misrasi “Kiromi ul qilur bo‘lsang giriftor” shaklida keltirilsa, “B” manbada ushbu misra “Anga loyiq agar bo‘lsang giriftor” ko‘rinishida ifodalanmoqda. Misralar zohirdagi farq, albatta, botinda ham aks etgan. Ikki manba misralarida tafovut kasb etayotgan “Kirom qilmoq” hamda “Loyiq bo‘lmoq” so‘zlari bo‘lib, bu so‘zlarning semalari turlicha, shu boisdan bu so‘zlar mazmuni misralar mazmuniga bevosita ta’sir etib ma’noda turfalik vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagi bo‘limda Sabo bulbulga gulni ta’rif va tavsif qilgndan so‘ng Bulbul Gulga oshiq bo‘ladi va unga atab g‘azal bitadi. Ushbu g‘azal har ikki manbada ham bir xil nom bilan, aniqroq aytiladigan bo‘lsa, “G‘azali Bulbul” kabi boshlanma tarzida alohida beriladi. G‘azal to‘rt baytdan tashkil topgan bo‘lib, manbalarda g‘azal matnlarida tafovutlar yo‘q. 4250 inventar raqamli manbada “G‘azali Bulbul” va “Saboniki hikoyati Gulg‘a debon ahvoli Bulbul qilg‘oni” boshlanmalar alohida berilgan bo‘lsa, 1295 raqamli toshbosmada esa yuqoridagi ikki boshlanma ostida ifodalangan voqealar birgina “G‘azali Bulbul” sarlavhasi ostida birlashtirib yuborilgan. Ya’ni g‘azal keyin kelayotgan boshqa bir bo‘limga qo‘shib yuborilgan. Asar boshdan oyoq she’riy tarzda bo‘lib, ikki manba o‘zaro qiyoslanganda aksar o‘rinlarda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq o‘zgarish holatlarini uchratish mumkin.

O‘zungni qilma zor ham mani ham,
Ki haddin oshti, ey Bulbul, jamolim.

Yuqorida keltirilgan bayt dastlabki manbaning “Gulni Bulbulg‘a aytg‘oni” (7-bet) bo‘limidan keltirilgan bo‘lib, keyingi manbadagi xuddi shu bayt bilan qisman farqlanadi. Birinchi manbada keltirilgan baytning avvalgi misrasida “o‘zingni qilma zor ham mani ham” tarzida berilgan bo‘lsa, keyingi manbada “o‘zungni qilma rasvo mani ham” ko‘rinishida keltiriladi. Ikki manbada o‘rtasidagi bu kabi nomutanosibliklarga ko‘p duch kelinsa ham, biroq bu tafovutlar misra matnlari orqali ifoda etilayotgan ma’nolarga jiddiy ta’sir etmagan. Yana shunday o‘rinlar ham borki, misralar

so‘zlaridagi o‘zaro farq ma’noga ham ta’sir o‘tkazgan. Masalan, ushbu baytga e’tibor qaratilsa, biz ta’kidlab o‘tgan tafovut yaqqol namoyon bo‘ladi:

Guliston ichra nogoh kirdi Bulbul,
Tikon birla ikkovlon o‘ltirub Gul.
Tikonning dardig‘a bechora Bulbul,
Boshini oldi ovora bo‘ldi.

Yuqoridagi baytlarning uchinchi misrasidagi “bechora Bulbul” “B” nusxada “bechora qoldi” tarzida qo‘llanadi. Agar yaxshilab nazar solinadigan bo‘lsa, keyingi manbada ifodalangan “bechora qoldi” ko‘rinishida berilishi maqsadga muvofiq ekanligi oydinlashadi. Chunki misralarning qofiya tizimiga “bechora Bulbul”ni emas, balki “bechora qoldi” birligi ko‘proq mos tushadi, sababi Gul va Bulbul turkumidagi boshqa asarlar qatori ushbu doston ham masnaviy shaklida bitilgan. Bilamizki, “masnaviylar har ikkala misrasi hamqofiya bo‘lgan baytlar asosida yoziladigan she’r; masnaviy hajmi katta liro-epik asarlarga ham o‘ng‘ay, shakli sodda va hashamsiz” [3, 199]. Shu boisdan quydagicha ko‘rinishdagi ikkinchi nusxa varianti to‘g‘riroq:

Guliston ichra nogoh kirdi Bulbul,
Tikon birla ikkovlon o‘ltirub Gul.
Tikonning dardig‘a bechora qoldi,
Boshini oldi ovora bo‘ldi.

“A” manbadagi baytda “bechora qoldi” birikmasini emas, balki “bechora Bulbul” birligining ifodalanishi bayt misrasi anglatayotgan ma’noni turlicha talqin qilinishiga ham olib keladi, ya’ni “tikonning dardig‘a chorasiz qolish” va tikonning dardidan bechora bo‘lish (ezilgan, mahzun bo‘lgan) kabi. Demak, birinchi manba baytidan Bulbul tikonning dardidan qiynalib chorasiz qolib, mahzun va ovora bo‘lgani anglashilsa, ikkinchi manba bayti “tikonning dardiga chorasiz qolgan Bulbul nima qilishini bilmay ovora bo‘lganini ifodalaydi. Aynan yuqoridagi kabi holatlarni “Sabo Bulbulni qoshig‘a borg‘oni” boshlanmali bo‘limda ko‘rishimiz mumkin. Bu qismda Sabo Bulbulni topib, uning holini ko‘rishi va unga nasihat qilishi ifodalanadi. Mana shu o‘rinlarda manbalar matnlarida ba’zi nomutanosibliklar borligi ayon bo‘ladi. Dastlabki toshbosmada berilgan tubandagi baytlar keyingi manbadagi xuddi shu baytlar bilan qiyoslanganda mavjud farqlar oydinlashadi:

Sabo qoshig‘a keldi ulab,
Gohi chap o‘rgulub, gohi rost o‘ynab.
Yetib keldi Sabo ko‘rdi banogoh,
Chekar Bulbul fig‘on-u nola oh.

Yuqoridagi baytlardan farqli o‘laroq ikkinchi manba bo‘lmish 300 inventar raqamli toshbosmada birinchi baytning birinchi misrasi “Sabo Bulbul qoshig‘a keldi ko‘zlab” shaklida, baytning ikkinchi misrasi esa “Gohi chab charx urub gohi rost o‘ynab” ko‘rinishida ifodalangan. Baytlarning farqli jihatlariga diqqat qaratilsa, ular o‘rtasidagi farqlar asosan shakliy hamda qofiya jihatdan o‘zaro farqlanadi, ammo mazmunda sezilarli o‘zgarishlarga shohid bo‘linmaydi. Keyingi baytdagi misralarda ham shunday o‘zgarishlar mavjud. Adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan bosma manbadagi “Yetib keldi Sabo ko‘rdi banogoh” misrasi ikkinchi manbada “Ko‘zi Bulbul sori tushdi

banogoh” tarzida ifodalangan, lekin baytning ikkinchi misralari har ikki manbada ham bir xil. Shu bo‘limning o‘zida yuqorida ta’kidlangan o‘zgarishlarni ko‘plab uchratish mumkin.

Navbatdagi bo‘lim “Sabo Bulbulg‘a Gul payomini aytg‘oli” deb nomlangan. Ushbu qismda sarlavhadan anglashilganidek Gulning kechinmalari o‘rtadagi vositachi bo‘lmish Sabo tamonidan Bulbulga yetkaziladi. Bu jarayon aks ettirilgan matnlar manbalarda turlicha qayd etilgan.

Sabo tig‘ zabonin ayladi tez,
Asaldek naql va ki aylab shakarez.
Sabo nogoh tilini qildi go‘yo,
Qizil Gul dardini aylarga insho.

Ushbu baytlar “A” manbadan keltirilgan bo‘lib, “B” toshbosmadagi ayni baytllar quydagi tarzda ifoda etilgan:

Sabo keldi qizil Gul qoshig‘a tez,
Salomin aytibon bo‘ldi shakarrez.
Sabo nogoh tilini qildi go‘yo,
Qizil Gul arzini aylarga insho.

Misol o‘laroq berilgan yuqoridagi bayt misralari muqoyasa qilinar ekan, matnlar va u orqali ifodalanayotgan mazmundagi kemtiklik ko‘zga tashlanadi. Adabiyot muzeyidagi manbada berilgan ikki baytda Saboning qizil Gul dardini Bulbulga shirinsuhanlik ila oshkor qilgani aytiladi. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar insitutining asosiy fondida 4250 inventar raqami bilan saqlanayotgan toshbosma baytlari tagmatnida Saboni qizil Gul qoshiga kelib, salom bergani hamda Gul arzini aytishga chog‘langani bayon etiladi. Manbada keltirilgan bu baytlar “Sabo Bulbulg‘a Gul payomini aytg‘oli” boshlanmasi ostida ifodalanganligini hisobga olib, keyingi manba hisoblanmish “B” nusxada keltirilgan “qizil Gul” birikmasi o‘rinsiz qo‘llanilgan deyish mumkin. Boshlanma mazmuniga e’tibor bersak, unda Sabo Bulbulga Gulning xabarini yetkazgani aytiladi, biroq “Sabo keldi qizil Gul qoshig‘a tez” misrasida Saboning Bulbul emas, aksincha Gul huzuriga kelgani ta’kidlanmoqda. Bulbul Gulni payomin eshitgan zahot visol umidida yori huzuriga shoshiladi. Ammo borsa, tikon jafosi, bormasa, xajr azobi. Oshiqning bu iztiroblari “Bulbul chamanga kelib Gulni ko‘rgoni” sarlavhasi ostida beriladi. Biroq sarlavha va uning tagmatnida berilayotgan mazmun o‘zaro muvofiq emas. Sarlavhada Bulbul kelib ko‘rishi ma’nosi anglashilsa, matnlar mazmunida esa Bulbul Gulni ko‘rishi borasida mutlaqo gap ketmaydi.

Manbalarda mutlaq farq qiluvchi o‘rinlardan biri “Sabo Bulbulg‘a nasihat qilg‘oni” faslida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ilk bo‘limlarni o‘zaro qiyoslaganimizda manbalar matnlarida bir so‘zning sinonimik variantlarini ishlatilganini, bayt misralarida bir mazmunni ifodalovchi turli jumlalar qo‘lanilganligini guvohi bo‘ldik. Ushbu bo‘limda Bulbulga ishqda sodiq, sabrli bo‘lish borasida nasihatlar o‘qiladi. Ammo bu nasihatlar manbalarda bir-biridan farqlanadi. “A” nusxada nasihatlar 56 baytda Sabo tilidan bayon etilsa, “B” nusxada baytlar soni 34tani tashkil etadi. Keyingi toshbosmada 15-baytdan boshlab, orada 22 bayt tashlab ketilgan. Tashlab ketilgan o‘rinlardan so‘ng “bahor o‘lsa qilurlar orzu gul” misrasida ikki manbada yana bir xillik yuzaga keladi. Ikkinchi manbada ifodalanmagan 22 baytda asosan tavakkul qilish borasida Saboning Bulbulga pandlari turli hayotiy misollar yordamida uqtiriladi. Bob so‘ngida Saboning nasihatlari tufayli Bulbul qalbida yonib turgan ishq olovi yanada alangalanib, mashuqasi visoliga yetmoq niyatida Sabo bilan havoga ko‘tariladilar. Yorni izlab, yura-yura bir chamanga kelib qolishadi. Mana shu chamanzorda bulbul

sakkiz qush: Hudhud, Tovus, Qumri, Humo, So‘fi, To‘ti, Kabki(kaklik), Foxtalar bilan tanishadi. Nomi tilga olingan qushlar Bulbulni fig‘on ila qilgan nolasi sabab undan hol so‘rash asnosida uni savolga tutadilar. Qushlar va Bulbul o‘rtasida savol-javob o‘laroq kechgan bu suhbatning batafsil voqeotlari “Necha kunlar yurub Bulbul bir chamanda borg‘oli” (“A” nusxa), “Necha kun uchub Bulbul bir chamanda tushgoni” (“B” nusxa) nomli faslda beriladi. Mazkur faslda ham manbalarda farqli o‘rinlar talaygina. Bulbul yuqorida sanab o‘tilgan har bir qush bilan munozarada bo‘ladi. Qushlar o‘rtasidagi bu munozaralar manbalarda bir xil ketma-ketlikda, (Humoyun, Tovus, To‘ti, Kabki, Qumri, Fohta, So‘fiyo, Hudhud) alohida boshlanmalar ostida berib boriladi. Bulbul qushlar bilan muloqot qilar ekan, dastavval, qushlar o‘zining ma’lum xususiyatlari, o‘zga qushlardan afzal jihatlarini aytib maqtanganlarida Bulbul ularga tanbeh o‘laroq munosib javoblar beradi. “Bulbul Humoyun birla duchor bo‘lg‘ani”, “Bulbul Tovus birla so‘zlag‘oli”, “Bulbul To‘ti qoshig‘a kelgani” kabi fasllarining har birida manba matnlarida farqlar kuzatiladi. Jumladan, Bulbul va Kabki orasidagi muloqot aks ettirilgan “Bulbul Kabki birla so‘zlag‘oli” faslida berilgan bayt:

Kulub qahqah qilurman shodlig‘ni,
Tilarman doimo obodlig‘ni (“A” nusxa, 36-sahifa).
“B” nusxaning 42-sahifasida quyidagicha ifodalangan:
Tilab qahqah qilibman shodonlig‘ni,
Tilarman doimo obodlig‘ni.

Baytlarni tekstologik muqoyasa qilinganda ko‘rinadiki, misralar matnida ifodalanayotgan “kulub” hamda “tilab” kalimalari o‘zgachalik kasb etmoqda. Misra mazmuniga qaralsa, bu o‘rinda “kulub” so‘zi misra matniga muvofiq ekanligi har jihatdan namoyon bo‘ladi.

Havo-u hirs nafsing barcha dushman,
Sani makr qilurki necha rahzan.
Agar nafsing ko‘zini aylasang ko‘r,
Ko‘rolmaslar agar ko‘z bo‘lsa benur.
Agar urmasang nafsing ko‘ziga,
Kecha-kunduz sani tortar o‘ziga.
Hamisha nafs ishiga bo‘lma tolib,
Kuchung yetguncha bo‘l nafsingga g‘olib (“A” nusxa 38-sahifa).

Havo-u hirs nafsing barcha dushman,
Boqib ko‘rgin hamdur sanga rahzan.
Yetib nafsing kiyniga sen balo ko‘r,
Ko‘rolmasga ko‘zini aylagin ko‘r.
Hamisha nafs ishiga bo‘lma tolib,
Kuchung yetguncha bo‘l nafsingga g‘olib (“B” nusxa 44-sahifa).

Tadqiq etayotgan ikki toshbosmamiz bir asarning turli nusxalari bo‘lsa ham ularning matniy tafovutlari anchagina, deyarli har bir faslda qandaydir bir matniy tafovutlarni uchratamiz. Yuqorida manbadan keltirilgan baytlarni tahlil qilinar ekan, avvalambor, ularning hajmiga e’tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Dastlabki keltirilgan baytlar miqdori to‘rttani tashkil etsa, keyingi manbadan olingan baytlar miqdori uchtani tashkil etmoqda. “B” nusxada “A” nusxada ifodalangan “Agar urmasang nafsning ko‘ziga, Kecha-kunduz sani tortar o‘ziga” bayti ifodalanmagan. Ammo

hajmdagi farqlarga qaramasdan bayt matnlari orqali ifodalanmoqchi bo‘lingan mazmunda katta farqlar sezilmaydi. Misralar zamirida nafsga qarshi kurashish, uni jilovlash, uni bir zum bo‘lsa-da, o‘z holiga qo‘ymaslikka chaqiriladi. Tahlilga tortilgan baytlar misralarida yana bir qator farqlarni ko‘rish mumkin. Chunonchi, “havo-u hirs” birligini olaylik. Ikki manbada bu kalima insonga xos bo‘lgan nafsning bir odatining nomi sifatida qo‘llanilgan, biroq shu semani ifodalashda harflar kombinatsiyasida farqlar mavjud. Birinchi manbada حوا أ حرص shaklida “havo” va “hirs” so‘zlarni o‘zaro munosabatga kirituvchi vosita sifatida “u” yuklama-bog‘lovchisidan foydalanilgan bo‘lsa, ikkinchi manbada esa حوا ووحرص shaklida ya’ni ikki juft so‘zni o‘zaro bog‘lashga xizmat qilayotgan “u” yuklamasini “vu” (وو) ko‘rinishida berilgan. Bulbulning navbatdagi qahramon qumri bilan munosabatlari “Bulbul Qumri qoshida kelgani” boshlanmasi ostida beriladi. Bulbul Qumri huzuriga keladi va ikkovlon hamsuhbat bo‘lishadi. Chamanda Qumrining qilgan nolasidan Bulbul undan hol so‘raydi. Berilgan savolga Qumri o‘zini Haq oshig‘i ekani, bu vodiy qushlariga shayx ekanligini va yana tengsiz zokir ekanligini ta’kidlab, ilm o‘qimay Haq vasliga yetganini da’vo qiladi. Bulbul bunga javoban uni ayovsiz tanqid qilib, tanbehlar beradi. Bu faslda ham bir emas, balki bir necha o‘rinlarda manbalarda matniy farqlar ko‘zga tashlanadi. Bunday o‘rinlar “Bulbul Foxta birla so‘zlag‘oli”, “Bulbul So‘fiyo qushining qoshig‘a borg‘oni”, “Bulbul Hudhud birla so‘zlag‘oli”, “Munojat…”, “Bulbul Saboni qoshig‘a chorlag‘oli”, “Sabo Bulbg‘a rahbar bo‘lg‘oni”, “Sabo bu g‘azalni Gul firoqig‘a o‘qig‘oni”, “Bulbul bir oh urub o‘lg‘oni” kabi fasllarda ham talaygina.

Muqoyasa natijasida Salohiy qalamiga mansub “Gul va Bulbul” dostoninig ikki toshbosma nusxalari o‘rtasida bir necha turli farqlar anglashiladi. Bu kabi turfaliklar sababi sifatida toshbosmalarni nashr etishda ularga turli qo‘lyozma manbalar asos qilib olingan degan tahminni ilgari surish mumkin. Chunki, turli kotiblar tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozmalarda ham kotiblarning bee’tiborligi oqibatida va ham boshqa omillar natijasi o‘laroq manbalar o‘rtasida tafovutlar yuzaga kelishi mumkin. Yana bir taxmin shuki, Salohiy asarini Fors tilida bitgan bo‘lishi ham mumkin. Bu taxminni quvvatlovchi bir necha jihatlar mavjud. Birinchidan, manbalarda aksar o‘rinlarda baytlar mazmuni o‘zaro farqlanadi. Ikkinchidan, misralarda tarkibida ifodalanayotgan so‘zlar manbalarda turli sinonimik formalarda berilgan. Uchinchidan, ba’zi o‘rinlarda baytlar tarkibidagi misralarning o‘rni almashgan. Va so‘nggi jihat shuki, xotimada asarni “Mantiq-ut tayr”ga javoban yozilgani aytiladi. Ma’lumki, “Mantiq-ut tayr” fors tilida bitilgan, shu sababdan Salohiy uni fors tilida bitgan bo‘lsa, XX asr boshlarida asar tarjima qilinib, turli shaxslar tomonidan turli yillarda o‘zbek tilida bosilgan bo‘lishi va turli tajrimonlar tomonidan qilingan nusxalar asosida bosilgan asarning nusxalarida yuqorida bayon etilgani kabi farqlar yuzaga kelgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salohiy. Gul va Bulbul. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi toshbosma asarlar fondi, №1295.

2. Salohiy. Gul va Bulbul. – Toshkent: Sharqshunoslik qo’lyozmalar insitutining asosiy fondi, № 4250.

3. Адабий турлар ва жанрлар (тарихи ва назариясига оид), уч жилдлик, II жилд. Лирика. – Тошкент: Фан ,1992.

3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик 1 жилд. – Тошкент: Фан, 1983.

4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик 2 жилд. – Тошкент: Фан, 1983.

5. Х. Расулев. “Ўзбек эпик шериятида халқчиллик”. – Тошкент: Фан, 1973.

6. Shahnoza Raxmonova. Falsafiy-irfoniy dostonlarda vazn va mazmun munosabati//Uzbekistan: Language and Culture 2022/2(2).

SITORA TOJIDDINOVA,
O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti

“BOBURIYNOMA” NASHRLARINING MATNIY-QIYOSIY TADQIQI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada taniqli yozuvchi Xayriddin Sultonning “Boburiynoma” asari ikki nashri qiyosiy o‘rganilgan. Dastlabki nashr va keyingisi matnshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Ikkala nashr orasidagi tafovutlar va tuzatishlar ko‘rsatilgan. Yangi nashr uchun mulohazalar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, “Boburiynoma”, matnshunoslik, tahrir, tahlil, qiyos.*

Abstract: *Two editions of the famous writer Khairiddin Sultan’s work “Boburiynoma” are comparatively studied in this article. The first edition and the next one are analyzed from the point of view of textual studies. Differences and corrections between the two editions are shown. Comments have been submitted for a new edition.*

Key words: *Zakhiriddin Mukhammad Babur, “Boburnoma”, “Boburiynoma”, textology, editing, analysis, comparison.*

Yozuvchi Xayriddin Sultonning “Boburiynoma” ma’rifiy romanining birinchi nashri 1997-yil dunyo yuzini ko‘rgan. Badiiy jihatdan go‘zal bu asar ilmiy-ma’rifiy ahamiyati bois har qanday davrda ham kitobxonlar uchun manfaatli bo‘lib qolaveradi. Oradan yigirma yildan ziyod vaqt o‘tgach, asar qayta nashr etildi. Unga muallif “Kitobning ikkinchi nashri haqida” sarlavhali debocha kiritgan. Gap boshidanoq yozuvchi kitob tahrir qilinganini aytib o‘tadi: “Muhtaram o‘quvchi! Qo‘lingizdagi “Boburiynoma” ma’rifiy romani birinchi marta 1997-yili “Sharq” nashriyot-matbaa kompaniyasi tomonidan nashr qilingan edi. Oradan yigirma bir yil o‘tib, uning ikkinchi nashri juz’iy tuzatishlar bilan e’tiboringizga havola etilmoqda”.

Bir tomondan, ushbu “juz’iy tuzatishlar”ni matnshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish tadqiqot ishimiz uchun zarur. Ikkinchidan esa Asqad Muxtor rahbarligidagi “Guliston” jurnalida mahorat oshirgan zabardast yozuvchining tahrir san’atidan voqif bo‘lish katta maktab bo‘lishi shubhasiz. Shu bois ham tadqiqotchi, ham yo‘l boshidagi qalamkash sifatida bu ishni o‘zgacha zavq bilan bajarmoqdamiz va o‘rganganlarimizdan ayrimlarini maqola shaklida taqdim etish niyatidamiz.

Avvalo, ikki nashr qiyosini to‘rtta asosiy yo‘nalishga ajratib o‘rgansak, chalkashliklarning oldi olinadi. Birinchi yo‘nalish – shakliy o‘zgarishlar. Ikkinchisi, tarixiy ismlar va raqamlardagi tuzatishlar. Uchinchi yo‘nalish – gap qurilishidagi va imloviy to‘g‘rilashlar. To‘rtinchisi, badiiy tahrir. Ayni shu to‘rt yo‘nalishni dizaynerona, olimona, muharrirona va ijodkorona o‘zgartirishlar, deyish ham mumkin. Quyida biz shartli ravishda bo‘lib olgan shu to‘rt yo‘nalish bo‘yicha misollar va mulohazalarni bayon etamiz.

Birinchi galda e’tibor tushadigan jihat – ikki nashrning muqovasi bir-biriga o‘xshamasligidir. Ilk kitobda Mirzo Boburning yoshligi, orqa manzarada ilmiy ekspeditsiya a’zolarining suratlari,

qadimiy minora va boshqalar tasvirlashga urinilgan. Unda to‘q siyohrang bo‘yoqlar ustunlik qiladi. Ikkinchi nashr muqovasida esa Hazrat Boburning ijod bilan mashg‘ul bo‘lib o‘tirgan o‘rta yoshlardagi surati(M.Nabiev chizgan portretdan ko‘chirma), qadimiy obidalar, karvon va zamonaviy avtomobil tasvirlangan. Bunda Mirzo Bobur yaxshi ko‘rgan “xazon sayri”dagi rang – sariq-jigarrang bo‘yoqlar dominantlik qiladi.

Ichki muqovalarda ham o‘zgartirishlar bor. Ilk nashr boshidagi ichki muqovada “Boburiylar shajarasi” jadval tarzida berilgan edi. Shajara Amir Temurdan boshlangan bo‘lib, negadir u pastdan yuqorida qarab joylashtirilgandi. Ya’ni muqovaning eng quyi qismida Amir Temur, undan teparoq Mironshoh, so‘ng Sulton Muhammad, Abusaid, Umarshayx ismidan yuqoriroqqa chiziq tortilib, uning o‘g‘illari qatori Zahiriddin Muhammad Bobur, uning avlodlari nomi zinama-zina ko‘tarilib borgan. Qiziq, odatdagi jadvallarda ota-bobolardan boshlanib, pastlab avlodlarga tushilardiku, deb tursak, yangi nashrda bu tushunmovchilikka barham berilgan ekan. Ikkinchi nashr ichki muqovasida “Boburiylar shajarasi” eng tepada – Amir Temurdan boshlanib, pastlab Bahodirshoh 2 va Bedorbaxtlargacha davom etadi. Yana bir farqli jihat: ilk nashr kitob oxiridagi ichki muqovada “Andijondan Hindistonga” nomli “Boburnoma”da tilga olingan shaharlar, tog‘lar va daryolarning sxematik xaritasi” berilgan bo‘lsa, keyingi nashrda Zahiriddin Muhammad Boburdan boshlanuvchi yana bir “Boburiylar shajarasi” keltirilgan.

Qayd etish kerak, birinchi nashrga nisbatan ikkinchi nashr qog‘ozi anchayin sifatli, harflar kitobxon ko‘zini toliqtirmaydigan kattalikda berilgan. Birinchi nashr 413 bet bo‘lsa, keyinchisi 463 sahifa. Asar vaqt va makon ko‘rsatilgan holda 76 bo‘lim(muqaddima, hikoyalar, qissa, xatlar, uch yulduzcha bilan ajratilgan qismlar va xotima hisobga olinmagan)ga ajratilgan.

Birinchi yo‘nalish, ya’ni asarning yangi nashridagi shakliy o‘zgarishlar kitob boshidanoq ziyrak o‘quvchining diqqatini tortadi. Chunki dastlabki bo‘lim 1997-yilgi nashrda to‘g‘ridan-to‘g‘ri hikoya nomi (“Yo‘lbarsning tug‘ilishi”) bilan boshlangan. Ikkinchi nashrda esa strukturaviy o‘zgarish qilingan, ya’ni birinchi bo‘limga “Kundalikdan sahifa” sarlavhasi qo‘yilgan bo‘lib, “Yo‘lbarsning tug‘ilishi” hikoyasi uning tarkibida alohida ko‘rinishda, o‘z nomi bilan taqdim etilgan. Demakki, keyingi nashrda avvalgisidan farqli o‘laroq bo‘lim va uning ichidagi asarlarning nomlari o‘quvchini chalg‘itmaslik maqsadida ajratib ko‘rsatilgan, degan xulosa berish mumkin.

Shakliy o‘zgarishlar sifatida yangi nashrda she’riy parchalarning qalin, qora harflarda berilgani, qolaversa, tariflanayotgan qahramonlarning ism-shariflari ham xuddi shunday alohida ko‘rsatilganini ham ta’kidlash kerak. Misol uchun, Komron Mirzoning

“Turkiyda Navoiyga yetsam, ne ajab, g‘oziy,
She’rig‘a quloq solsa mahbubi suxandonim”,

misralari ilk nashrning 91-sahifasida [5. 91] oddiy shriftda berilgan. Shu misralar ikkinchi nashr 102-betda [6.102] umumiy matndan alohida shriftda, oson farqlanadigan shaklda yozilgan.

Ma’lumki, “Boburiynoma”da “Boburnoma”dan aynan ko‘chirilgan matnlar juda ko‘p uchraydi. Ilmiy ekspeditsiya davomida biror davlat yoki muqaddas qadamjolardan o‘tilar ekan, Zahiriddin Muhammad Boburning ayni shu xususdagi fikrlari bayon qilinadi, iqtiboslar keltiriladi. Qolaversa, boshqa ko‘plab shoirlarning ham satrlari eslangan o‘rinlar bor: Humoyun Mirzo, Kamron Mirzo, Shayx Sa’diy, Furqat, Xurshid Davron, Mirzo Kenjabek, Abdulla To‘qay... Qayd qilish kerak: yangi nashrda nafaqat Hazrat Boburning misralari, balki barcha she’riy parchalar alohida shriftda berilgan. Misol uchun, 1997-yilgi nashrning 183-betida [5.183] umumiy matndan farqlanmaydigan shaklda Abdulla To‘qayning quyidagi misralari keltirilgan edi:

Parpirab yulduz yonodir tun qaro bo‘lgan sayin,
Yodima tangrim tushar baxtim qaro bo‘lgan sayin.

Ayni shu satrlar 2019 yilda chop etilgan nashrning 204 sahifasida qalin, qora shriftda, umumiy matndan ajratilgan holatda berilgan.

Ta'riflanilayotgan shaxslarning ism-shariflari keltirilgan birinchi jumla ham yangi nashrda alohida ko'rsatilgan. Misol uchun, 1997-yilgi nashr 36-sahifasida shunday gap bor: "Yana biri Mahmud Sa'diy edi, adabiyot va san'at bo'limining mudiri edi" [5.36]. Oddiy shrift, sahifadagi umumiy matndan farqlanmaydigan shaklda. Kitobning 2019-yilgi nashrida esa ayni shu gap [6.41] va shu kabi boshqa ta'riflanilayotganlarning ism-sharifi qalin shriftda, alohida shaklda ko'rsatilgan.

Kitob tarkibidagi suratlar ham avvalgi nashrdan farqlanadi. Yangi va ko'proq suratlar qo'shilgan, ayrimlari olib tashlangan. 1997-yilgi nashrda umumiy 26 ta fotosurat berilgan bo'lsa, 2019-yilgi nashrda 41 ta fotosurat bor. Muqaddas Ka'ba ziyoratiga doir, qolaversa, keyingi yillarda olingan suratlar qo'shilgan. Shunga qaramay ayrim fotolarning olib tashlanganini ham aytish kerak. Misol uchun, ilk nashr 254-sahifasi[5. 254]dagi "Shohi qal'ada" deya izoh berilgan surat keyingi nashrda yo'q. Bunday fotosuratlar "Rosti shu ediki, yozildi" deya lutf qilgan shoh va shoirning izidan borgan yozuvchimizning rost so'zlarini yana bir bor dalillashga xizmat qiladi.

Qolaversa, gap shakl haqida borar ekan, kitobning hajman boyitilganini ham e'tirof etish kerak. Ya'ni maqola avvalida aytganimiz – muallif tomonidan "Kitobning ikkinchi nashri haqida" yozilgani va nashrning so'nggida filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatovning "Maftunkor ishq mujdalari" ("Boburiynoma"ning qayta mutolaasi chog'idagi o'ylar) nomli maqolasining berilgani kitobni ham shaklan, ham mazmunan yanada boyitgan.

Umuman aytganda, oradagi yigirma yillik davrda noshirchiligimizdagi texnik va ma'naviy yutuqlar hosilasi o'laroq yangi nashr shaklan zamonaviy o'quvchiga qulay va sifatli tarzda chop etilgan. Bu, yuqorida aytganimizdek, qog'oz sifati, muqova, shrift va suratlarda yaqqol seziladi.

Ikkinchi yo'nalish – ilmiy-tarixiy tuzatishlar ikki nashr qiyosida muhim o'rin tutadi. Bir nechta tarixiy nomlar, raqamlarga o'zgarishlar kiritilgan. Misol uchun, dastlabki nashrda yozuvchi "U o'n to'qqiz yoshida tug'ilgan diyorini mangu tark etdi" [5.4] deydi. Ayni shu ma'lumot keyingi nashrda tuzatilgan: "U yigirma ikki yoshida tug'ilgan diyorini mangu tark etdi" [6.6]. Ayrim o'rinlarda esa matn avvalgi nashrda aytilmagan fikrlar, tarixiy raqamlar bilan yanada boyitilgan. Masalan, ilk nashrda "Yigirma besh yoshida Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Bangladesh mamlakatlarining aksariyat qismini egallagan ulkan saltanatga asos soldi" [5.4] deyilgan. Yangi nashrda fikr yanada kengaytirilgan: "Yigirma besh yoshida Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Bangladesh mamlakatlarining aksariyat qismini egallagan ulkan saltanatga asos soldi va qirq uch yoshida bu ishni nihoyasiga yetkazdi" [6.6]. Raqamlar haqida gap ketganda aytish kerakki, ilk nashrda yozuvchi muqaddimaning oxirida sana qo'ymagan. Keyingi nashrda esa "1997-yil, mart. Toshkent" degan yozuv qo'shilgan. Balki asar yozilgan sananing belgilab qo'yilishi oradan ancha yil o'tgani, tushunmovchiliklar bo'lmasligi sabablidir, ammo buni ham matn boyitilishi sifatida zikr etish mumkin.

Asardagi tarixiy ismlarga ayrim tuzatishlar kiritilgan o'rinlar mavjud. Misol uchun, ilk nashrda G'ulda Qosimbek deb keltirilgan ismdan keyingi nashrda G'ulda so'zi olib tashlangan. Qolaversa, birinchi nashrdagi Qo'chbek ismi keyingi nashrda ba`zan Ko'chbek tarzida berilgan. Bunga quyidagi matnni o'qish jarayonida amin bo'lish mumkin: "Xirgohga birin-ketin engil-boshlari shalabbo Xoja Husayn, Qaro barlos, Sulton Husayn arg'un, Qo'chbek, No'yon ko'kaltosh, Banda Ali, G'ulda Qosimbek, Xoldor va eng so'ngida mo'g'ul bashara, suyagi buzuq Mirshoh qavchin jam bo'ldilar[5.21]. 2019-yilgi nashrni o'qiymiz: "Xirgohga birin-ketin engil-boshlari shalabbo Xoja Husayn, Qaro barlos, Sulton Husayn arg'un, Ko'chbek, No'yon ko'kaltosh, Banda Ali, Qosimbek, Xoldor va eng so'ngida mo'g'ul bashara, suyagi buzuq Mirshoh qavchin jam bo'ldilar" [6.25].

Bunday tuzatishlar bobur shunos olim darajasidagi taniqli yozuvchimizning uzoq yillik ilmiy-ijodiy izlanishlari samarasidir. Bunda nafaqat yosh tadqiqotchilar, balki ko'plab ijodkorlar uchun

ham yaxshi saboq bor. Ya’ni tarixiy asarga qo‘l urganda har bir raqamga, har bir ismga nihoyatda e’tiborli bo‘lish lozim.

Shu o‘rinda zikr etish kerak: garchi vaqt nuqtai nazaridan yangi nashrga hisobi to‘g‘ri kelmasa-da, tahrir qilinmagan raqamlar ham bor. Misol: “Qariyb yigirma yildirki, shu maftunkor ishq bilan sarmast yashayman. Qariyb yigirma yildirki, qo‘limdan kelganicha hazrati Boburning so‘nmas ijodi, sirli hayot yo‘lini o‘rganish bilan mashg‘ulman” degan gaplarga qalam tekkizilmagan. “IShQdan voz kechilmas!” deydi shoirlar. Ikki nashr orasidagi vaqtni hisobga olsak, yozuvchimiz qirq yildirki, Hazrat Boburga yuksak mehr bilan yashamoqda. Ushbu sonning tahrir qilinmaganini “Boburiynoma” yigirma yillik ijodiy izlanishlar natijasi ekani, qirq yillik tajribaning hosili esa yanada mo‘l bo‘lishi mumkinligi bilan izohlash mumkin. Alqissa, bunda “Boburnoma” va “Boburiynoma” tipidagi yana bir yangi asar yozilajagiga ishora borday.

Endi esa uchinchi yo‘nalish, yangi nashr matni tarkibidagi gap qurilishi va imloviy, ya’ni muharrirona tuzatishlarga ham biroz to‘xtalsak. Bunda ikki jihat e’tiborga olinishi kerak. Birinchi jihat, ayrim o‘rinlarda nashriyot xodimlari tomonidan avvalgi nashrdagi kamchiliklar to‘g‘rilangan yoki, bil’aks, avvalgi matnni to‘g‘ri o‘qishda va ko‘chirishda xatolikka yo‘l qo‘yilgan. Ikkinchisi esa muallifning o‘zi tomonidan ayrim gaplarda uslubiy o‘zgarishlar qilingan yoki jumla tahrir qaychisiga uchragan. Masalan: 1997-yilgi nashr 4-sahifasida “Ayni fazilatlari bilan u millatimizni, xalqimizni butun olamga tanitdi. Va shu bois u millatimizning, xalqimizning iftixor bayroqlaridan biriga aylandi” [5.4] deyiladi. Bu ikki jumla yangi nashrda quyidagicha tahrirlangan: “Ayni fazilatlari bilan u millatimizning, xalqimizning iftixor bayroqlaridan biriga aylandi” [6.6-7]. Demakki, bunda ma’noga ziyon yetkazmay turib, takrordan voz kechilgan hamda yangi nashrning badiiyati, saviyasiga yanada ijobiy ta’sir ko‘rsatilgan.

Asar ilk nashri xotimasida shunday gap bor: “Ammo bani basharning bemisl jozibador vakili – hazrati Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoga bo‘lgan ehtirom va ixlosim mazkur asar vositasi ila yanada yuksaldi va ziyoda bo‘ldi” [5.412]. Ayni shu jumla ham oradan yigirma yil o‘tgach muharrirona tahrirga uchragan: “Ammo bani basharning bemisl jozibador namoyandasi – Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlariga bo‘lgan ehtirom va ixlosim mazkur asar vositasi ila yanada yuksaldi va ziyoda bo‘ldi”. Ko‘rinib turganidek, avvalgi gapda beixtiyor qo‘llanilgan “hazrat” va “mirzo” so‘zlarining ikkisidan biri olib qolingan. Demakki, muharrirning o‘tkir nigohi shoh va shoirga bo‘lgan yuksak ehtirom natijasida biroz oshirib yuborilgan so‘zlarni ilg‘agan. Ya’ni, gapda ikki ta’rifning birini qo‘llash lozim topilgan.

Ilk nashr matni ayrim o‘rinlarida og‘zaki nutqimizga “moslashib ketgan” ajnabiy so‘zlar ishlatilgan edi. Yangi nashrda ular o‘zbekchalashtirilgan. Masalan, “Bunda korrektordan tortib bosh muharrirgacha fikr va insoniy munosabat bobida teng, demokratiya degan narsa ayni shu maskanda mujassam edi” [5.35]. Yangi nashrda “korrektor” so‘zi “musahhih” so‘ziga almashtirilgan: “Bunda musahhihdan tortib bosh muharrirgacha fikr va insoniy munosabat bobida teng, demokratiya degan narsa ayni shu maskanda mujassam edi” [6.40].

Qolaversa, dastlabki nashrda noto‘g‘ri o‘rinda qo‘llanilgan so‘zlar ham “juz’iy tuzatishlar”ga muyassar bo‘lgan. Masalan, “Nainki, bundan to‘rt yuz sakson yil muqaddam bu maskanga hazrati Boburning poyqadamlari tekkan?” [5.19]jumlasidagi “nainki” so‘zi biroz “yopishmay”roq turganday. Yangi nashrda bu holat to‘g‘rilangan: “Nahotki, bundan to‘rt yuz sakson yil muqaddam bu maskanga hazrati Boburning poyqadamlari tekkan?” [6.22]. Ayon bo‘ladiki, aslida “nainki” emas, “nahotki” so‘zidan foydalanilmoqchi bo‘lingan ekan.

Ilk nashrning 312-sahifasi, ya’ni “Saodat sohili” qissasida podshoh Bobur tilidan aytiladigan shunday gap bor: “O‘sha chopqinda boshidan zarb yeb, xayoli xiliy parishon bo‘lib qoldi” [5.312]. Bu gapdagi “xiliy” so‘zi tushunarsizroq tuyuladi. 2019-yilgi nashrda bu so‘z o‘zgartiril-

gan: “O‘sha chopqinda boshidan zarb yeb, xayoli xeyli parishon bo‘lib qoldi” [6.347]. Ko‘rinib turganidek, “xiliy” so‘zi “xeyli”ga aylantirilgan.

Bizningcha, asarning birinchi nashrida shu kabi ozgina e’tibortalab o‘rinlar borligini zakiy muharrir sifatida muallifning o‘zi ham sezib turgan. Buni quyidagi izohlaridan anglash mumkin: “Sur’atimiz shu qadar jadalki, biror yerda to‘xtab, ikki jumlani daftarga bitib qo‘ymoqlikka ham fursat yo‘q. Bu qaydlarning barchasi yurib ketayotgan mashinada qing‘ir-qiyshiq harflar bilan bitildi, uzuq-yuluqligi, parokandaligiga shu sabab” [6.84].

Avvalgi nashr musahhihlaridan “o‘tib ketgan” ayrim imloviy xatolar ham keyingi nashrda to‘g‘rilangan. Misol uchun, gap boshidagi kirish so‘zlardan keyin, jumla orasida kelgan kirish so‘zning ikki tomonidan vergul qo‘yish kerakligi haqidagi qoidani eslaylik. Birinchi nashr: “Shunga ko‘ra biz ham avvalo shu muqaddas maskanni tavof etgali bordik” [5.61]. Yangi nashrda tuzatish kiritilgan: “Shunga ko‘ra, biz ham, avvalo, shu muqaddas maskanni tavof etgali bordik” [6.69]. Bu kabi mayda imloviy xatoliklar har qanday kitobda uchrashi tabiiy. Hatto tajribali muharrirlarning ham ko‘zi toliqishi, “o‘tkazib yuborishi” mumkin. Shu bois punktuatsiya borasida “benuqson” kitob topish dushvor. Ammo ayrim “aqlli” musahhih yoki kotiblarning tushunmagan so‘zini “tushunarli qilaman” deb xato qilgan vaziyatlari ham uchraydi. Bunday holga “Boburiynoma” mutolaasi jarayonida ham duch keldik. Asarning dastlabki nashri 320-sahifasida bir to‘rtlik bor [5.320]. Shayx Muslihiddin Sa’diy qalamiga mansub bu forsiy misralarga Hazrat Boburning mehri benihoyaligidan uni toshga o‘yib yozdirgan. Ulug‘vor tarix guvohi bo‘lgan o‘sha xarsang hozir ham saqlanayotgan ekan. Mana, o‘sha misralarni dastlabki nashrdan aynan ko‘chiramiz:

“Shunidam ki, Jamshidi farrux sirisht,
Ba chashmae bar sange navisht:
“Bar in chashma chun mo base dam zadand,
Biraftand chun chashm barham zadand...”

Aynan shu to‘rt misrani 2019-yilgi nashrning 355-sahifasi[6.355]dan ham aynan o‘qiymiz:

“Shunidam, ki jamshidi farruxsirisht,
Ba sarchashmae bir sange navisht:
“Bar in chashma chun mo base dam zadand,
Biraftand chun chashm barham zadand...”

Guvohi bo‘lganimizdek, bu mumtoz misralar birinchi nashrdayoq matniy xatolar bilan berilgan. Buni qaysidir ma’noda oqlash mumkindir. Sababi ushbu satrlar “Boburnoma”ning dastlabki nashrlarida, ya’ni yozuvchi foydalangan manbaning o‘zida biroz xato yozilgan ekan. Ammo “Vaqoye”ning keyingi nashrlarida misralar to‘g‘rilangan. Ajablanarlisi esa “Boburiynoma”ning ilk nashridagi xatoliklarga keyingi nashrda o‘z-o‘zidan yana biri qo‘shilgan. Ushbu satrlardagi punktuatsiya qoidalari haqida gapirmaymiz, birgina “bir” so`ziga e`tibor qaratamiz. Xo‘sh, bu so‘z qanday paydo bo‘lib qoldi? Bu holatda matnshunoslarning doimiy jumlasini, ya’ni “Kotibning beparvoligi sabab so‘z noto‘g‘ri ko‘chirilgan”, deya olamiz, xolos. Chindan ham, matbaachilikdagi eng nozik nuqta - “Tushunmasang, o‘zgartir!” tamoyili har doim ham ish bermaydi. Muallifning nafaqat har bir so‘zi, balki har bir harfiga hurmat bilan yondoshish talab etiladi. Bu fikrning naqadar dolzarb ahamiyat kasb etishini mumtoz adabiyotimiz namunalaridan tortib, zamonaviy asarlarimiz nashrlari misolida ham ko‘rish mumkin. Afsuski, “Boburiynoma”ning yangi nashri ham istisno emas ekan.

Demakki, asarda uchinchi yo‘nalishimiz – musahhih va muharrirona tuzatishlar kiritilgan matnlar, go‘zal tahrirga uchragan jumlalar anchagina. Shunga qaramay keyingi nashrlarda e’tibor berilishi lozim bo‘lgan ayrim o‘rinlar ham bor.

Endi esa to‘rtinchi yo‘nalishimiz, ya’ni badiiy tahrir san’ati qo‘llanilgan matn namunalariga e’tibor qaratsak. Ayni shu yo‘nalishni, komil ishonch bilan yozuvchining o‘zini o‘zi tahrir qilishi, deya baholagan bo‘lardim. Juda qiziq jarayon: avvalgi uch yo‘nalishga ko‘ra, ya’ni dizaynerona qarasangiz ham, olimona nigoh tashlasangiz ham, muharrirona sinchiklasangiz ham bexato o‘rinlar o‘zgartirilgan! Sirasini aytganda, hech qachon yozganidan ko‘ngli mutlaq to‘lmaydigan haqiqiy ijodkor zoti har bir asarini imkon topsa, yuz marta, ming marta qayta tahrir qilishi mumkin. Bunday holatda uni ayblash emas, olqishlash lozim, nazarimizda. Chunki adabiyot – go‘zallik. Go‘zallikning esa chegarasi yo‘q. Bir jumlani o‘n marta badiiy tahrir elagidan o‘tkazib, o‘n karra jozibaliroq qilish imkoni bor. Shu ma’noda “Boburiynoma” muallifi muharriru olimlardan farqli o‘laroq ijodkor qalb bilan “tuppa-tuzuk” jumlalarni ham o‘zgartiradi. Misol uchun: “Qadim dunyoning orif insonlari oq qog‘oz betiga yolg‘on yozmoqdan parhez qilar edilar” [5.101]. Chiroyli va purma’no gap. Ammo muallifning ko‘ngli to‘lmaydi. Oradan yigirma bir yil o‘tgach, bu jumla quyidagi tarzda kitobxonga qayta yetkazildi: “Qadim dunyoning orif insonlari oq qog‘oz betiga yolg‘on yozmoqdan ijtinob qilar edilar” [6.113]. Lug‘atlarni titkilaymiz. Ma’lum bo‘ladiki, “ijtinob” so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, “yiroqlashish, saqlanish, tortinish” ma’nolarini berar ekan. Ya’nikim, “yolg‘on yozmoqdan o‘zlarini saqlar edilar, tiyilardilar” ma’nolarida tushunish mumkin. “Parhez qilmoq” ham tiyilmoq, nafsini-yu o‘zini jilovlanoq mazmunida tushuniladi. Aslini olganda, bu o‘rinda tahrir shart emasdek. Ammo hazrat Boburning chin muxlisi bo‘lgan yozuvchi shoh va shoir ishlatgan jumlalarga-da yuksak mehr qo‘ygan, shekilli, uning qalamidan bahramand bo‘lgan so‘zlardan foydalanishga harakat qilgan. Bunday deyishimizga sabab – ayni shu so‘z, ya’ni “ijtinob” tufayli Zahiriddin Muhammad Boburning quyidagi go‘zal ruboiysi yodimizga tushadi:

“Sen gulsenu men haqir bulbuldurmen,
Sen shu’lasenu ul shu’lag‘a men kuldurmen.
Nisbat yo‘qtur deb ijtinob aylamakim,
Shahmen elga, vale senga quldurmen”.

Ushbu satrlar tarkibidagi ijtinob so‘zi yaqqol ajralib turadiki, turkiy so‘zlar orasidagi birgina arabchasi “Boburiynoma” muallifining ham e’tiborini jalb qilgan, biz kabi lug‘at titkilashga undagan va alal oqibat mehr-muhabbat uyg‘otgan bo‘lsa, ajab emas. Aslida yozuvchining ulug‘ shoirga mehri “Boburiynoma” boshidan adog‘igacha sezilib turadi. Hatto ohang-u uslubda ham adib “Boburnoma” ummonida suzayotgandek ko‘rinadi. Bu fikrni “Muqaddima”dan olingan quyidagi misol tasdiqlaydi. Ilk nashrda: “Ezgu duoi xayr sharofati ila u suvrati siyratiga g‘oyat monand, muazzam va qudratli saltanatning munosib vorisi o‘laroq voyaga yetdi va so‘nggi nafasiga qadar beqiyos shiddat, azim bir shijoat uni tark etmadi” [5.3]. Endi ayni shu gapni ikkinchi nashrdan deyarli aynan, faqat “uni” so‘zini jumla oxiriga ko‘chirib o‘qiymiz: “Ezgu duoi xayr sharofati ila u suvrati siyratiga g‘oyat monand, muazzam va qudratli saltanatning munosib vorisi o‘laroq voyaga yetdi va so‘nggi nafasiga qadar beqiyos shiddat, azim bir shijoat tark etmadi uni” [6.5]. Xo‘sh, nima o‘zgardi? Ohang o‘zgardi, badiiyat kengaydi. Mana shunday ohangdor matnlarga “Boburiynoma” davomida bot-bot duch kelamiz. Ayniqsa, boburona uslubda yozilgan jumlalar e’tiborimizni ohanraboday o‘ziga tortadi (Bu endi alohida mavzu. Bu borada yangi tadqiqotlarimiz davom etmoqda). Ikkinchi nashr tadorigi jarayonida ham muallif hanuz Mirzo Boburga yuksak ehtirom va mehr qurshovida ekanini uning badiiy tahrirlaridan ilg‘ash mumkin. Bu haqda yozuvchining o‘zi shunday degan: “Muhtaram o‘quvchi, bu satrlar va ularning ohangi uchun muallifni aybga tutmagaysiz. Qachonki, so‘z Bobur va uning shavkatli avlodi xususida borar ekan, qalam o‘z-o‘zidan xush navolar sari uchadi” [6.91].

Yana bir so‘z xususida. Birinchi nashr 312-sahifasida, ya’ni “Saodat sohili” qissasida podshoh Bobur Hofiz Ko‘ykiyga shunday savol beradi: “Kim ekan ul do‘sti sodiq?” [5.312]. Aynan shu jumladagi “sodiq” so‘zi keyingi nashr 346-sahifasida “g‘oyib”ga o‘zgartiriladi: “Kim ekan ul do‘sti g‘oyib?” [6.346]. Biz sodiq do‘stlar haqida ko‘p eshitganmiz. Ammo “g‘oyib do‘st” original topilma. Qissadagi ayni shu vaziyatga, ya’ni Zahiriddin Muhammad Boburning navkarlaridan biri Boboqulning Toshkentda yashayotgan o‘g‘li Binoqul Alisher Navoiy devonini kitobat qilib, uni podshohga tuhfa qilish uchun Hindistonga kelayotganida olamdan ko‘z yumishi voqeasiga “do‘sti g‘oyib” iborasi juda mos tushadi. Bu o‘rinda ham adibning muharrirlik mahoratini e’tirof etmaslik mumkin emas.

Qolaversa, ikkinchi nashrni mutolaa qilish jarayonida yozuvchining yigirma yillik hayot dovonlaridan oshib, yanada sermulohaza, bosiq bo‘lib borayotgani, yetuklik faslida ekanini anglaymiz. Sababki, ilk nashrda yoshlik shiddatiyu shoshqinligi bilan yozilgan ayrim so‘zlar biroz silliqlangan. Masalan, “Chunki afsonaviy Vahob Ro‘zimatovdan qo‘rqmaydigan qalamkash hali onasining qornida!” [5.34] tarzida yozilgan jumla ikkinchi nashrda “Chunki afsonaviy Vahob Ro‘zimatovdan qo‘rqmaydigan qalamkash hali tug‘ilmagan” [6.39] tarzida tahrirlangan.

Albatta, yillar yanada ulg‘aytirgan adibimizning yangi nashr davomida qilgan ijodiy va ilmiy tahrirlarini sinchiklab o`rganish foydadan xoli bo‘lmaydi. Xususan, 2019-yilgi nashr 450-sahifasida bosh harflarda, qalin, qora shriftda yozilgan sarlavha diqqatimizni tortadi: “Mo‘g‘ullar(Boburiylar) saltanatining vorisasi” [6.450]. Aynan shu sarlavha 1997-yilgi dastlabki nashrning 407-betida “Mo‘g‘ullar saltanatining vorisasi” [5.407] shaklida berilgan ekan. Demakki, qavs ichidagi boburiylar so‘zi keyingi nashrda qo‘shilgan. Boburiylarni mo‘g‘ullar deya atash noto‘g‘ri ekani haqida bugun dunyo bobur shunoslari yakdil fikrga kelishgan. Ammo bu sarlavhaning 1995-yilda yozilgan maqolaga tegishli ekanini hisobga olsak, vaziyat tushunarliroq bo‘ladi. Boz ustiga boburiylarning so‘nggi vakili Bahodirshoh Zafarning avlodi Pokiza Sulton Begim haqidagi ushbu maqola Hindistonda “Dehli times” gazetasida bosilgan ekan. Uni X.Sulton sinchiklab o‘qib, tarjima qilib “O‘zbekiston ovozi” gazetasiga bergan ekan. Umuman olganda, ikkinchi nashrda oradagi yigirma yillik davr mobaynida yuz bergan bobur shunoslik ilmidagi mana shunday tadrijiy rivojlanishlar ham aks etgan.

Muallif ayrim o‘rinlarni o‘zi tahrir qilgan, degan fikrimizga yana bir isbot shuki, yangi nashr faqatgina muallifning o‘zigagina ma‘lum bo‘lgan tafsilotlar bilan boyitilgan. Masalan, ilk nashrdagi “1975-yil, 6-oktyabr. “Oqtosh” sihatgohi” bo‘limida muallif bemorligini bayon eta turib “Shu kasallik tufayli do‘xtirlar meni paxta hasharidan ozod qiluvchi qog‘oz berdilar” [5.18]deydi. Keyingi nashrda esa “Shu kasallik va surunkali bronxit tufayli do‘xtirlar meni paxta hasharidan ozod qiluvchi qog‘oz berdilar” [6.39] deya, hazrat Bobur yo‘lidan borib, rost yozishni niyat qilgan adib o‘z holini tugal bayon qiladi.

Shu o‘rinda aytish kerakki. “Boburiynoma”ning yana bir nashrini chop etishga ehtiyoj bor. Uchinchi nashrni tayyorlash zaruratining eng muhim va asosiy sababi esa yangi avlod, yoshlar lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida xat-savod chiqarishayotganiga qaramay, afsuski, “Boburiynoma”ning har ikki nashri ham kirill alifbosida. Shu bois o‘sib kelayotgan yosh kitobxonlar manfaati uchun lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidagi uchinchi va yanada mukammal nashrni tayyorlash va chop etishni kechiktirmaslik lozim. Chunki bu asar bugungi realist yoshlar, haqiqatparvar kitobxonlar uchun nafaqat hazrat Bobur va boburiylar, balki yaqin tariximiz aks etgan rost asar sifatida ham qiziqarlidir.

Yozuvchi Xayriddin Sulton qalamiga mansub “Boburiynoma” ma’rifiy romanining 1997-yil hamda 2019-yil chop etilgan ikki nashrining matniy-qiyosiy tadqiqi natijasidagi xulosa: asar, gar-

chi muallif biroz kamtarlik bilan “juz’iy tuzatishlar” deya baholagan bo‘lsa-da, keyingi nashrda anchagina boyitilgan. Ilmiy va badiiy jihatdan yanada sayqallangan.

Yozuvchining ijodini kuzatsak, “Quyosh barchaga barobar” (1980), “Bir oqshom ertagi” (1983), “Onamning yurti” (1987), “Umr esa o‘tmoqda” (1988), “Yo‘qchilik va to‘qchilik” (2002), “Uch yuz oltmish to‘rt kun” (2019), “Haqiqat jamoli” (2019), “Ko‘ngul ozodadur” (2019), “Odamlardan tinglab hikoya” (2020), “Navoiy – 30” (2021) kitoblarining o‘q ildizi hayot haqiqatlari ekaniga amin bo‘lamiz. Adib inson bolasi ayni hayot haqida fikrlay boshlaydigan davr, ya’ni o‘n to‘rt yoshidan Bobur Mirzo surati-yu siyratiga oshufta bo‘lganining eng asosiy sababi ham ayni shunda bo‘lsa kerak. Hazrat Bobur ijodidagi reallikning mukammal badiiy jilolari va ichkin tuyg‘ularga-da ta’sir eta oluvchi go‘zal samimiyat Xayriddin Sulton asarlarida ham ustuvorlik kasb etadi. Deyarli barcha kitoblaridagi syujetlar shu qadar ishonarliki, ularda badiiy to‘qimadan foydalanilmaganday. Keyingi yillarda realist yozuvchimiz hayotning oq-qora tasvirlariga kamalak ranglarida jilo berib, o‘ta samimiy va badiiy puxta asarlarni tuhfa etmoqda. Ularda davr ruhi, xarakter qirralari, realistik tasvir yuksak ijodiy mahorat bilan akslantirilgan. “Boburiynoma”ning ikkinchi nashri ham oradagi yigirma yillik tajribalar, ijodiy kamolot mevasi sifatida qayta tahrir natijasi o‘laroq matn jihatidan yanada mukammallashgan, badiiy va ilmiy qimmati yanada oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma, – Toshkent: Yulduzcha,1989. – 368 b.*
2. *Shamsiyev P. O‘zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 1986. – 164 b.*
3. *Sirojiddinov Sh., Umarova S. O‘zbek matnshunosligi qirralari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 128 b.*
4. *Sulton X. Boburiynoma, – Toshkent: Sharq, 1997. – 416 b.*
5. *Sulton X. Boburiynoma, – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. – 464 b.*

MA'MURA RASHIDOVA,
O'zFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

"ARBAIN"NING IKKI TILDAGI NAZMIY IFODASI QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: *Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy o'rtasidagi do'stlik va adabiy hamkorlik hozirda madaniy xazinamizning noyob durdonalari sanalayotgan o'lmas asarlarning vujudga kelishiga ko'p sabab bo'ldi. Shulardan biri Jomiy va Navoiylarning bir mavzuga bag'ishlangan ikki asari bo'lib, u turli manbalarda har xil nomlanib keladi. Bular: "Chihil hadis", "Arbain hadis", "Arbain". "Arbain" so'zining ma'nosi qirq, qirqlik demakdir. Jomiy va Navoiy bir-birlariga maslakdosh, hamfikr bo'lgan holda har bir hadisni o'ziga xos uslub bilan alohida-alohida shaklda ifodaladilar.*

Kalit so'zlar: *Arbain, Chihil hadis, faylasuf, forsiyzabon, turkiy, manzuma, tafsir.*

Abstract: *The friendship and literary cooperation between Abdurahman Jami and Alisher Navoi led to the creation of immortal works, which are now considered unique masterpieces of our cultural treasure. One of them is two works of Jami and Navoi dedicated to the same topic, which are called differently in different sources. These are: "Chihil hadith", "Arbain hadith", "Arbain". The meaning of the word "Arbain" is forty, forty. Jami and Nawai, being experts and like-minded to each other, expressed each hadith in a separate form with their own style.*

Key words: *Arbain, Chihil hadith, philosopher, Persian speaker, Turkish, manzuma, tafsir.*

XV asrning buyuk daholari – fors-tojik mumtoz adabiyotining ulkan namoyandasi Abdurahmon Jomiy bilan ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy o'rtasidagi do'stlik va adabiy hamkorlik hozirda madaniy xazinamizning noyob durdonalari sanalayotgan o'lmas asarlarning vujudga kelishiga ko'p sabab bo'ldi. Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat", "Arbain" kabi asarlari, qolaversa "Xamsa" dostonlari ham, bevosita ustoz ta'siri, yo'l-yo'rig'i, maslahatlari natijasi o'laroq maydonga keldi. U Jomiyga bag'ishlab "Xamsatul-mutahayyirin" asarini yozdi.

Alisher Navoiy ulug' tojik shoiri va faylasufi Abdurahmon Jomiyni o'zining ustozi va eng yaqin do'sti deb bilar edi. Jomiy Navoiyning kamolotga etishi va ma'naviy o'sishida katta ta'sir ko'rsatgan. Ular bir-birlarini hurmat qilar, adabiy-ilmiy ishlarida maslahat va yordam berar edilar. Bu ikki buyuk mutafakkir xalq uchun o'z kuchi va iste'dodini bag'ishlash, el foydasi uchun xizmat qilish kabi olijanob g'oyalarni tarannum etib ijod qildilar.

Biz hozir ana shunday hamkorlik samarasi bo'lmish bir asar haqida to'xtalamiz.

Jomiy va Navoiylarning bir mavzuga bag'ishlangan ikki asari turli manbalarda har xil nomlanib keladi. Bular: "Chihil hadis", "Arbain hadis", "Arbain". "Arbain" so'zining ma'nosi qirq, qirqlik demakdir. Mazmunidan kelib chiqib, bu asarlar payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadisi shariflari asosida, ya'ni ulardan ajratib olingan 40 ta hadisning to'rtlik shaklidagi nazmiy ifodasi deyish mumkin.

Tarixdan ma’lumki, Islom uyg‘onish davrida ulamolar ikki ilmni o‘z kashfiyotlari asosi qilib olishgan. Bu ilmlar tafsir va hadisshunoslikdir. Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviyati gultojini yaratgan ulug‘ alloma Abulqosim Mahmud Az-Zamaxshariy birinchilardan bo‘lib “Qur’oni karim”ning “Al-Kashshof” tafsirini yozdi. Hadis ilmining amiri mashhur buxorolik ajdodimiz Imom Al-Buxoriy hadisshunoslikda eng yuksak manbani yaratdi. “Hadisi sahih” juda ulkan, qimmatli va ishonchli manba sanaladi. O‘z davrida va kelajak vaqtlarda ham qimmatini hech yo‘qotmagan bu ilmlar yana juda ko‘p tadqiqotlarni yuzaga keltirdi. Har bir olim, ijodkor bu bilimlarni chuqur egallab o‘z faoliyatlarini yuritganlar. Jumladan, Nuriddin ibn Ahmad Abdurahmon Jomiy sohibi ilm va ustodi komil bo‘lgan. U mutafakkir shoir sifatida ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq 40 hadisni nazm bilan to‘rtlik shaklida ifoda etdi. Asar fors tilida yozilgan. U har bir hadis mazmunini keng falsafiy mushohadalar asosida yoritadi. Abdurahmon Jomiy o‘z asarini odaticha birinchi bo‘lib Navoiyga ko‘rsatdi. Asar bilan yaqindan tanishgan Navoiy undan ilhomlanib turkiy tilda ham shunday bir manzuma yaratishga ahd qiladi. Bu haqda Alisher Navoiy “Arbain” asari muqaddimasida so‘z yuritib, ustozini chuqur ehtirom bilan tilga oladi.

Chun safo ahli pokfar Jomiy,
Pokfar jomu pok farjomi.
Ul yaqin sozi dastgir manga,
Qiblai ustodu pir manga...
Nasr ila nazmni murakkab etib,
Forsiy nazm ila murattab etib.
“Arbain”e chiqordikim, jonlar
Balki qirq arbain chiqorg‘onlar...

Shundan so‘ng u Jomiyning 886-yili “Arbain”ni fors tilida yaratganligini ta’kidlaydi. Undan faqat forsiyzabonlargina bahramand, turkiy kitobxonlar esa bebahra ekanliklarini aytib o‘tadi.

Forsiydonlar aylabon idrok,
Oriy erdi bu nafdin atrok.

Turkiy tilning mustaqilligi uchun kurashgan va uning imkoniyatlari boshqa tillardan kam emasligi, balki yanada kengroq ekanligini o‘z asarlari bilan isbotlab berayotgan Navoiy ushbu asarni turkiy tilda ifodalashga azm qildi.

Istadimkim, bu xayl ham bori,
Bo‘lmag‘aylar bu nafdin oriy.
Men demakni chu muddao aylab,
Ul ijozat berib duo aylab...
Muddao chun bori savob erdi,
Har duo qildi mustajob erdi.

Ustozi uning muddaosini quvvatlagach, Navoiy tezlik bilan o‘z qirqligini yaratdi. Mo‘ljallagan vaqtidan ilgari, bir-ikki kun ichida o‘z manzumasini yozib tugatdi.

Bir-ikki kunki ehtimom ettim,
Ko‘z tutardin burun tamom ettim.

Shoir uni o‘qigan kishilarga so‘zning yaxshi ta’sir etishi va foyda keltirishini orzu qiladi:

Chun ul avroq sori solg‘ay ko‘z
Aylagay ko‘zguga asar bori so‘z.
Nasrdan dog‘i bahravar bo‘lg‘ay,
Nazmidin dog‘i bir xabar bo‘lg‘ay.

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning bir nomdagi bu ikki asari qo‘lyozma manbalarda goh alohida, gohida yonma-yon keltirilgan. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo‘lyozma fondida 8 va 106 -inv. raqami bilan saqlanayotgan ikki manba noyob sanaladi. Bu haqda M.Hakimovning “Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi” kitobida batafsil ma’lumotlar berilgan.[7.] 106-IV raqamli qo‘lyozmada Jomiy va Navoiy to‘rtliklari yonma-yon keltiriladi.

Abdurahmon Jomiy “Chihil hadis”ining birinchi to‘rtligi shunday:

Har kasero laqab makun mo‘min,
Garchi az sa’yi jon tan kohad.
To noxohed barodari xudro,
Onchi az bahri xeshon xohad.

Mazmuni: Faqat o‘zi uchun jon kuydirgan, o‘ziga istagan yaxshi narsalarni muslim birodarlariga, qarindoshlariga ravo ko‘rmagan, aksincha yomonlarini ravo ko‘rgan kishining nomini, laqabini mo‘min dema.

Ustoz va piri murshidi Abdurahmon Jomiy taklif va o‘giti ta’sirida Alisher Navoiy “Arbain” ni turkiy tilga ijodiy tarjima qilgan. Uning birinchi to‘rtligi quyidagicha:

Mo‘min ertastur ulki iymondin
Ro‘zgorida yuz safo ko‘rgay,
Toki qardoshig‘a ravo ko‘rmas –
Har nekim, o‘ziga ravo ko‘rgay.

Ro‘zgorida, tirikchiligida to‘kin-sochin yashagan odam yuz safo ko‘rib, o‘z nafsiga ravo ko‘rgan narsalardan qarindoshlariga ilinmas ekan, u kishi mo‘min emasdir.

Boylarning kambag‘al, faqir kishilarga yordam ko‘rsatishi, ushru zakot berishi imon va musulmonlikdan erur deb berilgan payg‘ambar so‘zi vositasida har ikki shoir xalqparvarlikni, mehribonlikni, saxiylikni targ‘ib etishgan. Garchi to‘rt satrda ifoda etilgan mo‘minlik sifatlari zohiran bir hikmat deb qaralsada, botinan ummondek teran ma’no va ta’sir kuchiga ega.

Abdurahmon Jomiyning ikkinchi hadisni sharhlab yozgan to‘rtligi:

Har ki dar hubbu man’u bug‘zu ato
Nabudash dil bag‘ayri haq moyil.
Naqdi imon xo‘yashro yobad
Bar mahak qabuli haq komil.

Mazmuni: Ko‘ngli haqqa moyil bo‘lib, kimki xayru saxovatu ehson qilsa, o‘z ezguligi bilan iymonlilar qoshida komillikka erishadi va haq rahmatiga noyil bo‘ladi. Xuddi shu hadis asosidagi Navoiy to‘rtligi:

Kimgakim hubbu bug‘zu man’u ato
Haq uchun bo‘ldi jazm bil oni,
Kim erur Tangri lutfidin komil
Ahli iymon qoshida iymoni.

Kimki xayr, saxovat, ehsonni haq yo‘lida qilmoqqa jazm qilsa, Alloh lutfidan musulmonlar nazdida iymoni komildir. Haqiqatan qalbi iymon nuri bilan yorishgan kishilar yaxshilikka moyil bo‘lib, bu ishlaridan o‘zlari halovat topadilar. Har kim bu ne’matdan bebahra bo‘lmasin.

Jomiyning uchinchi hadisga yozgan to‘rtligi:

Muslim on kason bud baqavli rasul
Garchi omi budu gar olim.
Ki ba har jo bud musulmone
Boshad az qavlu fa’l u solim.

Mazmuni: Payg‘ambar so‘ziga ko‘ra musulmon shaxs uldirki, xoh omi, besavod bo‘lsin, xoh dono, ilmli bo‘lsin, undan – o‘zini tutishidan, aytgan so‘zidan musulmonlarga zarar etmaydi.

Navoiy yozadi:

Kim musulmonlig‘ aylasa da’vo
Chin emas gar fido qilur jonlar.
Ul musulmondurki, solimdur,
Tiliyu ilgidin musulmonlar.

Musulmonlikka jonini fido qilish bilan erishilmaydi, balki tilidan va qo‘lidan yomonlik ko‘rmay tinch bo‘lishning o‘zi uning musulmonligidandir. Qo‘lingdan kelsa boshqalarga yaxshilik qilgin, yomonlik qilmaganing ham yaxshilikdir.

Tartib bilan har bir to‘rtlikni sharhlab, qiyoslab fikr aytish mumkin. Lekin umumiy, mushtarak fikrlar haqida asardan tanlab qiyosimizni davom ettiramiz. Yana bir misol, Jomiy yozadi:

Odamiro z-piri afzoyad
Har zamon dar banoi umr xalal.
Lek darvi javon du shud sifat
Hirs bar jam’ mol to‘li a’mal.

Ma’nosi: Odam qarigan sayin barcha ta’na a’zolari ojizlashib, kuch-darmoni kamayib boradi. Lekin hirsu havasi va yashash istagi (dunyoga to‘ymaslik, hayotga zavqi) ortib boradi.

Navoiy to‘rtligi:

Odamig‘a agarchi voqe’ erur
Qarig‘an sori barcha ishda xalal.
Ikki fe’li vale yigitrak o‘lur:
Biri hirsu birisi tuli amal.

“Jannat onalar oyog‘i ostidadir” degan hadisi sharifga Jomiy sharhi:

Sar zi modar makashki toji sharaf
Gard az rohi modaron boshad.
Xok shav zer poyi u ki behisht
Dar qadamhoi modaron boshad.

Ma'nosi: Onaning oyog'i ostidagi tuproq sening boshingga sharaf tojidir, sen onalar yo'lidagi gard bo'l. Chunki jannatga onalar qadami xoki kiradi.

Navoiy yozadi:

Onalarning oyog'i ostidadur
Ravzai jannatu jinon bog'i.
Ravza bog'i visolin istar esang,
Bo'l onaning oyog'i tufrog'i.

Bu har ikkala to'rtlik onaga hurmat, e'tibor va izzat ko'rsatishga targ'ib qiladi. Ota-onaning duosi farzand uchun juda muhim. Chunki har kim oxiratining obodligi, jannat bog'larini orzu qiladi. Buning uchun qalban boy, insoniy fazilatlarga ega bo'lmoq zarur. Ana shunday fazilatlarning biri ota-onaga, ayniqsa onaga mehr-muhabbat, izzat-hurmat, e'tibor qaratmoqdir.

Rahm kun to ki rahm bar zah tu
Dari rahmat juz az tu bikshoyad.
To tu badigare nabaxshoishi
Ar rahm al rahimin baxshoyad.

Allohdan marhamat ko'rishni istasang, odamlarga shafqatli bo'l. Alloh shafqatsizlarga rahm qilmagay, deydi Abdurahmon Jomiy. Navoiy esa bu mavzuni shunday izohlaydi:

Tengridan rahm agar ta'ma qilsang,
Avval o'lmoq keraksen elga rahim.
Har kishikim ulusqa rahm etmas,
Anga rahm aylamas rahimu karim.

Odamlarga rahm ko'zi bilan qaragin, shundagina xudoning ham senga rahmi keladi. Elga qahr bilan qaragan odam o'zi bir kun shunday qahr-g'azabga duch keladi. Shuning uchun elga rahm qil, shunda sen ham ro'shnolik ko'rasan, deb uqdiradi shoir.

Ilm olish kerakligi haqida Jomiy bunday deydi:

Ey garonmoya mard donishvar
Ki turo ilmi din bud ma'lum.
Mashchadro az on masho' mone'
Mashaqro az on makun mahlum.

Ey aqlli olim, xudo senga din ilmini berdi. Birov o'rganadigan bo'lsa, mahrum etma, foyda (naf) oladigan bo'lsa mone'lik qilma.

Ey xiradmand olimeki, sanga
Ilmdin ro‘ziy ayladi sone’.
Kishi o‘rgansa qilmag‘il mahrum,
Yoki naf’ olsa bo‘lmag‘il mone’.

Navoiy inson, uning burchi, go‘zalligi, yaxshi fazilatlarini madh etish bilan birga odamlarni bilim olishga, ilmli bo‘lishga da’vat qiladi. O‘rganishni istagan kishiga bor ilmingni ber, undan foydalansa qarshilik qilma.

Hadaf la’nati xudoi amad,
Dunyoyu harchi hast dar dunyo,
G‘ayri digar xudoki sohibe zi gar
Dardu olam ba rahmat ast avlo.

Ma’nosi: Haq zikridan boshqa, insof, adolat, poklik, iymon ila yo‘l tutishdan boshqa mayda-chuyda ishlar, hirsu havas, tama’, ochko‘zlik haq la’natiga sabab bo‘lgay. Faqat haq zikrini qiluvchilar Tangri rahmatiga sazovor bo‘ladilar.

Dunyovu har ne andadur mavjud
Bo‘ldi Haq la’nati giriftori.
G‘ayri Haq zikrikim, erur zokir
Tenrining rahmati sazovori.

Mazmunan bir xil bu fikrlar alohida yondashuv namunasidir. Bu dunyo molu davlatiga mehr qo‘yganlar Haq la’natiga giriftordirlar. Faqat Alloh zikrini qilib, barcha yaxshi fazilatlar sohibi sifatida bo‘lsa u Tangrining rahmatiga erishadi. Alisher Navoiy hadis mazmunidan kelib chiqib ustozi Abdurahmon Jomiy yozgan to‘rtligini o‘ziga xos usulda turkiy tilda bayon etishga erishgan.

Garchi hast oftob rahmati haq
Shomili z-in, z-in dar olam.
Bod az on dur bandad dar yona
Bod az on dur bandad dirham.

Rahmat ul diydasi to‘q odamgaki, dinoru dirham – pulu molga qul bo‘lmadi, boisi boylikni bir chaqa o‘rnida ko‘rdi, kamolotga erishdi. La’nat ungaki, dinoru dirham – boylikka qul bo‘ldi, o‘zining yuksak mavjudot, ongli inson ekanini, hurligini unutdi.

Navoiy yozadi:

Rahmat ozodag‘aki, ul olmas
Dahr dinoru dirhamin g‘amg‘a.
Lek la’nat angaki, qul bo‘lg‘ay
Xoh dinoru xoh dirhamg‘a.

Navoiy yaxshilik xislatlarini targ‘ib qilib, yomon xususiyatlarni qat’iy qoralaydi. Pastkashlik, manfaatparastlik, xasislik va hasad kabi qusurlarni qattiq tanqid qiladi. Mol-dunyoga mukkasidan ketgan tuban kishilarga nafrat bilan qaraydi.

Aqlli odamlarning pandu nasihatini oluvchi kishi baxtlidir, degan hadisga Jomiy quyidagicha to‘rtlik bitadi:

Nekbaxt on kasest, ki nabarad
Rashk bar nekbaxtii digaron.
Saxtii ro‘zgor nodida
Pand girad zi saxti digaron.

Mazmuni: Boshqalarning baxtini ko‘rib, hasad qilmaydigan kishi baxtli odamdir. Bu odam o‘zgalarning g‘am-g‘ussasidan o‘ziga xulosa, pand, saboq oladi, shuning uchun hayotda u qiyinchilik ko‘rmaydi.

Navoiy bu mazmunda mana bunday to‘rtlik yaratadi:

Elga ne kelsa aylamas parvo
Ulki ko‘nglin qildi g‘aflat band.
Kimki pand oldi elga tushgandin
Ani bilkim erur saodatmand.

G‘aflatda qolgan odamlar el boshiga tushgan tashvishdan xulosa chiqarmaydilar. Kimki odamlar boshiga kelgan ofatning sabablarini tushunib etsa va uning oldini olsa, u baxtlidir. Yomon ahvolda qolmaslik uchun avvalo o‘zgalar xatosini takrorlamaslik kerak, deb uqdiradi shoir.

“Odamlarga foydasi tegadigan kishi eng yaxshidir” degan hikmatli so‘zni Jomiy bunday talqin qiladi:

Yaki po‘rsiki behtarin kas kist,
Go‘yam az qavli behtarin kason.
Behtarin kas buvad baqavli rasul,
Pesh boshad ba xalqi naf’ rason.

Mazmuni: Eng yaxshi inson kim, deb birov so‘rasaki, elga ko‘proq naf’ berguvchi, payg‘ambar so‘zi bilan yaxshi deb topilgan kishini yaxshi odam deb bilaman, deyman.

Navoiy esa xuddi shu hikmatli so‘zga quyidagicha she’r keltiradi:

Xalq aro yaxshiroq deding kimdur
Eshitib shubha ayla raf’ andin.
Yaxshiroq bil oni ulus arokim,
Ko‘proq o‘lg‘ay ulusg‘a naf’ andin.

Navoiy xalq aro eng yaxshi kishi kim, deb so‘rasang, javobimni eshitu barcha shubhalaringni ketkaz. Kishilar orasida eng yaxshisi deb ko‘proq elga foydasi tegadigan kishini bil, deydi.

Yana bir misol: “Minnat olijanoblikning ofatidir” degan hadisga Jomiy bitgan to‘rtlik:

Kay zi ne’mat kase shavad dilgarm
Chun zi kase minnat kunad dilsardiy.
G‘ayri bodi xazon minnat nest
Ofati ravzani javonmardiy.

Mazmuni: Birovning ehsonidan shod bo‘lgan kishi uning minnatidan mulzam bo‘lgay. Minnat go‘yo kuz shamolidir, u yashnagan gulzorni xazon qilgay.

Navoiy:

Bir kishiga rioyate qilsang
Minnat o‘tkarmagil gumoningga.
Negakim ul kishiga ofatdir
Bo‘yla minnat va lek joningg‘a.

Birovga yaxshilik qilu uni minnat qilmagin. Chunki minnat u odamga og‘ir botadi, bu narsa sening joningga ham ofatdir.

Jomiy va Navoiy to‘rtliklariga qirqta hadis asos bo‘ldi. Bu hikmatli so‘zlarning har ikki tildagi – ham tojik, ham o‘zbek tillarida yaratilgan she’riy-badiiy ifodasi birdek qimmatlidir. Har bir to‘rtlikda turmushning turli hollaridagi yurish-turish qoidalari, insoniylik sifatlari, fazilatlarining biror ko‘rinishi tarannum etiladi. Ular badiiy jihatlari bilan kishiga zavq bersa, chuqur mazmuni, foydali o‘gitlari bilan ta’lim-tarbiya beradi.

Navoiy garchi Jomiy asaridan ilhomlanib qirq to‘rtlikni turkiy tilda bayon qilish niyatida ish boshlagan bo‘lsa-da, u “Arbain” to‘rtliklarini aynan tarjima qilmadi. Balki, diniy ilmni chuqur egallaganligidan, fors-tojik adabiyotidan, xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan saboq olganligidan Navoiy mavzuga ijodiy yondoshdi.

Jomiy va Navoiy bir-birlariga maslakdosh, hamfikr bo‘lgan holda har bir hadisni o‘ziga xos uslub bilan alohida-alohida shaklda ifodaladilar.

Ikki buyuk mutafakkir ustozning ezgulikka chorlovchi, insoniylikdan saboq beruvchi bu asarlari juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ularning o‘zaro do‘stligi esa o‘zbek va tojik xalqlari do‘stligi, birodarligi, adabiy hamkorligining mo‘tabar bir timsolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: 1967. – 379 б.*
2. *Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи қўлёзма фонди, инв. № 8.*
3. *Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи қўлёзма фонди, инв. № 106.*
4. *Алишер Навоий . Ўн беш томлик асарлар. 15-т. – Тошкент: 1963.*
5. *Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Фан, 1071.*
6. *Ҳакимов М. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. – Тошкент: Фан, – 1983 й.*
7. *Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Тошкент: ДАВР ПРЕСС, 2013. – 495 б.*

OZODA TOJIBOYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD

BIR NUQTA, O‘ZGA SO‘Z VA TALQIN

Annotatsiya: *Turkiy adabiyotning sultoni Alisher Navoiyning ijodi manbalari bugun dunyo kutubxonalarida sifat va son jihatidan salmoqli qismni tashkil etadi. Adibning o‘z davridan buyon ko‘chirilishda davom etgan asarlari nusxalari dunyo madaniyati, san’ati, badiiy tafakkurning oliy mahsuli sifatida tadqiq etiladi. Mazkur qo‘lyozmalar, badiiy matn zamiridagi mazmun har doim yangi tadqiqotlarga asos bo‘lib xizmat qilaveradi. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning asarlari qo‘lyozmalaridagi bir so‘zning turli yozilishi shakli va uning talqin etilishi yoritilgan. Asos sifatida nashrlar va qo‘lyozma manbalar olingan.*

Kalit so‘zlar: *qo‘lyozma manba, nasriy bayon, doston, talqin, tahlil.*

Annotation: *The sources of creativity of Alisher Navoi, the Sultan of Turkish literature, today constitute a significant part of the world’s libraries in terms of quality and quantity. Copies of the writer’s works, copied from his time, are studied as the highest product of world culture, art and artistic thought. The contents of these manuscripts and literary texts always serve as the basis for new research. This article describes the various spellings of one word in the manuscripts of Alisher Navoi’s works and their interpretation. Publications and handwritten sources were taken as a basis.*

Key words: *handwritten source, prose narrative, epic, interpretation, analysis.*

Adabiyotshunoslikdan ma’lumki, badiiy asar ustidagi bajariladigan tahlillar to‘g‘ri ko‘chirilgan matnga tayanadi. Matn o‘zidan keyin talqinlarga yo‘l ochadi, asarning keyingi yashovchanligini ta’minlaydi. Asl matnni tiklash yozuvchi ijodiy rejasining to‘g‘ri ochib berilishiga, ijodkor badiiy mahorati va asar qimmatining to‘g‘ri baholanishiga xizmat qiladi. Shu ma’noda mumtoz asarning asl nusxalarini aniqlab, uning matnini kitobxon e’tiboriga havola etayotgan manbashunoslik va matnshunoslik ilmi filologiyaning bosh bo‘g‘ini hisoblanadi. Fanda shunday mashaqqatli ishning salmoqli qismini XX asrning zabardast matnshunos olimlari bajardilar. O‘zbek xalqiga tegishli adabiy meros ularning igna bilan quduq qazigandek mehnati ortidan ilmiy iste’molga olib kirildi. Bugun mumtoz asarlar haqida yaratilayotgan tadqiqotlar asosi qo‘lyozmadan ko‘chirilgan matnlardan boshlanadi.

Matnshunoslikda Alisher Navoiyning asarlari matni eng ko‘p ko‘chirilgan va matn ustidagi nuqsonlari ham tuzatishlar bilan bir necha bor tahrirdan o‘tkazilgan, matnning muallif davriga yaqin manbalari ko‘pligi jihatidan ham qiyosiy tanlab olish imkoniyati keng bo‘lgan boy merosdir. O‘z davrida Alisher Navoiy adabiy merosining o‘zagi bo‘lgan “Xamsa” va lirik devonlarini matnshunos olimlar Hamid Sulaymon, Porso Shamsiyev nashrga tayyorlab, o‘zbek xalqiga taqdim etdilar. Keyingi tadqiqotlar uchun ular amalga oshirgan nashrlar tayanch bo‘ldi. Tahlil va talqinlar orqali asar badiiyati va matn zamiridagi ma’no ko‘lami keng kitobxon ommasiga yetib bordi.

E’tiboringizga havola etilayotgan ma’lumot bir so‘zning matnda qay holatda berilgani va uning asar mazmuniga ko‘rsatadigan ta’siri borasida. Maxsus tadqiqot doirasida o‘rganilgan “Nasri Xamsai benazir”da ayrim diqqatga sazovor o‘rinlar borligi tufayli mazkur bayonning asosi bo‘lgan “Xamsa”ga qiyoslab ko‘rildi [8].

Matn turli davrlarda turlicha talqinlarga yo‘l ochadi. Matn o‘zgarishsiz ko‘chirilganda ham unda o‘z davri yutuqlari, an’analari aks etadi. Asliyatdan keyin yaratilgan nasriy bayon, talqin, izoh va sharhlarda davrga xos xususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Talqin germenevtika qonuniyatlari asosida davr kitobxoniga moslab taqdim etilar ekan, o‘zi bilan davr ruhini ham tashiydi. Garchi bugungi talablarga javob bermasa-da, “Nasri Xamsai benazir”dan o‘sha davrdagi asarning tushunilishi, kitobxon didi, saviyasi, talqin va tahlil qilinish yo‘sini borasida ham ma’lumot olsa bo‘ladi. Jumladan, undagi diniy, tasavvufiy tushunchalarning to‘liq saqlangani, muallif tomonidan to‘g‘ri izohlab ketilgani bayon qiluvchining asar ustida ishlashda to‘g‘ri yondashgani, saviya va bilim jihatidan baland ekanini ko‘rsatadi. Xususan, “Farhod va Shirin”dagi Suqrotning Farhodga ilohiy muhabbat borasida aytgan fikrlari to‘g‘ri anglangan va ravon bayon qilingan. “Layli va Majnun” yakunida esa “Bu oriyati dunyo qoldi, hech kimga vafo qilmadi. Mundin ma’lum bo‘ladurki, oqillar bu foniy bevafo dunyog‘a ko‘ngil bog‘lamagaylar. Ko‘ngillarini mahbubi haqiqiyg‘a bog‘lab, murodlarig‘a yetgaylar. Necha kunluk umrlariga mag‘rur bo‘lmagaylar”, deya tugatadi [10. 143]. Matn talqini davr o‘tib borishi bilan o‘zgarib borgan germenevtik tafakkurni o‘zida ifoda etishi yaxshi ma’lum. Shu ma’noda mazkur talqinlarning bir asrlik tarixida har bir tahlil, tadqiqot o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Matnda garchi ahamiyati yo‘qdek, aytilishi shart emasdek ko‘rinadigan bir so‘z e’tiborni tortdi. Bu “Sab’ai sayyor”da shanba kuni ikkinchi iqlimdan kelgan musofir tilidan aytilgan Zayd zargarga tegishli hikoyada ko‘zga tashlanadi. Ma’lumki, Zayd zargar butxonalardagi tilla butlarni soxtalariga almashtirib bo‘lgach, farang eli bilan xayrlashadi. Xayrlashuv chog‘ida onasi vafot etgani va yurtiga borishi, undan qolgan merosni o‘zlashtirib, yana qaytib kelishi haqidagi o‘rinda ona so‘zi e’tiborni tortdi. Porso Shamsiyev amalga oshirgan “Xamsa”ning akademik nashrida ushbu satrlar quyidagicha berilgan:

Dedi: “Uzmak ko‘ngul ne so‘z bo‘lg‘ay?
Hajr uzrin kishi netib qo‘lg‘ay?
Ham alar amridin bu azm o‘lmish,
Safar etmak xayoli jazm o‘lmish.
Meni bu nav’ voqif ayladi lot,
Ki tugangan emish ***onomg‘a*** *hayot.*
Voqi’ o‘lg‘on zamon bu ish hodis,
Naqd ko‘p, mendin o‘zga yo‘q voris.
Boribon ul nuqudni egallay,
Yana lotu manot sori kelay” [1. 529].

Matnda zargarning onasi vafot etgani, undan katta mol-mulk meros qolgani, bu naqd mollarni olish uchun o‘zidan boshqa merosxo‘ri yo‘qligi aytiladi.

“Sab’ai sayyor”ning 1991-yil she’riy hamda Inoyat Maxsum nasriy bayoni asosida Saidbek Hasanov tayyorlagan qayta nashrida ushbu matn quyidagicha beriladi: “Meni bu nav’ voqif ayladi lot, / Ki tugangan emish anamg‘a hayot” [2. 167]. Davomidan keluvchi nasriy bayon matnida esa “Lot nomli butning bashorat berishiga qaraganda, onamning hayoti tugagan emish. Onam qo‘lida ko‘p dunyolar bo‘lib, uning mendan o‘zga vorisu merosxo‘ri yo‘qdir” [2. 439]. Ayonki, nazm va nasriy bayon matnida ona meros egasi sifatida qayd etilmoqda

1908-yil qilingan yuqoridagi nasriy bayonda muallif mazkur misralarni quyidagi shaklda bayon qilgan: “Ey rahbonlar, ular o‘zlari manga mundog‘ xabar berdiki, shahrimda atom o‘lmish, to‘la mol-ganj meros qolmish va mandin bo‘lak merosxo‘r yo‘qdur va man niyat qildimki, ul ganj-mollarni olib, yana qoshingizg‘a kelayman” [8, 83].



Toshbosmada bosilgan matnda ikki nuqta berilgan, bir nuqtadan farqli ekanligi ko‘rinib turibdi (matnning boshqa nusxalarida tiniqroq ko‘ringan) [10. 38-sahifa].

Aslida ota va ona so‘zining almashishi juda katta xato emas, nazarimizda. Agar sharqona muhitga ko‘ra ota qo‘llansa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Sababi Sharq xalqlari turmush tarzida meros aksariyat hollarda otadan o‘g‘ilga qoladi. Qolaversa, ayollarga sharqona odob nuqtayi nazaridan o‘ta nozik munosabatda bo‘lgan, asarlari zamirida ayollarni e’zozlab, o‘z munosabatini nozik ifoda etgan Alisher Navoiyga ham ota siymosi mos tushsa kerak. Biroq, istisno tarzida onaning ham qo‘llanishi mumkin.

Shu o‘rinda manbalar qiyosiga e’tibor bersak, nasriy bayon muallifi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab faoliyat yuritgan shaxs. Tabiiyki, o‘z davridagi eng noyob qo‘lyozmalar qatorida Shohmurod kotib uchun asos bo‘lgan mo‘tabar manbalar va qator toshbosma matnlardan foydalangan. Biroq nashrda o‘z ishiga asos bo‘lgan manbani biror o‘rinda qayd etmagan. Aksariyat hollarda u o‘zi tayyorlab, muharrirlik qilgan “Saloti Mas’udiy”, “Kalila va Dimna” kabi o‘ndan ortiq asarlarning nashrida ish jarayoni haqida tushuntirish berib o‘tgan. Mazkur kitobda esa o‘zi foydalangan manbani ko‘rsatmagani uchun taxminlarga tayanamiz. Har holda u foydalangan matnda ota so‘zi yozilgani aniq.

Matnshunos olim Porso Shamsiyev “Xamsa”ning akademik nashrida quyidagi manbalarni asos qilib olganini qayd etadi:

1. O‘zRFA ShI № 5018. Abdujamil kotib ko‘chirgan nusxa.
2. Sankt-Peterburg Saltikov-Shchedrin xalq kutubxonasi, inv № 560.
3. O‘zR FA ShI XVI asr. № 7554.
4. Xorazm xonligi toshbosma matbaasi. Xeva. 1880. Kotib Muhammad Yusuf binni Berdimurod so‘fi Xorazmiy.
5. Kotiblar Shohmurod va Mannof qori ko‘chirgan nusxalar. 1904, 1905-yillarda O.A.Porsev matbaasida chop etilgan [1. 9].

Ustoz olim P.Shamsiyev “Sab’ai sayyor” matnining ilmiy-tanqidiy nashrini yaratish bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasi himoya qilgan. Aynan ushbu doston uchun Abdujamil kotib va Sultonali Mashhadiy ko‘chirgan nusxalarni asos qilib olgan. Manbalardan foydalanishda Hamid Sulaymon va Porso Shamsiyev faoliyatida farqlar bor. To‘g‘ri, bu o‘rinda lirika va epik asarlari jamlangan kulliyotlardan foydalanish ham mumkin. Ayni qo‘limizda Porso Shamsiyev matni uchun asos

bo‘lgan manbalar yo‘qligi sabab fanda mo‘tabar deb qaraluvchi boshqa bir qancha manbalarga e’tibor qaratamiz. Bitta so‘zni ko‘rish uchun bir necha manbalarga murojaat qilinganda, turfalik ko‘zga tashlandi. Demak, P.Shamsiyev foydalangan matnlarda ت - te harfi matnda nun bilan bir nuqta holida yozilgan.

Xuddi shu matnning Alisher Navoiy davriga yaqin nusxalariga e’tibor beramiz. Jumladan, To‘pqopi kutubxonasidagi 901-902/1495-1497-yillari xattot Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan Hirotda ko‘chirilgan Revan 808-raqamli kulliyotda ano shaklida berilgan [4. 328]:



Mazkur kulliyotning faksimel nashri turk olimi Gunay Kut tomonidan tayyorlangan. Matnda ona so‘zi yaqqol aks etgan. Shu o‘rinda ona so‘zini otaga almashtirib, ixtiyorimizga monand talqin qilsak, joy tig‘iz bo‘lgani sabab nuqta bitta yoki ustma-ust tushgan bo‘lishi mumkin, natijada bir nuqtali nun harfiga almashingan deb taxmin qilib turamiz. Matnda bir harfning o‘zgarishi shaxsning erkak yoki ayolga o‘zgarib ketishiga olib kelmoqda.

Parijdagi 930-933/1525-1527-yillarda kotib Ali Hijroniy tomonidan Hirotda ko‘chirilgan 316-317-raqamli ikki jildlik kulliyotda [5. 363]:



Hirotda ko‘chirilgan mazkur qo‘lyozmada ham ano shaklida ekanligi ko‘rinib turibdi. Demak, Alisher Navoiy davriga yaqin qadimgi qo‘lyozmalarda ano ekanligi anglashiladi. Biroq keyingi nashrlardagi ota shakliga qaysi manba asos bo‘ldi? Alisher Navoiyning asardagi rejasiga binoan Zayd zargar onasini mulkini egallashi lozimmi, otasining mulkimi? Balki, Zayd tomonidan o‘ylab topilgan yolg‘on bahonada ona deb shoirning o‘zi qo‘llagandir? Har holda nasriy bayon muallifi Mir Maxdum ibn Shohyunus taxmini asoslimi degan fikr bilan boshqa manbalarga murojaat qilinganda, bu versiya ham borligi ko‘zga tashlandi.

Oksford universiteti Bodlean kutubxonasidagi 318-raqamli “Sab’ai sayyor” dostoni qo‘lyozmasi 1553-yil Buxoroda ko‘chirilgan. Kotib Muhammadali. Asarga mazmunga muvofiq 8 ta miniatyura ishlangan. Matnda biz e’tibor bergan o‘rin farqli – dona-dona qilib ko‘rsatilgan. Matnda “Ki tugangan emish atomg‘a hayot” satrlaridagi ota so‘zi yaqqol ko‘rinib turibdi [7. 326].



Mazkur qo‘lyozma Buxoroda ko‘chirilgan. Kitob ingliz sharqshunosi, Hindiston mustamlakasida ishtirok etgan, tadbirkor, diplomat Gore Ouseley (1770-1844) fondida saqlanadi. Gore Ouseley 1810-yilda Eronga elchi qilib yuboriladi. Diplomatik munosabatlar doirasida Navoiy asarlari lug‘atini tuzgan Fath Ali shoh Kojariy bilan uchrashadi. Siyosiy tashrif bilan Sankt-Peterburg (1814-15)da ham bo‘ladi. U Sharqqa oid nodir manbalarni Eronda qo‘lga kiritgan, 422 ta kitobni sotib oladi va keyinchalik Jon Bardo Elliotga (1785-1863) beradi [15]. Gore Ouseleyning fondida Alisher Navoiy asarlarining shoir tiriklik davrida va keyingi davrda ko‘chirilgan qimmatbaho nusxalari mavjud. Hirotda shoh kutubxonasidagi Badiuzzamon Mirzoning olib ketish tarixi bilan bog‘liq manbalar ham bor, ular alohida qayd etilgan.

Istanbul Sulaymoniya kutubxonasidagi 4056-raqamli kulliyot ham mo‘tabar nusxa sanaladi. Mazkur kulliyotning ko‘chirilgan yili noma’lum. Alisher Navoiyning lirik devonlari manbalari bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan Oysara Madaliyeva mazkur matn haqida quyidagicha ma’lumot beradi: “Nusxada Sulton Mahmud I ning (1730-1754) muhri mavjudligi kulliyotning mazkur Sulton hukmronligi davrida yoki undan avval tasnif qilinganini bildiradi” [9. 136]. Demak, kulliyot XVIII asrda ko‘chirilgan. Biz e’tibor qaratayotgan satrlar qo‘lyozmada yuqoridagi qo‘lyozma singari yozilgan [6. 317-sahifa].



Mazkur kulliyot ham fanda mo‘tabar nusxa sanaladi. Manbada “Kim tugangan emish atomg‘a hayot” misrasida ato yaqqol ko‘rinib turibdi. Demak, bu versiya faqat O‘rta Osiyo hududiga tegishli emas, Turkiyada ko‘chirilgan nusxasida ham mavjud ekan. Bu o‘rinda bir nuqtaning kamayishi va ko‘payishi juda jiddiy kamchilik bo‘lmasa-da, manbalardagi o‘ziga xoslikni ko‘rsatadi. Tabiiyki, manbalar uchun asos bo‘lgan dastlabki manbani ko‘rish lozimligiga ishora qiladi. Nazarimizda, Porso Shamsiyev foydalangan manbalarda ano shaklida yozilgan.

Agar keyingi yillardagi manbalarda ato shakli uchrasa ham Navoiy davridagi manbalar asos qilib olingan va ko‘chirilgan.

Xulosa qilib aytganda, matnshunoslikda yig‘ma-qiyosiy matnlar tayyorlash ham foydali deb hisoblaymiz. Bugungi kunda ilmiy-tanqidiy matnlar yaratilgan bo‘lsa-da, yig‘ma matnlarni tayyorlab qo‘yish ham foydadan holi emas. Imkoniyatlar kengaygan hozirgi sharoitda qadimgi qo‘lyozmalardagi xos xususiyatlarni, matniy farqlarni bir jildda tiklash keyingi tadqiqotchilar uchun qulaylik tug‘diradi. Har doim qilinishi lozim deb uqtiriladigan bir vazifa adosiga yetgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Хамса. Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев. – Тошкент: Фан, 1960. – 854 б.

2. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Иноят Махсум насрий баёни асосида қайт нашрга тайёрловчи Саидбек Ҳасанов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 544 б.

3. Külliyat-ı Nevayi: İnceleme, Tıpkıbasım. KUT Günay. 2020. İstanbul, Türkiye Yazma Eserler Kurumu.

4. Alisher Navoiy. Kulliyot. Qo‘lyozma. To‘pqopi saroyi kutubxonasi. Revan 808-inv. raqam.

5. Alisher Navoiy. Kulliyot. Qo‘lyozma. Fransiya Milliy kutubxonasi. Suppl. Turc. 317-inv. raqam.

6. Alisher Navoiy. Kulliyot. Qo‘lyozma. Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fondi. 4056-inv. raqam.

7. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Бодлеан кутубхонаси. 318-рақамли қўлёзма 1553-йил Бухорода кўчирилган. Котиб Муҳаммадали.

8. Алишер Навоий. Насри Хамсаи беназир. Мир Махдум ибн Шоҳюнус насрий баёни. Нашрга тайёрловчи О.Тожибоева. – Тошкент: Tamaddun, 2018. – 222 б.

9. Мадалиева, О. Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2021. – 680 б.

10. Насри Хамсаи беназир: Искандарнома. Қиссаи ҳафт манзари Баҳром, Қиссаи Лайли ва Мажнун, Қиссаи Фарҳод ва Ширин. Тошбосма. – Тошкент: Орифжонов матбааси, 1908. ЎзР ФА ШИ. Инв № 4721, 4722, 4723, 10673, 20925. – 351 б.

11. Volin, S. L. (Çev. Rasime Uygun). “Leningrad Kitaplıklarındaki Nevaî Yazmaları Hakkında”. TDAY-Belleten 99-141. – Ankara, 1955.

12. Catalogue of the Persian, Turkish, Hindustani, and Pushtu manuscripts in the Bodleian Library / begun by Ed. Sachau, continued, compl. and ed. by Hermann Ethé. Oxford : Clarendon Pr., 1930.

13. Шодмонов Ғ. Порсо Шамсиев илмий лабораторияси: тадқиқ усуллари, тамойиллари, матншунослик тараққиётидаги ўрни: филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2021. – 167 бет.

14. Қодиржон Эргаш. Насри Хамсаи беназир / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2009. 18 декабрь. № 51.

https://www.iranicaonline.org/articles/ouseley-sir-gore

ALISHER RAZZOQOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

ALISHER NAVOIY SHE’RIYATIDA MUTRIB VA MUG‘ANNIY OBRAZLARINING TASAVVUFIY MOHIYATI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘p qo‘llaniladigan, ba’zan soqiy obrazi bilan parallel tasvirlanadigan mug‘anniy, mutrib obrazlarining adabiy-estetik, tasavvufiy mohiyati talqin qilingan. Bu obrazlar tahliliga kirishishdan avval, tasavvufiy manbalarda musiqa haqidagi qarashlar umumlashtiriladi, Alisher Navoiy ijodida, u yashagan davr ma’naviy muhitida musiqa san’atining tutgan o‘rni, naqshbandiya ta’limotining musiqaga munosabatiga aniqlik kiritiladi. Shundan so‘ng Navoiy g‘azallarida tez-tez uchraydigan mug‘anniy va mutrib obrazlarining irfoiy istiloh sifatidagi ma’nolari ochiqlanadi. O‘rganish davomida shoir she’riyatida tasvirlangan mug‘anniy va mutrib obrazlari ogoh qiliuvchi, xabardor qiluvchi, rabboniy olim, ramz va haqiqitlarni ochib oriflar ko‘nglini obod qiluvchilar va fayz ulashuvchi komil murshid ma’nolarida talqin qilingan, degan umumiy xulosaga kelindi.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, tasavvuf, musiqa, samo’, mug‘anniy, mutrib, badiiy obraz.*

Abstrakt: *This article interprets the literary-aesthetic, mystical essence of the images of the “mughanni”, “mutrib” (musicians) which are often used in Alisher Navoi’s ghazals, and are sometimes described in parallel with the image of the “soqiy” (cup-bearer). Before starting the analysis of these images, views on music in mystical sources are summarized, the role of music in Alisher Navoi’s work, in the spiritual environment of the time he lived, and the relationship of Naqshbandi doctrine to music are clarified. After that, the meanings of the images of mughanni and mutrib, which are often found in Navoi’s ghazals, as intellectual reform are revealed. During the study, a general conclusion was reached that the images of muganni and mutrib depicted in the poet’s poetry were interpreted in the sense of a warning, informing, rabbinic scholar, a perfect murshid who reveals symbols and truths and enlightens the hearts of scholars and sharers of grace.*

Key words: *Alisher Navoi, mysticism, music, sky, mughanni, mutrib, artistic image.*

Ma’lumki, Alisher Navoiy hayotlik paytidagi Temuriylar saltanatining poytaxti Hirot tamaddun markazlaridan biri edi. Unda bir tomondan adabiyot, san’atning bir qancha sohalari, ilm-fan gullab-yashnagan bo‘lsa, yana bir tomondan islom dinining ruhiy-ma’naviy hayoti bo‘lgan tasavvuf ta’limoti, xususan, uning naqshbandiya tariqati o‘sha davr ma’naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan edi. Bu tamaddun o‘chog‘ining rivojida, albatta, Alisher Navoiy sa’y-harakatlarining o‘rni beqiyosdir. Hazrat Navoiy bu sohalarning gullab-yashnashiga homiylik qilibgina qolmasdan, uning nazmiy va nasriy asarlarida ham amaliy san’atning, jumladan, musiqa va unga bog‘liq tushunchalarning o‘ziga xos talqinlari ko‘zga tashlanadi. Shoir g‘azallarida tez-tez uchraydigan mug‘anniy va mutrib obrazlari buning dalilidir.

Tasavvufiy manbalarga nazar solsak, musiqa va qo‘shiqni o‘zida mujassamlashtirgan samo’ masalasida so‘fiylarning qarashlari xilma-xilligi ma’lum bo‘ladi. Ularning ba’zilari samo’ni keskin tarzda tanqid va inkor qilsalar, ba’zilari uning o‘ziga xos ahamiyati haqida so‘z yuritadilar. Yana bir boshqa toifalar uning ham salbiy, ham ijobiy tomonlari borligini ta’kidlaganlar. Jumladan, Shibliyning samo’ haqidagi quyidigi fikrlari bir necha manbalarda aynan takrorlanadi: “Samo’ning zohiri fitna, botini ibratdir. Ishorat ahli bo‘lgan va buni anglaganlar uchun samo’ halol va ibratdir. Aks holda samo’ fitnaga boshlaydi, insonni baloga giriftor qiladi” [8. 424; 16. 460]. Bu manbalarda musiqa va qo‘shiq tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lgan “samo’” so‘zi arabcha “sam’” – eshitish kalimasidan paydo bo‘lgani ta’kidlanadi. Hujviriy “Kashf ul-mahjub” asarida ilm hosil bo‘lishi va qo‘lga kiritilishining sabab va vositalari “havosi hamsa” deyiladigan besh sezgi a’zolari bo‘lib, Xudovand taolo bu besh narsani qalb uchun eshik o‘laroq yaratgani va ilm turlarining barchasini bularning har biriga bog‘langani haqida so‘zlar ekan, bularning ichida ayricha eshitishning ahamiyati barchasidan yuqori turishini shunday ta’kidlaydi:

“Shariat va dinni vojib qiladigan sam’(vahiy va naql)dir. Shuning uchun ahli sunnat takliflar olami bo‘lgan bu dunyoda sam’ni basardan (eshitishni ko‘rishdan) ustun ekanligin so‘zlaydilar. Xato ustida bo‘lgan ba’zilar aytishlari mumkinki: Sam’ va quloq xabarning o‘rnidir, basar va ko‘z esa nazar yeridir. Alloh taoloni ko‘rmoq Uning kalomi va xitobini eshitmoqdan yanada ustundir. Bu holda ko‘z va ko‘rmoqning quloq va eshitmoqdan ustun bo‘lishi lozim bo‘ladi. Bunga javoban aytamizki: Biz jannatda ro‘yat (Allohni ko‘rish) bo‘lajagini sam’ va quloq ila bilamiz... Xabar ila bildikki, Alloh mo‘minlarni mukoshafa holiga keltiradi, ko‘zlari oldidan hijob va pardani ko‘taradi va shu suratda ular Zul-Jaloli va-l-Ikrom Allohni ko‘radilar. Shu holda sam’ va quloq basar va ko‘zdan fazilatlidir. Butun shar’iy hukmlar sam’ va eshitish ustida bino qilingandir. Chunki sam’ bo‘lmasa, bu hukmlarning sobit bo‘lishi, qabuli va subuti imkonsizdir. Yuborilgan payg‘ambarlar ham avval so‘zlaganlar (insonlarga Allohning kalomini bayon qilganlar), buning natijasida ularni tinglagan, so‘zlariga quloq solganlar, shundan so‘ng mo‘jizalar ko‘rsatganlar” [16. 441-442].

Bir qator tadqiqotlarda tasavvuf ta’limotining paydo bo‘lishida islomgacha bo‘lgan dinlar, falsafiy qarashlarning ta’siri bor, degan qarashlar mavjud bo‘lsa-da, ammo yetarli dalillarga asoslanib ayta olamizki, nafaqat tasavvuf, balki uning bir uzvi hisoblangan samo’ning kelib chiqishida ham Yaqin Sharqda islomgacha bo‘lgan dinlar zohidona rituallari va amaliyoti bilan bog‘liqligi to‘g‘risida hech qanday yetarli asos yo‘q. Samo’ islom doirasida Qur’oni karimni katta xalq yig‘inlarida qiroat bilan tantanali o‘qish an’anasi rivojining tabiiy mahsuli sifatida kelib chiqqan deyish mumkin. Chunki shunday tilovatlar jarayonida tinglovchilar kuchli emotsiyaga berilishi (hatto jazavaga tushishi) ko‘p bora sodir bo‘ladi [20. 30]. Tasavvufga doir klassik manbalarning deyarli barchasida samo’ haqidagi fasl mavjud bo‘lib, unda samo’ning paydo bo‘lishi Qur’on tinglashdagi holatlar bilan bog‘langan [17. 224; 12. 271-275; 8. 428-430; 16. 443-448].

Alisher Navoiy ergashgan naqshbandiya tariqati boshqa tasavvuf tariqatlariga nisbatan samo’ – musiqa va qo‘shiqqa nisbatan anchagina ehtiyotkorlik yo‘lini tutadi. Navoiy tasavvuf shayxlari tazkirasi “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Xoja Bohouddin Naqshbandning bu masalada shunday deganini zikr qiladi: “Yana alardin, so‘rdilarki, sizing tariqingizda zikri jahru xilvat va samo’ bo‘lur? Dedilarki, bo‘lmas!” [7. 307-308]. Bu parchada ulug‘ murshidning samo’ masalasida keskin nuqtai nazari ma’lum bo‘lsa-da, ammo boshqa manbalarda Bahouddin Naqshbandning musiqa, samo’ haqidagi savolga “inkor namekunem va in kor namekunim” (inkor qilmaymiz, ammo bu ishni ham qilmaymiz) degani keltiriladi. Chunki musiqaning insonni Allohga yetishtiradigan bir xususiyati borligini qabul qilgan naqshbandiylar samo’ning faqatgina ba’zi tatbiq qilish shakllarigagina qarshi chiqqanlar, samo’ni mutlaq inkor etish o‘z pirlari bo‘lgan bir qancha buyuk so‘fi-

ylarni rad etish ekanligini doimo nazarda tutganlar [18. 379]. Balki shuning uchundir islom dining har bir tartib-qoidalariga qat'iy tarzda amal qilgan Alisher Navoiy musiqa masalasiga befarq qaramagan, bu soha vakillariga homiylik qilgani manbalardan ma'lum. Uning piri Abdurahmon Jomiy ham musiqa nazariyasi doir maxsus risola yozgani buning bir isbotidir.

Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostoning XIV bobida yozishicha, o'sha paytlardagi adabiy kechalarda mutrib – sozandalar ham ishtirok qilib, ular shoir g'azallariga kuy bastalab, ijro qilganlari ma'lum bo'ladi. Bu yig'inda qatnashganlar she'r mazmuni va ohang ta'siridan ruhiy g'alayon – jazavaga kelganlari, yoqalarini yirtib, hatto halok bo'lganlari shunday tasvirlangan:

Bazmda har mutribi daston saro,
Cheksa tarannum bila dilkash navo.
Naqshda har necha talolo desa,
Yo amal ichra tanadirno desa.
Borchasidin haz etar ahli uqul,
Gar xud uzoq cheksa bo'lurlar malul.
Yo bu navo zimnida asrab mahal,
Cheksa Navoiy so'zidin bir g'azal,
Kim anga alfoz o'lub otash fishon,
Bersa ulus ko'ngliga mungdin nishon.
Bazmda ul lahza aloloni ko'r,
Ko'yi xarobot aro g'avg'oni ko'r.
Ko'rki nechukdur yoqo chok aylamak,
O'zni fig'on birla halok aylamak [5. 49-50].

"Risolai Qushayriya" asarida keltirilishicha, Abu Ali Daqqoq shunday deydi: Abu Amr bin Nujayd Nasrobodiy va bularning tabaqasidan bo'lgan zotlar bir yerda to'plandilar. Nasrobodiy: Mening qanoatimga ko'ra, bir yerda to'plangan so'fiylardan birining ohang bilan she'r o'qishi, boshqalarining sukut qilib uni tinglashlari birovni g'aybat qilishdan ko'ra yaxshidir, dedi. [8. 432]. Alisher Navoiy ham musiqa va qo'shiqqa so'fiylarning shu nuqtai nazarlariga binoan munosabatda bo'lgan, deb ayta olamiz. Chunki "Lison ut-tayr" dostonining CLXXI bobida yuqoridagiga juda uyg'un keladigan fikrni Xoja Abdulloh Ansoriy tilidan so'zlatadi:

Xoja Abdulloh Ansoriy dedi,
Ulki bu yo'l ahlig'a hodiy edi:
"Kim kishi soz aylabon ohangi rud,
Tuzsa ul ohang aro lahni surud,
Lek bu rudu surudidin murod,
Bo'lsa tengri yodi, ey pok e'tiqod,
Yaxshiroqim g'aflat ohangin tuzub,
O'qug'oy Mus'haf tilovat ko'rguzub.
Bo'lsa lahnu nag'mada ogohlig',
Behki toat vaqtida gumrohlig'" [6. 261].

Yana bir ahamiyatli tomoni Alisher Navoiy kuy-qo'shiq haqidagi bu fikrlarni "Lison ut-tayr" dostonining "Qushlarning fano husulidin baqo vusulig'a yetkoni" sarlavhali bobiga ilovalardan biri sifatida keltirgan bo'lib, odamzot haqiqiy insonlik sharafiga baqo maqomida erishadi, buning

uchun u suluk yo‘lida riyozatlar chekib tabiatidagi nafsoniy yomonliklar – siyratidagi Fir’avnlik, Abu Jahllikni yo‘qotib, sharaf ganjiga erishishi lozim deydi:

Bordur inson zotida oncha sharaf,
Kim yamon axloqin etsa bartaraf.
Bo‘lmasa Fir’avnlig‘ning payravi,
Qolmas ondin juz sifoti Musavi.
Yo sharaf ganjiga topib ahlliq,
Salb qilsa siyrati Bu Jahlliq [6.256].

Ya’ni, asar kompozitsiyasidagi bu mantaqqa binoan, tabiati nafsoniy istaklardan poklangan insongina samo’dan hikmat topa biladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Samo’ – musiqaning insonga bunday ta’siri so‘fiylarga oldindan ma’lum bo‘lib, u har bir insonga o‘zgacha ta’sir qilishining sababini Suhravardiy o‘zining “Avorif ul-maorif” asarida shunday tushuntirgan: “Samo’ ba’zan huzn bag‘ishlaydi, huzn esa kuydiruvchidir; ba’zan shavq bag‘ishlaydi, shavq ham kuydiruvchidir; ba’zan pushaymonlik bag‘ishlaydi, u ham kuydiruvchidir. Samo’ning bu kabi kuydiruvchi haroratlari yaqin tuyg‘usining burudatlari, salqinliklari bilan qalbi to‘la kimsaga yetishganida, bular ko‘z yoshiga aylanadi va u kimsa yig‘lab, ko‘z yoshi to‘kishni boshlaydi. Chunki harorat va burudat (namlik), ya’ni issiq havo sovuq havo bilan bir-biriga aralashganida yomg‘ir va momaqaldiroq paydo bo‘ladi” [17. 223]. Mug‘anniy kuyining insonni mana shunday turfa holatlarga tushira olish xususiyati Navoiy g‘azallarida ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonining 78-g‘azalida quyidagi bayt mavjud:

Chu majnun qilding emdi, ey mug‘anniy, go‘shatobingni,
Ko‘ngul savdosi taskini uchun bo‘ynumg‘a tumor et [1. 99].

Baytda mug‘anniy – cholg‘uvchiga murojaat qilinar ekan, dastlab lirik qahramon uning kuyidan majnunlik holatiga yetgani, so‘ngra shu holatga taskin berishni yana mug‘anniyning o‘zidan iltijo qiladi. “Mahbub ul-qulub” asarida xursandchilik ulashuvchi mutrib va g‘amni arituvchi mug‘anniyga dardu hol ahli, ya’ni xos kishilar, oriflar jonlarini fido qilishlari, mug‘anniylarning xush ovozi va ohangi ko‘ngil hamda ruhning quvvati, ozig‘i, go‘zal ovozli mug‘anniydan dard ahlining ko‘ngil olovi yanada balandlashi e’tirof etiladi: “Mutribi tarabafzo, mug‘anniyi g‘amzudo – ikalasiga dardu hol ahli jon qilurlar fido. Ulki ko‘rguzgay muloyim taronau nag‘am, agar eshitguvchining hayoti naqdi anga fido bo‘lsa ne g‘am. Ko‘ngul quvvati – xushnavozdin, ruh quti – xushovozdin. Xushxon mug‘anniydin dard ahlining o‘ti tezdur, agar malohati bo‘lsa, hol ahlig‘a rustoxezdur” [6. 468].

Shoirona ilhom mahsuli bo‘lgan g‘azal ijodkorning qalb iztiroblari, dardlari vositasida dunyoga kelishini nazarda tutsak, shoir misralarida mug‘anniy, mutrib obrazlariga murojaat ko‘p uchrashining yana bir sababi ayon bo‘ladi. “Navodir ush-shabob” devonining 351-g‘azalida lirik qahramon ko‘ngli mutrib sozidan navo – bahra topgani, uning mizrobi (sog‘ chertadigan tirnoq) go‘yoki sozning emas, shoirning ko‘ngil torlariga urilganini e’tirof qiladi:

Ey Navoiy, topti mutrib sozidin ko‘nglum navo,
Go‘yiyo jon rishtasig‘a tegdi mizrobi aning [2. 356].

Tasavvuf lug‘atlarida mutrib so‘zining irfoniy mohiyati deyarli bir xil ifodalanib, she’riyatda quyidagi anglamlarda istifoda etilgan: a) Ogoh qiluvchi, xabardor qiluvchi, rabboniy olim. b) ramz va haqiqatlarni ochib oriflar ko‘nglini obod qiluvchilar va fayz ulashuvchilar. c) komil murshid

[19. 381; 10. 737; 15. 174]. Demak, Navoiy g‘azallarida musiqaga bog‘liq bu tushunchalarning undan tashqarida ham, tasavvufiy ma’nolari borligi ma’lum bo‘ldi. Chunki, so‘fiylar nazaridagi samo’ bir qator fiziologik xususiyatlarni o‘zida jamlagan, san’atkorlar tushunchasidagi musiqa emasdir. Ular tamoman ruhoniy sirlar, ma’naviy haqiqatlar va botiniy olamlarida “eshitgan” oliy saslarga ham samo’ ismini berganlar. Nozik anglamda samo’ vijdon sasini, ruhning ovozini tinglamoq ma’nosida keladi [18. 231]. Shu bilan birga Navoiy va musiqa san’atiga bag‘ishlangan oxirgi ilmiy tadqiqotlardan birida mutrib va mug‘anniy faqatgina ijrochi-cholg‘uchi yoki xonandani, balki talqin etuvchini ham ifodalaydi [11. 12], degan ta’rif ham keltiriladiki, bu tadqiqotda musiqaning shoir tasavvufiy anglamlariga oz bo‘lsa-da yaqin kelishga harakat qilingan. Navoiy forsiy bir g‘azalida dilga xitoban voizning emas, mug‘anniyning ovozini tingla, derkan samo’ni, yuqorida aytilganidek, nozik ma’noda talqin qilgan bo‘lsa ajabmas:

Ey dil, ovozi mug‘anniy shunav, on gah voiz
Garchi faryod kunad go‘sh bigiru mashnav! [4. 498]

Bu baytda shoir mug‘anniy ovozini tinglashni dilga tavsiya etmoqdaki, dil tasavvufiy istiloh sifatida ilohiy sirlarning o‘rni va xazinasi ma’nosida ham qo‘llaniladi [10. 388]. “G‘aroyib us-sig‘ar” devonining 624-g‘azalida mug‘anniy navosidan fano hosil bo‘lgani aytiladi, shu sabab lirik qahramon ishqqa jon rishtasini mug‘anniy udining tori qilishini tavsiya qiladi:

Navosidin fano chun hosil o‘ldi qilg‘asen, ey ishq,
Navoiy rishtayi jonin mug‘anniy udining tori [1. 645].

Mazkur bayt musiqashunoslar e’tiborini ham tortib, “Mutrib – ya’ni cholg‘uvchining sozi – udining torlari Navoiyning jonu jismidan yaralgani uchun undan taralayotgan navo – kuyu ohangda bu foniy dunyo hosil bo‘ldi” [14. 91] tarzida biroz yanglish talqinlar ham yaratilgan.

Fanoga – komillikka intilish har bir insonning tug‘ma tabiatida mavjud hislat bo‘lib, so‘fiylar buni “al-miysoq” nazariyasi bilan asoslaydilar. Bu fitrat kimdadir kuchli, kimdadir o‘ta zaif bo‘ladi. Samo’ masalasini “miysoq” nazariyasi bilan izohlagan ilk kimsa Junayd Bag‘dodiydir. U bilan boshlangan musiqani “alast bazmi” bilan izohlash masalasi undan keyin tasavvufda juda tez suratda yoyildi. Junayddan so‘radilar: Sokin holdagi kimsa samo’ tinglagan payti nega tebrana boshlaydi? Shunday javob berdi: Alloh taolo ilk miysoqda inson ruhiga “Alastu bi-Robbikum” deya xitob qilgani zamon ruhlar “Qolu bala” dedilar. O‘sha paytdagi bu so‘z samosidan (eshitilishidan) hosil bo‘lgan zavq va lazzatlar ruhlarga ta’sir qildi, bu sasning totliligi ruhlarning ichiga yoyildi. Endi bu dunyoda musiqa tinglagan kimsalar uni xotirlab, uning uchun harakatlana boshlaydilar [18. 247]. Yuqoridagi Navoiy baytida aytilganidek, kuyidan fano hosil bo‘lgan mug‘anniy ovozi ham mana shu fitratni uyg‘otishga, insonning asl makonini, Haqni tanishga, Unga tomon yo‘nalishga sabab bo‘lgan bir turtkidir. Shu boisdan Zunnun Misriydan samo’ haqida so‘ralganida quyidagi javobni bergan: “Haqdan keladigan va qalblarni Haqqa tomon harakatlantiradigan bir vorid va sababdir” [8. 424; 16. 459]. Abu Sulaymon Doroniyning fikriga ko‘ra: “Xush sado qalbga tashqaridan biror narsani keltirmaydi, faqatgina qalbda mavjud bo‘lgan narsani harakatga keltiradi, jo‘shtiradi” [8. 431]. Qalbda mavjud bo‘lgan narsa esa kimdadir kuchli, kimdadir zaif bo‘lgan, insonning hali ruh holida bo‘lgan o‘sha olis o‘tmishidagi iqroridir.

Samo’ haqidagi tasavvufiy qarashlardan xabardor bo‘lgan Navoiy “Favoyid ul-kibar” devonining 487-g‘azalida mug‘anniy kuyining asroridan xonaqoh ahli emas, fano dayrining sokini ogoh ekanini yozadi:

Butu zunnor mug‘anniysin ne bilgay xonaqah ahli
Ki, andin ramz so‘rgay sokini dayri fano bo‘lg‘an [3. 492].

Bu faktlar sözügedən adları sırf epik məkan adları kimi gözdən keçirməyi zəruri edir. Yəni onlara dastanın süjeti və orada təsvir edilən real adlar kimi baxmaq qətiyyən doğru deyil.

Epik məkan və zaman real dünya ilə eyni deyil. Bu xəyali dünya onu təsvir edən ozan və ya aşığın, eləcə də dinləyənlərin mövcud olduqları aləmdən və zamandan ayrı və uzaqdır, onları bir-birindən yaradıcı təxəyyül ayırır, uzaqlaşdırır. Bununla belə, nə qədər paradoksal görünsə də, epik yaradıcılıq üçün xarakterik olan epik məkan və zaman bəzi hallarda real dünya, fiziki zaman və gerçək coğrafi məkanla bağlı olur, sadəcə dastanın söylənmə prosesində ozan-aşığın real dünyanı epik məkana transformasiya etməsi, onu xəyali cizgilərlə zənginləşdirməsi baş verir, dinləyicilərin də təsəvvürlərində real məkan konturları epik məkanın hesabına genişlənir. Bu, epik yaradıcılıq üçün xarakterik olan qanunauyğunluqdur.

Ədəbiyyat

1. Abbaslı İ. Azərbaycan qəhrəmanlıq eposu // Koroğlu. Bakı, "Lider nəşriyyatı", 2005. s. 2-46.

2. Azərbaycan Respublikası Xatirə Kitabı, XII cild, «Respublika Xatirə Kitabı» redaksiyası, Bakı, 2012. səh. 598-600. (Toplayıb tərtib edəni: Araz Yaquboğlu)

3. Azərbaycan Toponimlərinin Ensiklopedik Lüğəti. Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası. Nəsimi adına Dilçilik İnstitutu. Şərq-qərb Bakı-2007.

4. Bəxtiyar Tuncay. Türk eposu: Yaxın və uzaq keçmişimiz // https://bextiyartuncay.wordpress.com/2016/08/14/turk-eposu-yaxin-v%C9%99-uzaq-tariximiz/.

5. Boratav, P.N. Koroğlu Destanı. 2-ci basım. − İstanbul: Adam Yayıncılık, 1984. − 261 səh.

6. Çənlibel // https://az.wikipedia.org/wiki/%C3%87%C9%99nlibel

Ədəbiyyat

7. Əskər N. Koroğlu qalaları // Filologiya məsələləri, № 2, 2022, s. 243-250.

8. Görogly. Türkmen halkynyň gahrymançylykly dessany // Aşqabad TÜRKMENISTAN neşriýaty, 1980, 563 s.

İnternet Resurslar

9. Kalmış G. Kuzeydoğu Anadolu Bolgesinde Tespit Edilen Koroğlu Kaleleri // Tokat Gaziosmanpaşa Universitesi Sosyal Bilimler Araştırmaları Dergisi. − 2020, XV/I, − s. 155-169.

10. Kazımoğlu M. Eposda tarixilik // AMEA Folklor İnstitutu və AMEA A.A.Bakıxanov ad. Tarix İnstitutunun "Folklor və tariximiz" mövzusunda elmi konfransının materialları. Bakı, Elm və təhsil, 2012, s. 145-153.

11. Koroğlu. Bakı, "Lider nəşriyyatı", 2005, 552 səh.

12. Qoşabulaq // https://az.wikipedia.org/wiki/Qo%C5%9Fabulaq.

13. Məmmədov N. Azərbaycanın yer adları. Bakı 1993.

14. Nəcəfli T. Azərbaycanda Cəlalilər hərəkatı və Koroğlu // AMEA Folklor İnstitutu və AMEA A.A. Bakıxanov ad. Tarix İnstitutunun "Folklor və tariximiz" mövzusunda elmi konfransının materialları. Bakı, Elm və təhsil, 2012, s. 186-194.

15. Rəşidəddin. Oğuznamə. "Azərbaycan Milli Ensiklopediyası" Nəşriyyatı-Poliqrafiya Birliyi, Bakı, 2003. 109 s.

16. Sümer F. Kör Oğlu, Kizir Oğlu Mustafa ve Demirçi oğlu ile ilgili vesikalar. Turk Dunyası Araştırmaları. Şubat 1987, s. 9-44.

17. Tbilisi yaxınlığındakı Koroğlu qalası turizm obyektinə cevriləcək // https://report.az/region-xeberleri/tbilisi-yaxinligindaki-koroglu-qalasi-turizm obyektine-cevrilecek/

18. Снытко В. А., Собисевич А. В. Международные эколого-географические проекты "Альпы – Кавказ" и "Кавказ – Стара-Планина" // География и экология: научное творчество, междисциплинарность, образовательные технологии. Материалы Международной научно-практической конференции (г. Мытищи, 16-17 февраля 2017 г.). – М., 2017. s. 141-146.

19. Щеблыкин, И.П. Памятники Азербайджанского зодчества эпохи Низами. Баку: Изд-во Аз-ФАН. 1943.

JABBOR ESHONQULOV,
O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori, f.f.d., professor

JADID NIGOHLI ADIB

Annotatsiya: *Har qanday milliy adabiyotdagi yangilanish o‘z-o‘zidan, osonlikcha sodir bo‘lmaydi. Bu evrilishlar millat tarixi va tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq jarayon. Shuning uchun badiiy so‘z san’ati namunalarida ijodkorning xayoloti, badiiy fantaziyasi bilan birga o‘z davrining ijtimoiy voqeliklari ham o‘z aksini topgan bo‘ladi. Zero, badiiy asar xalqning badiiy tarixidir. Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, katta bir maktab yaratgan atoqli adib Xayriddin Sulton asarlari tahlilga tortilgan. Unda adibning hikoya va qissalari tadqiqi misolida har bir voqelikka haqqoniy munosabati, tarixiy haqiqatlarni o‘ziga xos tarzda badiiy haqiqatga aylantirish mahorati borasida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy asar, mavzu, g‘oya, poetik qatlam, milliy til kaloriti, tarixiy haqiqat, badiiy talqin.*

Abstract: *The renewal of any national literature does not happen by itself, easily. These developments are a process closely related to the history and thinking of the nation. That is why, along with the artistic fantasy of the creator, the social realities of his time are also reflected in the examples of artistic word art. After all, a work of art is the artistic history of the people. This article analyzes the works of the famous writer Khairiddin Sultan, who has a place in Uzbek literature and created a large school. It talks about the author’s honest attitude to every reality, his ability to transform historical truths into artistic truths in his own way, as an example of the study of stories and short stories of the writer.*

Key words: *artistic work, theme, idea, poetic layer, national language caloric, historical truth, artistic interpretation.*

Xayriddin Sulton bugungi o‘zbek nasrining zabardast vakillaridan bo‘lib, uning asarlari qariyb so‘nggi ellik yillikda millatimizning ma’naviy manzaralarini, og‘riq, iztiroblarini, shu davrning ruhoniy muammolarini o‘rtaga tashlagani va o‘zbek tilining jozibasini, badiiy imkoniyatlarini mahorat bilan namoyon qilgani, yangi davr adabiy jarayoniga Abdulla Qodiriyning badiiy an’analarini qayta olib kirgani bilan alohida ajralib turadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Xayriddin Sulton Abdulla Qodiriy, Cho‘lponga xos bo‘lgan so‘z, tasvir, badiiy ifoda, nasriy ohangdorliknigina emas, yozgan har bir asarida ular o‘rtaga tashlagan muammo va milliy dardni ham o‘tgan asrning 70-80-yillar avlodiga xos bo‘lgan ko‘rim va o‘lchamlarda o‘rtaga tashlab, badiiy hodisaga aylantira oldi. Adibning Qodiriy maktabiga xos bo‘lgan so‘z qo‘llash, tilning poetik qatlamlarini kengaytirgani haqida ko‘p yozilgan.

“Yo Jamshid” hikoyasi o‘z davrida adabiyotda voqea bo‘lgan hikoyalardan sanaladi [7.331-347]. Vaqt o‘tgan sayin bu hikoya adabiyotning mumtoz mulkiga aylanib borayotganini tan olishimiz kerak. Bu hikoyaning syujeti ham, obrazlar tizimi, yakuniy xulosasi ham o‘sha davrda har bir asar oldiga qo‘yilgan sotsialistik realizm talablariga bo‘ysunmaydi, boshqacha aytganda, hikoya bosh qahramonida ham, voqeaning o‘quvchida uyg‘otadigan badiiy ta’siri va sabog‘ida ham sotsialistik jamiyatning kommunistik ongli obrazini ham, sotsialistik voqelikni ham ko‘rmaymiz.

Xossatan, ba’zi bir detallar, aroq, sigaret, diologlardagi kasb-kor, uy-joyga daxldor belgilardan tashqari voqelikning qaysi davrda bo‘layotganini birdan anglash mushkul. Aftidan, adib buni atayin qilgan. O‘rinboy ham, uning uyi, yaqinlari ham bizga beixtiyor jadid adabiyotidagi obrazlarni, holatni, muhitni esga soladi. Bu bilan adib shuncha yillar o‘tsa-da, millatning mahdud illatlari hech bir o‘zgarmaganiga ishora qiladi. O‘rinboy xuddi jadid qahramonlar kabi o‘z nodonligining qurboniga aylanadi. X.Sulton jadidlardan qariyb oltmish yildan so‘ng ularning ko‘zgusi bilan milliy illatni tahlil qiladi va hikoyadan xuddi jadid asarlari kabi xulosa chiqadi.

Xayriddin Sulton ijodini kuzatar ekanmiz, uning ijodida ustuvor bo‘lgan uchta muhim jihat e’tiborimizni tortadi:

1. Adib asarlari sof milliy til kaloriti va ifodasiga qurilgan. Shu xususiyatiga ko‘ra adib Abdulla Qodiriyning badiiy an’analarini, uning so‘z qo‘llash stilistikasini davom ettiradi.

X.Sultongacha biz Abdulla Qodiriy badiiy til jozibasini boshqa bir adibda bu darajada mukammal egallanganini ko‘rmaymiz. Adib xuddi Abdulla Qodiriy kabi milliy tilga, milliy tilning imkoniyatlariga yuzlanish orqali o‘zining millatga bo‘lgan munosabatini ifoda etadi. O‘zbekiston qahramoni Ibrohim G‘afurov tili bilan aytganda, adib tuyg‘ulari go‘zal odamlar haqida hikoya qiladi.

2. Adib ijodida Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatiga munosabat ustuvorlik qiladi. Adib Bobur siymosida nafaqat XVI asrning, balki bugungi kunning ham milliy ruhoniyatini ko‘radi. Bobur shaxsi adib uchun bugungi kun uchun ham ibratga to‘la. Zahiriddin Muhammad Bobur zakovati, matonati, hatto uning fojiasi ham millat zakovati, millat matonatidir. Uning fojiasi faqat yakka shaxsgagina emas, millatga ham tegishlidir. Bobur shaxsi talqinida millatning eng yorqin fazilatlari, yorqin xususiyatlari, yorqin idroki va og‘riqlarini ko‘rsatib beradi.

3. Adib asarlarining bosh mavzusi va bosh g‘oyasini jadidlar ko‘targan g‘oyalar tashkil qiladi. Millat o‘z illatlarini anglab, uni tuzatib, undan voz kechib, ma’rifatli bo‘lmas ekan, bu taraqqiyotning qaysi pog‘onasida yashamasin, o‘zi tushib qolgan mahdudlik chohidan chiqolmaydi, mavzulari, o‘rtaga tashlagan masalalari, milliy ruhiyat tahliliga ko‘ra jadidlarning g‘oyalarini 80-yillarda adabiy harakatga, adabiy mavzularga aylantirgan adib sanaladi.

“Yozning yolg‘iz yodgori” qissasi garchi oddiy fuqaro Adash karvon haqida bo‘lsa-da, ammo adib uning obraziga jadid bobolarimiz ruhoniyatini jamlaydi. Uning chizgilarida biz jadidlarga xos bo‘lgan xokisorlik, yumshoqlik, anglam, insoniy munosabatlarni ko‘ramiz. Adash karvon xuddi jadid bobolarimiz kabi o‘zining qalbini, ruhini zulm va jaholatdan saqlab qolgan obrazdir. Inson o‘zini isloh qilolmasa, uning umumjamiyat islohoti haqidagi gaplari yolg‘on bo‘ladi. Adash karvon – muhit va tuzum bosimiga isyon tarzda ichiga jaholatni va yovuzlikni kiritmaganligi bilan qarshi turadi. Jadid ma’rifatchilarining g‘oyasiga ko‘ra avval ma’rifatni egallamay turib, na millat, na yurt, na jamiyat ozod bo‘ladi. Uning isyoni shunga yetadi. U o‘zini isloh qilish oqrali muhit jaholatidan o‘zini saqlab qoladi. Shu jihati bilan Adash karvon bu jadidlar tarbiya qilgan ruhoniyat vakilidir. U uzoq davom etgan jaholat davrida, imkonsizlik va chorasizlik davrida o‘zini va qalbini saqlab qololdi. Bu davrda o‘zligini saqlab qola olishi eng katta qahramonlik edi. O‘zini isloh qilolmagan, o‘zini qutqarolmagan millat o‘zi yashayotgan jamiyatni ham isloh qilolmaydi. Bu jadidlarning ma’rifiy xulosalaridir. Shu jihati bilan bu asar, garchi ochiq aytilmasa ham, o‘tgan asrning 80-yillarda yozilgan jadidlar g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan dastlabki qissalardan biridir.

Jadidlarning g‘oyalari o‘zbek nasrida X.Sulton asarlari orqali yana qayta kun tartibiga qo‘yildi. Biz adibning qaysi asarini olmaylik, unda millatga, odamga, maishiy hayotga jadidona g‘oyalar bilan yondashilganini ko‘ramiz.

“Yo‘qchilik va to‘qchilik” hikoyasining dastlabki jumlalari bizga beixtiyor Abdulla Qahhorning hikoya qilish uslubini eslatadi. Ammo hikoya saldan so‘ng o‘zining bayon qilish an’anasidan voz kechadi, endi adibni ularning ong ostidagi holat, kechinma va mayllar qiziqtiradi:

“...Yo‘q, u hech qachon haromxo‘rlar, kazzoblar oldida tili qisiq bo‘lib qolmaydi! Mehnatning, mehnatkashning nimalarga qodirligini ko‘rsatib qo‘yadi! Mehnat – halol va xalos bo‘lishining yagona yo‘li; u hali ishlaydi, vijdonan, qora terga botib ishlaydi va imoni komilki, hademay chekkan zahmatlarining rohatini, albatta, ko‘radi! Shundagina u hozir salomiga bazo‘r alik oladigan o‘sha beshinchi qavatdagilar bilan teppa-teng, hatto baland kelib gaplasha oladi. Lekin, buning uchun tezroq, ko‘proq harakat qilish kerak, jon koyitish kerak, tanballikka, beg‘amlikka o‘t ochish kerak!” [6.417]

Bu Rahmatullaning holati tasviri emas, bu uning ong ostida paydo bo‘lgan holati va kechinmalari. Adib voqelikni yanada jonli ifodalash uchun bu kabi uslubdan hikoyada bir necha marta foydalanadi. Hikoyani ham xuddi ong osti kechinmalariga qurilgan istehzo bilan yakunlaydi: ***“... U Rahmatullaning “yigirma”sini juda katta qilib o‘tkazmoqchi – ikki yuz kilo guruch damlab, yetti mahallaga osh bermoqchi, uchala ishxonasidan, Samarqand-u Marg‘ilondan odam chaqirmoqchi…”*** [6.426].

Adib o‘sha davr hikoyalari an’analaridan farqli o‘laroq o‘quvchiga voqeani yakunlab, xulosa bermaydi, unga xulosa qilishni o‘quvchining o‘ziga tashlab qo‘yadi. Bu jumladagi istehzoni anglash har bir o‘quvchining saviyasi bilan bog‘liq. Agar istehzoni anglamasa, unda u Nozimaga xayrxoh holatda qolaveradi. Istehzoni anglagan o‘quvchida esa, og‘ir og‘riq qoladi. Ko‘z oldimizda Rahmatulla va Nozima qiyofasidagi butun boshli millat gavdalanadi. Rahmatulla va Nozimaning holati, orzulari, havaslari butun boshli bir millatniki emasmi? Buni anglagan o‘quvchi bu orzular milliy orzular ekanini anglaydi. Mahdudlikka botgan milliy orzular. Adib xuddi jadidlar kabi jamiyatning kichik odamlari Rahmatulla va Nozima qiyofasida butun boshli milliy maishiy fojiani ochib beradi. Hikoyadan chiqadigan xulosa ham xuddi Qodiriy, Behbudiylar asr boshida chiqargan xulosalarning zamonaviy talqini: millat bu kabi orzu-havaslarga g‘arq bo‘lib yasharkan, u hech qachon o‘zining bo‘ynida osilib turgan nodonlik “zanjiri”dan qutulolmaydi.

“Yo, Jamshid” hikoyasi garchi bu hikoyadan avvalroq yozilgan bo‘lsa-da, ammo xuddi shunday milliy maishiy fojiani ochib bergani bilan alohida e’tiborli[6.331-347]. “Yo Jamshid” milliy xarakterimizning kichiklashtirilgan modeli. Bu hikoya so‘ngida ham adib voqeani yakunlamaydi. Yana uni o‘quvchilarga havola qiladi. O‘rinboy boshiga tushganidan xulosa chiqarmaydi, yana tavakkal qiladi. Bu esa o‘quvchida og‘riq paydo qiladi. Oltmish yilda ham millat tabiati o‘zgarmagan, ma’rifat sari yuz burmagan, jadidlar qanday tasvirlagan bo‘lsa milliy biqiqligimiz o‘sha holicha turibdi.

Shu hikoya, umuman, adibning boshqa asarlarida ham ana shunday jadid bobolarimizning ma’rifiy nigohi sezilib turadi. X.Sulton jadidlar kabi maishiy fojialar chirmovug‘ida yotgan milliy fojialarimizni ochib beradi.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida millatimizni mutelik va qaramlik botqog‘idan qutqarishni istagan ma’rifatparvar bobolarimiz milliy qoloqlik sabablarini faqat maishiy hayot bilan bog‘lab qo‘yishmagan. Ular barcha sohada, jumladan, ilmda, adabiyotda, san’atda ham uyg‘onish davrini boshlab berishgan. Ular adabiyotni, san’atni millatni uyg‘otuvchi vosita deb bilishardi, unga shu vazifani yuklashgandi.

Agar biz Xayriddin Sulton asarlaridagi bosh g‘oyani jamlashtirsak, bu adibda ham xuddi shu maqsad, shu e’tiqod yotganini ko‘ramiz. Millatni ma’rifatli qilmasdan turib, uni uyg‘otib bo‘lmaydi. Tarixiy shaxslar esa millatga kimligini, kim bo‘lganini ko‘rsatib turuvchi eng katta quvvat manbalaridir. Ehtimol, shuning uchun ham X.Sulton ijodida Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi haqidagi asarlar ustuvorlik qilar? Bobur shaxsi boshqa tarixiy shaxslardan shunisi bilan farq qiladiki, u qanchalar buyuk bo‘lsa, shunchalik oddiy ham. Uning “Boburnoma”dagi o‘zini tahlil qilishi, fojiasi va insoniy zaifliklarini ochiq bayon qilgani bu shaxs faoliyatining hayotiyligini

ta’minlab turadi. Shu sababli ham X.Sulton Bobur shaxsiga ko‘p murojaat qiladi. Aynan shuning uchun ham adabiyotshunoslar bu adibnining asarlaridagi ruhiyatni ko‘proq Bobur targ‘iboti bilan bog‘lashadi.[1]

Ammo bizning kuzatishimizga ko‘ra, Zahiriddin Muhammad Bobur bilan birga X.Sultonov ijodining yana bir muhim tayanchi bor. Bu ham bo‘lsa, jadid g‘oyalari bilan bog‘liq maqsad. Adibning Bobur shaxsiga munosabati, bizningcha, eng avvalo, jadidlarning bosh maqsadi – millatni ma’rifatli qilish harakat va istaklari bilan chambarchas bog‘liq. Adibning Bobur haqidagi asarlarini o‘qir ekansiz, bunga qayta-qayta guvoh bo‘lasiz. “Saodat sohili” nafaqat tili, tasviri, muztarligi, ohangi bilan, balki vatanga bo‘lgan cheksiz sog‘inchni juda jonli, ta’sirli hamda ishonchli tasvirlay olgani, vatan sog‘inchini o‘quvchilar ko‘nglida ham alanga oldira olishi bilan ham vatan haqidagi eng sara asarlardan biri sanaladi[6.369-426].

Xalqaro TURKSOY tashkilotining Bosh kotibi Sulton Rayev Xayriddin Sultonovning Bishkekda nashr etilgan “Yo‘qchilik va to‘qchilik” kitobiga yozgan so‘zboshisida: ***“Zahiriddin Muhammad Bobur va uning davri haqida “Boburiynoma” nomli kitob yozish qanchalik jasorat. Bunday kitobni yaratish uchun tarixchi, faylasuf, tilshunos, diplomat, geograf, yozuvchi, psixolog va harbiy mutaxassis bo‘lishning o‘zi yetarli emas, buning uchun ijodkor juda katta tafakkur egasi bo‘lishi kerak”, degan fikrlarni bildiradi”*** [5.3]. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, adibning “Bunchalar shirinsan, achchiq hayot” hikoyasi Bobur turkumining bevosita davomi yoki uning markaziy qismini tashkil qiladi. Hikoya qilinayotgan davr oralig‘i qariyb uch asrdan ortiq bo‘lsa-da, ammo bu asarlarni bitta narsa birlashtirib turadi. Bu vatan, vatanga muhabbat mavzusi. Agar biz “Saodat sohili”, “Boburiynoma” asarlariga yaxlit holda olib, undan chiqadigan xulosalarni jamlashtirsak, unda Bobur va undan uch yuz ellik yil keyin yashagan Qurbonoy dodxoh bilan bog‘lik voqelik birlashadi, bu hikoya beixtiyor adibning Bobur bilan bog‘liq bosh g‘oyalariga qo‘shilib, yaxlitlik bag‘ishlaydi. Shu hikoya va Bobur shaxsi bilan bog‘liq asarlari orqali adib jadidlarning ishini davom ettiradi: vatan har narsadan, shohlikdan, boylikdan, amaldan, martabadan, unvonu maqomlardan ustun. Vatan o‘zi uchun jonini fido qilganlargagina, uning uchun hamma narsasidan voz kecha olganlargagina o‘zining vatan ekanini anglatadi, uni o‘zi kabi sharafga burkaydi.

“Saodat sohili” qissasi milliy adabiyotimizda Abdulla Qodiriyning nafosatli badiiyati, insonni muhit va shaxsiyati bilan milliy ruhoniyatga suyanib tahlil qilish qayta tirila boshlaganini ko‘rsatsa, “Ra’no gulining suvi” hikoyasida shu paytgacha milliy adabiyotda kuzatilmagan o‘ziga xos ifoda shaklini tanlagani bilan bu fikrimizni tasdiqlaydi. Hikoyada 80-yillarda yashayotgan rassomning ong osti kechinmalari orqali 1934-yilda yuz bergan xotiralar qayta tiklanadi. Hikoyaning badiiy qiymati haqida ko‘p yozilgan. Shuning uchun bu jihatlarga to‘xtalib o‘tirmaymiz. Bizni hikoyaning ifoda shakli ko‘proq qiziqtiradi. Zero, hikoya yozilgan 70-yillar oxiri va 80-yillar boshida milliy nasrimizda nafaqat mazmun, balki shakliy izlanishlar, boshqacha aytganda, bu kichik janrning ifoda usullarini, ifoda shaklini kengaytirish, jahon adabiyotidagi mavjud maromlarga moslashtirish jarayoni kechayotgandiki, bu xohish-istak endigina yigirma besh yoshga kirgan yosh adibni ham chetlab o‘tmagan. Hikoya rassomning “kundalik” shaklidagi xotiralariga qurilgan. Ammo yozuvchi kundalikni o‘sha davrda eng ko‘p sinalgan va tajribadan o‘tgan xronologik izchillik bilan emas, balki shu vosita bahona rassomning ong osti xotiralari shaklida taqdim etadi. Hikoyada rassom xotiralari kundalikda yozilganmi yoki shunchaki kundalikni ko‘rib qolib, uning xotirasi jonlandimi, aniq ishora bermaydi. Kundalik bu shunchaki hikoyaning shakliga bir eslatma. Adibni ko‘proq rassomning buyuk adib bilan bo‘lgan uchrashuvi haqidagi ong ostida yotgan xotiralari qiziqtiradi. Bu bilan yosh adib bayondan qochadi, ifoda shaklini dunyo adabiyotidagi

[1] Qarang: Абдыкерим Мухтаров педагогика илимдерини доктори, профессор. Турмуш чындыгынын корком чындыкка айландыра алган жазуучи Султонов Хайриддин. Жокчулик жана токчулик. – Бишкек: Турар, 2023. – Б.154-159; Sultan Rayev. Ön Söz // Hayriddni Sultan. Sen ne kadar tatlisan, ey aci hayat! – Ankara: TURKSOY, 2023. – s.5-7.

ong osti uslubiga moslashtiradi. Shu sababli ham an'anaviy shaklga ko'nikkan o'quvchida rassom "kundaligi" uzuq-yuluqday, tadrijiylik buzilganday tasavvur qoldiradi. Ammo masala shundaki, ong osti kechinmalari, jumladan, xotira ham inson ruhiyatida xuddi hikoyadagi kabi uzuq-yuluq, izchillik buzilgan shaklda namoyon bo'ladi va bu uzuq-yuluqlik hikoya so'ngida bir-biriga birlashib, yaxlit manzara paydo qiladi.

Yuqorida tilga olganimiz "Yozning yolg'iz yodgori" qissasida, xuddi magik realizmdagi kabi miltiq tilidan ham hikoya qilishga tushiladi. Miltiq obrazga aylanadi. Jonsiz buyumlarning "tilga kirishi" folklor asarlarida ko'p bora uchratamiz. Keyinchalik bu holat yozma adabiyotga ham ko'chib o'tdi va X.Rulfo, G.G.Markes kabi jahon adabiyotining yetuk namoyondalari bo'lgan adiblarning ijodida ijodkorning niyatini yuzaga chiqaruvchi badiiy unsur sifatida qo'llanila boshlandi. Shu taxlit magik, ya'ni, fusunkor realizm XX asrda jahon adabiyotida o'ziga xos inqilob yasagan Lotin Amerika adabiyotining bosh yo'nalishini tashkil qiladi.

Xayriddin Sulton ham o'z qissalarida folklor an'analari va dunyo adabiyotida yetakchi bo'lgan usullardan mahorat bilan foydalanganini, jonsiz buyumlar badiiy obraz darajasiga ko'tarilib, qissaning ta'sirchanlik doirasini yanada kengaytirganini ko'ramiz.

"Bir oqshom ertagi" hikoyasida yangi tamaddun – to'g'rirog'i, olomonlashgan madaniyatga g'arq bo'lgan muhit ko'satiladi[6.323-329]. Qori obrazi – ana shu madaniyat tomonidan chetga surilgan, yotlashtirilgan, uni qabul qilmagan xalqona Samimiyatni o'zida mujassamlashtiradi.

"Chayladagi to'rt kishi" hikoyasida biz yana jadidona bir ishoralarga duch kelamiz[6. 283-294].

Talaba – ilmi tolib. Ma'rifat istayotgan qalb. Ammo uni muhit cho'ldagi bir chaylaga uloqtirgan. Ko'ziga ko'zoynak (qizil, qora, pushti) taqqan, issiq mashinalarda o'tirgan raislar kelib ketaveradi. Ammo kimsasiz cho'lda o'z holiga tashlab qo'yilgan yupun chayladagi odamlar o'z kunlarini ko'rishga, peshona terlari bo'lgan kartoshka – luqmalarini izg'irin va jalalardan asrash uchun har qanday xo'rlikka mahkum. Ularning chayladagi mahkumligi Sizifning tosh yumalatishidan zarracha farq qilmaydi.

"Qog'oz gullar" hikoyasida adib insonning tabiiy ildizidan uzilib ketish fojiasini qalamga oladi. Sun'iylik yashab qolish sharti bo'lgan muhitda inson ma'nan sun'iylashadi, bu uni yanada tubanlashtiradi. O'zini, o'zligini tanimagan odam, uning ilmidan, amalidan qat'iy nazar shunchaki qog'ozdan yasalgan gul. U o'sib unmaydi, u shunchaki chiroy, ko'rk, hasham beradi, bir kuni o'zidan hosil qoldirmay kuyib kul bo'lishga mahkum.

Xayriddin Sulton ijodini tahlil qilish milliy nasrimizning keyingi o'ttiz-qirq yillikdagi umumiy manzarasi va tamoyillari haqida to'laqonli tasavvur beradi. Uning qissa, hikoya va esselarida Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor an'analaridan tortib, XX asrning saksoninchi yillar avlodida yaqqolroq namoyon bo'lgan yangi uslubiy an'analarning o'ziga xos muvofiqlashish jarayoni mavjudligiga guvoh bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdыkerim Muxtarov pedagogika ilimderini doktori, professor. Turmush chыndыginыn korkom chыndыkka aylandыra algan jazuuchi Sultonov Xayriddin. Jokchulik jana tokchulik. – Bishkek: Turar, 2023. – B.154-159.

2. Boboyev M. Ra'no gulining suvi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. –Toshkent, 1984. – №18 (05).

3. Raev Sulton. Kыrgiz okurmanыna taberik kitep bolsun // Sultonov Xayriddin. Jokchulik jana tokchulik. – Bishkek: Turar, 2023. – B.3-5.

4. Veli Savas Yelok. Karmaşk talihlerin mahir anlatimi // Hayriddin Sultan. Sen ne kadar tatlisan, ey aci hayat! – Ankara: TURKSOY, 2023. – S.13-20.

5. Sultan Rayev. Ön Söz // Hayriddin Sultan. Sen ne kadar tatlisan, ey aci hayat! – Ankara: TURKSOY, 2023. – S.5-7.

6. Hayriddni Sultan. Sen ne kadar tatlisan, ey aci hayat! – Ankara: TURKSOY, 2023. – 538 s.

7. Xayridddin Sulton. Odamlardan tinglab hikoya. – Toshkent: Adabiyot, 2020. – 376 b.

8. Sirojiddin Sayyid. Bir satr va bir kitob taassuroti // Xayridddin Sulton. Odamlardan tinglab hikoya. – Toshkent: Adabiyot, 2020. – B. 3-12.

9. Sulaymon Rahmon. Saboqni tabiiy gullardan olaylik // Yoshlik. – Toshkent, 1983. – №-8.

10. Sultonov Xayriddin. Jokchulik jana tokchulik. – Bishkek: Turar, 2023. –160 b.

11. Umarali Normatov. Iztiroblar mohiyati nimada? //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 1983. – №10(07)

12. G‘afurov Ibrohim. So‘ng so‘z // Xayriddin Sultonov. Umr esa o‘tmoqda. –Toshkent, Yosh gvardiya, 1988. – B.270.

SALIMAXON RUSTAMIY,
filologiya fanlari doktori, professor
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

BALOG‘AT, RITORIKA VA STILISTIKANING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Maqola balog‘at ilmi, ritorika va stilistikaning tipologik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Unda balog‘at ilmida so‘zlovchining tildan foydalanish mahorati hisobga olinishi, ritorika badiiy nasr haqidagi fan ekani, stilistikaning ob’yekt jihatdan balog‘atga mutobiq qismi “filologiya stilistikasi” deb atalishi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *filologik fanlar, balog‘at, ritorika, badiiy nasr, stilistika, vaz’iy san’at.*

Annotation: *Article is devoted to the typological features of the science of balaghah, rhetoric and stylistics. The article argued that in the science balaghah special attention is paid to the skills of using of the addressee’s language means, rhetoric is the science of artistic prose, the object of “philological stylistics” corresponds with the object of science balagat.*

Key words: *philological sciences, balaghah, rhetorics, artistic prose, stylistics, figure.*

Insoniyatning nutq sohasida go‘zallikka intilishi shu xususdagi ilmlarning yaratilishiga sabab bo‘ldi. Natijada Sharqda “balog‘at”, G‘arbda “stilistika” deb nomlangan ilmlar shakllandi.

Stilistika fani O‘zbekiston va mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarining boshqa turkiy xalqlar yashaydigan respublikalarida balog‘at ilmining zamonaviy ko‘rinishi deb qabul qilinadi [1.13]. Ammo mumtoz asarlarning badiiy jihatiga B. Sarimsoqov [20], Yo. Ishoqov [10], A. Xojiahmedov [27], A. Rustamov [18], N. To‘laganov [22], H. Usmonov [23], Z. Hamidov [26] kabi olimlar tomonidan balog‘at asosida tavsif berilgan.

G‘arb olimlari balog‘at ilmini “rhetoris” yoki aniqroq qilib “Arabic Rhetoric”, “Arab Islamic Rhetoric”, ayrimlari o‘zgarishsiz “Balaghah” deb qo‘llaydilar va balog‘atni ritorikaga bog‘laydilar. Quyidagi fikrlar haqiqatan ham balog‘atni ritorikaga juda yaqinlashtiradi: “Ritorika – notiqlik san’ati haqidagi fan, ya’ni u fikrlarni go‘zal shaklda bayon qilish va ularni tinglovchida qiziqish uyg‘otib, oson o‘zlashadigan tarzda joylashtirish qoidalaridir” [5]. Ammo ritorika quyidagi jihatlari bilan balog‘atdan farq qiladi: Ritorika (grek. rhetorike) – notiqlik san’ati, umuman, badiiy nasr haqidagi fan. Uning besh qismdan iborat tasnifi ham, tarkibi ham o‘zgacha, antik davrda g‘arbda vujudga kelgan, XIX asrda uning og‘zaki ifoda ta’limoti poetikaga qo‘shilib ketib, adabiyot nazariyasining “stilistika” deb atalgan bo‘limiga aylangan. Ritorikaning talablari, qo‘llanish doirasi, ob’yekti keng bo‘lganidan ularning chegarasi aniq belgilanmagan. Shuning uchun ham S.I. Gindin [28] ritorika terminini ikki (tor va keng) ma’noda qo‘llashni taklif etadi.

“Balog‘at” lug‘atda “balog‘atlik”, ya’ni voyaga yetishni va “balig‘lik” chechanlikni bildiradi. Istilohda kalomga nisbatan “balog‘at”ning ikkinchi ma’nosi asos bo‘lgan. “Stilistika”ning lug‘aviy ma’nosi qalamkashlik. Yunonchada “stilos” antik davrda qo‘llangan yog‘ochdan yo‘nilgan cho‘bqalamni bildiradi. “Stilist” stilchi, ya’ni qalamkash, “stilistika” stilistlik, ya’ni qalam-

kashlik demakdir. Bu so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari ularning mavzu ko‘lamiga asos bo‘lgan. Balog‘atning mavzu ko‘lami tor, stilistikaniki keng. Balog‘at nutq doirasi bilan cheklangan. Stilistika esa nutqdan tashqari madaniyatning turli sohalariga, masalan, tasvir, musiqa, teatr, me’morchilik, ijod mualliflariga nisbatan ham ishlatiladi.

Stilistikaning ob’yekt jihatdan balog‘atga mutobiq qismi “filologiya stilistikasi” deb ataladi.

Balog‘atga quyidagicha ta’rif beriladi: balog‘at – kalomning vaziyat taqozosiga mos ravishda fasohatli bo‘lishi [19.325-326]. Balog‘at ilmi ma’oniy, bayon, badi’ ilmlarini o‘rganadi.

Filologik stilistika adabiyotshunoslik stilistikasi va til stilistikasiga (lingvostilistikaga) bo‘linadi. Bularning birinchisi haqida to‘liq ma’lumotni A.I. Yefimov [9], ikkinchisi haqida I.V. Arnold bergan.

I.V. Arnold lingvostilistikaga shunday ta’rif beradi:

“Sh.Balli tomonidan asos solingan lingvostilistika umummilliy shaklni muloqotning maxsus, turli sohalarga xos bo‘lgan funksional stilistika va dialekt deb ataluvchi tarmoqlari bilan taqqoslaydi (“lingvostilistika” tor ma’noda “funksional stilistika” deb ataladi) va til elementlarini ularning his-hayajonni ifodalash, qo‘shimcha assosiatsiya va baholash xususiyatlariga ko‘ra o‘rganadi” [3:12].

I.V. Arnold, shuningdek, lingvostilistikani quyidagicha tasnif qiladi: so‘z va uning ma’nosi; denotativ va konnotativ ma’no; konnatatsiyaning emosional, baholovchi, ekspressiv va stilistik tarkibi; emosional, ekspressiv, baholovchi va stilistik konnotatsiyalarning birga qo‘llanishi; so‘z yasash darajasidagi ekspressivlik; stilning omili – so‘zning semantik tuzilishi hamda haqiqiy va ko‘chma ma’nolarning o‘zaro ta’siri; so‘zdagi ko‘pma’nolikni takror bilan birgalikda qo‘llash; sinonim va qisman takror.

Mazkur olim adabiyotshunoslik stilistikasi haqida shunday yozadi:

Adabiyotshunoslik stilistikasi badiiy asar, muallif, adabiy oqim yoki butun bir davrga xos bo‘lgan barcha badiiy ifoda vositalari va badiiy ifoda bilan bog‘liq omillarni o‘rganadi [3. 12].

O.S. Axmanova stilistikaning ikkita vazifasi borligini aytadi: Bularning birinchisi turli, jumladan individual va janr stillarini o‘rganish. Ikkinchisi turli til vositalarining ekspressiv his-hayajon baholash xossalarini ham paradigmatik planda (ya’ni, shu til tizimida – “til stilistikasi”), ham sintagmatik planda, ya’ni ularni nutq orqali muloqotning turli sohalarida qo‘llanilishi jihatdan (“nutq stilistikasi”) o‘rganishdir [4. 454].

Mazkur vazifalarning birinchisi balog‘atda yo‘q. Chunki Sharq tilshunosligida bu vazifada e’tiborga olingan turlar kalom yetukligiga emas, turlariga bog‘liq. Ikkinchisi esa balog‘atga ham tegishlidir. Bu vazifa ob’yekti bo‘lgan vositalar balog‘atda “san’at”, stilistikada “figura” deb ataladi.

Stilistikada “funksional stillar” degan tushuncha mavjud bo‘lib, bunda nutqning turli sohaga oid xususiyatlari hisobga olinadi. Arab tilida “uslub” stilistikadagi mana shu “funksional stil”ga to‘g‘ri keladi va u balog‘atdan tashqarida o‘rganiladi.

“Hozirgi davrda stilistika fanida “til stillari” yoki “funksional stillar” asosiy atamaga aylangan bo‘lsa-da, uning aniq chegaralari hali ishlab chiqilmagan. Bu holat til stillarini tasniflash va o‘zaro farqlashda qiyinchilik tug‘dirmoqda. Bunday muammoning mavjudligini stil va stilistik vositalar haqidagi qarashlarni umumlashtirish va bir tizimga solishga harakat qilgan Ye.F. Petrishcheva ham alohida ta’kidlaydi: “Stil tushunchasining mohiyatini, mundarijasini aniqlash stilistikaning eng murakkab va kam o‘rganilgan muammolaridan biridir” [8. 59].

Tilshunoslik tarixida funksional stillarni o‘rganishga, ularni tasniflashga hamda o‘zaro farqlashga urinishlar bo‘lgan. Funksional stillarni belgilashda ba’zi olimlar ekstralingvistik omillarni, boshqa olimlar esa sof lingvistik omillarni birlamchi deb bilganlar. Masalan, rus tilshunosligida

prof. A.M. Peshkovskiy [15] ilk bora funksional stillarni til funksiyalari asosida ajratishga harakat qilgan.

Arab tilidagi uslub va stilistikadagi funksional stillar orasida ularning turlarga bo‘linishi jihatidan farq bor. Uslub arab tilida uch turga bo‘lingan: ilmiy uslub, adabiy uslub va xitobiy uslub. Bularning dastlabki ikkitasi xususida to‘xtalishga hojat yo‘q. Uchinchisi xususida bir oz to‘xtalish joiz.

Xitobiy uslub [7] mazmun jihatdan stilistikadagi publisistik uslubga to‘g‘ri keladi. Chunki xitobiy uslub mahsuli bo‘lgan xitoba (va’z) ham publisistik uslub kabi jamiyatda kechayotgan dolzarb masalalar va hodisalarga bag‘ishlanadi, jamoaning turli-tuman fikrlari, jumladan, hayotdagi keskin muammolarni ifodalash vositasi sifatida siyosiy va mafkuraviy jihatdan muhim rol o‘ynaydi va bu uslub arab tilida qadimdan mavjud. Quyidagi mulohazalar buning dalili bo‘la oladi: “Al-xitoba... deyilganda, nutq, shuningdek, omma oldida qilingan va’zxonlik nazarda tutiladi... Johiliya davrida ham ancha rivojlangan bo‘lib, qabilaviy sharoitning o‘zi ham uning taraqqiy topishiga sabab bo‘lar edi.... Qabila notig‘i o‘zining otashin nutqi bilan qabila sharafi va nufuzini saqlashga yoki uning oshishiga xizmat qilar, qabilalarni o‘zaro sulh tuzishga undar yoki munozara-munoqashalarda ishtirok etib, o‘z qabila a’zolarining afzalliklarini isbot qilar, yo bo‘lmasa boshqa qabilalarga ularning kuch-quvvatini ko‘rsatib, ularni qo‘rqitish uchun tahdid qilar edi... Notiq qanchalik so‘zamol, hozirjavob bo‘lib, o‘z nutqini badiiy vosita va so‘z san’atlari bilan boyitsa, atrofida muxlislari ko‘payadi hamda u eslab qoluvchi roviylarning e’tiborini ham qozonadi. Johiz qabilalarning so‘zga chechan notiqlari haqida shunday yozgan: “So‘z arab uchun hamma narsa bo‘lib, u hozirjavoblik va badiha (improvizatsiya)da namoyon bo‘ladi” [24. 30-31].

Ayrim g‘arb tadqiqotchilari xitobani balog‘at bilan qorishtirib yuboradilar. Bu masalaga F. Xolden o‘zining “Arab islom ritorikasi nima?” nomli maqolasida quyidagicha munosabat bildiradi:

“Arab islom ritorikasi” tadqiqotlarida, an’anaga ko‘ra, yetakchi tendensiya notiqlik nazariyasi va amaliyotining muhim an’anasi bo‘lgan grek falsafiy va’zining bir qismi sifatida qayta ishlangan xitoba ilmi (“ommaviy nutq yoki notiqlik fani”)ga emas, balki balog‘at ilmi (“chechanlik san’ati fani”) ga qaratiladi. Bunday tafovut, asosdan xoli emasligiga qaramay, ba’zi jihatdan chalkashlikka olib keladi. Bu musulmon notiqlik san’ati, shuningdek va’zxonlik yetarli darajada o‘rganilmaganini ko‘rsatadi. Chunki faoliyatning bu turi balog‘at ilmiga emas, xitoba ilmiga oiddir” [25].

Ko‘rinadiki, xitoba ham, balog‘at ham g‘arb olimlar tomonidan yaxshi o‘rganilmagan ilmlardan hisoblanadi.

Stilistikada funksional stillarning turi ko‘p. Mazkur uch turdan tashqari yana quyidagi turlar mavjud, masalan: oddiy maishiy stil, oddiy ish stili, rasmiy hujjat stili, badiiy billetristik stil va b.

Balog‘at ilmida bunday tushunchalar yo‘q. Balog‘at ilmida nutqning o‘zida mavjud bo‘lgan til xususiyatlari emas, so‘zlovchining tildan foydalanish mahorati hisobga olinadi.

Balog‘atning bayon bo‘limida lafz nimani bildirishi tushuniladi. “Lafz” deganda, umuman kalomning, xususan, so‘zning tovush jihati nazarda tutiladi, uning bildirgani “ma’no” deyiladi. So‘z vaz’ natijasi, ya’ni belgidir. Vaz’ ilmi[1] Ferdinand de Sossyurning til nazariyasida aks etgan. U til ma’no bildiruvchi belgilar tizimidan iborat deb, til belgisining ikki jihati, bildirgichi (fr. signifiant) va bildirmishi (fr. signité) bor, deydi [21. 98-103]. Ammo Sossyurning nazariyasiga ko‘ra bildirgich tovushdan emas, uning ongdagi tasavvuridan iborat. Chunki til forma, substansiya[2]

[1] So‘zning belgilik xususiyatlari va uning yasalish usuli haqidagi ilm “ilmu-l-va’z” (G‘arbda “onomasiologiya”) deb ataladi. Abdurahmon Jomiyning bu ilmga bag‘ishlangan risolasi mavjud. Uning toshbosma nusxasi O‘z FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo‘lyozmalar institutida saqlanadi.

[2] Forma (surat, shakl) va substansiya (javhar, mahall) falsafiy istiloh bo‘lib, bu o‘rinda forma til birliklarining munosabati, substansiya ularning talaffuzini bildiradi.

emas deb, tilning tovush jihati tilning o‘ziga emas, so‘zlashuvga oid, deydi. Ammo tildan uning tovush jihatini soqit qilmaydigan tilshunoslar bildirgich bayon ilmidagi kabi tovushdan iborat [14. 427-429], deydilar.

Bayon ilmida dalolatning “bir narsaning boshqa narsani bildirishi” ta’rifi keltiriladi, uning turlari tahlil qilinadi, ya’ni dalolatni dollning e’tiboriga ko‘ra lafziy va g‘ayrilafziy (lafziy bo‘lmagan) dalolatga bo‘linishi; agar so‘z o‘zi bildirgan narsa va tushunchaga dalolat qilsa, lafziy bo‘lishi; agar so‘z o‘zi bildirgan narsa va tushunchadan boshqasini anglatsa, g‘ayrilafziy dalolat bo‘lishi; g‘ayrilafziy dalolatning bayon ilmiga aloqasi yo‘qligi ta’kidlanadi.

Shuningdek, lafziy dalolatning vaz’iy, tabi’iy va aqliy turlari mavjudligi; vaz’iy dalolatda bir so‘zning aynan shu narsa uchun tayinlangani tushunilishi; tabi’iy dalolatda lafzlar tabiatdan olingani; aqliy dalolat va madlul aql orqali idrok qilinishi; lafziy dalolatning tabi’iy va aqliy turlari bayon ilmiga kiritilmasligi kabi ma’lumotlar bor.

Shulardan kelib chiqib stilistikaga murojaat qilinsa, quyidagi o‘xshash va farqli jihatlar kuzatiladi:

stilistikada “denotatsiya” va “konnotatsiya” degan tushunchalar bor. So‘z nimaga atab yaratilgan bo‘lsa, shuni bildirishi denotatsiya. Bu asl ma’nodan tashqari, qo‘shimcha ma’noni bildirish konnotatsiyadir. Bundan his-hayajon bilan bog‘liq ma’nolar tushuniladi. Denotatsiya balog‘atda “vaz’iy dalolat” deyiladi, konnotatsiyaning muodili yo‘q.

Bayon ilmida dalolatning vaz’iy turi mutobiqiyya, tazminiyya va iltizomiyya deb nomlanuvchi uchta guruhga ajratiladi. Bulardan mutobiqiyyada lafz biror tushuncha yoki narsani to‘liq anglatsa, tazminiyyada uning bir jihatini bildiradi; iltizomiyya ma’noning biror tushuncha yoki narsaning zaminida mavjud bo‘lmay, tashqaridan kiritilganidir.

Zamonaviy tilshunoslikda o‘rta asr balog‘at olimlari tomonidan ko‘rsatilgan mutobiqiyya “to‘g‘ri ma’no” va iltizomiyya “ko‘chma ma’no” kasb etgan so‘zlarga nisbatan qo‘llanadi.

Adabiyotshunoslik stilistikasiga taalluqli bo‘lgan badiiy ifoda vositalari va badiiy ifoda bilan bog‘liq omillar balog‘atning badi’ ilmida o‘rganiladigan badiiy san’atlarga mohiyatan mos keladi. Lekin ularning tarkibi, san’atlarning o‘ziga xos xususiyatlari masalalari chog‘ishtirma tadqiqotga muhtoj.

Balog‘at bilan stilistikaning yuqorida keltirilgan ayrim tipologik xususiyatlaridan kelib chiqib, hozirgi kunda filologlarimiz oldida birinchidan arabiy, forsiy va turkiy e’tibori bilan chog‘ishtirma balog‘atni, ikkinchidan, balog‘at bilan stilistikaning chog‘ishtirma bahsini yaratish vazifasi turgani ma’lum bo‘ladi. Bu vazifaning ado etilishi umumiy uslubshunoslikning yaratilishiga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Азимов П.А., Виноградов В.В., Дешериев Ю.Д., Протченко И.В. Актуальные проблемы развития стилистических систем современных литературных языков народов СССР // Тезисы докладов конференции “Развитие стилистических систем языков народов СССР”. – Ашхабад, 1966. – С. 3-11.

2. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ. 16-жилд (20 жилдлик). – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 6-40.

3. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – М.: Просвещение, 1990.

4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966.

5. Большой Энциклопедический словарь. 2000. http://dic.academic.ru/dic.nsf/enc3p/255942.

6. Боровков А.К. Алишер Навои как основоположник узбекского литературного языка // Алишер Наваи. Сборник статей под редакцией А.К. Боровкова, – М.-Л., 1946. – С. 93-98.

7. Гаффорова У.А. Особенности арабской средневековой прозы (хитаба) в доисламский период

// Ученые записки худжандского государственного университета им. Академика Б. Гафурова. Серия гуманитарно-общественных наук. Худжандский государственный университет им. Академика Б. Гафурова. – Худжанд, № 4 (45) 2015. – С. 92-96.

8. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 59.

9. Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М.: Изд-во Московского университета, 1961.

10. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқайнар, 2006.

11. Киссен И.А. Краткий очерк фонетики русского языка в сопоставлении с фонетикой узбекского языка. – Т., 1952.

12. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғоти-т-турк [Туркий сўзлар девони]. Нашрга тайёрловчи: Қ. Содиқов. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2017.

13. Кунгуров Р. Актуальные вопросы узбекской стилистики. Материалы научной сессии АН УзССР и СамГУ, посвященной 50-летию Самаркандского государственного университета им. Алишера Навои (общественные и гуманитарные науки). – Самарканд, 1978. – С. 106-113.

14. Лайонз Ж. Введение в теоретическую лингвистику. – М.: Прогресс, 1978.

15. Пешковский А.А. Роль грамматики при обучении стилю. В кн. А.М. Пешковский. Избранные труды. – М., 1959.

16. Поливанов Е.Д. Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком. – Ташкент: Госиздат, 1933.

17. Rustamiy, S. (2018). Typological peculiarties of science of balaghah, rhetoric and stylistics. The Light of Islam, 2018(1), 16.

18. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.

19. Salih Sasah. Al-munjid fi al-I'rab va al-qava'id va al-balaga va al-arud. – Damashq (nashr tarixi ko'rsatilmagan).

20. Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. – Тошкент: Фан, 1978.

21. Соссюр Ф. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977.

22. Тўланова Н. Ҳозирги ўзбек шеъриятида бадиий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили (Ш. Раҳмон, А.Ўктам, И. Мирзо шеърияти мисолида): филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2008

23. Усмонов Х. Лингвостилистические особенности языка Лютфи. Автореф.дис. ... канд.филол.наук. – Ташкент: 1986.

24. Ходжаева Р. Муттоз араб адабиёти жанрлари тизими ва типологияси. – Тошкент, 2015.

25. Hallden Ph. What is Arab Islamic Rhetoric? http://www.org.uib.no/smi/pal/Abstract_Lund_38PH.PDF.

26. Ҳамидов З. Сўз санъати ва санъаткор маҳорати. – Ташкент: 1991.

27. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Тошкент: Шарқ, 2001.

28. http://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye_nauki/lingvistika/RITORIKA.html

NODIRJON QURBONOV,
Toshkent axborot texnologiyalari unversiteti Farg‘ona filiali Kengashi kotibi

OBRAZLI NOMLANISHLAR VA BA’ZI OBRAZLI TOPONIMLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya: *Hozirgi zamon o‘zbek tilshunosligi va jahon tilshunosligida obraz, obrazlilik va obrazli nomlanishlar va ularning tadqiq etilishiga qiziqish ortib bormoqda. Obrazli nomlanishlar ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik sohalarida birdek o‘rganiladi. Ushbu maqolada “oltin bitiklar” terminini o‘zbek nomlari so‘zlariga ekvivalent sifatida muhokama qilinishi asosiy sababi qo‘lyozma asarlar kabi nomlarimiz ham, toponimlar ham xalqlarning azaliy qadriyati, ruhiyati, tili va dili bilan bir butun holda qadim tarix sahifalarida muhrlanganligidir. Biz nomlarni, ularning bir turi bo‘lgan toponimlarni “oltin bitiklar” deb atasak-da, biroq shu birikmani maqolamizda ilmiy tadqiqot atamasi sifatida olib kirish bahsli bo‘lib qoldi. Bu birinchidan birikmaning kam qo‘llanishi bo‘lsa, ikkinchidan shu birikma ko‘rinishdagi terminda ham ilmiylik, ham badiiylik ma’no nozikliklarining borligidir.*

Kalit so‘zlar: *Oltin bitiklar, toponimlar, dialektal so‘zlar, etimologiya, etimologik lug‘at, onomastik ma’no, toponimik ma’no, obraz, obrazli toponim.*

Annotation: *Currently, in Uzbek linguistics and world linguistics there is a growing interest in figure, figurativeness and figurative names and their research. Figurative names are studiyed both in the fiyelds of literature and linguistics. The main reason why the term “golden writings” is considered in this article as an equivalent to the words of Uzbek names, that is both our national names and toponyms, like manuscripts, are imprinted on the pages of anciyent history along with the anciyent values of the nation, its soul and language. Although we call the names as “golden writings”, introducing this combination as a term of sciyentific research in our article is controversial. This is, firstly, the rare use of the combination, and, secondly, the presence of both sciyentific and artistic subtletiyes of meaning in the term of this combination.*

Keywords. *Golden scripts, toponyms, dialect words, etymology, etymological dictionary, onomastic meaning, toponymic meaning, figure, figurative toponym.*

Inson hayotida nomlar bilan yonma-yon yashaydi va nomlar kishi hayotining ajralmas bir qismidir. Tilshunoslikda nomlar, xususan, ularning bir turi bo‘lgan toponimlarning kelib chiqishi to‘g‘risida qancha fikr aytilsa, shuncha kam. Nomlarga qiziqish nafaqat tilshunoslik, balki tarix va geografiya sohalari ham tadqiqot manbayi sifatida qarab keladilar, ularga fan nuqtai nazaridan baho beradilar. Nomlarga “Onomastik kvalimetriya” va “Toponimik kvalimetriya” nuqtai nazarlaridan baho berilsa, kelajakdagi ilmiy tadqiqotlarga foydalilik koefetsenti nuqtai nazaridan qaraganda ham shunchalik kam hisoblanadi. Ko‘pchilik “Oltin bitiklar” termini noyob qo‘lyozma asarlarga nisbatan ishlatishadi. Aslida, qo‘lyozma asarlar kabi nomlarimiz ham, toponimlar ham xalqlarning azaliy qadriyati, ruhiyati, tili-yu dili bilan bir butun holda qadim tarix sahifalarida muhrlangan “Oltin bitiklar”dir.

Joy nomlari insoniyat qancha yashagan va yana qancha yashasa, shuncha vaqt davomida o‘zining betakror mazmun-mohiyatini, aniqrog‘i, “Oltin bitik”ligini namoyon qila oladi. Albatta, buning uchun ilm-fanning bugungi talablariga javob bera oladigan mukammal toponimik tahlilga asoslanilgan etimologik va izohli tahliliy jarayonlarni amalga oshirish shart.

Bizningcha, birikma ko‘rinishidagi “Oltin bitik” terminining quyidagi ma’no nozikliklari bor: 1) topib aytilgan ma’nili, mazmunli ibratomuz fikr-mulohazalar; 2) qadimiy qo‘lyozma asar; 3) noyob toshbitik; 4) xalq tiliga xos, lekin haligacha maxsus o‘rganilib, yig‘ib olinmagan dialektizmlar; 5) ulug‘ ijodkorlarning tanlangan asarlari; 6) kam miqdordagi qadimiy asar; 7) kam nusxali mukammal asar; 8) qadimiy va tarixiyligi bilan ham xalq tilini, ham xalq tarixini ulug‘lovchi nomlar (toponim, oykonim, oronim, gidronim, dromonim, fitonim, zoonim, etnonim kabi); 9) yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga mo‘ljallangan zamonaviy, biroq har jihatdan mukammal va saylanma tipidagi asarlar. Uning ma’nolariga yana qo‘shimcha qo‘shish mumkin.

O‘zbek lug‘atchiligida ayni vaqtgacha ko‘p lug‘atlar yaratilganligi bor haqiqat. Biroq O‘zbekiston respublikasidagi barcha toponimlarni qamrab olgan etimologik lug‘at haligacha yaratilmagan, chunki bunday lug‘atning o‘ziga xos muammo va vazifalari bor [9. 5-25]. Toponimlarning ta’birli va izohli tahlillariga bag‘ishlangan lug‘atlar, viloyatlar toponimlari bo‘yicha individual lug‘atlar nashr etilgan, ammo ular etimologik lug‘atlar holatiga keltirilmagan. Albatta, o‘zbek onomastikasiga hamda uning bo‘limlariga oid oldingi ilmiy va ilmiy-metodik ishlarga tanqidiy yondashib, tanqidiy baho berish vaqti keldi.

O‘zbekiston toponimlarining etimologik lug‘atini shakllantirish uchun joy nomlarining etimologik tahlilini etimologik tadqiq tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirish lozim bo‘ladi. Etimologik tahlil toponimlar to‘g‘risidagi mavjud tahlillarning eng mukammali va murakkab ko‘rinishidir. Shu bilan birga so‘z hamda toponimlarning etimologik tahlillari ham bir-biridan tubdan farq qiladi, ularni aralashtirib yuborib bo‘lmaydi.

Markaziy Osiyo, jumladan, mamlakatimiz toponimlarini o‘rganish qadim-qadim zamonlardan boshlangan bo‘lsa-da, XX asrning 50-60-yillaridan boshlab toponimlarning nomlanish asoslari, motivlari, motivatsiyasi, ba’zi bir nomlarning tavsifiy, tasnifiy, enseklopidik talqinlari-yu izohi va etimologiyasiga doir fikrlarni ilmiy asosda mukammal tadqiq qilish amalga oshirila boshlangan [32]. Bugungacha toponimlar yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarning tahlili va majmui joy nomlarining etimologik tahlili zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston onomastikasi, xususan, toponimiyasi bo‘yicha o‘ndan ortiq dissertatsiyalar himoya qilingan, bir necha monografiyalar va joy nomlarining izohli lug‘atlari nashr etilgan.

XX asrning boshlarigacha yurtimizning oltin bitiklaridan biri bo‘lgan toponimlari monografik tadqiqot sifatida maxsus etimologik tadqiq etilmagan. O‘zbekiston toponimiyasi bo‘yicha yozilgan ilmiy ishlarning ko‘pchiligida joy nomlarining lug‘aviy qatlamlariga oid bir qancha fikrlar bildirilgan, xolos. Ammo bu qatlamlarga oid tahlillar hajman qisqa bo‘lib, ularga oid ayrim mulohazalargina aytilgan, xolos. Buning ustiga, ushbu tahlillarda joy nomlari talqiniy, tasnifiy hamda tavsifiy mazmunda izohli talqin qilingan. Ularda toponimlarning yasalish xususiyatlari va izohlanishi, geografik tafsiloti haqidagi fikr-mulohazalar, an’anaviy grammatika talablari asosida tahlil qilish usullari ustun edi.

Ammo XX asrning 90-yillarigacha so‘zlarni apellyativ (odatdagi) so‘zlar va onomastik (nomlash uchun) leksika deb ikkiga bo‘lib o‘rganilishi; ularning farqlari farqlab berilmagani; topoasos, topoformant va topoindikator terminlari talqinlari; toponimlashuv, etnonimlashuv; nomlarning imlosi va talaffuzi masalalari; topoobyektlarga nom qo‘yish qonuniyatlari va ularni qayta nomlash talablari; toponimlar tahlilining odatdagi grammatik tahlildan farqlari; nom va toponimlarning tahlili, toponimik tahlilligi hamda ularning onomastik tahlil talablari-yu me’yorlariga, ya’ni omil,

usul va tamoyillarining amal qilishligi, mamlakatimiz hududidagi onomastik qonuniyatlarning o‘ziga xosligi; onomastik leksikografiyaning talab va me’yorlari; toponimik lug‘atlarni tuzishning talab hamda me’yorlari; onomastik grammatika va topogrammatika talablarining lingvistik grammatikadan farqlanishi; onomastik morfologiya, topomorfologiya, onomastik sintaksis va toposintaksis masalalarining nazariy hamda amaliy talqinlari; nom hamda toponimlarning mukammal izohli tahlili va etimologik tadqiqotga asoslangan etimologik tahlili, undagi haqiqatga yaqinlik va etimon masalalari ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy jihatlardan asoslanmagan edi.

XX asrning 80-90-yillarida taniqli nomshunos olim filologiya fanlari doktori, professor E.Begmatovning ushbu sohadan ilmiy ish olgan shogirdlari endigina ilmiy kuzatishlarga kirishishgan, o‘zbek onomastikasi masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy xarakterdagi sara kitoblari nashr etilmagan. Shuningdek, tadqiqotchi T.Enazarovning doktorlik dissertatsiyasi [27] muvaffaqiyatli himoya qilinmaguncha yurtimiz toponimlari monografik tadqiqot tarzida maxsus etimologik tadqiq qilinmagan. Sababi, ularni etimologik tadqiq qilishning tamoyil, usul va omil singari me’yorlari o‘rganilmagan edi. Shuning uchun ham ular toponimlarning etimologik tadqiq yo‘llari sifatida amalda qo‘llanmagan. Bu hol respublikamizdagi toponimlarning yetarli to‘planmaganligini, o‘ziga xos lisoniy va nolisoniy xususiyatlari mukammal tadqiq etilmaganligini, ularni etimologik tadqiq qilishning me’yoriy tizimi maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmaganligini hamda amalga oshirilgan ba’zi bir joy nomlarining tahlillari, asosan, *qayd etish – taxmin – xalqona talqin* tarzida olib borilganligini, ya’ni to‘liq yakunlanmaganligini anglatadi. Holbuki, toponimlarning etimologik tadqiqi *muammo – tadqiq – taxmin – tahlil – talqin – yechim* shaklida olib borilishi bilan ularda mamlakatimizdagi xalqlarning milliy ruhi va til tizimining ichki rivojlanish qonuniyatlari mujassamlashganligini mantiqiy izchillikda ko‘rsatish lozim. Chunki vaqti kelsa, tosh ham, temir ham yemirilishi mumkin, lekin nomlar, shu jumladan, toponimlar hech qachon yemirilmaydi.

Toponimlarni faqat tilshunoslik yoki tarix, yoxud geografik jihatdan o‘rganish noto‘g‘ri. Sababi, ular tilshunoslik, tarix va geografiya fanlarining bir butun holda tadqiq etish obyektlari sanaladi. Demak, har bir toponimning etimologik tahlilida boshqa fanlar bilan birga tilshunoslik, geografiya, tarix va boshqa fanlarga oid dalillardan zaruriyatga qarab o‘rinli foydalanish maqsadga muvofiq. Mana shunday holatda ish yuritilgandagina joy nomlarining etimologik tahlilini amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Mamlakatimiz toponimiyasining turkiy, arabiy, eroniy, so‘g‘diy hamda substrat qatlamlarida O‘zbekiston toponimlari tizimining tarixiy rivoji, o‘zgarish va boyish tendensiyalari, eskirish va yangilanishining me’yoriy xususiyatlari, ijtimoy-lisoniy sabab va asoslari oltin bitiklardan namunalar sifatida o‘z ifodasini topgan. Toponimlar qatlami Vatanimiz o‘tmishida yashagan turli qavmlar, elatlarning joylarni nomlash bilan bog‘liq udumlari va an’analarini o‘zida qamrab olgan nomlardir. Nomlar esa til vakillarining ijod qilish mahorati, jamoaning ijodiy tafakkuri va san’ati haqida ma’lumot beruvchi qimmatli lisoniy manbadir. Toponimlarda o‘tmish ajdodlarimizning madaniy-ma’naviy qarashlari, atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlari, ona tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbati va e’zozi mujassamlashgan. Ular har bir joyni o‘ziga xos va mos ravishda nomlashga intilganki, beixtiyor nom qo‘yish ham san’at darajasiga ko‘tarilgan. Mamlakatimizdagi joy nomlari betakror ma’nosi-yu mohiyati, shaklan qisqa, lo‘ndaligi bilan ajralib turadi. Shu ma’noda toponimlar O‘zbekiston xalqlarining qadim tarixini, ajdodlarimizning tafakkur yo‘sinini, yashash tarzini, turli topoobyektlarga nom berish me’yor, omil va usullarini o‘zida jamul-jam qilgan ma’naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlarning uzviy qismidir.

Til ijtimoiy hodisa sifatida har bir xalqning aloqa ehtiyoji ta’sirida yuzaga kelar ekan, undagi apellyativ so‘zlar kabi nominativ birliklar ham ayni shu ehtiyoj ta’sirida paydo bo‘ladi. Toponimlar

ham nominativ birliklardan biri sifatida o‘zaro munosabat va aloqaga, ya’ni zaruriyatga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda toponimlar bebaho tarix hamda tarixiy yodgorlik ham sanaladi. “*Kim bo‘lishidan qat’iy nazar, jamiyatning har bir a’zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar ta’siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Inson uchun tarixdan judo bo‘lish – hayotdan judo bo‘lish demakdir. Zotan, tarix – xalq ma’naviyatining asosidir*” [11. 9-11]. Tarixning, xususan, mamlakatimiz tarixining noma’lum sahifalarini tez va osonroq bilish yo‘llaridan biri bu – hududimizdagi toponimlarning ma’nolarini “chaqa bilish”, ya’ni ishonarli dalillar bilan amalga oshirilgan toponimik tahlillar ko‘rinishidagi etimologik tahlillarni o‘qib, o‘rganib, o‘zlashtira bilish kerak.

Bulardan tashqari, nomlarning, xususan, toponimlarning tarix, shu jumladan, boshqa til birliklaridan farq qiladigan qo‘shimcha vazifasi, ya’ni toponimik vazifasi va toponimik ma’nosi ham borki, bu haqida maxsus to‘xtalib o‘tish joiz. Uning bu vazifasi odamlarning makon hamda zamonda topoobyektlarga nisbatan qanday harakat qilishni ham belgilaydi. Chunki muayyan hududda joylashgan son-sanoqsiz topoobyektlar qurshovidagi insonlarning adashmasdan u topoobyektdan bu topoobyektga borishlari, topoobyektlar orasidan o‘zlariga zarur bo‘lgan obyektlarni topa olishlari, makonda mavjud bo‘lgan turli xil geografik muhitlarni bir-biridan farqlab olishlari, topoobyektlarning bir-biriga nisbatan joylashuvidan xabardor bo‘lishlari kabi nom, shu jumladan, toponimlarning ma’nolarini bilish va farqlash ham ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalash jarayonida katta ta’limiy-tarbiyaviy, ma’rifiy-ma’naviy ahamiyatga ega. Buning uchun esa inson avvalo shu topoobyektlar nomlarining ma’no-mohiyatini yaxshi bilishi-yu tushunishiga shart-sharoit va imkoniyat hozirlashi, ularning axborot almashinuviga yaroqli nomlar tizimini ham yaratishi maqsadga muvofiq. Chunki tarixiy va zamonaviy nomlar ham talaba yoshlarimizga milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarni singdiruvchi, ularni haqiqiy vatanparvar va elparvar hamda har tomonlama bilimdon insonlar bo‘lib kamolotga yetishishlarida eng zarur vositalardan biridir.

Shu o‘rinda yuqorida aytilgan fikrlarimizni isboti sifatida oltin bitiklardan biri bo‘lgan toponimlarning etimologik tahlillaridan namunalarni quyida berib o‘tamiz:

Saksonkapa (Qashqadaryo v. Shahrisabz t. qishloq) – toponimining kelib chiqishi xususida quyidagi taxminlar ham uning obrazli nomlanishi orqali nomlarga xos betakror oltin bitikligini ifodalaydi:

1. Ushbu toponim o‘sha yerlik aholi vakillarining aytishlaricha, *kapalik* joyning shakllangan nomi: **Saksonkapa**. Kapalar ko‘p bo‘lgani uchun nomning shakllanishiga sakson miqdor soni ishlatilgan: *sakson+kapa* > *saksonkapa* > *Saksonkapa* > **Saksonkapa.** Agar uning daryo bo‘yida joylashganligi va dehqonchilik, chorvachilik yaxshi rivojlanganligini, shuningdek, Shahrisabz shahri yaqinida joylashgan **topoobyektligi** hisobga olinsa, *kapa*lar ko‘p degan fikr noo‘rin bo‘lib qoladi. *Sakson* miqdor soni tarixi qadim tarixga bog‘liq bo‘lgan xalqimizning qadriyatlari va sehrli sonlari bilan *bog‘liq uch, yetti, yigirma, qirq va yil (bir yil to‘ldi)* shakllaridagi sonlarga yaqinlashmaydi ham. Xullas, ushbu toponimdagi *sakson* so‘zini miqdor sonlar jumlasiga kiritish noo‘rindir.

2. **Kapa** – chayla hamda urug‘ nomi (masalan, kapasaroy). *Kapa* komponentli toponimlar Farg‘ona vodiysida ko‘p uchraydi. Xatirchi, Payariq, Jalaquduq, Beshariq tumanlarida **Kapa**, Yangiqo‘rg‘on, Urgut, Beshariq, Uchqo‘rg‘on, Asaka tumanlarida **Beshkapa** qishloqlari bor” [29. 49].

3. Bu oykonimning shakllanishiga qadimiy turkiy qabilalar nomi bo‘lgan **shak // sak // saks // masaget**larning nomlari asos bo‘lgan.Undagi *-on* topoformati oldingi davrlarda til tarixida ko‘plik ma’nosini anglatgan.

Undagi kapa topoleksemasiga kelsak, sak // saks // shaklar eramizdan oldingi va eramizning boshlarida harbiy yurishlarda ham, kunlik faoliyatda ham doimo aravalarda yurishgan. Kishilar usti

yopiq aravalar ko‘p bo‘lgan joylarni *‘kapa’* so‘zi vositasida nomlashgan: **Saksonkapa**. Toponimdagi *sak // saks // shak // masaget* so‘zlarining *sakson* holatiga kelishi va shu tarzda tushunilishi sinxron nuqtai nazardan hisoblanadi. Qadimda *shak // sak // saks // masaget* deb atalgan jangovar va kurashchan qabilalar bo‘lganligi tarixiy manbalarda o‘z ifodasini topgan: *Сака* – киргизы Абрамов, 1960, 127); *Саксан* 1) казаки (аликули) – Аристов, 1896, 380; 2) узбеки (дурмен) – Каримова, 1976, 108 [12. 332-333]. Shu sababli ham aslida mazkur toponimga diaxron nuqtai nazardan to‘g‘ri va ishonchli munosabat (baho) bildirish o‘rinli, deb bilamiz [14. 7-15]. Shu yerda ta’kidlash kerakki, toponimik aniqlagich bo‘lgan bu kapa topoleksemasining mazmun-mohiyatida *usti yopiq arava* ma’no nozikligi mavjuddir.

Ushbu toponim to‘g‘risidagi taxminiy fikrlar to‘g‘ri xulosaga kelishga imkoniyat yaratdi. Uning etimoni *sak // saks // shak*lar o‘zlarining usti yopiq aravalari bilan yashagan joy degan ma’no nozikligini ifodalaydigan *saks (shak) + -on + kapa > saksonkapa* yasama so‘zidir. Demak, bu toponim etnonim asosida shakllangan etnotoponimlardan va yana tarixiy ahamiyatga molik tarixiy toponimlardan biri bo‘lib, mamlakatimiz hududida kam qo‘llanishi bilan e’tiborga loyiqdir. Bu nomda qadimiy sak // shaklar nomining saqlanib qolishi ham uning oltin bitikligini asoslaydi.

Toshkent toponimining kelib chiqishi haqida etimologik tahlilida bir necha taxminiy fikr berilganki, ularning mazmun-mohiyati va obrazli nomlanishi orqali joy nomining tarixiy oltin bitikligini anglatib turibdi:

1. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning «Suratu-l-arz kitobi» asarida **Toshkent** avval *Torband*, *Burji hijora*, *Tosh qal’a*, *Shosh* deb qayd qilingan [18, 268-269]. Bizningcha, arab yozuvidagi *Torband* toponimida *o* unlisi noto‘g‘ri o‘qilgan, aslida *a* bo‘lishi kerak. Qishloq, shahar ma’nosidagi *kand* so‘zi tarkibidagi *k* undoshi arab yozuvining turli ko‘rinishlarida *b* shaklida o‘qilib ketilgan. *A* unlisining *o* unlisiga o‘tishi esa keyingi jarayon. *Torband* aslida *Tarkand* shaklida [5, 109] yozilishi lozim edi. *Toshli qal’a* arabchada *Burji hijora* deb atalgan [18, 269]. U holda *Chosh (Choch)* va *Shosh* nomlarining kelib chiqishini faqat arab tiliga bog‘lash shart emas, balki u turkiy va arab tillarining unsurlaridan shakllangan. Sababi, obyektning *Chosh (Choch)* va *Shosh* shaklidagi nomlari fors-tojik va xitoy manbalarida ham uchraydi [1. 292]. Demak, muallif **Toshkent** toponimining *Torband* (*Tarband* // *Tarkand*) shaklini VIII asrdagi ko‘rinishi deb, to‘g‘ri ko‘rsatgan.

2. Bu shahar oldin **Tarkan** deb, so‘ngra esa **Toshkent** deb atalgan [13. 414].

3. Xitoy manbalarida **Shi**, **Chach** deb qo‘llangan [25. 3]. Xitoyliklar **Toshkent**ning oldingi nomi bo‘lgan **Shi** va **Chach // Chosh**ni o‘zgartirmay qo‘llashgan.

4. Ushbu toponim XII asrda **Tarband** deb qo‘llangan [5.109].

5. E. M. Murzayev uning ma’nosini *“tosh shahar”* degan holda Ye. D. Polivanovning ushbu toponimni *taj // taji // tadjik* etnonimiga bog‘lashiga qo‘shilmaydi [17, 230-232].

6. Sh. Qodirova ushbu toponimning shakllanishini *Tarig‘kent*ga bog‘laydi [8. 7-12]: *Tarig‘ (kent) > Tar(kent) > Shash(kent) >* **Tashkent**. Bunda toponimning asosi deb boshqa so‘z tanlangan, etimoni haqida to‘xtalinmagan.

7. H. Hasanov: “*Ehtimol, “**Toshkent**” so‘zi bu yerdagi dastlabki tosh binoga qarab paydo bo‘lgandir. Kelgusi arxeologik tekshirishlar va filologik tahlillar bu masalaga aniqlik kiritsa kerak*” deydi [31. 101]. Bundagi xato *ehtimol* so‘zida aks etib turibdi.

8. Tarixiy taraqqiyot tufayli toponim tarkibida *Chosh – Shosh – Tosh* shaklida fonetik o‘zgarishlar bo‘lganini M. Mirtojiyev qayd etgan [16. 237-238], ammo uning etimoni to‘g‘risida gapirmagan.

9. S. Qorayev bu haqda: *“Sof turkiy nom bo‘lgan **Toshkent** so‘zining tarixiy manbalarda qayd qilina boshlanganiga ming yildan oshdi”*, – degan. Muallif boshqa asarida uning etimologiyasi to‘liq o‘rganilmagan, deydi [30. 13].

10. Z. Do‘simov va X. Egamov: Toponimning eng ko‘p tarqalgan etimologiyasi **Toshkent** – “tosh qal’a, tosh shahridir”, – deb yozishgan [6, 132].

11. Toponim **Choch**, **Shosh**, **Shoshkent**, **Madinat ash-Shosh**, **Binkat**, **Tarkand** va **Toshkent** deb atalganini, *choch* so‘zi qadimdan *tog‘* va *tosh* ma’nolarini anglatishini, **Choch** avval toqqa, so‘ng daryoga, keyin vohaga, vohadan shaharga ko‘chganligini A. Muhammadjonov ko‘rsatgan [20. 53-59]. Bunda geografik va arxeologik dalillar uning etimologik tadqiqiga yo‘naltirilgan.

12. Mazkur toponimni, ya’ni “Toshkent shahrining nomi yozma manbalarda Choch, Chochiston, Shosh, Shoshkent shaklida uchraydi. Choch so‘zi so‘g‘d tilida tosh demakdir. Shosh esa Choch nomining arabcha shaklidir. Choch yoki Shosh deganda Toshkent hamda uning atroflari tushunilgan. Shosh viloyatining markazi Binkat shahri deb ko‘rsatganlar. Binkat hozirgi Eskijo‘va va Chorsu oralig‘ida bo‘lgan. Binkat nomi forscha bo‘lib, ko‘rimli shahar demakdir (bin – ko‘rinish, ko‘zga tashlanish, kat – so‘g‘dcha “shahar, qishloq, manzigoh” degan ma’nolarni bildirgan). Abu Rayxon Beruniy o‘zining “Qomusi Mas’udiy” asarida “Binkat – bu Shoshning poytaxti, turkiy tilda “Toshkand”, yunonchadan arabchaga tarjima qilinsa – “Burj al-hijora (“Tosh minora”) deb yozgan” [24. 134-137]. Bular, ming afsuski, taxminiy fikr, chunki aytilgan manba hamda asarlarning nashri va sahifasi ko‘rsatilmagan.

13. Bu joy **Choch** nomi bilan ham ancha mashhur bo‘lganligini “Sug‘d elchisi Fatufarining Choch diplomatik missiyasi” misolida M.Is’hoqov maxsus to‘xtalgan [7. 26-37].

14. A. Devonaqulov bu joy nomining **Toshkand**, **Choch**, **Shosh**, **Gang** shaklidagi ko‘rinishlarini fors tilidagi tarixiy asar va lug‘atlar, shuningdek, “Shohnoma” asosida izohlashga harakat qilgan [4. 151-157].

15. Toponimning **Binkent** varianti arab geograflarining ishlarida berilganligini Ye. M. Pospelov qayd etgan [21. 188].

16. Ushbu toponim XII asrda **Tarband** deb qo‘llangan [. 109].

17. Bizningcha, toponimning **Torband** // **Tarband** // **Tarkand** variantlari obyektning M. Koshg‘ariygacha bo‘lgan nomi. **Toshkent** esa **Tarkand** shaklida XI asrda ham qo‘llangan. Birinchi bo‘lib obyektning **Torband** // **Tarband** // **Tarkand** nomlanishi, so‘ngra **Toshkand** // **Toshkent** deb atalishi fikrimizni tasdiqlaydi. Toponim M. Koshg‘ariy davrigacha **Torband // Tarband // Tarkand** deyilgan. Muallif yashagan davrdan boshlab esa obyekt **Tarkand** va **Toshkent** nomlari bilan atalgan. Keyinchalik birinchi nom arxaiklashgan, ikkinchi nom esa obyekt uchun asosiy nom bo‘lib qolgan. Joy nomi ikki morfemadan iborat: *tar* va *-kan*. *Tar* so‘zining *“zich, tig‘iz, jips, mahkam”* ma’nolari bor [5. 109]. Uning ikkinchi ma’noli bo‘lagi bo‘lgan – *kan (-kand)* esa “*qal’a, qo‘rg‘on, o‘ralgan joy”* ma’nolarini ifodalaydi. U holda **Tarkan** *“zich, mustahkam o‘ralgan qal’a, qo‘rg‘on”* ma’nolarini anglatadi.

Tar so‘zining “*zich, mustahkam”* ma’noni ifodalashiga qarab, u *“qattiq, mustahkam”* ma’nosidagi *tosh* so‘ziga fonetik o‘zgarishlar tufayli o‘tgan. Bunda r > sh* fonetik o‘zgarishi ro‘y bergan: *tar > tash > tosh*. *Chosh (Choch) Shosh* so‘zlari bilan *Tarkan* so‘zining o‘zaro munosabati bilan *r* undoshi *sh* undoshiga *(r > sh)*, *a* unlisi esa *o (a > o)* unlisiga almashgan: *Chosh(kand) > Shosh(kand) > Tarkand > Tarkan > Tazkan > Tashkand > Toshkan(d) >* **Toshkent** [28. 139-142].

1. *ch > sh.* 2. sh > t. 3. r > d // t [26, 160]. 4. d > d' > z (z > y; z > s > sh) [26, 160]. 5. r > z > z' (z > sh; z > s > ch > sh). 6. r > l > sh. Demak, r undoshi birdaniga sh undoshiga o‘tmagan, oldin d undoshiga (r > d) o‘tgan, so‘ngra esa d undoshi z undoshiga (d > z) o‘tgan. Eng oxirida z > s > sh o‘zgarishlari (r > d > z > s > sh) tufayli r > sh o‘tishi ro‘y bergan. Bu fonetik hodisalar ikki so‘zning birikishi natijasida ro‘y bergan: *tar+kan > tarkan > tazkand > taskand > tashkand > Toshkand >* **Toshkent.** *Tosh+kent* birikuvidan bu joy nomi vujudga kelmagan, balki regressiv assimilyatsiya

hodisasi ro‘y berib, sh tovushi ta’sirida t > ch fonetik o‘zgarishi amalga oshgan. *Chosh+kent* birikuvidan onomastik konversiya tufayli Choshkent yuzaga kelgan, ch tovushi sh tovushiga o‘tgan [23. 59]: *Choshkent > Shoshkent.* So‘zdagi bir xil undoshlardan biri boshqa bir undoshga aylanishiga ko‘ra Shoshkentning Toshkentga aylanishi qonuniy fonetik jarayon: *sh > t* hodisasi ro‘y bergan. Mazkur obyekt nomining *Choshkent > Shoshkent > Toshkent; Shash > Shosh; Tashkand // Toshkand* ko‘rinishlari bor. Masalan, Bobur Toshkand deb qo‘llagan [3. 92-94]. Unga yasovchi asos bo‘lgan Chosh so‘zi qadimda mahalliy aholi tilida “tog‘, tosh” kabi ma’nolarni ifodalagani kabi bugungi kunda “xirmon, xirmon joy” degan ma’nolarni anglatadi [19. 54].

Eski shahardan boshqa joylarda dehqonchilik qilingan. Shahar janubidagi Eskichoshtepa yo‘li ham fikrimizni tasdiqlaydi. “Dehqonchilik gullab yashnagan joy, xirmon joyli yer” ma’nosidagi Shoshkent va Choshtepa yoki Choshkent atamalari Tarkan holatidagi joy nomining Toshkent ko‘rinishiga kelishi uchun vosita bo‘lgan. Bu joy nomi xalq nutqida Toshkan tarzida aytilishi ham undagi kent elementining turkiy tillarga oidligini ko‘rsatadi [10. 4-9]. Tosh shahri deyish uning ma’nosini buzadi. Toponimining shakllanishiga “mustahkam o‘ralgan qal’a” ma’nosidagi tarkan so‘zi etimon vazifasini bajargan va tarixiylikka xos tadrijiylikni ifodalagan.

Demak, Toshkent toponimining buncha tarixiy taraqqiyot jarayonlarini o‘zida jamul-jam qilishi, albatta, uning oltin bitikligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi toponimik tahlilning bir namunasi bo‘lgan etimologik tahlil ko‘lamidan bilinib turibdiki, nom(toponim)lar to‘g‘risidagi noo‘rin fikr-mulohazalar esa bir necha ilmiy dalillar bilan rad etildi. Shuningdek, toponimlarning to‘plab berilgan taxminlarining ishonchliligi, topoasos, topoformant, topoindikatorlarning (toponimik aniqlagichlarning) joylashishida toponimik qoliplanishi ahamiyati, etimologik tahlilning haqiqatga yaqinligini asoslovchi etnonimlashuv, toponimlashuv va nom ko‘chishi jarayonlarining nomning ilk ma’nosi va ilk shakli bo‘lgan etnimon(lar) bilan bog‘liqligi masalalariga e’tibor berildi.

Sohadagi muammolarni hal qilish uchun qilingan ishlarni tanqidiy tahlil bilan baholashga asoslangan “Onomastik kvalimetriya” va “Toponimik kvalimetriya” nomli kichik, biroq zarur sohalarning ham rivojlanishi bugungi zamon talablari ijrosi jumlasiga kiradi.

Nomlarga, shu jumladan toponimlarga munosabat mamlakatimizning mustaqillik davridan boshlab davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ushbu fikrimizning isboti sifatida 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan “Davlat tili to‘g‘risida” qonunni, 2012-yil 11-oktabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining geografik nomlari to‘g‘risidagi” qonunlarini eslash o‘rinlidir. Mana shu jarayonlarni ilmiy jihatdan asoslab ko‘rsatish uchun ham professor E.Begmatov mustaqil davlatimizning toponimik siyosati to‘g‘risida davomli ilmiy maqola va kitoblar yozgan [2. 3-9]. Bular esa xalq va davlat e’tirof etayotgan barcha nom hamda toponimlar, so‘zsiz, oltin bitiklar ekanligini tasdiqlaydi.

“O‘zbek onomastik leksikasi, xususan, o‘zbek toponimik leksikasi xalqimiz shevalariga xos dialektal leksikaning bir qismini tashkil etishi ham nazariy, ham amaliy jihatlardan qaralganda-da dalillanganligi bilan ajralib turibdi. Sababi, mamlakatimiz hududidagi joylarni, albatta, qachon va qayerda bo‘lmasin, shevalarimizning vakillari tomonidan nomlangan va nom sifatida e’tirof etiladi. Agarda mamlakatimiz hududidagi mikro va makro nomlarni jamlab, nomlarimizning “Oltin bitiklar fondi” deb nomlangan alohida fondini tashkil eta olsak, ularning miqdori ayni vaqtda bir necha million bo‘lishi tabiiy. Chunki bizning mamlakatimiz hududidan bir necha marta kichik bo‘lgan Shvetsariya hududidan to‘rt yarim milliondan ortiq nomlar yozib olinganligini bu soha vakillari yaxshi bilishadi. Bizning taxminiy hisob-kitoblarimizga ko‘ra ona-Vatanimizdagi nom va toponimlarning miqdorini juda kamaytirib aytganimizda ham ularning miqdori besh milliondan ortiqdir.

Xullas, nom hamda toponimlarning obrazli nomlanishlari orqali bir butun majmua sifatidagi oltin bitikligiga asos ularning qadim-qadimdan umuminsoniy qadriyatlarning biri sifatida hamon amalda – tilda va dilda qo‘llanib kelinishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.

2. Бегматов Э. Истиқлол ўлкасининг топонимик сиёсати // ЎТА. – Toshkent: Фан, 1997. 3-сон.

3. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Toshkent: Юлдузча, 1989.

4. Девонақулов А. Асрори номҳои кишвар. – Душанбе, Ирфон, 1989.

5. Древнетюркский словарь. Лгр., Наука, 1969.

6. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Toshkent: Ўқитувчи, 1977.

7. Исҳоқов М.Содиқов Қ., Омонов Қ. Мангу битиклар. – Toshkent: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009.

8. Кадырова Ш. М. Микротопонимы Ташкента. АКД. – Toshkent: 1970.

9. Кайдаров А. Т. Тюркская этимология: проблемы и задачи // Проблемы этимологии тюркских языков. – Алма-Ата, Гылым, 1990.

10. Караев С. Топонимия Узбекистана. – Toshkent: Фан, 1991.

11. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т., Шарқ нашриёти матбаа концерни бош таҳририяти, 1998.

12. Лезина И.Н., Суперанская А. В. Ономастика. Словарь-справочник тюркских родоплеменных названия. Част II. – Москва, 1994.

13. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I т. – Toshkent: Фан, 1960.

14. Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Toshkent: Ижод, 2006.

15. Маҳмудов Қ. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. – Toshkent: Фан, 1990. 149-,152-,161-162-,170-171-бетлар.

16. Миртожиев М. М. Тошкент сўзининг маъноси // Шарқ юлдузи. 2-сон. 1981.

17. Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. – М., Мысль,1974.

18. Муҳаммад ибн Мусо Ал-Хоразмий. Математика, астрономия, география. – Toshkent: Фан, 1983.

19. Муҳаммаджонов А. Қадимги Тошкент (тарихий ва археологик лавҳалар). – Toshkent: Шарқ, 2002.

20. Муҳаммаджонов А. Қадимги Тошкент (тарихий ва археологик лавҳалар). – Toshkent: Шарқ, 2002. 54-бет.

21. Поспелов Е. М. Школьный топонимический словарь. – М., 1988.

22. Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараққиёт босқичлари. – Toshkent: Ўқитувчи, 1996.

23. Тўйчибоев Б. Яйлов, қишлов, керага ва олтин сўзларининг шаклланиши // ЎТА.3-сони. – Toshkent: Фан, 2000.

24. Хўжамов М., Лафасов М., Муллажонова Р. Тарихий ўлкашунослик ва туризм. – Toshkent: Муттоз сўз, 2014.

25. Хуршут Э. Ши-Чач-Ташкент. – Toshkent: Ўзбекистон, 1992.

26. Щербак А. М. Сравнительная фонетика тюркских языков. Лгр., Наука, 1970.

27. Эназаров Т. Д. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Т., 2006.

28. Эназаров Т. Д. “Номшунослик масалалари” – зарур, аммо баҳсли // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. Т., Akademnashr, 2010.

29. Қораев С. Ер тилининг калити (Ўзбекистон географик номларини ҳосил қиладиган асосий терминлар ва бошқа сўзлар). Қисқача луғат. – Toshkent: 2009.

30. Қораев С. Тошкент топонимлари. – Toshkent: Фан, 1991.

31. Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. – Toshkent: Ўзбекистон, 1985.

32. Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Toshkent: Ўзбекистон, 1981.

OYBEK NORMURODOV,
Guliston davlat universiteti, "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedrasi o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BIR RUBOIY MATNI TAHLILI

Annotatsiya: *Aruz ilmida birmuncha qiyinchiliklarni vujudga keltiruvchi omillar mavjud. Chunonchi, ular qatoriga badiiy matndagi matniy nuqsonlarni kiritish mumkin. Matnda ma'lum kamchiliklar kuzatilsa, bu jarayon o'z-o'zidan misralar tarkibidagi she'riy vaznlarni aniqlashda xotoliklarni keltirib chiqaradi. Biz fikr yuritmoqchi bo'lgan ushbu tadqiqot ishida Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub "Ko'ngli tilagan..." deb boshlanuvchi ruboiy ana shu muammolar yechimi masalasiga javob izlashga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar: *Aruz ilmi, ruboiy, matn, matnshunos, she'riy vazn, devon, ilmiy-tanqidiy matn, qo'lyozma.*

Abstract: *In the science of aruz there is a power to bring about some production. For example, they can include textual items in an artistic text. If certain damage is observed in the text, this process automatically creates errors in determining the poetic weights of the verses. In this research work, we want to think about the rubai written by Zahiriddin Muhammad Babur, which begins with "Ko'ngli tilagan..." ("The heart wants") to find an answer to the problem of solving these problems.*

Keywords: *Aruz science, rubai, text, textologist, poetic weight, divan, scientific-critical text, manuscript.*

O'zbek mumtoz adabiyotida badiiylik bevosita so'zning ma'nosi va uning qaysi o'rinda joylashuviga ham bog'liq. Ba'zan misralar tarkibida ortiqcha jumlalar badiiyat mezonlarining buzilishi hamda muallif aytmoqchi bo'lgan fikrga teskari holatni keltirib chiqarishi mumkin. Sharq mumtoz adabiyotida misraning asosiy talablaridan biri bu – aruz she'riy tizimining ma'lum bir vaznida yozilishidadir. Ko'p hollarda so'zlarning eski o'zbek yozuvidan boshqa, jumladan, kirill, lotin yozuvlarga ko'chirishda ortiqcha so'zlarning qo'shilishi, mazmunga qarab kon'ektura usuli bilan jumlalarni tiklashga urinish she'rning eng asosiy talablaridan biri – vaznda xatolikni yuzaga keltiradi. Bu hodisa ruboiy vaznlarida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Chunki ruboiylar qat'iy vaznga ega bo'lib, u hazaj bahrining axrab va axram shajaralarida yoziladi. Matnlarning nashrga tayyorlanish jarayoni o'ta murakkab va mashaqqatli ish hisoblanib, bu jarayon matnshunos olimdan ko'p bilim, ulkan tajriba, zakovat talab qiladi. Aks holda matndagi nuqsonlar she'rning vazniga ta'sir qilmay qolmaydi. Bu holatni umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklaridan tortib to oliy ta'lim darsliklarigacha kuzatish mumkin. Mazkur maqolada yuqoridagi holat Boburning birgina **"Ko'ngli tilagan…"** deb boshlanuvchi ruboiysi misolida tahlil qilingan. Jumladan, kitob mualliflari S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayevlar tomonidan 2020-yil chop etilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun mo'ljallangan "Adabiyot" darsligining 4-nashrida Boburning "Ko'ngli tilagan…" deya boshlanuvchi mazkur ruboiysidan boshlab tahlil qisak:

Ko‘ngli tilagan **murodig‘a** yetsa kishi
Yo **barcha** murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki **ish** muyassar **bo‘lmasa** olamda,
Boshini olib bir **sorig‘a** ketsa kishi.
Adabiyot: 5- sinfi uchun darslik. 2020. 166-bet.

Ushbu ruboiyning birinchi, ikkinchi misrasi hazaji axrabi maqbuzi makfufi ajabb (maf’uvlu mafoilun mafoiylu faal – – V / V – V – /V – – V / V –), to‘rtinchi misrasi hazaji axrabi makfufi ajabb (maf’uvlu mafoiylu mafoiylu faal – – V / V – – V / V – – V / V –) vaznida ekanligi ma’lum bo‘ladi, biroq uchinchi misra ruboiy vaznlarining 24 ta shajarasidan birortasiga ham mos kelmaydi. Bu misraning taqte’sini shartli ravishda quyidagicha keltirish mumkin:

Bu ik-ki ish mu-yas-sar bo‘l-ma-sa o-lam-da,
– – V – V – – – V V – – –

Endi o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladiki, ushbu ruboiyda matn bilan bog‘liq muammo mavjud. Ana shu nuqson vaznni to‘g‘ri aniqlashga imkon bermaydi. Shu bois ushbu ruboiyning boshqa matnlarga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Boburning yuqoridagi ruboiyini boshqa matnlarga qiyoslashda ularning chop etilgan yiliga qarab keltirishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Ko‘ngli tilagan **murodig‘a** yetsa kishi,
Yo **barcha** murodlarni tark etsa kishi.
Bu **ikki muyassar o‘lmasa** olamda,
Boshini olib bir **sorig‘a** ketsa kishi.
Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. Ilmiy asarlar. T., 2000. Ma’naviyat. 171-bet.

Ko‘ngli tilagan **murodg‘a** yetsa kishi,
Yo **barcha** murodlarni tark etsa kishi.
Bu **ikki muyassar o‘lmasa** olamda,
Boshni olib bir **sorig‘a** ketsa kishi.
N.Mallayev.O‘zbek adabiyoti tarixi. Darslik. O‘rta va oliy maktab. T., 1963.652-bet.

ی‌شیک ه‌ستیی ه‌غدارم ن‌اگ لایت ی‌لگنوک
ی‌شیک ه‌ستیا کـرت ی‌نرلادارم ه‌چرابـ ایـ
اد م‌لاع ه‌ساملوا رسیم)ش‌یا(ی‌گیا وبـ
ی‌شیک ه‌ستیک ه‌غیراسـ ریبـ بـیلآ ی‌نیشابـ

Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. (Nashrga tayyorlovchi Shafiqa Yorqin), Kobul., Hijriy 1362-yil. (Milodiy 1983-yil).165 (312)-bet.

Ko‘ngli tilagan **murodg‘a** yetsa kishi,
Yo **borcha** murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki **ish** muyassar **o‘lmasa** olamda,
Boshini olib bir **sorig‘a** ketsa kishi.
Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. (Nashrga tayyorlovchi Abdurashid Abdug‘afurov), – T., Fan. 1994. 96-bet. 167-ruboiy.

Ko‘ngli tilagan **murodg‘a** yetsa kishi,
Yo **barcha** murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki **ish** muyassar **o‘lmasa** olamda,
Boshini olib bir **sorig‘a** ketsa kishi.
Zahiriddin Muhammad Bobur. Nazm durdonalari. (Nashrga tayyorlovchi Hasanxo‘ja Muhammadxo‘ja o‘g‘li), – T., Sharq. 1996. 108-bet. 166-ruboiy.

Ko‘ngli tilagan **murodig‘a** yetsa kishi,
Yo **borcha** murodlarni tark etsa kishi.
Bu **ikki** muyassar **o‘lmasa** olamda,
Boshini olib bir **sorig‘a** ketsa kishi.

Zahiriddin Muhammad Bobur. G‘aribing andijoniydur. Saylanma she’rlar. (Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va lug‘at muallifi Vahob Rahmonov), – T., Sharq. 2008. 210-bet.

Ko‘ngli tilagan **murodig‘a** yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu **ikki ish** muyassar **bo‘lmasa** olamda,
Boshini olib bir **sorig‘a** ketsa kishi.

Adabiyot. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun majmua. Ikkinchi nashri. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2010. Tuzuvchilar: B. To‘xliyev, R. Mirsamiqova, O. Ahmetova. 171-bet.

Ko‘ngli tilagan **murodig‘a** yetsa kishi,
Yo **barcha** murodlarni tark etsa kishi.
Bu **ikki ish** muyassar **o‘lmasa** olamda,
Boshini olib bir **sarig‘a** ketsa kishi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi., – T., Sharq. 2017. 251-bet. K harfi uchun keltirilgan ruboiy.

کونگلی تیلا گان مرادغه ییتسه کیشی
یا بارچه مرادلارنی ترک ایتسه کیشی
بو ایگی میسر اولماسه عالم دا
باشینی آلیب بیر ساریغه کیتسه کیشی

Zahiriddin Muhammad Bobur. Kulliyot. 1-jild / Devon., – T., Zilol buloq. 2021. 344-bet.

Ko‘ngli tilagan murodig‘a yetsa kishi,
Yo borcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki muyassar o‘lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig‘a ketsa kishi.

Zahiriddin Muhammad Bobur. Kulliyot. 1-jild / Devon., – T., Zilol buloq. 2021. 345-bet.

Yuqoridagi deyarli barcha matnlarda so‘zlarda har xillik mavjud, masalan, professor Fitrat keltirgan matnda so‘zlar “murodig‘a”, “barcha”, “ikki muyassar o‘lmasa”, “boshini”, “sorig‘a” shaklida, shu bilan birga ushbu ruboiyning oliy o‘quv yurtlari uchun darslik sifatida tasdiqlangan uzoq yillar o‘zbek filologiyasi talabalari uchun foydalanib kelingan “O‘zbek adabiyoti tarixi” 1-kitobining Bobur hayoti va ijodi qismi uchun ajratilgan sahifalarida “murodg‘a”, “barcha”, “ikki muyassar o‘lmasa”, “boshni” shaklida yozilganligi kuzatilsa, Shafiqa Yorqin tayyorlagan matnda 3-izoh bilan qo‘lyozmada “ish” so‘zi mavjud emasligi qayd etib o‘tilgan. 1994-yil Abdurashid Abdug‘afurov tayyorlagan Zahiriddin Muhammad Bobur “Devon”ida “murodg‘a”, “borcha”, “… ikki ish muyassar o‘lmasa”, “boshini”, “sorig‘a” shaklida keltirilgan bo‘lib, faqat “ish” va “boshini” so‘zlarida o‘zgarish kuzatiladi. Keyingi 1996-yil Hasanxo‘ja Muhammadxo‘ja o‘g‘li tayyorlagan Zahiriddin Muhammad Boburning “Nazm durdonalari” (Shoh va shoir) kitobida so‘zlar “murodg‘a”, “barcha”, “ish muyassar o‘lmasa”, “boshini”, “sorig‘a” shakliga keltirilgan. Hammualliflar B. To‘xliyev, R. Mirsamiqova, O. Ahmetova tomonidan 2010-yil chop etilgan akademik litseylarning 2-bosqich o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan “Adabiyot” majmuasida keltirilgan ruboiyning matni 2020-yil nashr qilingan 5-sinf uchun Adabiyot darsligidagi matn bilan bir xil. Vahob Rahmonov tomonidan tayyorlangan “G‘aribing andijoniydur” saylanma she’rlar to‘plamida esa so‘zlar “murodig‘a”, “borcha”, “ikki muyassar o‘lmasa”, boshini”, “sorig‘a” shaklida

bo‘lsa, 2017-yil “Sharq” nashriyotida bosilgan “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi”da ruboiyning o‘zgarishga uchragan so‘zlari quyidagicha “murodig‘a”, “barcha”, “ikki ish muyassar o‘lmasa”, “boshini”, “sarig‘a” holatga kelgan.

Demak, barcha matnlardagi keltirilgan namunalarning asosida ushbu ruboiyning mana shu shaklda ekanligi ma’lum bo‘ladi:

Ko‘ngli tilagan murodig‘a yetsa kishi,
Yo borcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki muyassar o‘lmasa olamda,
Boshini olib bir sarig‘a ketsa kishi.

Aruzshunos olim Sobirjon Tohirov “Aruz mustahkam o‘lchovlarga ega bo‘lganligi uchun uning yordamida she’riy matnlardagi odatiy va tasodifiy xatolarni aniqlash imkoniyati mavjud” ekanligini qayd etadi. Endi, mana shu ilmiy fikrlarga tayangan holda Boburning yuqoridagi ruboiysining vaznini aniqlaymiz:

1-misra. Ko‘ngli tilagan murodig‘a yetsa kishi. Hazaji axrabi maqbuzi makfufi ajabb (maf’uvlu mafoilun mafoiylu faal – – V / V – V – /V – – V / V –).

2-misra. Yo barcha murodlarni tark etsa kishi. Hazaji axrabi maqbuzi makfufi ajabb (maf’uvlu mafoilun mafoiylu faal – – V / V – V – /V – – V / V –).

3-misra. Bu ikki muyassar o‘lmasa olamda. Hazaji axrabi maqbuzi solimi abtar (maf’uvlu mafoilun mafoiylun fa’ – – V / V – V – / V – – – / –).

4-misra. Boshini olib bir sarig‘a ketsa kishi. Hazaji axrabi makfufi ajabb (maf’uvlu mafoiylu mafoiylu faal – – V / V – – V / V – – V / V –).

Vaznni aniqlashda matnning mukammal ekanligi shart. Ko‘p o‘rinlarda vaznning aniq chiqmasligi so‘zlarning o‘zgarshga uchrashi yoki qo‘lyozma manbalarda mavjud bo‘lmagan jumlalarning yuzaga kelishi bilan ham bog‘liqliqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tohirov S. Aruz vazni qoidalari. – Samarqand: Universitet. 2020.

2. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: Ta’lim-Media. 2019.

3. Hojiahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ati. – T.: Sharq. 1998.

4. Adabiyot: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5- sinfi o‘quvchilari uchun darslik. (Ahmedov Sunnat, Qosimov Begali, Qo‘chqorov Rahmon, Rizayev Shuhratilla). – T.: Sharq. 2019.

5. Adabiyot: Akademik litseylarning 2-bosqich o‘quvchilari uchun majmua (Tuzuvchilar: Boqijon To‘xliyev, Ra’no Mirsamiqova, Oydin Ahmetova.). Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T: Sharq. 2010.

6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon.(Nashrga tayyorlovchi Abdurashid Abdug‘afurov), – T.” Fan. 1994.

7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Nazm durdonalari. (Nashrga tayyorlovchi Hasanxo‘ja Muhammadxo‘ja o‘g‘li), – T.: Sharq. 1996.

8. Zahiriddin Muhammad Bobur. G‘aribing andijoniydur. Saylanma she’rlar. (Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va lug‘at muallifi Vahob Rahmonov), – T.: Sharq. 2008.

9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. (Nashrga tayyorlovchi Shafiqa Yorqin), Kobul., Hijriy 1362-yil. (Milodiy 1983-yil).

*10. Mallayev N.*O‘zbek adabiyoti tarixi.– T.: O‘rta va oliy maktab. 1963.

11. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: Sharq. 2017.

12. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. Ilmiy asarlar. – T.: 2000. Ma’naviyat.

13. Zahiriddin Muhammad Bobur. Kulliyot. 1-jild / Devon., – T., Zilol buloq. 2021. 600 bet.

SURAYYO SHODIYEVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti, Turon universiteti o‘qituvchisi

SALOHIDDIN SALOHIYNING “YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONIDA YETAKCHI OBRAZLAR SPETSIFIKATSIYASI

Annotatsiya: *Mazkur maqola “Yusufnavislik” an’anasida yozilgan “Yusuf va Zulayho” nomli asarlar haqida bo‘lib, xususan, unda XVIII asrda yashagan Salahiy taxallusli shoirning ayni shu nomdagi dostonining bosh obrazlari hisoblangan Yusuf va Zulayho obrazlarining badiiy tahlili va talqini o‘rin olgan. Bu orqali Salohiyning ushbu obrazlari boshqa “Yusuf va Zulayho” nomli sikl dostonlardan farqli jihatlari aniq misollar asosida dalillab berilgan. Shuningdek, Salohiy o‘z dostonida ustozlari an’anasidan foydalanishi bilan bir qatorda uning o‘ziga xos tarzda yangiligini ham bera olganligini amaliy jihatdan qadim qo‘lyozmaga tayangan holda tahlil va talqin etishga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Salohiy, “Yusuf va Zulayho”, forsiy, manba, toshbosma, inv.9691, obraz, komil inson, nafs, tasavvufiy asar, ishqi ilohiy.*

Annotation: *This article is about the works called “Yusuf and Zulaykha” written in the tradition of “Yusufnavislik”, in particular, it contains the artistic analysis and interpretation of the images of Yusuf and Zulayho, which are the main characters of the epic of the same name by the poet Salahiy, who lived in the 18th century. received In this way, the differences of these images of Salahi from other cycle epics named “Yusuf and Zulaykha” have been proved based on specific examples. Also, an attempt was made to analyze and interpret Salahi’s use of the tradition of his teachers in his epic, as well as his ability to give it something new in his own way, based on the ancient manuscript.*

Key words: *Salahi, “Yusuf and Zulaykha”, persian, source, lithograph, inv.9691, image, wise perfect, soul, mystical work, divine love.*

Sharq va g‘arb adabiyotida “Yusuf va Zulayho” nomli doston mashhur ishqiy asarlar ichida alohida ahamiyatga ega doston sifatida ajralib turadi. Chunki ushbu nom ostida turli davrlarda, ko‘plab ijodkorlar tomonidan yozilgan shu nomdagi asarlar o‘xshash bo‘lsa-da, ularning har birida o‘ziga xos tarzda insonning ruhiyatini, ma’naviyatini hamda madaniyatini yuksaltiruvchi g‘oyalar mujassamlashgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak qadim tarixdan boshlab bugungi kunga qadar bir qancha ijodkorlar tomonidan “Yusuf va Zulayho” nomidagi asarlar yaratildi. Ushbu qissa ilohiy muhabbatni tarannum etuvchi noyob adabiyot namunasi sifatida keng tarqalgan. Ushbu mavzu musulmonlar kitobidagi o‘zgacha talqini asosida har bir nozik ta’bli, o‘tkir zehnli ijodkorlarning nazariga tushib, “Yusufnavislik” an’anasi yuzaga keldi.

Ma’lumotlarga qaraganda, ushbu suradan ilhomlangan ijodkorlar tomonidan 150 dan ortiq “Yusuf va Zulayho” nomli asarlar yaratilgan. Xususan, ularning eng mashhurlari Firdavsiy, Abulmuayyid Balxiy, Abu Ali ibn Sino, Qul Ali, Shayyod Hamza, Suli Faqix, G‘ali, Shahobiddin Oshiq, Nosiruddin Rabg‘uziy, Dariy, Durbek, Hamidullo Hamdiy, Haydar Xorazmiy, Shohin

Sheroziy, Abdulloh Ansoriy, Xoja Mas'ud Iroqiy, Abdurahmon Jomiy, Chalabiy, Mulla Yusuf Yorkandiy, Nozim Xiraviy, Sayqaliy, Xiromiy, Salohiy, Andalib, Hoziq, Olim Devona, Nozim Hikmat, Tomas Mann, Habib Sa'dullo, Ramz Bobojon, Dilorom Yormatova kabi ijodkorlar tomonidan yozilgan asarlardir.

Salohiddin Salohiy ham 1756-yil "Yusuf va Zulayho" nomli doston yozib "Yusuf"navislik an'anasini davom ettirgan shoirlardan biridir. Salohiy tomonidan yozib qoldirilgan "Yusuf va Zulayho" dostoni mumtoz adabiyotimizda alohida ahamiyatga ega manbalardan biridir. Salohiddin Salohiy qalamiga mansub "Yusuf va Zulayho" dostonining g'oyasini bilish, uning badiiy qimmatini aniqlashda, albatta, ushbu asardagi obrazlarni tahlil qilish samarali yo'ldir. Ular orqali ma'lum bir g'oya va maqsad aniq ifodalanishi, shubhasiz.

Ushbu ilmiy maqolani yozishda tarixiylik, obyektivlik, ilmiylik tamoyillariga asoslanilgan holda kuzatish, taqqoslash, tavsiflash hamda tarixiy-qiyosiy, biografik, statistik, kontekstual va kompleks tadqiq usullaridan foydalanildi.

Dostondagi markaziy qahramon bu Yusuf bo'lib, u barcha voqealarni birlashtirib turuvchi obrazdir. Muallif ushbu obrazni xarakter darajasiga olib chiqqan. Bilamizki, asar sujetida "katta yuk" tashuvchi shaxslargina xarakter darajasiga ko'tariladi. Adabiyotshunos olim H.Umurov ta'kidlaganidek: "Agar obrazni yong'oqqa qiyoslasak, xarakter (yunoncha charakter — xususiyat, belgi) shu yong'oqning mag'zidir. Chunki mag'izda yong'oqning mohiyati, tirikligi, zaruriyligi, joni jamuljamdir". [19.45] Haqiqatdan ham, Yusuf obrazi orqali shoir o'zining maqsadi, orzusini ifodalashga harakat qilgan. Ushbu obraz ruhan tetik, ma'naviy pok, hayotga muhabbat ko'zi bilan qarovchi, o'z taqdirini o'zi yaratuvchi komil insondir. Bir so'z bilan aytdanda, Yusuf obrazi Salohiyning estetik ideali edi. Bu qay darajada amalga oshirilganligini Yusufning hayotiga bag'ishlangan ushbu doston misolida ko'rib o'tishimiz mumkin.

Salohiy dostonda dastavval Yusufning go'zal chehrasi, ya'ni tashqi qiyofasini tasvirlaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Yusuf bashariyat tarixida eng go'zal insondir. Uning bu go'zalligi birgina husnida emas, balki ichki go'zalligida ham mujassam bo'lgan. Ya'qub Yusufni davlatining bir guli ekanligini, uning mehri oy kabi barchaga birdek nur taratishini aytadi. Misra oxirida u (Yusuf) sadafning ichidagi noyob bir gavhar ekanligini va mana shu gavhar uning (Ya'qubning) boshiga tojligini ta'kidlaydi:

Ba har kas fayzi subhi vasl ro' dod,
Guli umrash zi davlat rangu bo' dod.
Nazar sozad agar bar sangi xora,
Shavad az tobi mehrash la'l pora.
Zi mir'oti yaqinash rangi azlol,
Baroyad hal shavad be sa'y ashkol.
Charog'i mehri o' hargiz namirad,
Agar bar moh tobad nur girad.
Chu Yusuf gavhari neko' sadaf bud,
Sari Ya'qubro toji sharaf bud. [15:43(b-varaq)]

Ushbu baytlar orqali Ya'qub payg'ambar hayotida Yusufning o'rni qay darajada ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Shoir boshqa o'rinda esa Yusufni: "Barkamollik oyiday bir nur, halollik bo'stonining navniholi, millat gulzori debochasining guli", – deb ta'riflaydi:

Yake nure chu mohi barkamolash,
Daromad az dari qasri xayolash...
Niholi navrasi bo'stoni xillat,
Guli debochayi gulzori millat. [14. 52 (a-b varaq)]

Dostonda Yusuf mehribon farzand, sadoqatli xizmatkor, muhabbatiga sodiq yor, ma'rifatli kishi, tush ta'birini biluvchi, adolatli shoh, sabr-qanoatli, dono, oqko'ngil, saxovatli, bir so'z bilan aytganda, komil inson sifatida tasvirlangan. Uning mehribon farzand ekanligi asarning barcha lavhasida, ayniqsa, so'nggi o'rinlarida yaqqol kuzatiladi. Yusuf otasidan ayrilganidan buyon qancha vaqt o'tgan bo'lmasin Ya'qubni yodidan chiqarmaydi. Har bir aytgan gapini o'git sifatida qabul qiladi. Hattoki, ocharchilik davrida boshqa yurtdan yordam so'rab keluvchilar qatori Yusufning og'a-inilari kelganda ulardan otasining ahvolini bilib oladi. Ko'zlari ko'rmay qolganini eshitib, o'zining ko'ylagini berib yuboradi. Ya'qub ushbu ko'ylakni hididan kimga tegishli ekanligini bilib, uni ko'zlariga surtadi, natijada basir ko'zlari yana bu yorug' olamni ko'ra boshlaydi. Ushbu fikrimizning badiiy ifodasi quyidagi bobda keltirilgan: "Taslim kardani Maliki Misr toj-u taxti sarvariro ba hazrati Yusuf alayhissallam va xaloyiq az yumni qudumi o' az vartayi g'am xalos yoftan va guli murod chindan" [15.196-198] (Tarjimasi: Misr Maliki hukmronlik toj-u taxtini hazrati Yusuf alayhissalomga topshirgani va xaloyiq uning muborak qadamlari tufayli g'am-qayg'u girdobidan qutulgani va murod gulini tergani).

Uning sadoqatli xizmatkorligi esa shundan bilinadiki, Yusufni Misr Azizi sotib olgandan so'ng, unga xizmat qila boshlaydi. Zulayho kundan kun avj olib borayotgan ishqi tufayli unga birga hayot kechirishni taklif qilganda, Yusuf rozi bo'lmaydi. Negaki o'z xojasiga sotqinlik qilib, tavqi la'natga qolishni xohlamaydi. Bu orqali Yusufning o'z nafsiga qul bo'lmagan, ma'naviy pok insoniylik xususiyati namoyon bo'ladi.

Tarixdan ma'lumki, Yusuf payg'ambar tush ta'birini biluvchi ma'rifatli zot bo'lgan. Bu xususida professor Jabbor Eshonqulovning "O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini" nomli monografiyasida shunday deyilgan: "Avvalo, shu narsani ta'kidlash lozimki, islomiy ta'birnomalarni Yusuf alayhissalomga nisbat berish an'anasi mavjud. Ya'ni barcha ta'birlar sharhini dastlab Yusuf payg'ambar ijod qilgan va shu asosda ta'birlar sharhi tarqalgan deb qaraladi. Fikrimizning yorqin dalili sifatida o'tgan asr davomida toshbosma kitob holatida nashr qilingan "Ta'birnomai Yusuf alayhissalom" deb nomlangan kitobni keltirish mumkin". [5. 214]

Salohiyning "Yusuf va Zulayho" dostonida ham Yusufni ta'birchi qiyofasida ko'rishimiz mumkin. Tush ko'rish epizodi asarning boshida, o'rtasida hamda oxirida namoyon bo'ladi. Dastavval, Yusuf bolalik chog'ida o'n bir yulduz, quyosh va oyning unga sajda qilib turganini ko'radi.

Bu tushning ro'yobini qirq yildan so'ng ko'radi. Ya'ni quyosh va oy ota-onasi, yulduzlar esa uning og'a-inilari bo'ladi. Haqiqatdan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Yusuf podshoh bo'lganda akalari uning oldiga bosh egib, yordam so'rab borishadi. Ushbu tushni boshqacha talqin qilish ham mumkin. "Ta'birnomai Yusuf alayhissalom" kitobida: "Har kim tushida oftobni ko'rsa, qiyomatda payg'ambarlar qatorida bo'lg'ay. Har kim tushida mohi tobni ko'rsa, podshohlar qatorida bo'lg'ay",[16.7] – deyilgan. Bu tushning naqadar to'g'riligini vaqt ko'rsatdi: Yusuf payg'ambarlik va adolatli podshoh darajasiga yetishdi.

Dostonning o'rtasida ham tush epizodi keltirilgan bo'lib, unga ko'ra Yusuf tuhmat bilan zindonga tushganda o'z sheriklarining tush ta'birini to'ppa-to'g'ri bayon qiladi. Ya'ni zamon iqlimi podshosining hukmiga ko'ra ikki mahram zindonga solingan edi:

Ba hukmi xusravi iqlimi davron,
Du tan mahram ba jurme shud ba zindon .[15.187 (b-varaq)]

Ular bir kuni tush ko‘radi. Hazrati Yusuf alayhissalom ularning tush ta’birini aytib beradi. Buning evaziga esa ulardan qay biri ozod bo‘lsa, uning nomini shoh huzuriga aytishini iltimos qiladi. Ammo shaytonning ishi-la ozod bo‘lgan bir mahramning yodiga Yusuf umuman tushmaydi. Bu ham Yaratganning bir sinoati edi.

Yusufning yana bir tush ta’biri esa nafaqat o‘z hayoti balki butun bir mamlakat taqdirini ham ijobiy tomonga o‘zgartirib yuboradi. Unga ko‘ra, kunlarning birida Misr mamlakatining shohi Malik Rayon tush ko‘radi. Tushida har xil yetti semiz sigir va yetti yam-yashil boshoqni ko‘radi. Ammo ming taassufki, yetti oriq sigir yetti semiz sigirni yiqitadi hamda qurigan yetti boshoq yetti yashil boshoqni chirmab, quritayotganini ko‘radi. Shoh bu tushidan qo‘rqib ketib uyg‘onadi, ya’ni badaniga ruh qushi qayta kirdi:

Hayulo haft govi turfa farbeh,
Ba xubi har kadom az yak digar beh.
Pas az vay haft xo‘shayi toza-vu tar,
Kashid az kishtayi umedi o‘ sar.
Guzinaho noshuda mahsusi masrur,
Ba aksi in padid omad ba dastur.
Bexo‘rd on xushk xo‘sha, xo‘shayi tar,
Qavitanro zi po andoxt log‘ar.
Ba andak lam’ai mehri jahongard,
Zi qahti shud guli surx ruxash zard.
Zi bimi dahshati xobi garonash,
Daromad dar badan murg‘i ravonash. [15.190 (a-varaq)]

Shoh ushbu tush ta’birini o‘z ulamolaridan so‘raydi, ammo birorta a’yoni mazkur tush bayonini bilmaydi. Shunda bir zamonlar Yusuf bilan birga zindonda yotgan a’yonining yodiga Yusuf tushadi. Shu vazir shohga Yusuf haqida bilganlarini aytib beradi. Allohning inoyati bilan Yusuf shohning tushini to‘g‘ri ta’bir qiladi va zindondan ozod bo‘lib, barcha g‘am-tashvishlar-u musibatlardan forig‘ bo‘ladi.

Salohiyning ushbu dostonida Yusuf obrazi orqali komil insonning xususiyatlaridan biri hisoblangan adolatlilik tamoyili ilgari surilgan. Shoir Yusuf timsolida adolatli shoh obrazini yaratdi. Ya’ni Yusuf Misr hukmdori Malik Rayonning tushini ta’bir qilgandan so‘ng, shohning unga bo‘lgan hurmati va e’tibori ortadi. Chunki u Malik Rayon xalqini o‘z zehni va donoligi tufayli mushkul ahvoldan olib chiqib ketadi. U yetti yillik ocharchilik davrida mamlakatni adolat bilan boshqarib, xalqning barcha qiyinchiliklarini yengadi. Malik Rayon shu bois uni dastlab vazir, so‘ng esa o‘z xalqining hukmdori qilib tayinlaydi.

Salohiy Yusuf timsolidagi adolatli shoh obrazini o‘z davri hukmdorlariga namuna sifatida ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Chunki o‘sha davrda Buxoro amirligida toj-u taxt talashishlari oqibatida yurtning parokandalik botqog‘iga botishi, shafqatsizlik, xalqlarni qirg‘inbarot qilish, aholi boshiga turli soliqlarni solib, ularni chorasiz va ayanchli bir ahvolga keltirib qo‘yish nihoyatda kuchaygan edi. Bizningcha, Salohiy ushbu dostoni orqali nafaqat o‘z davri podshohlariga, qolaversa, xalqning boshiga turgan jamiki hukmdorlarga xuddi Yusufdek adolatni shior qilgan dono, oqil, sabr-qanoatli, mulohazali bir podshoh bo‘lishi kerakligini uqtirayotgandek. Zero, “Podshohlar Allohning yerdagi soyasidir”. Shunday ekan hukmdori zukko, odil bo‘lgan xalqning kelajagi farovon bo‘lishi, shubhasiz.

Dostonning asosiy qahramonlaridan yana biri bu – Zulayhodir. Ma'lumki, sharq adabiyotida yaratilgan "Yusufnoma"larning ilhom manbai bo'lgan "Qur'oni karim"da Ya'qub va Yusuf payg'ambarlar haqida so'z boradi, lekin Unda Zulayho nomi tilga olinmaydi. Ushbu obrazning yaratilishi haqida adabiyotshunos Usmon Qobilov shunday deydi: "Manba va adabiyotlarda bu obrazning paydo bo'lishi haqida turlicha qarashlar uchrasa-da, biroq ilk bora qaysi ijodkor yoki qaysi asar orqali kirib kelganligi aniq emas. Lekin bu obrazning qissachilikda paydo bo'lganligi "Yusufnoma"lar badiiyatining ulkan yutug'i deb qarash kerak, fikrimizcha. Bu holat qissa jozibadorligini ham, Yusuf obrazi maftunkorligini ham ta'min etgan kashfiyotlardan sanaladi va ayni obraz tufayli asar komil ishq dostoniga aylangan". [13.112]

Ayrim manbalarda esa Zulayho Po'tifarning xotini bo'lgan degan fikrlar ham mavjud. Jumladan, tadqiqotchi Dilnoza Jumayeva bu haqida shunday degan: "Ushbu obrazni Sharq adabiyoti namoyandalari o'z asarlariga kiritganlar. Xususan, ba'zi manbalarda Yusufga oshiq bo'lgan Po'tifarning xotini Zulayho nomi bilan ushbu mavzudagi asarlarning markaziy qahramonlaridan biriga aylanishi buyuk fors-tojik shoiri Firdavsiy nomi bilan bog'liqdir, [4. 262] deyiladi". [7.108]

Bizningcha ham, "Yusuf va Zulayho" ruknidagi badiiy asarlarda Zulayho obrazining to'qima obraz sifatida olib kirilishi ijodkorlarning muhim yaratiqlaridan biridir. Chunki ushbu obraz orqali bosh qahramon – Yusuf xarakterining turli qirralari ochib berilgan. Bu esa, albatta, asarning umumiy g'oyasini anglashda muhimdir. Yana shuni qayd etib o'tish lozimki, ilohiy ishq tarannum etilgan bu kabi dostonlarda bir tomonlama ishq nojoizdir. Ya'ni "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun"da bo'lgani kabi ushbu dostonda ham ikkinchi tomonning bo'lishi asarning mukammalligini ta'minlab beradi. Ishq-muhabbat to'g'risidagi dostonlarning aksariyatida yigitning qizga ko'ngil qo'yishi kuzatiladi. Lekin Salohiyning "Yusuf va Zulayho" dostoni yuqoridagi dostonlardan birmuncha farq qiladi. Negaki unda Yusuf komillik timsoli, Zulayho esa unga talpinuvchi, unga yetishishga intiluvchi oshiq timsoli sifatida gavdalanadi. Adabiyotshunos Qobiljon Tohirovning bu boradagi qarashlari fikrimiz dalilidir: "Yusuf va Zulayho" haqidagi qissalarda ahvol bir muncha boshqacha. Bunda oshiqlik, ya'ni sevgida aktivlik xususiyati, asosan, Zulayho obrazida ko'rinadi. Yusuf esa bu bobda passiv, u ta'bir joiz bo'lsa, ma'shuqa sifatida yoki sevgi obyekti sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, albatta, klassik adabiyotimizda shoirlarning deyarli hammalari o'z lirikalarida ma'shuqalarini Yusufga, o'zlarini Zulayhoga yoki Ya'qubga nisbat berganlar, mahbubaning go'zalligini chizar ekanlar, Yusuf obrazidan foydalanganlar". [17.175]

Zulayho Mag'rib shohi Taymusning qizidir. U o'z go'zalligi, donoligi va hayoliligi bilan dong taratgan malika edi:

Zi fayzash jumla zarinxoma gashtand,
Chu bargi gul munaqqash noma gashtand.
Ki har yak az kamoli nuktadoni,
Ki lafze vo namuda sad ma'oni.
Zamini shoiriro hasbu hole,
Nishonidand az har gul nihole. [15.175]

Tarjimasi: Barcha zarrin (zarhal) qalam fayzidan, gul bargi kabi naqshli noma bunyod bo'ldi. Nozik kamolidan har bir lafzida yuz ma'no namoyon bo'ldi. Shoirlar mahorati tufayli u (Zulayho) har xil guldan nihol paydo bo'ldi. Ya'ni uning husni har xil gullardan bir chiroy olgan kabi ko'rkli edi.

Zulayho Yusufni dastavval tushida ko'rib, unga ko'ngil qo'yadi. Zulayho Yusufni uch marotaba tushida ko'radi hamda uning nasl-nasabi va qayerdanligini so'raydi. Nihoyat uchinchi ko'rgan tushida Yusufning qayerdanligi ayon bo'ladi. "Dar xob didani Zulayho jamoli Yusuf alayhissalamro

daf’ai savum va tazarru’ namudani Zulayho va shafqat kardani Yusuf alayhissallam bar vay. Va nomi diyori xud guftan va humoi aqlki, oshyonai sar va makon soxtan va sababi huzuri dil va tasalli va jam’iyati xotiri o‘ gardidan”. [15.66-69] (Tarjimasi: Zulayho Yusuf alayhissalomning jamolini uchinchi marta tushida ko‘rganligi va Zulayhoning tazarru’ [zorlanish] qilgani va Yusuf alayhisallamning unga shafqat qilganligi va o‘z diyori, joyini, aytgani hamda aql humosining boshga uy qurgani va yurak huzuri-yu tasalliysi hamda uning xotirjamligi sababi bo‘lishi) deb nomlangan bobda yuqoridagi fikrimizning badiiy talqini aks ettirilgan. Xususan, quyidagi baytda Yusuf tilidan u haqidagi tafsilotlar bayon etilgan:

Humoyi taxti izzat oshyonam,
Azizi Misram-u Misri makonam. [15.68 (b-varaq)]
Tarjimasi:
Baxtli izzat taxti oshyonim
Misr Aziziman-u, Misr makonim.

Zulayho Yusuf haqida xabar topgan kundan boshlab, halovatini yo‘qotadi. Uning go‘zalligini eshitgan va ko‘rgan podshohlar sovchi qo‘yadi, lekin Zulayhoning ko‘ngli mudom Misr Azizida edi:

Azizi Misr maqsudi dilat ast,
Tamannoyi umed hosilat ast. [15.87 (b-varaq)]

Shoh Taymus qizining holidan xabardor bo‘lib, Misr Aziziga maktub yo‘llaydi:

Zulayhoro ba zaxmi mubtaloyi,
Kunad nosur bolini judoyi.
Namoyad az tajalliyot osor,
Azizi Misrro mushtoqi diydor. [15:81 (a-varaq)]

Shundan keyin Misr Azizidan Zulayhoga sovchilar kelishadi. Nihoyat, u sevganimga yetishdim deb xursand bo‘lib, Misr Azizi yurtiga ravona bo’ladi:

Zulayho az Aziz omad baro‘mand,
Ba Misr shodkomi raft xursand. [15. 89 (a-varaq)]
Tarjimasi:
Azizdan Zulayhoga omad keldi,
Misrga shod-u xursand jo‘nadi.

Ammo Zulayho uni birinchi ko‘rganda orzusi sarob bo‘lganligini anglaydi va shu kundan boshlab Yusuf hajrida qiynala boshlaydi.

Salohiy Yusuf hamda Zulayhoning ishqi asosida ilohiy muhabbatni qalamga oladi. Ya’ni majoziy ishq orqali haqiqiy ishqni ko‘rsatib bergan. Hazrat Navoiy ta’biri bilan aytganda:

Bo‘lub ma’shuqi asli chorasozing,
Haqiqatqa badal bo‘lg‘ay majozing. [3. 250]

Tasavvufda oshiq kishi o‘z maqsadiga yetishishda (haqiqiy ishqqa yetishishda) ko‘plab qiyinchiliklarga, sinovlarga duch keladi. Unga, avvalo, o‘zining nafsi to‘sqinlik qiladi. Shundan kelib chiqqan holda aytadigan bo‘lsak, Zulayhoning ishqi ham avval majoziy ishq shaklida namoyon bo‘ladi. U nafsoniy ishq deb hirsiy tuyg‘ular iskanjasida qolgan, hattoki Misr xotunlarining malomatiga ham sababchi bo‘ladi. Buning oqibatida Zulayho o‘zining ahvolini barchaga tushuntirish uchun bir hiyla o‘ylab topadi. Unga ko‘ra, Zulayho bir majlis tashkil etib, u yerga Misr ayollarini chaqiradi. Ularning qo‘liga apelsin berib, uni pichoq bilan artishlarini buyuradi. Shu payt Yusuf kirib keladi va barcha xotinlar Yusufning chiroyidan hayratda qolib, meva o‘rniga barmoqlarini kesib qo‘yadi:

Chu diydand on zanoni fitna ohang,
Zi jo jastand hamchun otash az sang.
Ba har kaf bud hangomi nazzora,
Turunj k-az laki almos pora.
Chu on hayrat filhol joy bididand,
Nihoda nor angushton buridand.
Chu gashtand az sharobi husni o‘ mast,
Kujo parvoyi eshon bud az dast. [15:174(b-varaq)]

Shundan keyin ular Zulayhoning ahvolini tushunib, undan kechirim so‘raydilar va qilgan ishlaridan afsuslanishadi.

Zulayho Yusufni bozorda ko‘rganidan buyon uni o‘ziga og‘dirib olish rejasini tuzadi. Buning natijasida ko‘p bema’ni ishlarni amalga oshiradi: doyasining maslahati bilan hayosiz suratlar aks ettirilgan yetti xonali bino qurdirib, Yusufni u yerga olib kiradi. Ushbu bob tavsifi: “Bunyod nihodani on doyai besarmoyai on haft xonai dur, ki chun haft avrangi zamona ki ko’i ismati hazrati Yusuf alayhissallamro on xona sababi fasona dida, Zulayho xijil gardida bud”. [15.156-158] (Tarjimasi: Doyaning ul yetti uzoq uylarni zamonning yetti avrangi[yetti taxti, yetti sayyorasi]ga o‘xshash bino qilganikim, hazrat Yusuf alayhissallam poklik ko‘chasi u uylarni afsonadek ko‘rib, Zulayhoning xijil bo‘lgani).

Niyati amalga oshmagandan so‘ng, unga xayrixoh Misr xotinlari maslahati bilan Yusufga tuhmat qilib, zindonga soldiradi. Voqeaning shu joyigacha unga rahmon emas, shayton hamroh bo‘ladi. Yusuf zindonga tushganidan so‘ng esa Zulayho uning jamolini ko‘ra olmay, bundan-da ko‘p g‘amga botadi va qilgan ishidan pushaymon bo‘ladi. Quyidagi bob bayoni orqali Zulayhoning ruhiy ahvolini bilib olishimiz mumkin: “G‘alaba kardani ishqi Yusuf Zulayhoro va pushaymon gardidan ba tariqi taassufi bar zindon raftan va az Yusuf alayhissalam uzr xostan”. [15. 184-186] (Tarjimasi: Yusufning ishqi Zulayhoning ustidan g‘alaba qilgani va uning zindonga tushishidan afsuslanib, pushaymon bo‘lganligi va Yusuf alayhissalomdan uzr so‘raganligi). Mana shu voqeadan boshlab Zulayhoning muhabbati ma’naviy kamolot bosqichiga ko‘tarila boshlaydi. Buning birgina dalilini u sig‘inadigan budlarni sindirib tashlab, islom diniga o‘tishida ko‘rishimiz mumkin. U Xudoga chin dildan iltijo qilib, haqiqiy ishqiga yetkazishni so‘raydi. Bu yo‘lda u ko‘plab mashaqqatli kunlarni boshdan kechiradi. Oxiri g‘am-alam uning alifdek qomatini dol qilib, kampir qiyofasiga solib qo‘yadi. Yusuf Misr eliga podshoh bo‘lgandan so‘ng, o‘z qavmi ahvolini bilish maqsadida ko‘chalarni kezib yurgan paytda bir necha bor Zulayho u bilan gaplashishga harakat qiladi. Shunday kunlarning birida u Yusufning oldiga chiqib, o‘z ahvolini bayon etadi. Yusuf bu voqealarda o‘zini ayblab, uning qanday tilagi bo‘lsa, yordam berishini aytadi. Zulayho undan o‘z husnini qaytarib berishini so‘raydi. Natijada Yusuf alayhissalomning duolari va

Allohning marhamati sabab Zulayho yana yoshligiga, avvalgi go‘zalligiga, balki undan-da ortiq husn-u jamolga erishadi. Ushbu voqealarning barcha tafsiloti quyidagi bobda bayon qilingan: “Ba’d az ilhom yoftani Zulayho az janobi Bori ta’olo va arza namudani ahvoli xud ba hazrati Yusuf alayhissalam ba sababi rastagori gashtan va qabul paziruftani hazrati Yusuf alayhissallam o‘ro” [15:206-209] (Tarjimasi: Zulayhoning Alloh taollo janobidan ilhomlanganidan so‘ng najot topganligi sababli hazrat Yusuf alayhissalomga o‘z ahvolini bayon qilgani va hazrat Yusuf alayhissallom uni qabul qilganligi).

Zulayho o‘z sevgisiga sadoqati bois, nihoyat, Yusufning qalbidan chuqur joy oladi, lekin Yusuf buni Zulayhoga birdan oshkor qilmaydi. Jabroil: “Sizlarning nikohingiz samoda o‘qildi. Uni nikohingga qabul qil”, – deb aytganidan so‘nggina dil izhorini Zulayhoga aytadi va ularning to‘ylari bo‘lib o‘tadi.

Zulayhoning majoziy ishqi haqiqiy ishq darajasiga qanday yetganligini olima Dilnoza Jumayeva shunday ifodalaydi: “Tasavvuf ta’limotida insonning ma’naviy-ruhiy poklanishida ishq asosiy vosita hisoblanadi. Unda inson haqiqiy ishqqa erishgunicha bir qancha bosqichlardan o‘tishi talab qilinadi. Zulayho ham butun doston davomida ishqiy-ma’naviy kamolotning bosqichlaridan o‘tib boradi. Ushbu bosqichlar haqida Qobil Tohirov shunday deydi: “Birinchi bosqichda, u haqiqiy ma’naviy ishqdan uzoqda turgan, faqat hirsiy tuyg‘ular asiri bo‘lgan oshiq qiz sifatida gavdalanadi. Bu hol uning tuban ahvolga tushib qolishiga sabab bo‘ladi, u hammaning e’tiboridan qoladi, ta’na va malomat, masxara va kulgu obyektiga aylanadi.

Ikkinchi bosqichda, Zulayho zohidga aylanadi, uning ishqi reallik xususiyatlarini yo‘qotadi, o‘zi hayotdan chetlashadi.

Uchinchi bosqichda esa, u yana hayotga qaytadi, ikkinchi tug‘ilganday bo‘ladi. Endi uning ishqi faqat hirsiy tuyg‘u yoki samoviy emas, balki hayotiy va yuksak ma’naviy tuyg‘uga aylanadi”. [17. 114]

Ma’lumki, Alisher Navoiy ham “Mahbub ul-qulub” asarida ishqning darajalarini ko‘rsatib avom ishqi, xoslar ishqi va pok muhabbat haqida ma’lumot beradi. Navoiy ishqning eng quyi darajasiga avom (oddiy odamlar) ishqini qo’yadi. Ustozimiz Dilorom Salohiy ta’kidlagandek: “Ammo, ma’lumki, narvonning pastki zinasiga oyoq qo‘ymay turib, eng yuqori zinasiga chiqib bo‘lmaydi. Dunyoviy ishq haqiqiy muhabbatga vosil bo‘lmoq uchun bir zinadir. Ammo, bu zinadan bir bor ko‘tarilgan oshiq yana qaytib uning pastki darajasiga tusha olmaydi”. [14.15]

Shoir, aslida, Yusufni komillik timsoli sifatida gavdalantirgan bo‘lsa, Zulayho esa mana shu komillikka talpingan, haqiqiy ishqqa yetishganlar siymosida tasvirlangan. Shunday qilib, chinakam oshiq siymosi bo‘lmish Zulayho avvaliga insoniy jon, ya’ni Qur’oni karimning “Yusuf” surasida tilga olingan “nafsi ammora”, ya’ni “yomonlikka undaguvchi nafs”ga zanjirband bo‘ladi, so‘ngra esa to‘xtovsiz ichki kurashlar, dard-iztiroblar chekish orqali u bora-bora o‘z Xojasiga qaytib borishiga amin bo‘lgan “orom topgan nafsi jon” timsoliga aylanadi.

Yuqorida tahlil qilingan obrazlar hamda ularning qirralarini yorituvchi ma’lum bir xususiyati majoziy ma’no kasb etadi. Ba’zi adabiyotlarda bular to‘g‘risida quyidagicha fikr bildirilgan: “Mualliflar Yusuf obrazini nafsi-notiqa, ya’ni jilovlangan va orif odamlarning nafsi timsoli sifatida ko‘rsatishga erishadi. Dostondagi aksariyat talqinlar majoziy mohiyatga ega. Yusuf va Ya’qub payg‘ambarning nafsi – jonning moddiy tomonidir. Yusufning birodarlari sa’yi – harakatlari insondagi badaniy quvvatlar – ichki sezgilarning ramzidir. Xotin timsolida esa insonni istak va g‘azabga tortadigan hislarning badiiy ifodasi berilgan. Zulayhoning Yusufga intilishi va unga sevgi – muhabbat izhor qilishi insonda istak – xohishning ma’naviy tomonidir. Yusufning xotindan o‘zini olib qochishi va uning xohish – irodasiga ko‘nmasligi aqlning o‘z olamiga ustuvor turishi, hissiyot quli bo‘lmasligining ramzidir. Yusufning vazirlik va taxtga

o‘tirishi, oliy kamolotga erishishi va o‘sha kamolotga aql, sabr – toqat sabab bo‘lganligini aniq tasvirlaydi”. [9. 40]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдураҳмон Жомий. Юсуф ва Зулайҳо (Огаҳий таржимаси). – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1974. – Б 240.

2. Адабиёт назарияси. 2 томлик: 1-том. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.108.

3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B.250.

4. Е. Э. Бертелс. Избранние труди, т. И. История персидско-таджикиской литератури, М., “Наука”, 1960, стр. 232; Навои и Джами, М., “Наука”, 1965. – С. 262.

5. Eshonqulov J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Тошкент: Fan, 2011. – B. 304.

6. Форсча – ўзбекча ўқув луғати. 2-нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 232.

7. Jumayeva D. “Yusuf va Zulayho” turkumidagi dostonlarning qiyosiy-matniy tadqiqi. Filol.fan. nomz.diss. – T.: 2020. – B.159.

8. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B.448.

9. Mansurova D. “Yusuf va Zulayho” dostonida an’ana va o‘ziga xoslik. – Samarqand: 2016. – B.40.

10. Muhammad Nosir. Nasaf va Kesh allomalari (IX-XX asrlar). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B.128.

11. Ўзбек адабиёти. 4 томлик. III том. – Тошкент: Ўзбекистон Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1959. – Б.800.

12. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1953. – Б.454.

13. Qobilov U. “Yusufnoma” mavzusi va uning Alisher Navoiy lirikasidagi badiiy talqiniga doir // Alisher Navoiy xalqaro jurnali. – B.112.

14. Salohiy Dilorom. Mutafakkir va mumtoz she’riyat. II-kitob. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2018. – B.212.

15. Salohiy. Yusuf va Zulayho. O‘zFA SHI qo‘lyozmalar fondi inv. № 9691

16. Таъбирномаи Юсуф алайҳиссалом / Ношир С.Ҳасанов. – Тошкент: Ўзбегим маскани, 1990. – Б.40.

17. Тоҳиров Қ. Туркман шоири Андалиб ва ўзбек адабиёти: лирикаси ва “Юсуф ва Зулайхо” достони: филология фан. канд. дисс. – Самарқанд, 1964. – Б.175.

18. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. —Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.

19. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1974. – Б.152.

KISHIN XAJIBOYEV,
Urganch innovatsion universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tillar" kafedrasi o'qituvchisi

"DARYOSINI YO'QOTGAN QIRG'OQ" ROMANIDA INSON VA TABIAT UYG'UNLIGI TALQININING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya: *Maqolada Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romaniga asoslanib, inson va tabiat uyg'unligi muammosining ijtimoiy-falsafiy asoslari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, romandagi Amudaryo suviga, hayvonot olamidan otga bo'lgan munosabat ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlilga tortilgan. Amudaryo suvining to'silishi, to'rtta katta suv ombori qurilishi, buning natijasida tabiatda ro'y bergan salbiy o'zgarishlar haqida munosabat bildirilgan.*
Kalit so'zlar: *Tabiat, inson, munosabat, ot, Amudaryo, Buva, Ganja.*

Abstract: *The article discusses the socio-philosophical basics of the problem of man and nature harmony based on Erkin Samandar's novel "The Shore that Lost its River". Also, the relationship with the Amudarya water and the horse among the animals is analyzed in the novel from a socio-philosophical point of view. It has been reacted the negative changes in nature as a result of the Amudarya water damming and the construction of four large reservoirs.*
Key words: *Nature, man, attitude, horse, Amudarya, Buva, Ganja.*

Adabiyotda shunday bir muammolar qalamga olinadiki, u faqat adabiy-estetik mavzudagina emas. Uning badiiy-poetik miqyosi ijtimoiy, hatto falsafiy tafakkur darajasigacha kengayib borishi mumkin. Zero, adabiyot, ayniqsa, badiiy nasrda qadimdan buyon davom ettirib kelinayotgan inson va tabiat muammosi mana shunday muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Insoniyat qadim davrlardan buyon tabiat bilan birgalikda yashab keladi. Ongli mavjudot sifatida tabiat hodisalarini kuzatadi, lozim bo'lganda ular bilan kurashishga majbur bo'ladi. Tabiatni sevadi, undan mehr-oqibat ko'radi. Ba'zida esa tabiat hodisalarining qurboniga aylansa, o'rni kelganda onadek mehribon tabiatni o'z manfaati yo'lida qurbon qiladi. So'nggi holat shoir, nosir va dramaturg Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida o'ziga xos talqin etilgan. Romanda Orol muammosi fonida tabiat va jamiyat munosabatlari, shuning bilan birga, ma'naviyat ekologiyasida sodir bo'layotgan qashshoqlik, fojia va ularning oqibatlarini bartaraf etish, madaniy merosimizni asrash, ularga sadoqatli bo'lish, muhabbat va qabohat o'rtasidagi kurash o'z ifodasini topadi. Erkin Samandar haqiqiy Xorazm farzandi sifatida ushbu qadimiy ma'vodagi ekologik muammolarni yurakdan his etgan, ijodiy tafakkur va qalb harorati uyg'unligida tasvirladi. Yurtimiz taraqqiyoti uchun hissa qo'shgan tarixiy shaxslar nomini abadiylashtirish va madaniy merosni asrash kabi ma'suliyatli vazifani bajarish yo'lida hormay-tolmay xizmat qildi. "G'ayb qushlari" kitobining xotimasida muallif romannning yaratilish tarixi, ijodiy jarayon dinamikasi xususida mana bunday yozadi: "Qo'lingizdagi kitobga kirgan birinchi asar – "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani ustida uzoq o'yladim, desam ishoning. Men qalamga olmoqchi bo'lgan ekologiya muammolari bilan bog'liq voqealar ko'p edi. Axloq ekologiyasini aks ettiruvchi ho-

disalar ham to‘lib yotardi. Orol cho‘kib, o‘rmonlar quriy boshlagan, Amudaryoni bo‘g‘moq uchun SSSRning (1970-yillar) barcha hududida komsomollar Tuyamo‘yinga yopirilib kelishgan, sohil odamlarining ham, daryoning ham avzoyi buzuq edi. Men voqea yuz bergan joyga ko‘chib borib, yarim yilcha ular orasida goh garangsib, goh hayratlardan borlig‘im kuyib, hayotlarini, taqdirlarini o‘zimcha chig‘iriqdan o‘tkazib, nihoyat ijod daryosiga sho‘ng‘ib ketdim”. [8. 355.]

Qadimgi madaniyatlarga tegishli biron bir me’moriy obida yo‘q-ki, u tabiat ko‘rinishlaridan andoza olib yaratilmagan bo‘lsin. Arxitektura tarixi bo‘yicha mutaxassislarning qayd etishlariga ko‘ra, qadimiy va yirik tamaddunlardan qolgan barcha me’moriy yodgorliklar o‘z-o‘zidan tabiatda mavjud muayyan shaklga taqliddir [2. 630.]. Masalan, gumbazlar osmonga, ehrom va rombiklar tog‘larga, ulkan minoralar osmono‘par daraxtlarga, ustunlar fil oyoqlari, soyabonlar, ayvonlar burgut qanoti, ko‘priklar nahang sirtiga taqlidan paydo bo‘lgan. “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida ham nafaqat madaniyatimiz uchun andoza bo‘ladigan, balkim insoniyatning hayot-mamoti bo‘lgan tabiat muammolari qalamga olinadi. Roman 1989-yilda nashr etilgan. Oradan bir qancha vaqt o‘tib muallif tomonidan qayta ishlandi. Bu borada muallif shunday deydi: “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq”ni oradan chorak asr o‘tgach, 2005-yilda men qayta ishladim. O‘sha davr taqozosi bilan bog‘liq o‘rinlar (100 sahifa) qisqartirildi. Yangi boblar qo‘shilgan”[8.356.].

Erkin Samandarning inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalash uslubi Chingiz Aytmatov uslubini eslatadi. “Oq kema” asaridagi donishmand Mo‘min chol obrazi “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanidagi Buva obrazi bilan tabiatni asrashi va fidoiylik ko‘rsatishi tomonlama o‘xshash bo‘lsa, “Asrga tatigulik kun” romanidagi Qoranor tuya bilan romandagi Meliqush ismli otning insonlar bilan munosabatiga doir falsafiy talqinlar o‘zaro uyg‘undir. “Oq kema”dagi bola obrazi bilan Ganjaning o‘g‘li Anvar ham taqdiri hamda xarakteri jihatidan bir-biriga mutanosib ekani kuzatiladi.

Asarda Orol dengizi tomon yo‘nalgan va uni obi hayot bilan ta’minlab kelayotgan Amudaryoning Aminov boshchiligida, olti milliard kub suv sig‘adigan to‘rt suv ombori qurish maqsadida to‘silgandan keyingi holati chuqur qayg‘u bilan ifoda etiladi. Asarda hayot sinovlarining bevosita ishtirokchisiga aylangan, yovuz kimsalar nishoniga duchor bo‘lishi oqibatida besh yillik hayoti erksizlikda kechgan bosh qahramon Ganja qamoq muddati tugab, o‘z eliga qaytganda qadrdon daryosi holatidan qattiq tashvishlanadi. Uning taassurotlarini adib mana bunday ifodalaydi: *“Daryo yoshini yashab bo‘lgan mushfiq onaga o‘xshab kichrayib qolgan. Xuddi osuda ko‘ldagiday tiniq suv bir maromda imillaydi. Tez borgan yerga sekin borsa ham bo‘ladi deganday beparvo va loqayd, borlig‘ini allaqanday miskinlik chulg‘agan, yuzi tund, bag‘rida avvalgi jo‘shqin ruh nishoni ko‘rinmaydi.”*[8.12]

Erkin Samandar Oybek, Asqad Muxtor kabi ulug‘ adiblardan so‘ng inson va tabiat muammosini milliy ruhda jonlantirdi deyilsa, mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur romanda inson va tabiat talqini markazida ikki unsur – suv va tuproqqa insoniyat tomonidan yetkazilgan zarar, yana G‘irkovik va Meliqush boshchiligidagi otlar galasining nobud bo‘lishi, tuz koni va Nayson buva yodgorligining yo‘q qilinishi kabi masalalar konseptual o‘rin egallaydi. Romandagi voqealar syujeti asos zaminiga ko‘ra inson va tabiat munosabatlarining qadim ildizlaridan suv ichadi.

Asarda Amudaryo – hayot, Ganjaning qayig‘i – umr, toychoq Marjon – kelajak ramzlaridir. G‘anijon Aminov, rais Isroillar 70-yillar siyosatining qo‘g‘irchoq rahbarlari, Orol fojiasining sababchilari, tabiat va jamiyat dushmanlaridir. Qadimdan suv – hayot manbayi, tiriklik timsoli sanalgan. Inson tabiatning bir bo‘lagi sifatida suvsiz yashay olmaydi. Suv inson ruhiyati bardamligining ham asosidir. Falsafiy jihatdan mulohaza qilinsa, suv tashqaridan bo‘ladigan har qanday ta’sirga o‘z munosabatini bildiradi. Aniqroq qilib aytganda, suv “gapiradi”, “eshitadi”, “his etadi” va “ko‘radi”. Turli xas-xashaklar, chiqindi-axlatlar, kimyoviy zaharlardan suvning zohiri ifloslansa,

odamlarning yomon fikrlari, shaytoniy his-tuyg‘ulari, dilozor so‘zlaridan uning qalbi buzilib, rutubat tusini oladi. Buni buxorolik shoir Sadriddin Salim Buxoriy o‘z she’rlarining birida shunday ta’riflab ko‘rsatgan:

To‘rt unsurdan biri suv erur,
O‘zgasidir xoku yel, otash.
Ildiz suvga yetgani zahot
Bo‘lgay hayot unsuri tutash.[6. 40]

“O‘g‘uznoma” asarida O‘g‘uzxon ikkinchi ayolga uylanib, undan ham uch farzand ko‘rdi va Ko‘k, Tog‘, Dengiz deya ism qo‘ydi. Bu ismlarda uch qavatli olam modeli namoyon bo‘ladi. Ko‘k – yuqori olamni, Tog‘ – o‘rta olamni, Dengiz – quyi olamni ifodalaydi [5; 116-b.] Demak, dengiz quyi olamning asosi. “Oq kema” asarida ham Yenisey daryosiga nisbatan Enasoy deb murojaat qilinadi. Ахир “Ena” – bu ona demak, “soy” esa – bu daryoning o‘zani. Daryoga ona so‘zini qo‘shib aytish daryoning insonlarga ko‘p nafi tegishidan, mehribonchilik qilishidan dalolat. Bu quyidagi baytda ham o‘z aksini topadi:

Sendan aziz tuproq bormi, Enasoy,
Sendan ozod quchoq bormi, Enasoy [1. 53].

Asarda qudratli Amudaryoga qo‘yilgan to‘g‘on suv yo‘nalishini o‘zgartirib, Mazdubat tuz koni bilan Kiyikto‘qayning suv ostida qolib ketishiga sabab bo‘ldi. Keyinchalik Orol dengizining qurishi bilan yakun topdi. Albatta, bu voqeaning natijasini oldindan biluvchi, bu fojianing oldini olish uchun harakat qilgan ziyoli, vijdonli Buva, Ganja, Obod va Qurbon singari qahramonlar ham bor edi. Ammo bularga qarshi butun bir tuzum turibdi. U tuzum shunday ofat-ki, o‘zingnikilarni o‘zingga qarshi qo‘yadi. Ularni insonlarning muammosi qiziqtirmagach, tabiat muammosi qiziqtirarmidi? Nima bo‘ishidan qat’i nazar, insonlar umri davomida faqat o‘zi uchun emas, balki avlodlari, shajaralari uchun ham javobgar bo‘lib yashaydi. Bunday ulug‘ burchni unutish o‘z ildiziga bolta urish bilan barobardir. Amudaryo va Ganja atrofidagi barcha epizodlar mana shu yirik falsafani badiiy aks ettirishga xizmat qiladi.

Inson va tabiatning ijtimoiy-falsafiy munosabatlari romanda ot obrazi orqali badiiy kashf etilgan. Meliqush, Qandim, G‘irkovik go‘yo ot emas, farzandsiz Buva bilan Momojon momoga farzand edi. Momojon yoshligida homilador bo‘lib, bilmasdan ilonni bosib olgan, natijada hali tug‘ilmagan fazrzandidan ajralgani yetmaganday, farzandsizlik dog‘i ham bor ekan peshonasida. Buva kolxoz otlarini boqib, ularga chin dildan mehr ko‘rsatdi. Ammo Isroil rais bir kuni to‘satdan 40 ta otingni ham Kiyikto‘qayga haydaysan. Hozircha kolxozga otlarning keragi yo‘q, deb turib oldi. Bu gaplarni eshitib, Buva esankirab qoldi. Axir ularni haydash, ulardan ayro yashash bu o‘lish degani… Buva otlar bilan to‘qayga o‘zi ham ko‘chib ketdi. Rais va’da qilgan choychaqadan ham voz kechdi. Ammo taqdirning sinovlari ko‘p ekan. Amudaryoning suvini suv omboriga burish uchun Qirtepa portlatilib, suvga damba tashlandi. Buning oqibatida Kiyikto‘qayni, Mazdubatni suv bosdi. Otlar bilan Buva suv ostida qoldi… Buva otlarni qutqarish uchun ko‘p harakat qildi, ammo bir o‘zi eplolmadi. Buning ustiga otlar yaxshilikni bilmaydigan, mehr-oqibatni unutgan insonlardan xafa edi. U cho‘kish oldidan Meliqushga: “ *– Meli! Beri kel. Men Buvaman. Eshityapsanmi, Buva… Axir bir-birlariga yov bo‘lganlar ham xavf-xatar oldida birlashadilar-ku. Daryo bostirib kelyapti. Sen ham, men ham suv ostida qolib ketamiz. To‘qayda dodimizni eshitadigan kimsa yo‘q. Faqat sen borsan, faqat men borman, o‘lim oldida turgan mana shu otlar*

bor. Sen hamisha odamzodga qanot bo‘lib kelgansan, odamzod senga hamisha mehr ko‘rsatgan. To‘g‘ri, bizning kunlarga kelib bu odat buzildi. Lekin hozir arazning o‘rnimi? Senlarniyam, meni ham o‘lim kutyapti, Meli. Taysallama, beri kel!”, – deb rosa elandi. Ammo ot yuzini burdi. Bu – senlarga ishonmayman, degani edi.

Asarda Buva otlarni, ayniqsa Meliqushni ot emas, odamday yaxshi ko‘rar, u bilan hasratlashar edi. Ular suhbatlashib, bir-biriga o‘rganib qolishgan edi. To‘qay suv ostida qolib Buva cho‘kayotganda, Meliqush uni qutqarmoqchi bo‘ladi, ammo buni uddalay olmaydi, ikkisi birgalikda cho‘kadi. Ot azaldan insonning yaqin do‘sti, sirdoshi bo‘lgan. Bu borada foklorshunos olim Hodi Zarifov shunday deydi: “Shu narsa xarakterliki, epik ot qatnashmagan bironta qahramonlik eposini topish qiyin. Ot qahramonning safariyu kurashlarida doimiy yo‘ldoshi, ishonchli qo‘ldoshi va yaqin do‘stidir” [3. 69.]. Bu fikrlarni Abdumurod Tilovov shunday mustahkamlaydi: “Ko‘rinib turibdiki, xalq dostonlarida tasvirlangan jangovar otlarga xos xususiyatlar sifatida ularning tabiiy otlar orasidagi eng mukammali, ayni paytda mifologik, totemistik e’tiqodiy tasavvurlarda ifodalangan ot xususiyatlariga ham ega ekanligida ko‘rinmoqda” [7. 11.].

Mahmud Koshg‘ariy “Ot turkning qanotidir”, “Qush qanoti bilan, er oti bilan”, “Yayov kishining qiymati yo‘qdir” [4. 112.] kabi maqollarni keltirib, ota-bobolarimiz bilan otning bir-biriga naqadar yaqinligini ko‘rsatadi.

Dostonlarda tasvirlangan otlardagi sezgirlik, qat’iylik, erksevarlik, jasurlik kabi xislatlar ijodkorning badiiy to‘qimasi emas, balki real hayotdagi otlardan olingan xislatlardir. Romanda Buva insonlar bilan bo‘lisha olmaydigan hislarini ot bilan bo‘lishdi. Taqdir sinovlari Buva bilan Meliqushni bir-biriga yaqinlashtirdi, sirdosh do‘stga aylantirdi. Buva tabiatni asrash uchun qilgan harakatlarini Meliqush bilan birga olib bordi. Bu yo‘lda ular birgalikda qurbon bo‘lishdi. Asardagi Momojon, Buva, Quljon, Matyoz, Isroil rais obrazlari qismati asardagi ushbu falsafiy-badiiy g‘oyaning harakatdagi leytmotividir.

Kuzatishlarimiz natijasida Erkin Samandarning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani inson va tabiat uyg‘unligi muammosini yangicha talqin etishi bilan hozirgi o‘zbek nasrida muhim o‘rin tutishi xususidagi to‘xtamga kelish mumkin. Asarda muallifning olam va odam haqidagi falsafasi tabiiy ravishda aks etgan. qo‘g‘irchoq rahbarlar boshchiligidagi sodda odamlarning tabiatga beshafqat munosabatda bo‘lishi natijasida tabiat insondan o‘ch olishining ijtimoiy-falsafiy asoslari aniq dalillar bilan ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aytmatov Ch. Oq kema. – Toshkent: Yoshlar, 2018.

2. Амфилохиева Е.В. Изобразительное искусство. Полная энциклопедия. – М.: Эксмо, 2010.

3. Зарифов Н.Т. Ўзбек халқ достонларининг тарихий асослари бўйича текширишлар. Жанговар отнинг қадимий асосларига доир //Ўзбек халқ оғзаки ижоди бўйича тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1967.

4. Маҳмуд Кошғарий Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967.

5. Rahmonov N. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Sano-standart, 2017.

6. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг ёши. Бухорога Бухоро келди. Шеърлар. – Тошкент: Маънавият, 1999.

7. Тилавов А. От образи: тарих, таҳлил ва талқин. Монография. – Тошкент: Сано-стандарт, 2021.

8. Эркин Самандар. Ғайб қушлари. – Тошкент: Sharq, 2009.

DILFUZA AVAZOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

“HAJNOMA” VA “HAJ DAFTARI”DA OBRAZ TASVIRIDAGI UYG‘UNLIK VA O‘ZIGA XOSLIK

Annotatsiya: *Maqolada Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning “Hajnoma” asari va Abdulla Oripovning “Haj daftari” turkum she’rlaridagi mushtarak obrazlar qiyosiy tahlil etilgan. Har ikki shoirning Muhammad alayhissalom obrazi tasviriga o‘ziga xos yondashuvi omillari tadqiq qilingan. Rasulullоh nuri, me’roj mo‘jizasi, ummat g‘amini o‘ylashi kabi xususiyatlar misollar orqali yoritilgan. Ikki ijodkorning obraz yaratishdagi individual yondashuvi mezonlari ochib berilgan.*

Tayanch so‘zlar: *haj ibodati, obraz, kechinma, mushtarak obrazlar, adabiy-estetik tafakkur, uyg‘unlik, individuallik, tasvir, badiiy talqin.*

Abstract: *The article compares the common images in the works of Zakirjon Khalmuhammed’s son Furqat’s “Hajnoma” and Abdulla Oripov’s “Haj Daftari” series of poems. The factors of the unique approach of both poets to the image of Muhammad, peace be upon him, have been studied. Characteristics such as the light of the Messenger of God, the miracle of Miraj, and thinking about the sorrows of the ummah are explained through examples. The criteria of the individual approach to image creation of two artists are revealed.*

Key words: *pilgrimage, image, experience, common images, literary-aesthetic thinking, harmony, individuality, image, artistic interpretation.*

Obraz adabiyotda nihoyatda katta ahamiyat va badiiy kuchga ega. U o‘zida muallif mahorati, uslubi, tili, dunyoqarashi va yana ko‘plab jihatlarni aks ettiradi. Mukammal obraz badiiy asarning muvaffaqqiyati asosidir. Obraz va obrazlilik uyg‘unlikda shoir shaxsining bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi. “Obrazlilik badiiylik ichida yashaganidek, obraz obrazlilikning mohiyatini o‘zida tashiydi. Shu sabab obraz tushunchasi (demakki, keng ma’noda badiiylik) adabiyot ilmining bosh masalalaridan sanaladi, chunki unda obrazlilikning mohiyati borligacha namoyon bo‘ladi. Demak, yozuvchi-san’atkorning butun salohiyati (mahorati, ruhshunosligi, kashfiyoti, donishmandligi) u yaratgan obrazlarda muhrlanadi” [6. 28]. Ayni shu fikrga qo‘shimcha qilib aytishimiz mumkinki, obraz o‘zida muallif ichki olamini aks ettiradi, uning orzularini, maqsadlarini o‘quvchga ko‘rsatib beradi. Muallif xoh an’anaviy obrazlarga murojaat qilsin, xoh novatorlik mahsuli bo‘lgan obrazlarga yuzlansin, uning kechinmasini obraz o‘zida tashiydi. Obraz ta’sirchanlik xususiyatiga ega, chunki u muallifning lirik kechinmalarini badiiy asarda o‘zi bilan olib yuradi. Ijobiy xarakterdagi obrazlarda muallifning orzu-umidlari, maqsadlari, hayotda u ulug‘lagan tamoyillar aks etsa, salbiy obrazlarda ijodkor nafratlangan, qoralagan, hech kim ergashishni istamagan jihatlar aks etadi. Ayniqsa, bu holat lirik asarlarda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Chunki ijodkor, ko‘pincha epik asarlarda salbiy bo‘yoqdorlikka ega qahramonlarning ham ichki olamini, ruhiy iztiroblarini ko‘rsatib beradi. Uning xatti-harakatlarni o‘rni kelganda

izohlaydi, anglashga va anglatishga urinadi. Lekin lirika bu jihatdan bir qadar yiroq. Undagi salbiy qahramonlar aksariyat hollarda jamiyat inqirozining, umumbashariy qadriyatlarning, insoniy tamoyillarning buzuvchisidir. Shoir ularni ko‘pincha tushunishga, tushuntirishga intilmaydi. Chunki aslida bu lirikaning bosh mezonida hisoblanmaydi. Ayni shu jihatlarga ko‘ra she’riy asarlarda ijodkorning qat’iy pozitsiyasi, ichki “men”i yaqqolroq yuzaga chiqadi va jarayonni obrazlar o‘zida mujassam etadi. Ayni shu jihatlarga ko‘ra Furqatning “Hajnoma”si, Abdulla Oripovning “Haj daftari” obrazlar mohiyati, rang-barangligi, betakrorligi jihatidan alohida tadqiq mavzusiga aylana oladi. Har ikki asar o‘z davrining ikki buyuk ijodkori kechinmalarini o‘zida aks ettirishi jihatidan, obrazlar mushtarakligi va individualligiga ega. Ayni shu jihatlarga ko‘ra bu asarlardagi obrazlarni ikki guruhga ajratish mumkin: *mushtarak obrazlar; individual obrazlar.*

Mushtarak obrazlarda, ijodkorlar turli davrlarda yashasalarda aynan bir tuyg‘uni his eta olsalar, individual obrazlarda ularning shaxs sifatidagi faqatgina o‘zlariga xos bo‘lgan qirralari namoyon bo‘ladi.

Sharq mumtoz adabiyoti Islom aqidalariga tayanishi inobatga olinsa, bu adabiyotning eng yetakchi obrazi payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. bo‘lishlari muqarrardir. Rasuli akram faoliyati, yashash tarzi, xatti-harakatlari yuksak axloq asosiga qurilgani e’tiboridan bu obrazning badiiy ahamiyati, ijtimoiy darajasi, umumbashariy miqyosdagi o‘rni ham beqiyos ekani ayon. Badiiy adabiyotda Rasulullоh obrazining yorqin namunalari ko‘p bo‘lsa ham, o‘zbekning ikki buyuk ijodkori Furqatning “Hajnoma”si va Abdulla Oripovning “Haj daftari”da mazkur buyuk siymo obrazi badiiy jozibasining yuqoriligi, estetik vazifasining muhimligi bilan alohida ajralib turadi. Har ikkala shoir ijodida bu obrazning umumiy va individual badiiy xususiyatlari mavjud bo‘lib, qiyosiy tahlilga katta ehtiyoj bor. Ular dastavval Payg‘ambarimiz hayotiy a’molining asosi sanalgan ummatga shafqat va mehr bilan bog‘liqdir. Ikki buyuk ijodkor ham insonlarning osiy va o‘z nafsiga jabr qiluvchi ekaniga, Rasuli akramning Tangri taolo huzurida o‘z ummatlari gunohini kechirishi uchun shafoatchi bo‘lishiga urg‘u berishadi.

Zokirjon Xolmuhammad o‘gli Furqat “Hajnoma”sida Payg‘ambarimizning me’roji vasf etilar ekan, ayni shu xususiyat betakror badiiy talqin etiladi. Rasulullohning me’rojda Buroqda samoga k

o‘tarilib, Haq taolo bilan muloqot maqomiga erishgani mana bunday talqin etiladi:

Dedi Tangri: “Habibim, yo Muhammad,
Tila mandin bu dam: “Inna a’toynak”.
Dedikim: “Ummatimni mag‘firat qil,
Erurlar osiyu saffoku bebok” [7.119].

Ushbu iqtibosning dastlabki satrida “*yo Muhammad” xitobi orqali* nido san’ati qo‘llangan. Shuningdek, “habibim” so‘zi sifatlovchi bo‘lib kelgan bo‘lsa, Qur’oni karimning “Kavsar” surasidan olingan “Inna a’toynak” iqtibos san’atiga misoldir. Ko‘chirma yaxlit holda savolu javob san’ati asosiga qurilgan. Bular, o‘z navbatida, shoirning badiiy mahorati nechog‘liq yuksak bo‘lgani isbotidir. Mazkur san’atlar orqali me’roj kechasi Haq taolo va Rasuli akram o‘rtasida bo‘lgan muloqotning poetik ifodasi berilgan.

Asarda Tangri taoloning xitobiga javoban Payg‘ambarimiz ummatining gunohi kechirilishini so‘rab javob qaytarishi, u zotning himmati oliy va ummatlariga mehri baland ekani teran ma’rifiy mazmun va yuksak badiiyat mutanosibligida talqin qilinadi. Nurboy Jabborov fikricha: “Shoir nabiylar sarvarining faqat ummatlari g‘amini o‘ylagan mehribon zot bo‘lganligini ummatlarning osiyu saffoku bebok kabi sifatlarini ketma-ket keltirish orqali tansiqu-s-sifat san’ati vositasida ifodalaydi” [3.107]. Tansiqu-s-sifat san’ati yaqin ma’noli sifatlarni izchillikda, ketma-ket keltirish

orqali fikrning ta’sir kuchini oshiradi. Muallif badiiy niyatini mukammal ifodalashga xizmat qiladi. “Fununu-l-balog‘a” asarida ta’kidlanganidek: “Tansiq lug‘atga so‘zning ulashib ketmagidur. Bu san’atni ul jihattin tansiqu-s-sifot deb atapturlarkim, so‘zlaguvchi kalomda bir necha sifatni bir-biriga ulab ketar” [8.239-240].

“Hajnoma”da gunohkor ummat ahvoli ularning o‘zidan ham ko‘ra ko‘proq Muhammad s.a.v.ga ayonligi, shu bois ularga Alloh taoloning huzurida yengillik tilab munojot qilayotgan pok qalbli Payg‘ambar alayhissalom iztiroblariga e’tibor qaratiladi. Ayni shu o‘ylar, ayni shu tuyg‘ular millatning yana bir buyuk shoiri Abdulla Oripov qalbini ham junbushga keltiradi. Garchi oralarida qariyib bir asrlik masofa bo‘lsa ham, ikkala ijodkor mazkur asarlaridagi ma’rifiy g‘oyani ifodalashda darddosh, maslakdosh maqomida o‘zaro yaqinlashadi. Ularning hasratlari achchiq, dardlari go‘yo ochiq yaraday sirqirab turadi. Jumladan, Zokirjon Furqat qalbini to‘lqinlantirgan najib his-tuyg‘ular Abdulla Oripov she’riyatiga mana bu tarzda ko‘chadi va yangicha talqin etiladi:

Sizning murodingiz hidoyat erur,
Sho‘rlik bandalarga inoyat erur [5. 323].

Bu misralarda ham Rasuli akramning sho‘rlik ummatlariga inoyat tilashi va ularni faqat va faqat hidoyat yo‘lidan yurishga chorlashi aks ettiriladi. Har ikki shoir ijodida obrazdagi mushtaraklik nafaqat tuyg‘ular ifodasida, balki, so‘z tanlash va uni badiiy yuksaklikka olib chiqishda ham bo‘y ko‘rsatadi. So‘zlarning har biri yuksak badiiy did bilan tanlanishi, obraz ayni shu so‘zlar silsilasidan qad rostlashi va mukammalikka erishishi har ikki ijodkor uslubida hamda obraz yaratish mahoratida yaqqol namoyon bo‘ladi. Mana bu ilmiy mezon har ikki shoir lirikasi uchun xarakterli ekanini ta’kidlash zarur: “She’r o‘ziga xos organizm bo‘lsa, so‘z uning xujayrasidir. Organizm tirik bo‘lishi uchun uning har bir xujayrasi sog‘lom bo‘lishi va nafas olib turishi lozim bo‘lganidek, har bir so‘z ham she’rga, uning qalbi bo‘lgan obrazga o‘z qonini berib turishi va uni harakatga keltirishi kerak” [4. 20].

Badiiy adabiyotda Rasulullоh nuri haqida biri ikkinchisidan teran va badiiyati baland talqinlar bor. Olam shu nurdan yaralgani, u dastlab Odam safiyullohda zohir bo‘lgani, avloddan avlodga o‘tib, Payg‘ambarimizning otalari Abdullohga va oxir-oqibat o‘zlariga yetgani ifodalanadi. Bu haqda hazrat Navoiy mana bunday yozadi:

Nurunga tob ikki jahondin burun,
Har ne yo‘q ondin burun, ondin burun...
Bo‘ldi sanga Odam sabqatnamo,
Avval o‘g‘ul, so‘ngra gar o‘lsa ato [1. 27].

Furqat ayni shu fikr talqinini davom ettiradi. Ayni shu nur sabab Rasulullоh dunyoga kelganlarida yer yuzidan zulmatning ko‘tarilganini, hatto o‘sha lahzada osmondan ham nur yog‘ilganini suvratlantiradi:

Ketibon yerdin olam zulmati ham,
Hamon dam yog‘di nuri osmoniy.

Aslida, bu misralar orqali shoir payg‘ambarimizning jaholatga qarshi kurashiga, ma’rifat va yuksak axloqni bashariyat o‘rtasida keng yoyishiga, ezgulik nuri bilan olamni munavvar etish harakatiga ham urg‘u beradi. Muallif yer va osmon, nur va zulmat zidligidan mahorat bilan

foydalanib, *tazod*ning go‘zal namunasini yaratadi. Badiiy qarshilantirish orqali o‘z fikrlariga zeb beradi. Abdulla Oripov ham go‘yoki ayni shu fikrlarga tayangandek, ularni davom ettirgan kabi: *“Siz – olam sarvari, Siz – nuri jahon”,* deya bu zotni ulug‘laydi. Furqatda ham ayni shu ulug‘ zotga ehtirom, buyuk muhabbat tuyg‘usi yaqqol namoyon bo‘ladi:

Sha’bi me’roj naylayni g‘uborin,
Ko‘zig‘a surma qildi Arshi a’zam.

Shoir *husni ta’lil* vositasida me’roj kechasida Payg‘ambarimiz kovushining g‘uborini Arshi a’zam ko‘ziga surma qilganini betakror badiiy topilma darajasida tasvirlaydi. Abdulla Oripov esa ulug‘ salafi qarashlariga monand, lekin ohorli fikrlarni ifoda etadi. Shoir o‘zini Payg‘ambarimizning poylaridagi gardga qiyoslaydi, nihoyatda xokisorlik, kamtarlik bilan Rasulullohga murojaat qiladi:

Keldim ziyoratga, ozurda jonman,
Ranj-u balolardan to‘ygan Insonman,
Sizning poyingizda gardman, to‘zonman.

Shoir bosh egib o‘zni zarra gardga mengzar ekan, tuyg‘ularini, dardu anduhlarini ham aytib o‘tadi, ta’sirchan lirik kechinma ifodasi orqali o‘quvchini ham o‘z iztiroblariga sherik qiladi. Ranj-u balolardan ozor chekkan shoir dardi beixtiyor kitobxon qalbiga ham ko‘chib, unga azob beradi. *“Keldim biri ikki bo‘lmagan eldan”,* deya yozg‘rishi esa aslida shoirning dardi faqat shaxsiy dard-u qayg‘usi emasligini, millat g‘ami ekanini ko‘rsatadi.

Har ikki shoir ham bu qutlug‘ ma’voga kelar ekan, qalbida cheksiz bir shodlik, g‘urur, Payg‘ambar visoliga yetgani uchun ulkan shukronalik hissini tuyadi. Furqat Uhud tog‘i va u yerda payg‘ambarimizning g‘azo qilish voqeasini yodga oladi. Bu maskanda shahid bo‘lgan yetmish ikki jonning fidokorliklariga havas qilgani holda:

Darig‘o, bo‘lsam erdi ul zamonda,
Qilur erdim alarga o‘zni qurbon, –
deya ularga muhabbatini izhor etadi.

Zokirjon Furqat va Abdulla Oripovning haj ziyoratida yaratgan she’rlari zamirida Rasulullоh obrazining o‘ziga xos ifodasi aks etadi. Shoirlar Payg‘ambarimizning bolalik kezlari, hayot yo‘llari, pand-u nasihatlari, mashaqqatlari – butun boshli hayotlarini o‘z she’rlarida aks ettirgani holda, Muhammad s.a.v. obrazini to‘la-to‘kis yaratishga, o‘quvchi qalbidagi o‘z Rasuliga bo‘lgan muhabbatni oshirishga intiladilar va nazarimizda, bunga erishadilar. Adabiyotshunos Nurboy Jabborov ta’kidlaganidek: “Haj ziyoratiga har yili ming-minglab odamlar boradi. Har bir ziyoratchining qalbida o‘zgalar anglab yetishi mumkin bo‘lmagan sirlar yuz ko‘rsatishi mumkin va bu tabiiy hol. Biroq chinakam shoirning ziyorati baribir odamzod uchun ko‘proq naf keltirsa kerak. Negaki, u boshqalar ko‘rmagan sirlarni ko‘ra oladi, o‘zga hech kim his etmagan tuyg‘ularni his eta biladi” [2.137-140]. Haqiqatan, bu ikki ijodkorning Haj ziyoratiga borishi xalqimiz uchun nihoyatda katta ma’naviy ozuqa, adabiyot uchun ikki buyuk badiiy adabiyot namunasini berdi. Shoirlar ba’zan bir-biriga nihoyatda yaqin, bir-biriga uyg‘un fikrlarni, tuyg‘ularni ifodalaydi. Kezi kelganda esa bir tuyg‘u ifodasining davomi ikkinchi bir ijodkor lirikasida ohorli talqin etiladi.

Abdulla Oripov buyuk salafi Furqat ijodi va uning yuksak badiiy mahoratidan ma’naviy ozuqa olgan bo‘lishi tabiiy. Lekin “Haj daftari”da fenomenal shoir sifatida o‘ziga xos individual ijodiy tafakkurni namoyon eta bilgani kuzatiladi. Har ikki shoir faqat o‘zigagina xos yo‘lda, o‘zigagina

tegishli bo‘lgan tuyg‘ular ifodasida kitobxonni hayratga soldi. Jumladan, payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. obrazini yaratish jarayonida ham ayni yuqorida ta’kidlaganlarimiz uyg‘unlik, fikrlar silsilasi va davomiylik, shu bilan bir qatorda faqatgina Furqatning o‘zigagina tegishli bo‘lgan tasvir, Abdulla Oripovgina yarata oladigan badiiy kashfiyot go‘zal bir poetik hodisa sifatida yuzaga chiqdi va adabiyotshunoslar uchun katta bir ilmiy manba yaratishga asos bo‘ldi. Abdulla Oripov “Haj daftari” turkumi yaralishi uchun qaysidir ma’noda manba va turtki bo‘lgan “Hikmat sadolari”dagi “Hidoyat yo‘li” she’rini shunday yakunlaydi:

Rasulullоh demish: Kimki haj qilsa,
O‘shadir dunyoda eng yaxshi jihod.

Ayni shu fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, har ikki ijodkorning Hajga borishi chindan ham adabiy-estetik tafakkur va ma’rifiy-axloqiy mezonlardagi jihodga tengdir. Zero, bu ziyorat asnosida yaralgan lirik namunalarda Payg‘ambarimiz hayot yo‘li obrazli tasvirlanadi, adolat, yaxshilik, poklik ulug‘lanib, insonlar nafsning makridan, gunoh amallardan qaytishga, Haq yo‘lida sobitqadam bo‘lishga chaqiriladi.

Xulosa qilib aytganda, Zokirjon Furqatning “Hajnoma”si va Abdulla Oripovning “Haj daftari” turkumi ma’rifiy mazmun va badiiy talqin sintezi nuqtai nazaridan milliy adabiyotimiz tarixidagi noyob estetik hodisalardir. Ulargacha bo‘lgan boshqa ijodkorlarda haj ibodati jarayonini hamda Muhammad alayhissalom obrazini bu darajada ohorli talqin etish kuzatilmagan. Har ikki ijodkor haj ma’rifatini o‘ziga xos va yangicha ifodalagan. Haj ibodatiga borgan barcha insonlar ham ko‘rishi mumkin bo‘lgan hodisa va holatlardan hamma ham his eta olmaydigan haqiqatlarni tuyib, yuksak badiiy talqin etilgani har ikki asarning ma’rifiy-estetik qimmatini ta’minlagan. Mazkur ikki asarni turli aspektlarda kengroq miqyosda qiyosiy o‘rganish adabiyotshunoslikning galdagi vazifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2006.

2. Жабборов Н. Абдулла Орипов. / Ислом энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси, 2020.

3. Жабборов Н. Фурқат ҳаёти ва ижодий меросининг хориждаги даври: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси: филол. фан. доктори... дисс. – Тошкент, 2004.

4. Каримов Н.Ф. Ҳамид Олимжон поэтик маҳоратининг баъзи масалалари: филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1962.

5. Орипов А. Ҳаж дафтари. / Танланган асарлар. Тошкент: Шарқ. – 2019.

6. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent.

7. Фурқат, Зокиржон. Ҳажнома. / Фасли навбаҳор ўлди (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: Н.Жабборов). – Тошкент: Adabiyot, 2023.

8. Ҳусайний, Атоуллоҳ. Бадойиъу-с-санойиъ. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.

SHAHLO HOJIYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti

CHO‘LPONNING MILLIY ESTETIK TAFAKKUR YANGILANISHIDAGI O‘RNI

Annotatsiya: *Maqolada Abdulhamid Cho‘lponning XX asr boshlarida Turkiston siyosiy-ijtimoiy, adabiy-ma’rifiy hayotidagi faol ishtiroki, millat estetik tafakkurni yangilash yo‘lidagi xizmatlari tadqiq qilingan. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani Lev Tolstoyning “Tirilish” hamda Maksim Gorkiyning “Ona” romanlari bilan qiyosiy tahlil etilgan. Cho‘lpon va adabiy ta’sir, shoirning sonet janri namunalarini yaratgani, dramaturgiyadagi yangiliklar va o‘zgarishlarga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so‘z va iboralar: *ma’rifatchilik, she’riyat, roman, drama, adabiy ta’sir, uyg‘unlik, o‘ziga xoslik, tasviriy ifoda, sonet, estetik tafakkur.*

Abstract: *In the article, Abdulhamid Cholpon’s active participation in the political-social, literary-educational life of Turkestan at the beginning of the 20th century, and his services to the renewal of the nation’s aesthetic thinking were studied. Cholpon’s novel “Night and Day” is compared with Leo Tolstoy’s “Resurrection” and Maxim Gorky’s “Mother”. Cholpon and literary influence, the poet’s creation of examples of the sonnet genre, his contribution to innovations and changes in dramaturgy are covered on a scientific basis.*

Key words and phrases: *Enlightenment, poetry, novel, drama, literary influence, harmony, originality, pictorial expression, sonnet, aesthetic thought.*

Jadidchilik – jamiyat hayotining barcha jabhalarini birday qamrab olgan, yangi adabiyotning shakllanishi va rivojini ta’min etgan siyosiy-ijtimoiy, adabiy-ma’rifiy harakat ekani ayon. Bu harakatning yana bir ahamiyatli jihati, millat ziyolilarini Vatan va millat manfaatlari yo‘lida birlashtirganidir. XX asr boshlarida jadidchilik harakati keng quloch yoydi. Bu harakatning ilg‘or vakillari sanalgan Behbudiy, Avloniy, Tavallo, Sidqiy Xondayliqiy, So‘fizoda, Fitrat, Hamza, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon singari yozuvchi va shoirlar xalqning ijtimoiy ongini ma’rifat asosida tarbiyalash uchun fidoyilik ko‘rsatdilar. Jadidlarning olib borgan barcha ishlari – matbuotning yo‘lga qo‘yilishi, “Usuli jadid” maktabi nazariyasi va amaliyoti, teatrchilik – hamma-hammasi ma’rifatchilikka xizmat qildi.

Abdulhamid Cho‘lpon o‘zbek she’riyati yangilanishining asoschilaridan. Uning “Kecha va kunduz” romani, dramatik asarlari, hikoyalari va publitsistik maqolalari millat estetik tafakkuri yuksalishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi. Bulardan tashqari uning xatlari ham o‘zbek madaniyati va adabiyoti uchun muhim rol o‘ynashini ta’kidlash joiz. Cho‘lpon 19 yoshida Hamza Hakimzodaga ikki maktub yo‘llaydi [2. 7].

Bularni barchasida uning jahon adabiyoti va o‘zbek adabiyoti vakillari ijodi bilan yaxshi tanish bo‘lgani, ularga qiziqqani, xabordorligi o‘z asarlarini yoritishda ta’sir ko‘rsatdi. Nafaqat ta’sir, aytish mumkinki tafakkur olamini boyitishda xizmat qildi. Shuning uchun ham biz Cho‘lpon ijodini o‘rganishga muhtojmiz. Uning har tomonlama shakllanishida salaflarining va

zamondoshlarining ta’siri kuchli bo‘lganligini ta’kidlash kerak. Cho‘lpon “Turon“ teatriga rahbarlik qilgan paytlarida sahna san’ati va dramaturgiya sirlarini va rus tilini puxta egallagani uchun 1924-yil Moskvada tashkil etilgan o‘zbek drama studiyasiga adabiy emakdosh sifatida yuborildi. Bu jarayonda u rejissyorlarning ma’ruzalarini, sahna asarlarini tarjima qildi, rus adabiyoti bilan yanada yaqindan tanishdi. Bularning ichida Tolstoyning “Tirilish” romani unda katta taassurot qoldirdi. Maksim Gorkiyning “Ona” romani “Kecha va kunduz” romanini yaratilishida katta maktab bo‘lganligini ta’kidlash joiz. Bu haqda Cho‘lpon “Katta maktab egasi” maqolasida shunday yozadi: “Men o‘zim faqat shuni aytaman: nasr tilini tarashlashni men boshlab Gorkiydan o‘rgandim. U, menimcha, o‘zi ishlatadigan tilni juda yaxshi ko‘radi, uni har qanday kamchilikdan ozoda holda ko‘rmak istaydi. “Ona”ning tili mana shunday bir til. “Ona” men uchun katta bir maktab bo‘ldi. O‘zimning “Kecha va kunduz” nomli ro‘monimda men ham bu buyuk uslubchining unumli ta’sirini doim sezib turdim” [6.51]. Cho‘lpon Gorkiy bilan ko‘rishish va suhbatlashish baxtiga muyassar bo‘lganini o‘ziga sharaf deb biladi.

“Tirilish” va “Kecha va kunduz” romanlaridagi sud jarayoni yuqoridagi fikrlarimizga aniqlik kiritadi: har ikki yozuvchi sud hujjatlarini erinmasdan oxirigacha tavsiflaydi; har ikkala sudlanuvchi odamlarni zaharlashda va o‘ldirishda ayblanadi (aslida ikkala qahramon ham idishda zahar borligini bilmagan). Bundan tashqari guvohlar faqat ayblanuvchini qoralaydi. Bu narsani prokuror obrazi tasvirida ham kuzatish mumkin. Tolstoy asaridagi prokuror sud hay’tiga yuzlanib: *“господа присяжные заседатели, в вашей власти судба этих лис, но в вашей же власти отчасти исудъба общества, на которое вы влияете своим приговором. Вы вникните в значенение этого преступления, в опасност, представляемую обществу от таких патологических, так сказат, индивидумов, какова Маслова, и оградите невинные, крепкие элементы этого общества от заражения и часто погибели”,*[4. 7] – *deydi.* Ko‘ramizki, notiq faqat ishtimoiy tamonni ko‘zlab, Maslovaning jinoyati jamiyat uchun katta xavf ekanligini aytib, jinoyatni bo‘rttiradi. “Kecha va kunduz” romanidagi prokuror esa Turkistonda bo‘layotgan ijtimoiiy jarayonlarni aytib, Zebining “aybi”ni bo‘rttiradi.

Cho‘lpon o‘z ijodiy faoliyatida ham mumtoz adabiyotimiz davomchisi sifatida an’anaga sodiq qolganligini, ham jahon adabiyotiga xos poetik vositalarni o‘zbek adabiyotida qo‘llaganligini guvohi bo‘lamiz. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani esa o‘zbek adabiyotida birinchi roman dialogiya sifatida e’lon qilindi. Roman yaratilishida yozuvchining maqsadi milliy ruhni, hayotni badiiy talqin etishni, davr muhitini qahramonlar ruhiyati orqali ko‘rsatishdan iborat edi. Cho‘lponshunos olim Dilmurod Quronov “Kecha va kunduz” romani ustida yaratgan tadqiqotida quyidagi fikrlarni keltirgan edi: “Kecha va kunduz” o‘zbek nasridagi ilk ijtimoiy-psixologik roman sifatida dunyoga kelgan” [9. 3].

O‘zbek adabiyotiga sonet XX asrning 30-yillarida kirib keldi. Sonet (ital. sonetto) – 14 misradan iborat turg‘un she’riy shakl. Sonet qat’iy qonun – qoidalar asosida yaratiladi. U 4 banddan iborat bo‘lib, 1 va 2 bandlar 4 misradan (katren), 3 va 4 bandlar 3 misradan (terset) tashkil topadi. Katrenlar, asosan, a-b-a-b yoki a-b-b-a shaklida, tersetlar esa v-v-g – d-g-d tarzida qofiyalanadi. Eng muhimi – qofiyalar to‘la va jarangdor bo‘lishi lozim. Sonetning dastlabki bandida fikr rivojlanib borishi, ikkinchi bandda esa bu fikr muayyan xulosa bilan yakunlanishi kerak. Sonetning mustaqil she’r turi sifatida shakllanishida F. Petrarkaning xizmati beqiyos. Dante, P. Ronsar, V. Shekspir, I. Gyote kabi shoirlar sonetning mumtoz namunalarini yaratganlar. Rossiyada ilk bor XVIII asrda V.Trediakovskiy, A.Sumarokovlar, keyinchalik A.Pushkin, M.Lermontov, A.Fet kabi shoirlar, XX asrda A.Blok, B.Bryusov, A.Axmatovalar sonetlar yozgan. Ta’kidlash joizki, yuqoridagi ijodkorlarning asarlari bilan Cho‘lpon yaxshi tanish edi. Shuning uchun ham u go‘zal sonetlar yozdi. Aytishimiz lozimki, o‘zbek adabiyotida ilk bor Usmon Nosir, Cho‘lpon, keyinchalik Barot

Boyqobilov, Rauf Parfi va boshqalar sonet yozganlari ma'lum. Ushbu janr bizga Yevropadan rus adabiyoti bilan birgalikda kirib keldi. Usmon Nosir va Cho'lpon rus adabiyoti bilan, jumladan, Pushkin va Lermontov ijodi bilan jiddiy shug'ullangan, ulardan tarjimalar qilgan. Shu jarayonda Pushkinning sonetlari bilan ham tanishgan, o'rgangan. Muhimi shundaki, Pushkin bor-yo'g'i uchta sonet yozgan. Albatta, undan avval, uning davrida ham bu she'riy turga murojaat qilgan taniqli shoirlar bo'lgan. Shunga qaramay, rus sonetchilik tarixi haqida gap ketganda adabiyotshunoslar Pushkinni birinchi ko'rsatishadi. Usmon Nosirning "She'rim! Yana o'zing yaxshisan...", "Dengizga" nomli she'rlari sonetning haqiqiy namunalaridir. "She'rim! Yana o'zing yaxshisan..." [5.7] soneti ijodkor va uning ijodi o'rtasidagi jo'shqin hissiyotlar izhoridir:

She'rim! Yana o'zing yaxshisan,
Boqqa kirsang, gullar sharmanda.
Bir men emas, hayot shaxsisan,
Jonim kabi yashaysan manda.

Shoirning "Dengizga" sonetida ijodkor go'yoki achchiq taqdirini oldindan sezgandek. Oq dengiz bilan xayrlashadi. Xayrlashish oldidan uning to'lqinlarini sevishini, oyni cho'miltirgan tinch tunlari uning tushlariga kirishini, suzayotgan oq yelkanlar bir umr yodida qolishi o'rinli o'xshatishlar orqali ta'riflanadi:

O'ynagil so'ng marta, chayqal, erkalan!
Armonim qolmasin ketar oldimda.
Bag'ringda baliqday yuzgan oq yelkan
Bir umr sayr etgay mening yodimda...
Yaxshi qol, erkin suv! Yaxshi qol, dengiz!
To'lqinlar, qo'ynimga qizday kirdingiz.

Milliy o'zbek adabiyotida Cho'lponning sonetlari ham o'z o'rniga ega. Uning "Men va boshqalar", "Chechak", "Javolash" nomli sonetlari lirik qahramonning chuqur his-tuyg'ularini aniq ifodalaydi. "Men va boshqalar" [8.27] she'ri o'zbek qizi nomidan aytilib, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o'zbek qizlarining ayanchli turmush tarzidan so'zlaydi. She'rda erksiz sabab qalbi og'rigan qizning yig'lashi, ingrashi, qanoti bo'lsa-da ucholmasligi, ovozi bo'lsa-da so'zlolmasligi, hayoti bir qulning hayoti kabi ekanligi, unga hayvondek muomalada bo'lishlari keskin tarzda ifodalanadi:

Kulgan boshqalardir, yig'lagan menman,
O'ynagan boshqalar, inglagan menman.
E*rk ertaklarini eshitgan boshqa,*
Qullik qo'shig'ini tinglagan menman…

"Javolash" [8.118] sonetida shoir bir o'limning izi haqida fikr bildiradi. Javolashning o'limi misolida har bir inson o'lishi, o'lganidan so'ng yo'q bo'lib, izlari yer betidan yuvilishi, faqat ruhi ona bag'rida saqlanishi, o'limga chora yo'qligi tasvirlanadi. Bu she'r kitobxonni o'z taqdiri bo'yicha chuqur mushohadaga chorlaydi:

Hay, qushlardek uchib yurgan yengil jon,
Gavdang endi tuproqlarga qo'yildi,

Izlaring ham yer betidan yuvildi.
Faqat, ruhing ketmas ona bag‘ridan!

Milliy adabiyotimizning poetik yangilanishida drama ham muhim ahamiyat kasb etdi. Dramaning taraqqiyot bosqichi mobaynida barcha xalqlar qo‘shiq aytib, raqs tushib, bajaradigan turli rasm-rusmlar bo‘lgan. Yunon dramaturgiyasining barcha turlari-tragediya, komediya, satiralar dramasi Dionisga bag‘ishlangan marosimlar asosida maydonga kelgan. Turkistonda, rus, tatar, ozarbayjon teatrlarining kirib kelishi o‘zbek milliy teatr san’atining antik davrlarda paydo bo‘lgan qadimgi yunon teatri ko‘rinishidagi teatr madaniyatini oradan ikki ming yildan ko‘proq vaqt o‘tib ham mazmun, ham shakl jihatidan katta o‘zgarishlarga uchrab, yangidan shakllanishi uchun zamin yaratdi. Teatr haqida gap ketar ekan Cho‘lponning Yan bilan birgalikda yozgan “Hujum” nomli dramatik asari haqida to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. Cho‘lpon iste’dod egasi, she’riyatimizni yangicha mazmun, shakl, obrazlar orqali yangiladi. Nasrda o‘zining o‘tkir qalamini namoyon etib, “Kecha va kunduz” romanini, “Qor qo‘ynida lola”, “Do‘xtur Muhammaddiyor”, “Oydin kechalarda”, “Novvoy qiz” kabi ta’sirchan hikoyalarini yaratdi. Dramada ham o‘zining salmoqli mehnatini qoldirdi. “Yorqinoy”, “Zamona xotini”, “Hujum” shular jumlasidandir.

“Hujum”da Cho‘lpon bir qancha o‘zbek milliy kuylaridan foydalanadi. Jumladan, “Qalandar”, “Hoy, yor-yor” kuyi, “Nasrullo II”, “Layzon gul”, “Yallama, yorim”, “Hum-hum holayla”, “La’li Badaxshon”, “Shukur qilaylik”, “Jonim, voy, jonim”, “Ushaldi xumor”, “Begi sulton”, “Sayyora”, “Yor-yor”, “Do‘st, jo‘r”, “Omonyor”, “Sarbozlar” kuylaridan foydalanganini guvohi bo‘lamiz. Ko‘rinib turibdiki, birgina dramatik asarni o‘zida o‘n oltidan oshiq musiqa va kuydan foydalangan. Musiqa haqida gap borar ekan akademik Naim Karimov shunday yozadi: “Musiqa shunday katta kuchga ega bo‘lgani uchun o‘zini madaniy hisoblagan har bir o‘zbekning xonadonida yaqin-yaqingacha kitoblar bilan birga tanburi dutorlar ham bo‘lgan. Faqat mehmon bo‘lib kelgan xonanda va sozandalargina emas, balki xonadon sohiblarining o‘zlari ham shu cholg‘u asboblarini qo‘llariga olib, ulardan bulbul nolalarini tarata bilishgan. Hazrat Navoiy esa tanbur torlari orqali qalb to‘lqinlarini ifodalabgina qolmay, bastakor do‘stlarining nonlarini yarimta qilib, “navo” kuyini ijod qilgan. Bizga zamondosh bo‘lgan G‘ulom Zafariy, Hamza, Fitrat, Cho‘lpon singari ulug‘ shoirlar ham musiqaning sehrli olamidan bebahra kishilar bo‘lishgan” [3.245]. Akademik olim ta’kidlaganidek, Cho‘lpon ham musiqadan yaxshi xabardor bo‘lgan, “Hujum” dramasi uchun musiqalarni tanlab, ssenariyga kiritadi va sahnaga qo‘yiladi. Bunday spektakldan Cho‘lponning o‘zini ham ko‘ngli to‘lgan.

Publitsistik maqolalar yaratishda Cho‘lpon samarali ijod qildi. Uning adabiy-tanqidiy, teatr va san’atga oid, matbuot haqida, ijtimoiy-siyosiy hayotga oid maqolalari bilan deyarli barcha ilm ahli tanishdir. Ijodkorning “Adabiyot nadir”, “Muhtaram yozg‘uvchilarimizg‘a”, “Marhum Tavfiq Fikrat”, “Adabiyot kechasi”, “Ulug‘ hindiy” kabi adabiy-tanqidiy maqolalari bugungi kunda ham butun adabiyot ahlini o‘ylantirmasdan qo‘ymaydi. “Ulug‘ hindiy” maqolasida Cho‘lpon rus tilidagi badiiy asarlarni o‘qish mobaynida Thokur ijodi uni o‘ziga tortganligi, bu buyuk zot bilan o‘z xalqini ham tanishtirmoqchi bo‘lganini ta’kidlab, uning “O‘roq oy” nomli to‘plamidan uchta she’rni o‘zbekchaga tarjima qilib, 1925-yilda “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida nashr ettiradi. Maqoladagi *“O‘zimning yo‘lsizlig‘imdan bir oz so‘zlab o‘tayin: Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o‘qiymen: bir xil, bir xil, bir xil! Ko‘ngil boshqa narsa yangilik qidiradir: Botu, G‘ayratiy, Oltoy, Oybek, Julqinboylarni o‘qiymen, quvontiradir xolos! Ular mening uchun yong‘on chiroqlar bo‘lsa ham mening ertam uchun! Avloniy, Tavallo, Siddiqiy, Hakimzodalarni o‘qumaymen, o‘qumaymen, meni shu holg‘a solg‘on o‘shalar!.. Nechun ochildi ko‘zim. Qayda ketdi uyqularim?..” Faqat usmonlichadan Rizo Tavfiqning ba’zi bir yangi*

shakl bilan eski ruhda aytgan so‘fiylarcha she’rlarini o‘quymen; shularga durustgina qonamen; undan keyin Yahyo Kamolning “Sa’dobod” ruhida ba’zi narsalari. Faqat – ular shu qadar ozki... Ana shu vaziyatda ekan, haligi ulug‘ zot (ulug‘ hindiy) menga yo‘luqdi. Shundan keyin chinakam qondim!” [7.78] jumlalari Cho‘lponning Thokur ijodiga bo‘lgan hurmati naqadar baland ekanligini anglatib turibdi. Bu Cho‘lpon ijodiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Taniqli adabiyotshunos olim Nurboy Jabborov shunday yozadi: “Adabiyot barcha zamonlarda ham yuksak idealni kuylagan. Chinakam badiiy asar qay bir uslubda, qanday shaklda ijod etilmasin, hamma davrlarda ham shaxs kamolotiga xizmat qilgan. Ulug‘ mutafakkir ijodkorlar e’tirof etganidek, til va adabiyot millat mavjudligining, jamiyat ravnaqining asosiy shartidir” [1.10]. Olim ta’kidlaganidek, Cho‘lpon qay uslubda, qay janrda, qay shaklda ijod qilmasin, yuksak darajada ijod qildi va o‘zi ham yuksaklarga intilganini va milliy estetik tafakkurning yangilanishida xizmat qilganligini e’tirof etish lozim.

Xulosa shuki, jadidchilik adabiyoti namoyondalarining milliy adabiyotimizga olib kirgan yangiliklari muhim va salmoqli. Har bir ijodkor o‘z ijodida jahon adabiyoti andozalarini o‘zlashtirgan, mukammal darajada adabiyotimiz ravnaqiga hissa qo‘sha oladigan yangiliklarini milliylik ruhi bilan uyg‘unlashtirdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma’naviyat. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2015.

2. Jo‘raboyev O. Ikki jadid munavvari – Hamza va Cho‘lpon munosabatlari haqida. – “Jadidchilik harakati va uning turkiy xalqlar adabiyotiga ta’sirini o‘rganish muammosi”(Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari). – Qarshi , 2023.

3. Karimov N. Uch buyuk siymo. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2019.

4. Tolstoy L. Voskresene. – M.,1984.

5. Usmon Nosir. Ertani sevib kut. To‘plam – Toshkent: Adabiyot, 2021.

6. Cho‘lpon. Asarlar. 4 jildlik, 4-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2016.

7. Cho‘lpon. Ulug‘ hindiy. Maqola. // Maorif va o‘qitg‘uvchi. – Toshkent, 1925. – № 7-8.

8. Cho‘lpon. Ko‘klam ruhi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.

9. Quronov D. Ruhiy dunyo tahlili. – Toshkent: Xazina, 1995. – B.3

10. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq NMAK, 2004.

UMIDJON QO‘ZIYEV,
Namangan davlat universiteti, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri PhD, dotsent

O‘ZBEK TILIDAGI SO‘ZLARNING FONETIK MOSLASHUVI HAMDA ME’YORLASHUVI MASALASI

Annotatsiya: *Chet so‘zlarning o‘zlashish jarayoni birdaniga sodir bo‘lmay, uzoq vaqt talab qiladi. Bu vaqt mobaynida so‘z bir qancha bosqichlar asosida tilga singib boradi. Ulardan lingvistik bosqichlar – fonetik, leksik, grammatik; nolingvistik jarayonlar – madaniy ta’sir, ijtimoiy-siyosiy yo‘naltirishlar alohida ahamiyatga molik. Maqolada fonetik bosqich so‘z o‘zlashtirishning shaklan eng quyi, mohiyatan eng yuqori darajasi sifatida talqin etilgan. Tarixiy misollar orqali madaniy va siyosiy ta’sirning til sofligiga ta’siri ko‘rsatib berilgan.*
Kalit so‘zlar: *so‘z o‘zlashtirish, importatsiya, substitusiya, imlo, orfoepiya.*

Abstract. *The process of borrowing foreign words does not happen immediately, but takes a long time. During this time, the word will be absorbed into the language in several stages. Among them are linguistic stages – phonetic, lexical, grammatical; non-linguistic processes – cultural influence and socio-political orientations are of particular importance. In the article, the phonetic stage is interpreted as the lowest form of word acquisition and the essentially highest level. The influence of cultural and political influence on the purity of language is shown through historical examples.*
Key words: *word acquisition, importation, substitution, orthographics, orthoepics.*

So‘z o‘zlashtirish bir necha bosqichlarga bo‘linadi, jumladan: 1) fonetik o‘zlashtirish – so‘zning o‘zini qabul qilish (V. Pizani); 2) semantik o‘zlashtirish – kalka, etimologik kalka, semantik kalka (V.V.Ivanov) [9. 89]. Shuningdek, chet so‘zlar fonetik, grafik, leksik-semantik, grammatik va me’yoriy stilistik jihatdan o‘zlashadi [14. 60]. Tilga o‘zlashma so‘z o‘z holicha qabul qilinganda, yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘ladi. Shuningdek, leksikaning nofaol, bir ma’noli so‘zlar qatlamlariga ham mansub bo‘ladi. O‘zlashmaning fonetik tarkibi, ba’zan, grafik shakli ham yangilik bo‘yog‘ini saqlagan bo‘ladi, uslubiy jihatdan ma’lum bir qatlamdagina qo‘llanadi.

O‘zlashma so‘zlarning semantik jihatdan o‘zlashishi odatiy jarayon bo‘lib, u odatda vaqtincha, tez o‘zgaruvchan bo‘ladi. Biroq bir til ikkinchi tilning grammatik qurilishi va fonetik qatlamiga ta’sir qilsa, til ham, shu millatning dunyoqarashi ham o‘zgarishga uchraganini anglatadi. Bu ta’sirlar tilning ijtimoiy mohiyati va undan ta’sir vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini ham bildiradi.

Biz quyida o‘zlashma so‘zlarning fonetik jihatdan moslashuvi hamda o‘zgarishlari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Maqolada adabiyotlar tahlili, tavsifiy, qiyosiy, tarixiy metodlardan foydalanilgan.

Tilga o‘zlashish jarayonida bir qancha jarayonlar ro‘y beradi. Heygen o‘z tadqiqotida lisoniy o‘zlashmalarni bir tildan ikkinchi tilga ko‘chirib o‘tkaziluvchi model/nusxalar sifatida talqin qiladi. Mazkur o‘rinda olim ikkita hodisani farqlab beradi: importatsiya va substitusiya [2.17]. Importatsiyada o‘zlashmaning shakli donor tilga yaqin tursa, substitusiyada buning aksi kuzatiladi.

O‘zlashmalarning fonetik qurilishi, semantik xususiyatlari akseptor tilga kamroq o‘zgarish bilan kirib kelsa, importatsiya, aksincha, akseptor til so‘zning barcha jihatlarini o‘ziga moslab olsa, substitusiya yuz beradi.

Yozma usulda so‘z o‘zlashtirishni yuqori daraja deb baholash mumkin [10.60], chunki bunda xalqlarning ilm-fan, adabiyot, madaniyat sohalaridagi yakuniy xulosalari bir nuqtaga jamlanadi. O‘zbek alifbolarining har bir yangi bosqichida o‘zlashma so‘zlar tarkibida o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan tovushlar yozilishi masalasida muammo va munozaralar yuzaga keladi.

So‘zlar fonetik jihatdan donor tildagi tovushlarni akseptor til egalari tomonidan moslashtirilishi bilan o‘zlashtirish boshlanadi. Bunda so‘zning tovush tarkibi fonetik (eshitilish) jihatdan emas, fonologik (tushunilish) jihatdan eng yaqin tovushlarga almashtiriladi. Bunda akseptor til egalari o‘zlashma so‘z tovushlarini ruhan his qilib, o‘zlaridagi fonemalar bilan almashtirishgan va fonetik tarkib saqlanmagan [3.227]. Masalan, arab tilidagi f tovushi o‘zbeklar tomonidan p deb qabul qilingani kabi.

Qadimgi turkiy tilda 8 ta unli fonema bo‘lib [6.7], turkiy yozuvlarda turlicha ifodalangan: O‘rxun yozuvida ularning 4 tasi, Enasoy variantida 5 ta unli harf bilan ifodalangan.

N.Z.Gadjiyevaning ta’kidlashicha, odatda, turkiy tillardagi barcha o‘zlashmalar so‘z yasash va so‘z o‘zgarish jihatidan turkiy tillarning ichki qonunlariga bo‘ysunadi [8.33].

Arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvida alif (a,o), vov (u, o‘, v), yo (i, e, y) harflari unlilar, shuningdek, undoshlarni ifodalaydi. Unlilarning so‘z boshidagi varianti uchun esa alif+vov, alif+yo kabi birikmali holatlari qo‘llangan. Mazkur alifboda yaratilgan manbalarda turkiy so‘zlar fonetik tarkibining ifodalanishi bir necha usullar bilan berilganligi qayd etiladi: 1) arabiy so‘zlar vazni orqali; 2) alifni ikki marta yozish orqali; 3) huruf-ul-mad belgisi yordamida; 4) huruf-ul-lin orqali; 5) ishba’ bilan; 6) imola atamalari orqali; 7) qiyoslash yo‘li bilan [17.75].

Eski o‘zbek yozuvida arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar grafik tamoyil asosida – arab tilidagi shakli saqlanib yozilgan. Biroq lotin alifbosiga o‘tish asnosida arab tilidagi ***z, t, d, h*** tovushlarining variantlari o‘zbek tilida bir tovush va harf shakliga kelgan, ***’ (’ayn)*** tovushi qisqa to‘xtalishga aylanib, unlini undoshdan ajratib o‘qishga yoki unlining cho‘zib o‘qilishiga xizmat qila boshlagan va shaklan grafik belgiga – tutuq belgisiga almashgan.

O‘zbek tiliga o‘zlashayotgan so‘zlar o‘z talaffuz me’yori bilan keladi, ayniqsa, unlilarning o‘qilish sifati saqlanishi turkiy tillarga xos ayrim fonetik qonuniyatlarni buzadi. Turkiy tillarda urg‘u asosan oxirgi bo‘g‘inga tushadi, o‘zlashma so‘zlarda urg‘uli unli so‘z boshi va o‘rtasida kelganda talaffuzda bu unli urg‘usiz variantiga almashtirilib, urg‘u so‘z oxiriga ko‘chiriladi: mehmon (mih/ymon), televizor (tilivizir). Hattoki rus tilidan kirgan *-ov, -yev* kabi shaxs nomi yasovchi grammatik shakllar ham o‘zbek tilida urg‘usiz talaffuz qilinadi [15.91].

Rus tilidagi ***x, ц*** tovushlari, ayrim tovushlarning yumshoq va qattiq variantlari ham fonetik-grafik moslashuv asosida qabul qilingan. Hozirgi o‘zbek adabiy tiliga oid ilmiy maqolalarda lab-tish (v, f) undoshlari fonema sifatida ko‘rsatilgani holda, s harfi esa fonemalar safida berilmagan [13.36].

O‘zbek tilining muhim belgilaridan biri – qaysidir tildan kiradigan o‘zlashmalar uchun uchinchi til filtrining mavjudligidir. Jumladan, arab tili uchun fors tili, ingliz tili uchun rus tili shunday vositachilik vazifasini bajargan. Misol sifatida, innovatsiya (inglizcha “innovation”) so‘zidagi *-ция* affiksi bevosita rus tili ta’siridadir. O‘zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan o‘zlashmalar dastlab fors-tojik tili ta’sirida muayyan o‘zgarishlarga uchragan [16.860]. Imlo variantlarining mavjudligi integratsiya jarayoni hali davom etayotganligini bildiradi [18.175].

Ma’lumki, chet so‘zlarning o‘zlashish jarayoni birdaniga sodir bo‘lmay, uzoq vaqt talab qiladi. Bu vaqt mobaynida so‘z bir qancha bosqichlar asosida tilga singib boradi.

1. Donor tildagi fonemalar akseptor tilning yaqin fonemalariga almashtiriladi, agar donor tilning ta'siri uzoq va muntazam bo‘lsa, o‘sha tovushlarning o‘zi ham qabul qilinadi. Masalan, arab tilidagi cho‘ziq a tovushi kirguniga qadar adab, keyin esa odob tarzida almashtiriladi. F fonemasi dastlab talaffuzda p tarzida qabul qilinadi, keyinchalik rasmiy imlo bo‘yicha f ga o‘tadi. Rus tilidan kirgan so‘zlarda *ц* undoshi o‘n yillar mobaynida alifboga, imloga majburan kiritib kelinadi, keyinchalik yana alifbodan chiqib, *t+s* ga almashadi.

2. Chet so‘z tilning turli hududiy va ijtimoiy qatlamlari filtridan o‘tadi. Bu qatlamlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘zlashmalarning turli fonetik variantlari keladi. Masalan, hududiy jihatga ko‘ra hassa – aso, iyd – hayit kabi.

3. Alifbo va yozuv tizimlarining almashinishi.

Fitrat aytmoqchi, "turkiy tilning baxtsizligi"dan yana biri – yozuv va alifbodagi juda ko‘p "islohot"lardir. Garchi XX asrga qadar qo‘llab kelingan arab yozuvi asosidagi alifbo turkiy tillar fonetik tizimini qoniqarli aks ettirmasa ham, bir qancha afzal jihatlari bor edi: 1. Barcha turkiy xalqlar uchun umumiy yozuv bo‘lib, har bir xalq o‘z "shevasi"da o‘qib ketishi mumkin edi. Bir tilda yasalgan so‘z ikkinchi tilga ham tez singib ketar edi. 2. Bu yozuv turkiy xalqlarni til va badiiy adabiyoti mushtarakligini ham ta'minlab turardi, Navoiy, Fuzuliy, Mirzo G‘olib she'riyatini barcha o‘z tilida o‘qigandek o‘qir, o‘z shoiri kabi qabul qilar edi. 3. Yozuv musulmon xalqlar birligini ham ifodalar edi. 4. Arab yozuvida turkiy xalqlarning ming yillik tarixiy, ilmiy merosi mavjud edi. "Arabcha ilmiy-adabiy bir tildir: arabcha ilmiy istilohlarni o‘zgartmak to‘g‘ri emas, biz bilim bitiklarimizdan tayyor ilmiy so‘zlarni chiqarib, arobachilar so‘zini kirguza olmaymiz" [5.129].

1918-1927-yillar oralig‘ida arab alifbosi asosidagi o‘zbek yozuvi ikki marta o‘zgartirildi. Bunda jadidlarning o‘rni muhim bo‘ldi.

1928-yilda lotin alifbosiga o‘tildi. Bu yozuv ham 1935-yil bir marta isloh qilingan. Yozuv islohotida faqatgina turkiy xalqlar nishonga olinishidan maqsad "turkiy xalqlarni bir-biridan va o‘tmishdan, an'anaga ega bo‘lgan merosidan mahrum qilish edi" [12.10]. Taklif qilingan loyihalarda o‘zbek tiliga xos bo‘lgan "singarmonizm qonuniga tamoman rioyat qilinmagan", fors tilidan A unlisi uchun alohida harf olingan, "arab harflaridan lotinga o‘tishdan maqsad imloni yengillatish va aksariyat Yevropa mamlakatlarida qo‘llanib kelgan asl lotin harflarini olish edi, loyihada esa ruscha *ь, у, г* harflari, slavyancha *ѳ* va shuningdek, *ə* harflari qabul qilingan" [19.122], natijada alifboni isloh qilishdan maqsad bu loyihada soya ostida qolgan.

Dastlab lotin alifbosi joriy etilgan vaqtda tutuq belgisini ishlatishdan maqsad nima degan savollar yuzaga kelgan. 1929-yil Fanlar akademiyasi axboroti 24-bandida tutuq belgisi arabcha ayn va hamza o‘rniga to‘g‘ridan to‘g‘ri mos tushmasligi, ayrim hollarda yutilib ketishi haqida tushuntirish berishga majbur bo‘ladi [1]. 1934-yildagi imlo qoidalarida o‘zbek tiliga keraksiz "yolashgan unlilar" muomalaga kiritilib, ularni ajratib yozish uchun tutuq belgisi ham safarbar qilinadi: *дун'ё, дар'ё* kabi [4].

Kirill alifbosi muomalaga kiritilgan vaqtda esa ayirish va yumshatish belgilari sun'iy ravishda kiritilgani yuzaga chiqadi. Ravshan Jomonov bu haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "mazkur belgi o‘zbek tilida fonologik qimmatga ega bo‘lmasa-da, rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarning shaklini buzmaslik maqsadida grafik prinsipga ko‘ra yoziladi: spektakl, albom, mebel" [11.37]. Tadqiqotchi ayni paytda ayirish belgisi / tutuq belgisi o‘zbek tilidagi hamma so‘zlarda ham o‘zini saqlab qolmaganini ko‘rsatib, alifboga kirib qolgan, o‘zbek tili fonologik va orfoepik tamoyillariga mos kelmaydigan grafik belgilarning aslida ortiqcha ekanligiga ishora qilgandek bo‘ladi.

4. Ilmiy qarorlarni noto‘g‘ri o‘zanga burishga harakatlar. Shu yillarda Turkiston maorif komissariati tashabbusi bilan o‘tkazilgan tilchilar kengashi bo‘lib o‘tib, unga rus tilshunoslaridan Ye.D.Polivanov, S.Falev, D.Shmidtlar taklif qilinadi. Jumladan, Ye.D.Polivanov "Turk

tillarining sarf-nahvlarini tuzishda asoslar" mavzusidagi ma'ruzasida turkiy tillar uchun yaratiladigan grammatika kitoblar rus grammatikasi bilan chog'ishtirilgan holda yozilishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan edi. Bunga Abdurahmon Sa'diy qarshi chiqib, bu tillar o'rtasidagi farq shu qadar ko'pki, ularni qiyoslashdan ma'ni yo'q degan fikrni beradi. Shoir Elbek ham ushbu kengash ishi yuzasidan yozgan maqolasida na o'zbek, na turk, na tatar tillaridan xabari bo'lmagan yuqoridagi mutaxassislarning qanday qilib bunday kengashga jalb qilinganidan qattiq ajablanadi [7.18].

1940-yildan kirillisaga o'tilgach, "endi, ayniqsa, rus tilidan olami jahon so'zlar turkiy tillar boyligiga kiritilayotgan bir davrda, ularni turkiy til qonuniyatlariga moslashtirilmay, yana rus tilida qanday yozilsa, shundayligicha saqlash majburiy qilib qo'yildi. Natijada bir tilning o'zida ikki imloli yozuv tarkib topdi, ya'ni rus tilidan olingan yoki rus tili orqali Yevropa tillaridan olingan so'zlar uchun rus tili negizida shakllantirilgan bir imlo; o'zbekcha va u arab-fors tillaridan o'zlashtirgan so'zlari uchun o'zbek tili negiziga asoslangan bir imlo bor" [12.11]. Natijada 1944, 1956, 1969, 1982-yillarda ham islohotlar o'tkazilgan. Bu islohotlar natijasida ham o'zbek tili tabiatiga zid bo'lgan belgilar alifbodan chiqarib yuborilmadi: *е, ё, ю, я, ц, ь, ъ*.

5. Imlo qoidalaridagi noqisliklar. O'zbek tili uchun tipik bo'lgan bu hodisa natijasida nafaqat o'zlashma so'zlar, shuningdek, o'zbek tilidagi deyarli barcha so'zlarda imlo qoidalari bilan bog'liq muammolar, xatoliklar yuzaga kelaveradi. Bunda o'zbek tili imlo tamoyillardagi ayrim muammolar ko'zga tashlanadi. Jumladan, shakliy / grafik tamoyil – aynan o'zlashma so'zlarning imlosi haqida: chetdan kirgan so'zlarni aslidagidek yozish. Shu o'rinda "chetdan kirgan", "aslidagidek" so'zlari juda nisbiy. O'zbek tili suv ichadigan irmoqlar arab, fors-tojik, Yevropa tillari (jumladan, rus tili). Deylik, "gul" so'zi fors-tojik tilidan o'zlashgan, u aslidagidek yoziladi, deganda fors tili imlosi nazarda tutiladimi, tojik tili imlosimi yoki talaffuzimi? Ikkinchisi qarashga ko'ra, bu so'z morfologik tamoyil asosida yoziladi. Unda gul o'zlashma bo'lmaydimi? Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, shakliy tamoyil qoidasi va unga qarab ish tutish o'zbek tilshunosligiga xos emas. Bizningcha, bu rus tili qoidalarini o'zbek tilida to'g'ridan to'g'ri qo'llash natijasida kelib chiqadigan jiddiy nomuvofiqlikdir. Rus tili leksikasida turkiycha so'zlar ko'p bo'lsa ham, ular uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgani uchun rus tili fonetik qoidalariga bo'ysuntirilgan va o'zlashma sifatida qarash amalda ahamiyatli emas. Natijada rus tilida faqat Yevropa tillaridan kirgan o'zlashmalar qolishi ma'lum bo'ladi. O'zbek tilida esa fors-tojikcha va arabcha o'zlashma salmoqli miqdorda bo'lgani va etimologik bog'lanish yo'qlomagani uchun mazkur tamoyilni rus tilshunosligi tushunchasi bilan o'zbek tilida qo'llab bo'lmaydi. "Rus tilidan o'zlashgan so'zlar rus tilida qanday yozilsa, o'zbek tilida ham shunlay yoziladi deb o'zbek tilidagi so'zlar qurilishi qonuniyatining deyarli yo'qqa chiqishiga mahkum etganmiz. Men bu o'rinda birgina masalaga to'xtaldim, "kirill alifbosi" bilan bog'liq imlo tilimizdagi so'zlar qurilishi yuzasidan shunchalik ko'p noqulay va nomatlub holatlarni keltirib chiqarganki, ularni bu o'rinda ermak qilib o'tirishimizga hojat yo'q [12.13].

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, o'zlashma so'zlarning o'zlashuv jarayoni aynan fonetik qatlamdan boshlanadi va tilga o'zga tildan biror tovushning me'yor sifatida qabul qilinishi so'z o'zlashuvining eng yuqori darajalaridan hisoblanadi. Zero, tilning leksik qatlami o'zgaruvchan bo'lib, u keyinchalik grammatik bosqichga o'tishi mumkin, tilga muayyan tovushning kirishi yakuniy bosqich demakdir. Tilda shu tovush mavjud so'zlarning muayyan miqdori, onomastik qatlam, ilmiy va madaniy doiralarning ma'qullashi bilan yuz beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 1929-yilgi Samarqanddagi til-imlo konferensiyasi materiallari – Toshkent, 1932. 124-b.

2. Hamdi, Sami Abdullah. The Impact of Ideology on Lexical Borrowing in Arabic: A Synergy of Corpus Linguistics and CDA. PhD diss. at Educational Linguistics University of New Mexico – USA: Albuquerque, New Mexico December, 2018. – P.17.

3. La Charité, D., & Paradis, C. (2005). Category preservation and proximity versus phonetic approximation in loanword adaptation. Linguistic Inquiry, 36(2), 223–258.

4. SSSR Fanlar akademijasi Ozbekiston filialinin Axbarati, 1940, 2-san, 27-bet. Jomonov R.O‘zlashgan so‘zlar imlosiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti, 4-son, 2010. – B.37.

5. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б.129.

6. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 7.

7. Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожида Элбекнинг роли: филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. – Б.18.

8. Гаджиева Н.З. Тюркские языки // Языки мира. Тюркские языки. – Бишкек, 1997. – С.33.

9. Гулямова Н. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1985. – С.89.

10. Иброҳимов А. Ўзлашмаларда имло масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1-сон, 2007. – Б.68-71.

11. Жомонов Р.Ўзлашган сўзлар имлосига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 4-сон, 2010. – Б.37.

12. Миртожиев М., Маҳмудов М. Тил ва маданият. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б.11.

13. Набиева Д.Ундошлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2-сон, 2016. – Б.32-36.

14. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – Москва: Высшая школа, 1975. – С.60.

15. Ражабов Н. Ўзбек тилидаги урғусиз унлилар // Ўзбек тили ва адабиёти, 5-сон, 2012. – Б.89-94.

16. Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк персидского языка // Персидско-русский словарь. Т.2. – Москва, 1970. – С.860.

17. Умаров Э. “Девону луғотит турк”да чўзиқ унлиларнинг берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 5-сон, 2010. – Б.74-77.

18. Фолланд Б. Французский заимствования в немецком языке: трансференция и интеграция на фонологическом, графематическом, морфологическом и лексикосемантическом уровнях // РЖ. – Москва, 1988, №1. – С. 175.

19. Янгибоева Н. Лотин алифбосини шакллантириш тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 5-сон, 2018. – Б.121-124.

SOFIYAXON USMONOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti

TOPONIMIYA VA UNDA MIKRO VA MAKROTOPONIMLARNING O‘RNI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jahon tilshunosligida o‘ziga xos o‘rin tutuvchi toponimlar, bu borada olimlarning fikrlari, har bir mamlakatning tarkibiy qismi bo‘lgan viloyat, shahar, tuman, umuman, joy nomlari – toponimik obyektlarning miqdor va sifat belgilariga ega bo‘lgan maxsus lingvistik tizim sifatida e’tirof etilishi bilan birga ularni ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganilishi, mikro va makrotoponimlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida bahs yuritilgan.*
Kalit so‘zlar: *toponimika, nomlar, mikrotoponim, makrotoponim.*

Abstract. *In this article, the toponyms that have a special place in world linguistics, the opinions of scientists in this regard, the names of regions, cities, districts, places in general, which are part of each country – toponymic objects with quantitative and qualitative signs of special linguistic along with recognition as a system, their scientific-practical study, specific features of micro – and macrotoponyms were discussed.*
Key words: *toponymy, names, microtoponym, macrotoponym.*

Jahon tilshunosligida qadimdan toponimlar til lug‘at fondining bir qismi sifatida o‘rganib kelinadi. Bugungi kunda joy nomlarining tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchagina farq qilishi, ularning tilda uzoq yashashi sabab va yo‘llarini ko‘rsatib berish, uning ko‘p tarkibli birlik sifatidagi lingvistik xususiyatlari, toponimlarning har bir tilning ma’lum ichki qonuniyatlari asosida maydonga kelish yo‘llarini asoslash, ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatdan tadqiq etilishi har qanday tilning rivoji va taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida qayd qilinmoqda. Ma’lumki, har bir mamlakatning tarkibiy qismi bo‘lgan viloyat, shahar, tuman, umuman, joy nomlari – toponimik obyektlari o‘zining miqdor va sifat belgilariga ega bo‘lgan maxsus lingvistik tizim sifatida e’tirof etilishi bilan birga ularni ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganilishi orqali millat lingvistikasi, til tarixi va nazariyasi, zamonaviy tilshunoslik kabi sohalari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida ko‘plab joy nomlarining qadimiyligi, ibtidoiy yozma yodgorliklarda ham qayd qilingan geografik nomlarni keyingi davrlardagi shakllari va hozirgi kundagi holati bilan solishtirilib, tilning lug‘at tarkibida, so‘zlarning dastlabki shaklida ro‘y bergan o‘zgarishlar tilshunoslik qonuniyatlari orqali o‘z asoslariga ega bo‘lmoqda. Shu sababli insonlar istiqomat qiluvchi joy nomlarining uzluksiz o‘zgarishi, kengayishiga sabab bo‘luvchi urbanizatsiya jarayoni davomiyligi va bular asosida ham toponimlarning ko‘paya borishi masalalaridagi hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar amaliy lingvistik tadqiqotlar orqali o‘z yechimiga ega bo‘lmoqda. Amaliyot asosida olingan nazariy ma’lumot va xulosalar mikro va makrotoponomik atamalarini tartibga solish va mukammallashtirishga, umrboqiyligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, joylar toponimiyasiga yaxlit bir tizim sifatida yondashib, uning mazmun va tuzilish jihatlarini to‘liq lingvistik qonuniyatlarga tayanganligi nazariy ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda

ilm-fan sohasida olib borilayotgan tub islohotlar, ayniqsa, o‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, uning nufuzi va mavqeini yangi bosqichga ko‘tarish zaruriyati yuzaga keldi, tilshunoslikni taraqqiyotning yangi darajasiga moslashtirdi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “…Endigi vazifamiz – ilmiy tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish, ilm-fanni, ilmiy-innovatsion faoliyatni barqaror rivojlantirish”[11. 168].

O‘zbek tilshunosligida xalq tarixi, qadriyati, an’ana va urf-odatlarini o‘zida to‘liq ifodalovchi lisoniy birliklar – toponimlarni muayyan hudud misolida lingvistik tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jihatdan qadimdan shakllangan va hozirda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanish yo‘lini bosib toponimlarning leksik-semantik, onomastik-grammatik xususiyatlari, kelib chiqish asoslarini lingvogeografik, etnolingvistik hamda lingvokulturologik aspektda o‘rganish dolzarblik kasb etadi.

Olamda har narsaning nomi bor. Eng ulkan predmetlardan tortib, ko‘zga ko‘rinmas zarrachalarning o‘z nomi mavjud. Nomsiz bu dunyoda mavjud bo‘lish mumkin emas. Nom narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash uchun zarurdir. Tushunchalarni farqlash joy nomlariga ham bevosita taalluqli. Har qanday joyning nomi, uni boshqalardan farqlaydigan atamasi hamda shu atama bilan bog‘liq so‘zlar guruhi mavjud bo‘ladi. Joy nomlarini bir-biridan farqlashga xizmat qiladigan birlik – toponimdir. Demak, toponim – joy nomi. Toponimlarni toponimika fani o‘rganadi. Toponimika yunoncha so‘z bo‘lib, topos-joy, onoma (yoki onima) – nom so‘zlaridan tarkib topgan [21. 5].

Jahon tilshunosligida H.A.Smit, A.L.Dauzat, G.J.Kopley, G.V.Lemon kabilarning ilmiy izlanishlari toponimikaning fan sifatida shakllanishida alohida e’tirofga loyiq.

Toponim tushunchasiga ta’rif bergan mashhur rus tilshunoslari N.V.Podolskaya va A.V.Superanskayalar “Toponimlar Yer planetasidan tashqari har qanday geografik nomlarni ifoda etuvchi barcha so‘zlar uchun umumlashtiruvchi atamadir”, [15. 141] – deya qayd etishgan.

V.A.Nikonov tomonidan “Toponimika geografik nomlarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi; til tarixi, dialektologiya, etimologiya, leksikologiya sohalari bilan kesishadigan; tarix, geografiya, etnografiya bilan uzviy aloqadorlikda bo‘lgan tilshunoslikning alohida bo‘limi” [13. 164] ekanligi bayon qilingan.

D.E.Rozental, M.A.Telenkovalar toponimikani “leksikologiyaning geografik nomlarni o‘rganuvchi bo‘limi; biror hududning geografik nomlari jamlanmasi”, [17. 447] – deb ta’riflagan.

H.Hasanov “Toponim deb bir joy nomiga aytiladi: lotincha topos – yer, onoma – nom, ism. Joy nomlari yig‘indisi toponimiya bo‘ladi. Joy nomlarini o‘rganuvchi fan esa toponimika deb ataladi. Toponimist shu soha bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis” [21. 3] ekanini qayd etadi.

Toponimika sohasining yetuk mutaxassislaridan biri S.Qorayev toponimika haqida tushuncha berar ekan, “Toponimika deganda joy nomlarini o‘rganadigan fanni, toponimiya deganda esa geografik nomlar yig‘indisini nazarda tutamiz”[9. 6], – deb sharh berib o‘tgan.

Toponim va u bilan bog‘liq atamalarning keng qamrovli mohiyati E.Begmatov va N.Uluqovlarning lug‘atida ham yoritilgan. Chunki, ushbu lug‘atda toponim bilan aloqador 130ga yaqin atama izohlangan. Lug‘at mualliflari toponimga quyidagicha ta’rif bergan: “Yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan tabiiy-jug‘rofiy va sun’iy (inson yaratgan) obyektlarning atoqli oti: oykonim, oronim, speleonim, xoronim, urbanonim, drimonim, nekronim va b.”[2. 76-77]

Geografik obyektning atamashunoslikdagi umumlashma nomi toponim hisoblanar ekan, ushbu atama asosida toponimiya, toponimika kabilar tegishli hududda yashaydigan millat va xalqlarning o‘tmishini, tarixiy rivojlanishini hamda etnik jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi.

Onomastikada toponim, toponimiya, toponimika kabi tushunchalar biri ikkinchisini, ikkinchisi uchinchisini va hokazolarni taqozo etadi. Toponim – har qanday joyning nomi; toponimiya – biror til yoki hududda uchraydigan joy nomlari majmuasi [2. 81], toponimika (toponimistika/ toponamastika deb nomlanish ham kuzatiladi) – nomshunoslikdagi joy nomlarining paydo bo‘lishi, rivoji, vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi sohasidir.

H.Vamberi, V.V.Bartold, M.E.Masson, S.P.Tolstov, E.M.Murzayev, Y.G‘ulomov, S.G.Klyashtorniy, F.Abdullayev kabi atoqli sharqshunoslar O‘rta Osiyo toponimikasiga doir talay maqolalar yozganlar.

Onomastikaning yirik yo‘nalishi bo‘lgan toponimika o‘zbek tilshunosligida XX asrning 2-yarmidan alohida soha sifatida shakllana boshlagan. Toponimikaga oid ishlarning dastlabki muallifi taniqli o‘zbek olimi H.Hasanovdir. Olim O‘rta Osiyo toponimiyasini keng qamrovda o‘rgangan. Uning “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan” deb nomlangan asarida toponimikaning nazariy masalalari va ko‘plab joy nomlarining izohlari keltirilgan.

S.Qorayevning “Geografik nomlar ma’nosi” kitobining “Toponimika haqida tushuncha” hamda “Toponimikaga oid terminlar” [8.4. 190,197] qismlarida joy nomlari bilan bog‘liq asosiy tushunchalar sharhlangan.

Markaziy va O‘rta Osiyo joy nomlarini o‘rganish rus mutaxassislari faoliyatida asosiy o‘rinni egallagani ma’lumdir. Bu borada V.V.Bartold, L.S.Berg, A.X.Vostokov, S.B.Veselovskiy, V.Vyatkin, A.P.Dulzon, V.A.Juchkevich, Y.A.Karpenko, M.E.Masson, A.K.Matveev, E.M.Murzayev, V.A.Nikonov, A.I.Sobolevskiy, V.P.Semenov-Tyan-Shanskiy, B.A.Serebrennikov A.V.Superaskaya, V.N.Toporov, A.I.Popov, S.P.Tolstov, V.B.Shostakovich kabi olimlar keng ko‘lamli faoliyat olib borgan.

Jumladan, joy nomlari haqidagi fan – toponimiyaning shakllanishi uzoq tarixga borib taqalishini sharqshunos va tilshunos A.L.Xromovning ma’lumotlaridan bilib olish mumkin. Uning ta’kidlashicha, hozirgi O‘rta Osiyo hududining toponimikasi eramizdan avvalgi I asrda grek olimi Strabon, Ibn Xo‘rdodbeh (IX asr), Abu Ja’far Narshaxiy (X asr), Muqaddasiy (X asr) va boshqalarning asarlarida dastlabki toponimik ma’lumotlar qayd etiladi.

O‘rta Osiyo va uning xalqlari tarixi, ilm-fani va madaniyati, etnografiyasi va arxeologiyasiga oid ilmiy qarashlarni V.V.Radlov, V.V.Bartold, V.L.Vyatkin, I.I.Umnyakov, N.L.Gumilyev, Y.G‘ulomov kabi bir qator olimlarning asarlaridan olish mumkin.

Yaratilgan qator ishlarda O‘zbekistondagi joy nomlarini yig‘ish, ularni mavzuiy guruhlar bo‘yicha tizimlashtirish, leksik-semantik va etimologik xususiyatlarini tadqiq etish vazifalari o‘z yechimini topgan.

Toponimlarning muayyan hududga ko‘ra o‘rganish o‘ziga xos ilmiy-metodik ahamiyatga ega. Bunda hudud nomi har tomonlama mukammal tadqiq etiladi. Toponimlarning mukammal o‘rganish uning qamrovi (makro yoki mikro) bilan bog‘liq.

O‘zbek tilshunosligida joy nomlarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan ishlarda makrotoponimlar, mikrotoponimlar u yoki bu darajada tadqiq qilingan. Makrotoponim – yirik geografik obyekt(mintaqa, mamalakat va viloyat)ni bildiruvchi nom. Makros grekcha – katta, yirik ma’nosini bildirib, makrotoponim – katta va yirik joylar, obyektlarning nomlari demakdir. Bizni qurshagan olamdagi fizikaviy-jug‘rofiy obyektlarning hajman katta va kichikka bo‘linishi mavjud hodisa. Bu bo‘linish ularni ikki ulkan guruhga ajratgan holda nomlash zaruriyatini tug‘diradi. Mikro va mikroobyekt tushunchalari mavjud real hodisadir. Makrotoponimiya va mikrotoponimiya atamasi ushbu hodisalarning mohiyati, u bilan bog‘liq tushunchalarni anglatish uchun qo‘llanadi.

Bizning nazarimizda, bu ikki tip toponimlarning farqini aniqlash uchun ularni chegaralashga imkon beruvchi o‘rtaliqni aniqlamoq lozim. Bunday o‘rtaliq toponimik tizimdagi nomlarning

yirik va mayda obyektlar nomiga ajralishi chegarasini ko‘rsatadigan neytral (0) nuqtadir. Bu nuqta bizning fikrimizcha, toponimlarning hajman darajalanib [3. 6], mayda obyektdan yirik obyektga, aksincha yirik obyektdan mayda obyektga o‘tish chegarasida bo‘lmog‘i kerak.

Makro- va mikrotoponim tushunchalari o‘zbek tiliga 1960-yillarda kirib keldi. O‘zbek nomshunosligida makro va mikrotoponimlarga oid dastlabki muxtasar ma’lumot E.Begmatovning ishlarida uchraydi. E.Begmatov “Nomlar va odamlar” risolasida “Makrotoponimlar yer yuzasidagi yirik-yirik obyektlarning atoqli otlari”, – deb e’tirof etgan. Ushbu mulohazalarni o‘zbek nomshunosligidagi dastlabki ma’lumotlar sifatida ko‘rish mumkin.

Y.Avlakulov “O‘zbek tilidagi makroko‘lamlardan birini toponimlar tashkil qiladi. Ular Yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan tabiiy jug‘rofiy va sun’iy (inson yaratgan) obyektlarning atoqli otidir. Toponimlar makroko‘lamiga 11 ta mikroko‘lam kiradi. Bular oykonim, komonim, urbanonim, agroonim, nekronim, terronim, regionim, dromonim, xoronim, drimonim, insulonim guruhlaridir” [1.13,14], – deb o‘zbek tilidagi makroko‘lam (makrotoponim) haqida o‘z qarashlarini berib o‘tgan.

Mikrotoponimlar, makrotoponimlarning aksi o‘laroq, yer yuzasidagi mayda va eng mayda obyektlarning atoqli otlaridir. Grekcha mikros – mayda, kichik demakdir. E.Begmatovning qarashlaridan kelib chiqib aytganda mikrotoponimlarga: buloq va chashmalar, g‘orlar, maqbaralarning nomlari bilan birga – ko‘chalar va undagi tupiklar, ko‘priklar, idora va muassasalar, magazinlar, restoranlar, dam olish joylari va istirohat bog‘lari, o‘tloqlar, soylar, ayrim daryo tarmoqlari, jilg‘alar; arxeologik yodgorliklardan: madrasalar, turli inshootlar, minoralar, shuningdek, guzar va mahallalar, devorlar, qal’alar, saroylar, darvozalar va boshqalarning atoqli otlari kiradi. Bunday mikrotoponimlar o‘zbek tilida minglab va bir necha minglab nomlarni tashkil qiladi [5. 7]

Mikrotoponimiyani o‘rganish darajasi tadqiq qilinayotgan mavzuning xarakteriga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Bunda quyidagilar xarakterlidir:

1. Mavzu qanchalik keng hududni qamrasa, bunday ishlarda ko‘proq makrotoponimlar tadqiq qilingan. Makrotoponimiya materiali epizodik tahlil xarakterga ega. Mana shunday ishlar qatoriga butun bir viloyat yoki viloyatning ulkan hududi toponimiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan T.Nafasov [12. 8], Z.Do‘simov [6. 5], N.Mingboyev [10. 6], Y.Xo‘jamberdiyev [20, 7] tadqiqotlarini kiritish mumkin.

2. Mavzu uchun tanlangan hudud qanchalik chegarali va kichik bo‘lsa, bunday ishlarda mikrotoponimiya materiallari kengroq qamrab olinganini ko‘ramiz. Masalan, T.Rahmatov [16. 6], J.Latipov [9. 8], T.Enazarov [22. 6] larning tuman, shahar toponimiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida bu aniq ko‘rinadi.

Tadqiqot mavzui sifatida toponimlarning alohida bir tipi, guruhining olinishi, ya’ni mavzuning tor bo‘lishi ham tadqiqotga mikrotoponimlarning ko‘proq, tortilishiga sabab bo‘ladi. Buni N.Begaliyevning Samarqand viloyati gidronimlariga, A.Otajonova [14. 8] va A.Turobov[18. 8] ning etnotoponimlar tahliliga bag‘ishlangan ishlarida ko‘rish mumkin.

O‘zbek toponimikasida mikrotoponimiya materiali alohida olingan holda tadqiq qilingan ishlarga Sh. Qodirovaning “Toshkent mikrotoponimlari” [7. 7,8] va X.Xolmo‘minovning “Boysun rayoni va uning atrof hududlari mikrotoponimiyasi” [19. 8] nomli nomzodlik dissertatsiyalari hamda ilmiy maqolalari kiradi.

X.Xolmo‘minov Boysun tumani mikrotoponimlari materiallari asosida makro va mikrotoponimlarni chegaralashga harakat qilgan. Muallif choyxonalar, hammomlar, do‘konlar, tegirmonlar, daryolar, soylar, tog‘lar, shaharlar, qishloqlar nomlarini mikrotoponim tarzida tahlil qilgan [19. 27,36].

Mikro va makrotoponimlarni o‘zaro farqlab turuvchi turli xususiyatlar mavjud:



Yuqorida keltirilgan qiyosiy tahlildan kuzatish mumkinki, yirik, katta obyektlarni o‘rganish, mayda, kichik obyektlarni o‘rganishga nisbatan reallik darajasi kamayadi. Chunki unda, asosiy e’tibor ko‘zga ko‘ringan katta obyektlarni o‘rganish maqsad qilib olinadi, natijada ayrim mayda obyektlarning nomlari deyarli aniqlanmay qoladi. Har ikki toponimning onomastikada o‘z mavqei bor. Mahalliy aholi uchun yashash hududi mikrotoponimlari qanchalik ahamiyatli bo‘lmasin, umumiy aholi uchun makrotoponimlarning alohida o‘rni bor. Amerikaga bormoqchi bo‘lgan odam uchun uning qaysi qit’ada joylashgani, qaysi davlatlar bilan chegaradosh ekani, qanday shaharlari mavjudligi, iqlimi, gidroobyektlari, fauna va florasi kabilar muhim. Uni dunyo xaritasidan ko‘rib o‘rganadi, sayyoh borayotgan manziliga doimiy yashash uchun bormayotgani sabab unga mikroobyektlarning ahamiyati yo‘q. Mikroobyektlar doimiy yashash joyi aholisi uchun zarur.

Xulosa qilib aytganda onomastikada toponimika qanchalar muhim o‘rin tutsa, toponimika uchun ham makro va mikritoponimlar qushning ikki qanoti kabi muhim, biri ikkinchisini taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avlakulov Y. O‘zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. ... nomz. diss. avtoref. 2008.

2. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006.

3. Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish. – Filol. fanlari d-ri... diss. avtoref. – Toshkent, 1997.

4. Qorayev S. Toponimlar. Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti”. 2006.

5. Бегматов Э. Номлар ва одамлар. – Тошкент: “Фан”, 1966.

6. Дусимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма. Автореф. дисс. д-ра... филол. наук. – Ташкент, 1986.

7. Кадирова Ш.М. Микротопонимы Ташкента. – Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент , 1970.

8. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978.

9. Латипов Дж. Топонимия города Маргилана и его окрестностей. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975.

10. Мингбаев Н. Топонимия Мирзачуля. – Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Баку, 1988.

11. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

12. Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1969.

13. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965.

14. Отажонова Д.Ж. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1997.

15. Подольская Н.В., Суперанская А.В.Терминология ономастики // Вопросы языкознания. – 1969. № 4.

16. Рахметов Т. Топонимия города Самарканда и его окрестностей. – Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1973.

17. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Справочник лингвистических терминов. – М., 1972.

18. Туробов А.М. Самарканд вилоят этноним ва этнопотонимлари таҳлили. Авгореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1999.

19. Халмуминов Х. Микротопонимия Байсунского района и его открестностей. - Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1993.

20. Хужамбердиев Я. Историко-этимологические исследования топонимии Сурхандарьинской области. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1973.

21. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – Б.3.

22. Эназаров Т. Шаҳрисабз ҳудуди жой номларининг тарихий-қиёсий таҳлили. НДА. – Тошкент, 1993.

MAXBUBA XUJAMKULOVA
O‘zMU O‘zbek filologiyasi, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi v.b.dotsenti, PhD

MOHTOBA ZAYLOBIDDINOVA
O‘zMU O‘zbek filologiyasi, I bosqich magistratura talabasi

DEYKSIS HODISASI VA UNING BADIIY ASARLARDA QO‘LLANILISHI

(Abdulla Qahhor asarlari misolida)

Annotatsiya: *Ushbu maqolamizda deyksis hodisasi haqida nazariy ma’lumotlar, deyksis hodisasi haqida tilshunos olimlarning qarashlari haqidagi ma’lumotlar, deyksis turlari haqida ma’lumotlar berilgan. Bu nazariy ma’lumotlar Abdulla Qahhor asarlari matni orqali misollar bilan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: pragmatika, deyksis, shaxs deyksisi, zamon deyksisi, makon deyksisi, diskurs deyksisi.*

Abstract: *This article provides theoretical information about the phenomenon of deixis, information about the views of linguists about the phenomenon of deixis, and information about the types of deixis. This theoretical information is illustrated with examples through the text of Abdulla Qahhor’s works.*

Key words: *pragmatics, deixis, deixis of person, deixis of time, deixis of space, deixis of discourse.*

Til tizimi va kontekst o‘rtasidagi bog‘liqlikning lisoniy strukturalarda aks etishini yaqqol ko‘rsatuvchi pragmatik atama – bu deyksis hodisasidir. Yunonchadan olinganda “ko‘rsatish”, “ishora” ma’nolarini anglatgan deyksis iborasi, lison vositasida “voqelikka ishora”ni nazarda tutadi [3.158].

Deyksis hodisasiga olimlar tomonidan turlicha munosabatlar bildirilgan. Jumladan, N.Volkov, V.Jura, F.Lenz, E.Benvenist, V.Genshteyn, I.Sternina, Lyons, K.Byuller, Ch.Fillmor, R.Lakoff, V.Shaxovskiy, A.Kravchenko, Ye.Paducheva kabilar deyktik munosabatlarning turli qirralarini talqin qilgan. O‘zbek tilshunosligida A.Nurmonov, Sh.Safarov, M.Hakimov, R.Davlatova kabi tilshunoslar deyksis tushunchasiga izoh berganlar. Jumladan, A.Nurmonov deyksisga munosabat bildirib, indikativ va indikativ bo‘lmagan so‘zlar termini orqali izohlasa, Sh.Safarov deyksis hodisasining pragmalingvistik tahlilda ahamiyatli ekanligini inobatga olib, deyktika atamasining pragmatika atamasiga o‘rindosh sifatida qo‘llashni tavsiya etadi. M.Hakimov deyksis hodisasini namoyon etuvchi grammatik-leksik vositalarni aytib o‘tgan[2.63].

Deyksisning turlari bir qancha olimlar tomonidan turlicha tasniflangan. Jumladan, S.Levinson deyktik markazni 4 qismga ajratadi: 1. Markaziy shaxs; 2. Markaziy vaqt; 3. Markaziy makon; 4. Ijtimoiy markaz. Uning fikricha, markaziy shaxs so‘zlovchini nazarda tutsa, markaziy vaqt uchun nutqiy harakat ijro etilayotgan davr muhim. Markaziy makonda nutqiy harakat amalga oshirilayotgan o‘rin nazarda tutiladi. Ijtimoiy markaz so‘zlovchining ijtimoiy mavqeini inobatga oladi.

Ch. Fillmor deyktik iboralarni uch turga bo‘lib tahlil qilishni aytib o‘tgan: 1. Obyekt o‘rniga nisbatan; 2. Axborot tashuvchisi, axborot egasi; 3. Anaforik holati jihatidan . Uning fikriga ko‘ra, birinchi turi joyga nisbatan qo‘llanadigan deyksislar bo‘lsa, ikkinchisi shaxsga nisbatan qo‘llanadi.

R.Davlatova[1.38] o‘zbek tilida deyksisning bir qancha turlarini, jumladan, shaxs deyksisi, predmet deyksisi, zamon deyksisi, makon deyksisi, belgi deyksisi, miqdor deyksisi, ijtimoiy deyksisi, emotsional deyksisi, propozitiv deyksis va diskurs deyksisi kabi turlarini izohlagan.

Sh. Safarov ham jahon tilshunosligiga tayangan holda deyksisning shaxs, makon, zamon, diskurs, emotsional, sotsial kabi turlariga izoh bergan. Quyida shu turlarni ba’zilarini misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

Shaxs deyksisi. Muayyan til birliklari nutqiy muloqotda qo‘llanilib ma’lum bir shaxsga ishora qiladi. Natijada shaxs deyksisi yuzaga keladi. Shaxsga ishora qiluvchi birliklar esa shaxs deyksisini ifodalovchi deyktik birliklar tarzida talqin etiladi.

Nutqiy muloqot jarayonida bajarayotgan roliga nisbatan shaxs deyksisining tarkibi aniqlanadi. Birinchi shaxs so‘zlovchining o‘rniga ishora, “o‘zini ko‘rsatishi, eslatishi”ning lisoniy ifodasidir, ikkinchi shaxs – tinglovchi yoki adresantning lisoniy belgilanishi hamda uchinchi shaxs muloqotning bevosita ishtirokchisi bo‘lmagan shaxsga ishoradir. Muloqot ko‘chishiga qo‘shgan hissasiga nisbatan farqlanayotgan ushbu tizim olmoshlar guruhlarida o‘z aksini topadi. Olmoshlar esa, o‘z navbatida, uch shaxsdan tashqari, ko‘plik, rod kabi kategorial belgilar asosida o‘zaro farqqa ega bo‘ladi. Ammo ko‘plik son belgisiga ega bo‘lgan olmosh har doim ham birlik sondagi olmoshga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelavermaydi. Jumladan, “biz” har qanday kontekstda ham so‘zlovchilarning soni ko‘p ekanligini anglatmaydi. Shuning uchun ham “biz” olmoshi qo‘llanilgan ayrim holatlarda uzatilayotgan axborot mazmunini va ko‘plik soni qaysi ma’noda voqelanayotganligini aniqlash tinglovchining ixtiyoridadir. Masalan, ingliz tilidagi “We clean up after ourselves a room here” gapini tinglovchi ikki xilda anglashi mumkin: tinglovchi o‘zini adresat guruhiga qo‘shadi yoki bu guruhga kirmaydi. Shunga nisbatan, eksklyuziv “biz” (exclusive “we”) va inklyuziv “biz” (inclusive “we”) ko‘plik shakllari farqlanadi [3.153].

Muloqot faoliyati uchun makon va zamon hodisalarining muhimligini unutmasligimiz kerak. Har bir voqea ma’lum makon va zamonda kechadi hamda u yoki bu hodisa haqidagi axborotni qabul qilayotgan tinglovchi uning qachon, qayerda sodir bo‘lganligini bilishga intiladi. Bundan tashqari, axborotning to‘liq idroki uchun, har qanday faoliyat ma’lum shaxs tomonidan bajarilishi sababli, ushbu faoliyat amalining subyekti haqidagi ma’lumot ham talab qilinadi. Demak, “qachon” va “qayerda” savollari “kim” savolining hamkorligida nutqiy tuzilma mundarijasini belgilaydi. Voqelikda kechayotgan hodisalar bayonida va ular haqida axborot uzatishda uning kechish davri, paytini ko‘rsatish muhim hisoblanadi. Bunday ko‘rsatish vazifasini zamon deyksisi vositalari bajaradi[3.174]. Nutqiy harakat bajarilishi vaqt davriyligi doirasidan tashqarida yuzaga kelmaydi. Har qanday nutqiy voqelik ma’lum bir davrda yuzaga keladi. Ma’lumki, zamon deyksisini ifodalovchi vositalar nutqiy jarayondan oldin yoki keyin voqelanganligini anglatadi. Masalan, *Bir kuni qattiq yomg‘ir yog‘ib, qishdan qolgan qorni eritib yubordi. (Abdulla Qahhor “Mahalla” hikoyasi).* Voqea sodir bo‘lgan vaqt bizga aniq bo‘lmasa-da, axborot uzatilishidan oldin sodir bo‘layotganligini anglashimiz mumkin. Nutqiy faoliyat jarayonida shunday deyktik birliklar qo‘llaniladiki, bular zamon deyksisini ochib beruvchi vositalar hisoblanadi. Ya’ni bu birliklar orqali biz nutqiy voqyelikning qaysi davr (zamon)da ro‘y berganligini fahmlab olishimiz mumkin.

Makon deyksisi. Voqelikning idrok qilinishi va bu idrokning lisoniy ifoda topishi ikki asosiy lisoniy – tafakkur harakatini talab qiladi: birinchidan, voqelik parchasini tavsiflash lozim bo‘lsa, ikkinchidan, uni ma’lum makonda joylashtirish talab qilinadi. Voqelikni tavsiflashda makon muhim hisoblanadi. Muloqot jarayonida uning ishtirokchilari egallagan o‘ringa ishora ma-

kon deyksisi mazmunini tashkil qiladi[4.171]. Nutqda joy nomi har doim ham o‘z nomi bilan atalmasligi mumkin. Chunki matn davomida bunga ehtiyoj sezilmaydi. Masalan, *Bu atrofda ko‘knor qolmadi-ku, olti oydan keyin nima bo‘ladi? Said Jalolxonni vahima bosdi. (Abdulla Qahhor “Bashorat” hikoyasi)*. Ushbu misolda keltirilgan *bu atrof* muallif oldindan ma’lum bo‘lgan makonga ishora qilyapti. Makon haqidagi aniq ma’lumot esa faqat kontekst orqaligina namoyon bo‘ladi. Makonga ishora qilinayotgan gaplarda, asosan, o‘rin ravishlari, ko‘rsatish olmoshlari qo‘llaniladi. Bu birliklar aniq makonning o‘rindoshlari hisoblanib, nutqiy jarayonda adresat va adresantgagina ma’lum bo‘ladi. Masalan, *bu yerning o‘zida unga Said Jalolxoni sohibqiron” deb nom berildi va va xon ko‘taribdi*. (*Abdulla Qahhor “Bashorat” hikoyasi*). Keltirilgan misoldagi *bu yer* muloqot vaziyatiga nisbatan nazarda tutilayotgan makon. Nutqiy faoliyat jarayonidagi makon deyksisini tahlil qilar ekanmiz, voqelikning so‘zlovchi egallagan o‘ringa nisbatan olinishini kuzatamiz.

Diskurs deyksisi. Bilamizki, diskurs – bu muloqot. Darak gaplarning bu turida adresant axborot uzatuvchi sifatida birinchi planga chiqadi. Tinglovchi esa axborotni qabul qiluvchi sifatida ikkinchi planga o‘tadi. Ma’lumotni qabul qiluvchi har doim ham reaksiyaga kirishavermaydi. Deyktik tavsifga ko‘ra, so‘zlovchi uzatayotgan ma’lumot ma’lum bir fazoviy vaqtda, aniq koordinatalar ostida yuzaga chiqar ekan, axborot matni ham shunga qarab tahlil qilinadi. Diskurs tahlil nutqiy muloqotni talab qilsa-da, biz asosan, tahlilni so‘zlovchi matni ustida olib boramiz. Va shu tahlil orqali so‘zlovchi-tinglovchining nutqqa munosabatini yuzaga chiqaramiz. Diskurs dyeksisida e’tiborga olinadigan narsa – bu anafora va deyktik iboralarning qo‘llanilishi va ular o‘rtasidagi farq. Anafora bir tushunchani qayta nomlashda qo‘llaniladi, ularning referenti olmoshlardir. Bu referentlar muloqotning oldingi qismiga ishora qiladi. Odatda, bu, o‘sha olmoshlari obyektning so‘zlovchiga yaqinligini, undan ajralmagan holda ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. Ammo diskurs deyksisida so‘zlovchining undan oldin aytgan gapiga ishora sifatida ham qo‘llanadi [6.175]. Masalan, – *Mana shuni tering orasiga tiqsang, ko‘zdan g‘oyib bo‘lasan. Sen hammani ko‘rasan, seni hech kim ko‘rmaydi. (Abdulla Qahhor “Bashorat” hikoyasi)* Bu berilgan misolda so‘zlovchi tinglovchiga bundan oldingi gapida “mana shu”ning nima ekanligi haqida ishora berib o‘tgan.

Sotsial deyksis. Deyksisning bu turi shaxsning ijtimoiy mavqeyi bilan bog‘liqdir. Shaxs muloqotining qay tartibda kechishi ham nutq jarayonida ijtimoiylikni ta’minlab beradi. “Suhbatdoshiga nisbatan bildirilayotgan munosabat yashirin yoki ochiq, ijobiy yoki salbiy, bevosita yoki bilvosita ko‘rinishlarga ega bo‘lishi”[7.67] sotsial deyksisni yuzaga keltiradi. Ijtimoiy tabaqaning barcha vakillari o‘z muloqot stiliga ega. Bu jins bilan, yosh bilan yoki ijtimoiy kelib chiqish bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Sotsial deyksisni ifodalaydigan belgilar grammatik vositalar (-lar fe’lning hurmat kategoriyasi shakli, shaxs olmoshlari uslubiy qo‘llanilishi, masalan, men o‘rnida biz, kamina, qulingiz kabi) va deyktik birliklar yoki iboralar (mamnuniyat bilan shuni aytishim mumkinki, shu narsa ayon bo‘ldiki kabi) bo‘lishi mumkin.

S. Levinson sotsial deyksisni ikki turga: mutlaq sotsial deyksis va nisbiy sotsial deyksisga ajratadi [6.68]. Mutlaq sotsial deyksis umummadaniy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, nisbiy sotsial deyksis milliy va mahalliy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ma’lum bir millatning urf-odatlarini aks ettiradi. Nisbiy sotsial deyksisni tilshunos Sh.Safarov tabu (evfemizm) shakllari bilan bog‘lab, qarindosh-urug‘chilik kabi tabaqalanishlar munosabatida suhbatdoshlar ijtimoiy mavqeyining grammatik tizimda aks etishini misol tariqasida keltirib o‘tgan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, deyksisning barcha turlari nutqiy faoliyatni mazmuniy tahlil qilishda va uni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Davlatova R. O‘zbek tilining deyktik birliklari: filol. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2020.

2. Hakimov M., Gazieva M. Pragmalingvistika asoslari. Darslik. FarDU. – Toshkent: “Classic”, 2020.

3. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Toshkent: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат и.н, 2008. – Б.153.

4. Safarov Sh. Kategorizatsiya i sopostavleniye yazikov //Buyuk ipak yo‘lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta’lim va madaniyat. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDChTI, 2020.

5. Янковская, Т. А. Проблема дейксиса в современном языкознании / Т.А.Янковская // Теоритические и методологические аспекты коммуникации: сборник научных трудов. Вып. 2 / Бел. гос. экон. ун-т, каф. межкульт. экон. коммуникации. – Минск: РИВШ, 2007. – 175 с.

6. Xujamkulova M.B. Sodda gapda kommunikatsiya va pragmatika munosabati. Monografiya. – Toshkent: 2023. – B.66.

GO‘ZAL QO‘ZIBOYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti Lingvistika (O‘zbek tili) mutaxasisligi I kurs magistranti

TILSHUNOSLIKDA FRAZEOLOGIK TADQIQOTLAR VA QODIRIY IJODIGA LINGVISTIK YONDASHUV

Annotatsiya: *Ushbu maqolada har bir xalqqa tegishli bo‘lgan milliy koloritini anglatuvchi frazema tushunchasining mohiyati, uning tilshunoslikda tutgan o‘rni, ochib berilgan. Shuningdek, maqolaning asosiy obyekti sifatida Abdulla Qodiriy ijodining lingvistik tadqiqi masalalariga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Frazemalar asosan, xalq turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyati bilan aloqadorligi va ularning lug‘at boyligini oshirishda, milliy koloritni aks ettirishda tutgan o‘rni izohlangan. Bundan tashqari frazeologik tadqiqotlar bugungi kungacha qanday holatda tahlil qilinganligi va qaysi jabhalari nuqtayi nazaridan ilmiy izlanishlar olib borilganligi haqida mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *frazema, lingvokulturologiya, badiiy tahlil, lingvistik tahlil, turkologiya, madaniy kolorit.*

Annotation: *In this article, the essence of the phrase meaning the national color belonging to each nation, its place in linguistics, is revealed. Also, as the main object of the article, the issues of linguistic research of Abdulla Qadiri’s work were specifically addressed. Phrasemes are mainly related to people’s way of life, worldview and culture, and their role in increasing vocabulary and reflecting national color is explained. In addition, comments were made about how phraseological research has been analyzed to date and from the perspective of which aspects scientific research has been conducted.*

Keywords: *phrasal verbs, linguoculturology, artistic analysis, linguistic analysis, Turkology, cultural color.*

Hozirgi kun tilshunosligida frazema va uning tuzulishi, frazeologiya fan sifatida, frazeologizmlarning shakl va ma’no xususiyatiga ko‘ra turlarini o‘rganish, tahlil qilish dolzarbligicha qolmoqda. Shu kungacha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar uning nazariy tomonlarini o‘rgangan bo‘lsa – ya’ni ilmiy va sohaviy tarzda yaratilgan lug‘atlarni keltirishimiz mumkin. Frazemalarni bugungi kunda badiiy asarlar, hayotiy misollar yordamida amaliy jihatlarini o‘rganish dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Bundan tashqari frazemalar ma’noviy jihatdan anglashilganligi bois uning inson ruhiy olamiga ta’siri ham psixolingvistika va yangi lingvistik yo‘nalishlar doirasida o‘rganish fanning sohalaridan bo‘lib qolmoqda.

Jahon tilshunosligida frazemalarning o‘rganilish tadqiqotlariga qaraydigan bo‘lsak, yozma manbalarda qo‘llangan frazemalarni yig‘ish va ularni tadqiqotlarda olib borish jarayoni sinxron va diaxron aspektlarda o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan va bu jarayon davom etmoqda. Frazemalar dunyo adabiyotida, madaniyatida, qadriyatlarida o‘z o‘rniga ega. Bu kabi tadqiqotlarga misollar keltirsak: Fransuz frazeologiyasini diaxron aspektda o‘rgangan A.G.Nazaryan tadqiqotlarida o‘rta asrlarda fransuz frazeologiyasi paremiologiyalardan iborat

ekanligini qayd etgan. Bu izlanishlar bugungacha davom etib kelmoqda. R.Saidov, R.Shanayev kabi olimlar xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi frazemalarning uslubiy xususiyatlari, milliy o‘ziga xosligi dialektlardagi frazemalarning ma’no munosabatlari fikr yuritilgan bo‘lsa, I.Y.Lepeshev, A.Nekrasova, M.A.Bakina, G.Lomov, N.Fomina alohida ijodkorlar asarlaridagi frazemalarning asar obrazini ochishdagi o‘rni va ijodkor mahoratiga e’tibor qaratdilar.

Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma’lumotlar manbayi sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlari, ma’naviyati, axloqi haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi. Mashhur rus tilshunosi B.A.Larinning ta’kidlashicha, “Frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o‘z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi”. Bu borada rus tilshunosi V.A.Maslova frazeologizmlarni tahlil qilib, ular haqida quyidagi gipotezani ilgari suradi:

1. Frazeologizmlarning aksariyatida aniqlanishi lozim bo‘lgan milliy madaniyatning “izi” mavjud.

2. Frazeologik birliklarning ichki shaklida obyektiv olamning u yoki bu hodisalarini obrazli tasavvuri bo‘lgan madaniy informatsiya saqlanadi va u frazeologizmga madaniy-milliy bo‘yoq beradi.

3. Madaniy-milliy o‘ziga xoslikni aniqlashda madaniy-milliy konnotatsiyani ochish juda muhimdir [7.].

Dunyo tilshunosligida, shu jumladan turkologiyada 20 – asrdan boshlab ko‘plab tadqiqotlarning obyekti bo‘lmish frazeologiya, “gizli dövrünü” ya’ni, “yashirin davr” – bu tilshunoslikda o‘rganilmaganligini ifodalab kelmoqda, bu davrni oxiriga yetkazib, tilshunoslikda yangi mustaqil soha bo‘limi bo‘lib shakllanishni boshladi. Keyingi yillarda bu sohada jadal izlanishlar olib borilgan bo‘lsada, frazeologik birliklar uning xarakteri va mohiyati boshqa til birliklaridan farq qiladi bog‘lanish va munosabat, leksik-semantik xususiyatlar bahsli nuqtalar hali ham qolmoqda [15.197].

Yozuvchi va shoirlar yaratgan asarlarning tilini o‘rganish, ularning adabiy tildan, uning boy imkoniyatlaridan qay darajada mahorat bilan foydalanganliklarini tadqiqotlar yordamida ochib berish, ayniqsa tilning eng muhim birliklaridan biri hisoblangan frazemalarning badiiy asarda qo‘llanishini kognitiv-konseptual xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida frazemalarning turli xil ko‘rinishlarda qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda tahlil qilingan asar davridan oldin qo‘llanilgan frazemalarning keyingi davrlarda yaratilgan asarlarda shakli o‘zgargan holda, yangi ma’nolar ifodalaganligini ko‘rishimiz mumkin. Magistrlik dessertatsiyasini yozishdan maqsad ham Abdulla Qodiriy asarlarida uchratishimiz mumkin bo‘lgan barcha frazemalarni ajratgan holda ularni linvokulturologik jihatdan ya’ni frazemalarning kognitiv-konseptual xususiyatlarini ham amaliy ham nazariy jihatlarini ochib berishdan iborat. Bugungacha Abdulla Qodiriy asarlaridagi frazemalar tadqiqi birmuncha o‘rganilgan bo‘lsa ham, badiiy asarlardagi frazemalarning kognitiv-konseptual xususiyatlari doirasida o‘zbek tilshunosligida hali tadqiqot qilingan emas. Shunday ekan tadqiqotimizning asosiy alohida ahamiyat kasb etadigan maqsadi ham Abdulla Qodiriy asarlaridagi frazemalarning kognitiv-konseptual xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review). XX asrning boshlarida frazealogiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida o‘rganila boshlangan. Frazeologiyaning umumnazariy masalalari dastlab fransuz tilshunosi Sh. Balli tomonidan o‘rganilgan. Sh. Balli o‘z asarlarida so‘z birikmalarini sistemlashtirishtirib, anglatgan ma’nolari va sintaktik o‘ziga xosligidan kelib chiqadigan, yaxlitligicha qo‘llanadigan turg‘un birikmalarni frazeologizmlar deb ataydi. Sh. Balli frazeologizmlarni semantik hodisa deb qaraydi va semantik xususiyatni frazeologizmlarning mutlaq belgisi deb hisoblaydi [18. 6]. Turkiy frazeologiyaning boshlovchilari

turkiyshunos olimlar S.K.Kenesboyev va Sh.U. Rahmatullayevlar hisoblanishadi. Ularning o‘tgan asrning 40-yillarining ikkinchi yarmi va 50-yillarda yuzaga kelgan tadqiqotlari turkiy tillar frazeologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida katta rol o‘ynaydi. Shundan keyingi 30-40 yil mobaynida turkiy tillardagi frazemalarni intensiv o‘rganish bo‘yicha muhim yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bu davrda S.N.Muratovning “Turkiy tillarda turg‘un so‘z birikmalari”, kabi ishlari yaratildi. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etishni birinchi bo‘lib, Sh. Rahmatullayev boshlab bergan bo‘lib, olimning 1966-yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi va “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli monografiyasida frazeologizmlarning grammatik tabiati keng ko‘lamda ilmiy tahlil qilingan. Olimning ilmiy tahlilining muhim ahamiyati, bu asarda frazeologizmlar lug‘aviy birlik sifatida o‘rganilishi zarur ekanligi asoslab beriladi. Monografiyada tahlil qilingan fikr-mulohazalar, xulosalar frazeologizmlarni semantik, grammatik stilistik jihatidan o‘rganishga imkoniyat yaratdi.

Rus tilshunosligida bo‘lgani singari turkiyshunoslikda ham frazeologiya doirasini tor va keng ma’noda tushunish hamon davom etib kelmoqda. Jumladan, akademik S.K.Kenesboyevning fikricha, frazeologiya doirasiga keng ma’noda barcha turg‘un birikmalar (maqollar, matallar, idiomatik birikmalar, turg‘un ideomatik guruhlar) kiradi. Ularni birlashtiruvchi umumiy xususiyat turg‘unlik va tilda tayyor holda mavjudligidir. Frazeologiya obyektini tor ma’noda tushunishning faol tarafdorlaridan biri, yirik turkiyshunos A.A.Yo‘ldoshev edi. U frazeologiya obyekti tor doirada tushunilsa, “Frazeologiyaning o‘rganish doirasi aniqroq namoyon bo‘ladi, undan haqli ravishda bo‘linmas leksik birliklar, jumladan maqol, matal, hikmatli so‘z va aforizmlar chiqib ketadi, chunki ular struktura jihatdan yaxlit holda qo‘llanuvchi sintaktik birliklardir”, – degan fikrni olg‘a suradi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasida ko‘pgina ishlar amalga oshirilgan, biroq frazemalarning lingvimadaniy jihatidan olib borilayotgan tadqiqotlar yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli biz tadqiqot ishimizda olingan Abdulla Qodiriy asarlaridagi frazemalar tadqiqini lingvokulturologik jihatdan, frazemalarning kognitiv-konseptual tadqiqini tahlil qildik. Bu jihatdan frazemalar bugungacha Sh.Rahmatullayev, X.Qahhorova, A.Mamatov, Sh.Almatov kabilarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Lingvokulturologik tahlillar doirasida V.A.Maslova, D.Xudoyberganova, M.Yo‘ldoshev kabilarni keltirishimiz mumkin. Tadqiqot mavzuyimizda olingan manba yuzasidan frazeologik jihatdan ilmiy izlanishlar olib olib borilgan bo‘lsa ham uning lingvikulturologik jihati bo‘yicha tadqiqot ishlari mavjud emas.

Tadqiqot mavzusini yoritishda tahlil qilish, frazemalarni analiz qilish, komponent tahlil metodlari, qiyoslash va statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma’lumotlar manbayi sanaladi. Ularning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlari, ma’naviyati haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi. Abdulla Qodiriy asarlaridagi frazemalarini kognitiv-konseptual tadqiq qilishning nazariy ahamiyati ham milliy madaniy kodni, milliy fonni ochib berishdan iborat. Tadqiqotning amaliy natijalari orqali frazeologik lug‘atlarda o‘zgartirish yasash va bir yozuvchi asarlariga doir frazeologik lug‘atlar yaratish, lug‘at boyligimizni oshirishdan iborat. Tadqiqot natijasidan leksikologiya, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik kabi sohalarini o‘qitishda foydalanish mumkin.

Jamiyat rivojlangani sari xalqning madaniy darajasiga katta ta’sir ko‘rsatadigan unsur bu – uning tilidir. Madaniy hayotning rivoji avvalo, jamiyat a’zolarining o‘zaro so‘zlashuvida va bu jarayondagi tilning qanday holatda ekanligiga bog‘liq. Shuni alohida qayd etish o‘rinliki, har qaysi davrning so‘zlashuv tili va shu davrda foydalanilgan so‘zlar bo‘ladi. Bu qolip va so‘zlar

boshqa bir davrda uchramasligi va yoki unga qo‘shimcha so‘zlar va yangicha ma’nolar yuklanishi oqibatida o‘zgarishi mumkin. Buning barchasi tilning taraqqiy etayotganiligini belgilab beradigan omillardir. Masalaga ilmiy nuqtayi nazar bilan qaraydigan bo‘lsak, so‘z san’atkorlari tomonidan yaratilgan asarlar o‘sha davr tilining holatini va undagi so‘zlar davr qolipidagi grammatik birliklarni anglatadi. Shuni alohida aytish o‘rinliki, yozuvchi, shoirlar g‘oyaviy va badiiy saviyadagi asarlari bilan birinchidan adabiyotimizning boyish manbayi hisoblanadi, ikkinchidan asar yaratilayotgan davrning holati va g‘oyalarini o‘zida aks ettiradi, uchinchidan esa badiiy asar tili orqali adabiy tilining boyishi va davr nuqatayi nazaridan tilning ham garammatik ham sintaktik-semantik holatlarini ham o‘zida aks ettiradi. Haqiqatdan ham adabiy tilining shu kunga qadar shakllanishida so‘z ustalari – yozuvchi, shoirlarimizning hissasi beqiyos.

Tahlil qilingan asar davridan oldin qo‘llanilgan frazemalarning keyingi davrlarda yaratilgan asarlarda shakli o‘zgargan holda, yangi ma’nolar ifodalaganligini ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar asarida” ***“tushiga kirmoq”*** frazemasining yangicha ma’no ifodalangan holatini ko‘rishimiz mumkin. Bunda yozuvchining mahorat bilan “tushiga kirmoq” iborasiga ***“to‘y”*** so‘zini biriktirish orqali yangidan bir ibora hosil qilgan. Qodiriy hammaning birdan to‘y taraddudiga tushib qolganligini mohirona tasvirlab, “Kumushbibi uyqudan turib favqulodda bir holga uchraydi: bir kechada hammaning tushiga to‘y kirib chiqqan” Gapdagi “hammaning tushiga to‘y kirib chiqqan” jumlasi “tush ko‘rmoq” jumlasidan ancha farq qiladi. Bunda barcha oila a’zolari to‘yga tayyorgalik boshlaganidan xabar berilgan. Bunda ***“tushiga to‘y kirmoq”*** iborasini yangi ma’noda ifodalaganligini ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan, badiiy asar tilini o‘rganish, undagi til birliklari barchasi davr holatidagi til taraqqiyotiga katta hissa qo‘shuvchi omil ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Badiiy asarni lingvistik aspektda tadqiq qilish, uning tiliga munosabat bildirish, uni badiiy – uslubiy jihatdan o‘rganish ancha yillardan buyon davom etib kelmoqda. O‘zbek tilshunosligida bugungi kunga qadar Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oybek, G‘afur G‘ulom, Oydin Hojiyeva, Zulfiya, Komil Yashin Maqsud Shayxzoda, Shuhrat, Said Ahmad, Muhammad Yusuf, Tog‘ay Murod kabi XX asr o‘zbek shoir va asarlarida qo‘llangan frazemalarning ustida ma’lum darajada tadqiqot olib borilib, ilmiy ishning asosiy obyekti sifatida tadqiq etilgan. Mumtoz adabiyotimiz vakillaridan Alisher Navoiy va Bobur asarlaridagi frazemalar ham tadqiq etilgan.

Abdulla Qodiriy ijodini lingvistik tadqiq qilgan olima H.Kahhorova Abdulla Qodiriy asarlaridagi frazemalarni uch guruhga ajratadi:

1. Leksik variantlar
2. Grammatik variantlar
3. Iboraning to‘liq va qisqa variantlari. Bu tadqiqotlar davomi sifatida Z.Choriyeva A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani maktublarida 600 dan ziyod frazemalarni qayd etib, bu frazemalarni

1. Sinonim iboralar
2. Antonim iboralar
3. Omonim iboralar
4. Grammatik iboralar
5. Muallif qalamiga mansub iboralar

Kabi guruhlarga ajratadi va bu tasnifda bir xil tamoyilga amal qilinmagani kuzatiladi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining lingvistik tadqiqi bo‘yicha izlanishlar olib borgan L.Jalolovaning qayd etishicha, XX asrning 20-30-yillari o‘zbek milliy adabiy tilining shakllanishi va takomili uchun uchta manba mavjud edi:

1) arabiy va forsiy so‘zlar, izofalar keng qo‘llanilgan holda rivojlanib kelayotgan klassik o‘zbek tili;

2) usmonli turk, tatar tillari ta’sirida shakllanayotgan o‘sha zamonning rasmiy, badiiy-publitsistik tili;

3) asrlar davomida shakllanib, o‘z takomilini topgan, sodda va tushunarli bo‘lgan xalq jonli tili.

O‘zbek tili tarixiy taraqqiyotida ham 20-30-yillar holati eski o‘zbek tilidan hozirgi o‘zbek tiliga o‘tish davridagi oraliq holatni ifodalaydi. Bu davr tilida eski o‘zbek tiliga xos belgilarning saqlanishi bilan birga, hozirgi o‘zbek adabiy tili me’yorlarining shakllanish jarayoni ham namoyon bo‘lgan. Xuddi ana shu jarayon Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida o‘z ifodasini topgan [14. 41].

t/r	**asarda uchragan frazemalar**	**ularning ma’nosi**	**variantlari**
1	yuragini bo‘shatmoq	dardlashmoq, gapirmoq	yuragini ochmoq, ichini bo‘shatmoq, yuragini to‘kib solmoq
2	to‘rdan joy tegmoq		
3	qopqora terga tushmoq	ko‘p- ko‘p terlamoq, hayajonlanmoq	qora terga tushmoq
4	ko‘z oldida ko‘rmoq	eslamoq, xotirasida tiklamoq	xayolidan o‘tkazmoq
5	kunini o‘tkazmoq	vaqti o‘tmoq, tirikchilik qilmoq	kun kechirmoq umr o‘tkazmoq

Hozirgi kun tilshunosligida frazema va uning tuzilishi, frazeologiya fan sifatida, frazeologizmlarning shakl va ma’no xususiyatiga ko‘ra turlarini o‘rganish, tahlil qilish dolzarbligicha qolmoqda. Shu kungacha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar uning nazariy tomonlarini o‘rgangan bo‘lsa – ya’ni ilmiy va sohaviy tarzda yaratilgan lug‘atlarni keltirishimiz mumkin. Frazemalarni bugungi kunda badiiy asarlar, hayotiy misollar yordamida amaliy jihatlarini o‘rganish dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Bundan tashqari frazemalar ma’noviy jihatdan anglashilganligi bois uning inson ruhiy olamiga ta’siri ham psixolingvistika va yangi lingvistik yo‘nalishlar doirasida o‘rganish fanning sohalaridan bo‘lib qolmoqda. Masalaga shu nuqtayi nazardan qaraganda so‘z san’atkorlari tomonidan yaratilgan durdona asarlar tilini o‘rganish, ularning adabiy tildan, uning boy imkoniyatlaridan qay darajada mahorat bilan foydalanganliklarini o‘rganish hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ayniqsa, tilning eng muhim birliklaridan biri hisoblangan frazemaning badiiy asarda qo‘llanishining, yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, badiiy nutqda tutgan o‘rnining tahlilga olish, badiiy asar tili asarning asosiy qimmatini belgilovchi faktor ekanligini ko‘rsatadi.

Frazema – ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalarning umumiy nomi. Frazemalar shaklan o‘zlariga o‘xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so‘zlarni erkin tanlash, almashtirish yo‘li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma’no va muayyan leksik grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo‘llanadi, ya’ni frazema (turg‘un birikma) tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas: qozonini qaynatmoq, og‘irini yengil qilmoq, oyog‘iga bosh qo‘ymoq, madrasa changini yegan[19.163-239], va boshqa frazemalar tarixiy qo‘llanish me’yor va usullariga ega bo‘lib, ularning ma’nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi. Badiiy asarlarda frazemalardan foydalanish ifoda ma’nosini kengaytirish, va berilayotgan obyektni to‘laqonli ifodalashga yordam beradi. Misol uchun bittagina “quvonmoq” so‘zini badiiy asarda “sevinchdan quvondi” deb ifodalashdan ko‘ra “og‘zi qulog‘ida” singari frazemalardan foydalanish asarning badiiy saviyasini ham, asarda berilayotgan voqeaning ham jonliroq tarzda ifodalanishiga yordam beradi. Bunda “og‘zi qulog‘iga yetdi” iborasida kulish, mamnun bo‘lish

kabi ma’no semalari anglashiladi. Frazemalar zamiridagi bunday obrazni boshqa nuqtayi nazardan izohlash, ifoda planning kengligi va obraz yoki bu obrazning biror xususiyatini kengroq yoritishga yordam beradi.

Frazema til qurilishining lug‘at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo‘lib, birdan ortiq leksemaning o‘zaro semantik-sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo‘ladi, shunga ko‘ra tuzilma segment birlik deyiladi; sintaktik tuzilishi jihatidan birikmaga, gap shakliga teng bo‘lib, odatda nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihati bilangina emas, mazmun jihati bilan ham farq qiladi. Adabiyotlarda ushbu til birligi frazeologizm, frazeologik birlik kabi terminlar bilan ataladi; leksema, morfema terminlariga monand ravishda frazema deb atalishi ma’qul. Frazemalar o‘rganiladigan sohani esa frazemika deb nomladik (adabiyotlarda frazeologiya termini qo‘llaniladi) [20. 418].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: 2008.

2. Abdurauf F. Saylanma. – Тошкент: Zabarjad media, 2022. – B. 163-239.

3. Джалолова Л.О. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз ... дисс... автореф. – Т., 2007.

4. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Тошкент: Talqin, 2005.

5. Жуманазарова Г. Фраземаларнинг нутқда қўлланилиши. – Тошкент: Турон замин-зиё, 2017. – Б. 6.

6. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри дисс. ... автореф. – Тошкент: 2000.

7. Маматов А.Э., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг семантикпрагматик тадқиқи. Монография. – Тошкент: Наврўз, 2019.

8. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). Тошкент: Наврўз, 2019.

9. Маслова В. А. Лингвокультурология. – Москва: 2001.

10. Mirzəliyrva M.Türk dıllərının frazeologiyasi. I jild. – B.: Nurlan nashriyoti, 2009.

11. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. М., 1987. – С. 288.

12. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Тошкент: Universitet, 2006. – B. 418.

13. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 406.

14. Саидов Р. Фразеология таджикскский поезия: На основе эпоса Гургли. Дисс... док. филол. наук. – Душанбе: 1997;

15. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. д-ри дисс. Тошкент, 2010.

16. Қодирий А. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2019.

17. Каххарова Х. Фразеологи Абдулла Кадири. АКД. – Тошкент: 1985. – Б 246.

18. Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, ЎзР ФА ТАИ, 2015.

19. Шанаева Р. Фразеология осетинских народных сказок: Дисс... канд. филол. наук. – Владикавказ, 2002.

20. Чориева З.Т. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2006.

KAMALBAY PALÍMBETOV,
Filologiya fanlari doktorı, dotsent
O‘zR FA Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutı, Nukus

FOLKLORSHUNOS KENESBOY ALLAMBERGENOVNING IJOD OLAMI

JAZIWSHI HÁM ILIMPAZ KEŃESBAY ALLAMBERGENOVTIŃ DÓRETIWSHILIK DÚNYASI

Аннотация: *В данной статье освещается творческий путь писателя, драматурга и ученого Кенесбая Алламбергенова. Исследованы его первые шаги в литературе, начиная с работы в жанре детской литературы, и его постепенное превращение в одного из ведущих авторов каракалпакской литературы. Особое внимание уделено его рассказам, повестям, романам и драмам, в которых он отражает важные аспекты человека и природы, экологические и социально-бытовые вопросы.*

Кроме того, проанализировано значимое влияние его научных исследований в области каракалпакской литературы и фольклора, подчеркнут вклад автора в развитие каракалпакской фольклористики.

Ключевые слова: *писатель, ученый, драматург, литературное творчество, фольклор, эпос.*

Abstract: *This article is dedicated to the creative journey of Kenesbay Allambergenov, a writer, playwright, and scholar. It explores his early forays into literature, starting with his work in children's literature, and his gradual evolution into one of the leading authors of Karakalpak literature. Special attention is given to his short stories, novellas, novels, and dramas, in which he reflects on important aspects of human nature, ecology, and socio-domestic issues.*

Furthermore, the significant impact of his scholarly research in the field of Karakalpak literature and folklore is analyzed, emphasizing his contribution to the development of Karakalpak folklore studies.

Keywords: *writer, scholar, playwright, literary creativity, folklore, epic.*

Filologiya ilimleriniń doktorı, professor, Qaraqalpaqstan Xalıq jazıwshısı, Berdaq atındaǵı mámleketlik sıylıqtıń laureatı Keńesbay Allambergenov keń jámiyetshilikke ádebiyatshı, folklortanıwshı ilimpaz, talantlı kórkem sóz sheberi, jazıwshı, dramaturg, ustaz-pedagog sıpatında tanılǵan insanlardıń biri boldı.

K.Allambergenov 1954-jılı 7-noyabrde Qaraqalpaqstan Respublikası Qaraózek rayonında tuwılǵan. Ustaz aramızda bolǵanında bıyıl 70 jıllıq yubiley toyın belgilegen bolar edik.

Ustaz Keńesbay Allambergenovtıń ómir jolındaǵı miynetkeshliginen, pidayılıǵınan, ilim-bilimge qushtarlıǵınan, ásirese ilimdi, ádebiyattı, kórkem ónerdi súyip islegen dóretiwshilik pazıyletlerinen qálegen insan, ásirese búgingi áwlad úlgi alsa arzıydı. Ustaz-ilimpazdıń qáleminen

bir neshe monografiyalar, ádebiyatımızdıń qos bayteregi Ózekstan qaharmanları jazıwshı T.Qayıpbergenov, shayır I.Yusupov haqqında portretlik izertlewi, Joqarı oqıw orınları studentleri ushın úlgi baǵdarlamalar, sabaqlıqlar, oqıw hám metodikalıq qollanbaları, ulıwma bilim beriw mektepleri ushın sabaqlıqlar, jámi 300 den aslam ilimiy maqalaları baspa sózde járiyalandı. Kórkem ádebiy dóretiwshilik tarawında 3 roman, atap aytqanda "Dárya tartılǵan jıllar", "Dárbent", "Ómir máwritleri" hám "Altın qazıq" atlı roman-essesi, kóplegen povestleri, gúrrińleri, 2 draması hám bir neshe ocherkleri basılıp shıqtı.

K.Allambergenov dáslep óz dóretiwshiligin jazıwshılıqtan basladı. Ol ótken ásirdiń 70-jılları ádebiyatqa balalarǵa arnalǵan gúrrińleri menen kirip keldi. Ómirdi, turmıstı kúndelikli baqlawları tiykarında sezgenlerin, oy eleginen ótkerip, jazıwshılıq kórkem qıyalı menen Respublikalıq "Jetkinshek" gazetası betlerinde "Saz shertken bala", "Bórshi tawdıń balaları", "Dáslepki bes", "Shólde de suw boladı", "Eki tayınshaq", "Mıltıq", "Qus haqqında ertek", "Bir hasıl iyt edi ol", "Saǵınısh", "Jáne báhár keledi", "Qaǵazdaǵı qala" sıyaqlı súwretleme, ocherk, gúrriń, áńgimeleri menen kishkene oqıwshılardı zawıqqa bólep, qaraqalpaq balalar ádebiyatınıń bayıwına óziniń úlesin qostı. Jazıwshınıń "Dáslepki bes" atlı gúrrińi 1972-jılı ózbek tiline awdarılıp, "Gúlxan" jurnalında járiyalandı.

Jazıwshınıń qáleminen dóregen kórkem shıǵarmalardıń tematikasına názer taslaǵanımızda, olarda tábiyat, insan, ekologiya mashqalaları kóbirek sóz etilgenin ańlaymız. Mısalı, "Jer monologı" (1974) gúrrińinde insan hám tábiyat arasındaǵı quramalı hám sırlı qatnasıqtıń názik tárepleri ashıp beriledi. Gúrrińdegi Ana-jer (Aq tóbe), Aq qozı, Xojabay obrazları arqalı jazıwshı adam hám tábiyat birliginiń, uyǵınlıǵınıń qúdiretli kúshin kórsetiwge háreket etken. Al, "Kúshik hám bala" (1976) gúrrińinde bolsa bul birliktiń buzılıw aqıbetleri, tragediyası kórsetilgen.

1975-79-jılları "Ámiwdárya" jurnalı menen "Jas Leninshi" (Házirgi "Qaraqalpaqstan jasları") gazetasınıń betlerinde "Aq basqur", "Shuǵla", "Ala sıyır", "Nurlı shıń", "Názik nurlar", "Máwsimsiz neke", "Ubıjıq", "Eski nama", "Iza" usaǵan bir qatar gúrrińleri jarıq kórdi. Bul gúrrińler jazıwshı dóretiwshiliginiń tek ǵana san jaǵınan bayıp baratırǵanlıǵın kórsetip qoymastan, sheberlik hám talapshańlıq dárejesiniń artıp, shıǵarmalarında bolsa psixologiyalıq súwretlew usıllarınıń tereńlesip atırǵanlıǵın jáne bir mártebe tastıyıqladı. Mısal ushın onıń "Aq basqur" (1977) gúrrińin alıp qarayıq. Bul gúrrińniń ideyalıq-kórkemlik dárejesiniń joqarılıǵın "Ámiwdárya" jurnalı (1977), "Jaslıq" (1978) toplamı menen "O'zbekiston adabiyoti" (№15, 13-aprel 1984) gazetasında, "Jalın" (№6, 1990) jurnalında ózbek, qazaq tillerinde, sonday-aq avtordıń jeke toplamı menen XI klass oqıwshıları ushın arnalǵan "Qaraqalpaq ádebiyatı" xrestomatiyasında qayta-qayta jarıq kóriwi menen bir qatarda, T.Qayıpbergenov, Sh.Seytov, I.Qurbanbayev, Á.Atajanov, S.Axmetov, S.Bahadırova, Q.Kamalov, I.Ótewliev, K.Qurambayev, B.Qurbanbayev usaǵan jazıwshı hám ilimpazlardıń gazeta-jurnallarda járiyalanǵan unamlı pikirleri de dálillep turadı.

Jazıwshınıń keń oqıwshılar jámiyetshiligine belgili bolǵan "Quslar qaytqan kún", "Qıyın ótkel" atlı gúrrińler hám povestler toplamları Jas jazıwshılardıń Tashkent, Moskva qalalarında ótkerilgen seminarlardıń jeńimpazı boldı hám usı shıǵarmaları ushın K.Allambergenov Qaraqalpaqstan Jaslar awqamı sıylıǵınıń laureatı sıylıǵın alıwǵa miyasar boldı.

K.Allambergenov 1976-jılı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutın pitkergennen soń qálemi ısılǵan talantlı jazıwshı sıpatında iri sociallıq problemalardı sóz etiwge, joqarı ideyalıq-kórkemlik sapalılıqtı iyelewge umtıldı. Jazıwshınıń alǵa talpınıwı, dóretiwshilik izleniwi onı iri jámiyetlik máselelerdi qozǵaytuǵın, keń planlı, hár túrli táǵdirdegi qaharmanlardıń kórkem obrazların súwretlep beretuǵın "Dárbent" (1985), "Ómir máwritleri" (1987), "Dárya tartılǵan jıllar" (1992) romanları mine usınday dóretiwshilik ilhamınıń jemisleriniń biri boldı. Anıǵı, bul romanlar jazıwshı K.Allambergenovtı sheberligi jetilisken tájiriybeli qálem iyesi retinde jámiyetshilikke tanıttı.

1983-jılı “Dárbent” atlı tuńǵısh romanı menen Qaraqalpaqstan Jazıwshılar awqamı, Kásiplik hám Jaslar awqamı shólkemleri menen birlikte járiyalanǵan “Miynet estafetası” konkursınıń laureatlıǵın jeńip aldı. Bul romannıń tematikası ótken ásirdiń 80-jıllarındaǵı orta arnawlı kásip-texnikalıq bilimlendiriw turmısınan alıp jazılǵan. Romannıń qaharmanları Azamat penen Tazagúl kásip-texnikalıq bilim beriw tarawındaǵı ayırım kemshiliklerge qarsı gúres alıp baradı. Al, “Ómir máwritleri” romanı da sol dáwirdegi zamanlaslar turmısınan alınıp, kúndelikli turmıstıń xarakterli bir momentlerin óziniń belsendiligi menen jámiyetlik poziciyasına iye jas intellegenciya wákili Sultan Saparovtıń obrazı tiykarında ashıp beriledi.

Bunnan sońǵı jazıwshınıń “Dárya tartılǵan jıllar” romanı oqıwshılarıń qızıǵıwshılıǵın oyattı. Roman tek ǵana temasınıń aktuallıǵı menen emes, al onda dáwir haqıyqatlıǵına tán milliy xarakterdiń jaratılǵanlıǵı, zamanlaslar ushın áhmiyetli máseleniń kóterilgenligi menen oqıwshılar kewlinen jay aldı. Shıǵarmada Aral teńiziniń qurıwına sebep bolǵan jaǵdaylardıń sociallıq tamırları tereń ashıp taslanadı. Álbette, jámiyet tek nápak insanlardan ibarat emes edi. Húydanlı, hadal, iymanlı adamlarda bar eken. Jazıwshı, áne, usınday adamlardıń toparına tán qásiyetti romanda Nazar atanıń obrazına jámlep beredi. Nazar ata húydanı taza, tábiyattıń shın berilgen qorǵawshısı, baǵ jaratıp kóbeytip, xalıqtıń parawan jasawına shın kewilden xızmet islewge bel baylaǵan adam. Biraq, atanıń bul qayırlı isi tezden iske aspaydı. Ol jaratqan baǵ zorabanlar tárepinen qoparıp taslanıp, ornına paxta, salı egiledi. Bul biybastaqlıq Nazar atanı qattı qıynaydı, ómirine zıyan tiygizedi.

Atası baslaǵan qayırlı isti jalǵastırıw aqlıǵı Jalǵastıń moynına shógedi. Ol oqıp, bilim alıp, tergewshi kásibinde isleydi. Atasınıń iske aspaǵan ármanın iske asırıwǵa kirisedi, tábiyattı qurtıwshılarǵa qarsı gúresti baslaydı. Baylıǵın arttırıw jolında qıńır is islegenlerge kómekshi bolǵanlardıń qılwasın áshkaralaydı. Usı romanı ushın jazıwshı Qaraqalpaqstan Respublikası Berdaq atındaǵı mámleketlik sıylıqtıń lauraetı ataǵın alıwǵa miyasar boladı.

Onıń kórkem ádebiy dóretiwshilik talantı esapqa alınıp 1984-jıldan Ózbekstan hám Qaraqalpaqstan Jazıwshılar awqamınıń aǵzalıǵına qabıl etiledi.

Kórkem sóz ustası jazıwshı K.Allambergenovtıń qáleminen dóregen ádebiy shıǵarmaları oqıwshılar qálbinen tereń orın alıp, bir qansha shıǵarmaları ózbek, qazaq, noǵay, rus, tillerine awdarılıp járiyalandı. Al, Turkiyanıń Ankara qalasında 2003-jılı “Dárya tartılǵan jıllar” romanı “Qaraqalpaq ádebiyatınıń antologiyası”nda járiyalansa, bir qatar gúrrińleri 2023-jılı “Seçme Hikâyeleri (Inceleme-Metin-Aktarma)” degen atamada jarıq kórdi.

K.Allambergenovtıń usınday jazıwshılıq talantına qosa, qaraqalpaq ádebiyatı menen folklortanıw ilimine bolǵan qızıǵıwshılıǵı, ilimiy-izertlew jumısı menen shuǵıllanıwına alıp keledi hám 1979-82-jılları Nókis mámleketlik universitetiniń aspiranturasına kirip oqıydı.

Ilimpazdıń ilimiy iskerligi haqqında maqalalar jazǵan professor K.Qurambaev: “K.Allambergenov ilim jolındaǵı dáslepki qádemlerin qaraqalpaq folklorın úyreniwden basladı” [1.22], – dep durıs belgilep ótedi, Haqıyqatında da, 1979-82-jılları Nókis mámleketlik universitetiniń aspiranturasında oqıǵan bolajaq ilimpazdıń ilimiy-izertlew jumısınıń teması, qaraqalpaq ádebiyatında erte dáwirlerden-aq qáliplesken kóp ásirlik rawajlanıw tariyxına iye aytıs janrı boladı. Sebebi, qaraqalpaq ádebiyattanıw ilimi ushın erteden-aq kórkem sózge, poeziyaǵa qábiletli, talantlı adamlardaǵı improvizatorlıq talant, tókpe shayırlıq tiykarında bolıp ótetetuǵın aytıstıń ózine tán tábiyatın izertlew oǵada áhmiyetli edi. Shayırlar arasında awızeki túrde bolıp ótetuǵın sóz jarısı “aytıs” – folklortanıw iliminiń bir janrı sıpatında álle qashan-aq qáliplesken edi. K.Allambergenov usınday izertleniwi tiyis aktual tema boyınsha 1985-jılı “Qaraqalpaq ádebiyatında aytıs janrı” degen temada kandidatlıq dissertaciyasın jaqlaydı hám filologiya ilimleriniń kandidatı ilimiy dárejesine iye boladı. Usı kandidatlıq dissertaciyasınıń juwmaǵı tiykarında “Qaraqalpaq ádebiyatında

aytıs” (Nókis, “Qaraqalpaqstan”, 1989) monografiyasın baspadan shıǵaradı. Sol jılları qaraqalpaq ádebiyattanıwında aytıs haqqında aytılǵan ulıwma pikirlerdiń orın alǵanı bolmasa, al ulıwma aytıstı, sonıń ishinde shayırlar aytısın jeke alıp izertlegen, janrlıq, ideyalıq-kórkemlik ózgeshelikleri izertlengen disertaciyalıq yamasa monografiyalıq miynetler XX ásirdiń 80-jıllarında derlik joq edi. K.Allambergenov usı máselede tek qaraqalpaq ádebiyatı ǵana emes, al qazaq, qırǵız, ózbek, túrkmen sıyaqlı qońsılas xalıqlar ádebiyatındaǵı aytıs janrın salıstırmalı úyrenip, óziniń ilimiy juwmaqların bildiredi. Shayırlar aytısınıń ózgeshelikleri payda bolıwı menen rawajlanıwınıń tiykarǵı baǵdarların tariyxıy-teoriyalıq jaqtan ashıp beredi. Ilimpaz izertlewinde aytıstıń áyyemgi dáreklerin anıqlap, qaraqalpaq ádebiyatındaǵı shayırlar aytısı shıǵıs penen batıstaǵı kóp ellerdiń aytıs dástúrleri menen baylanısta bolǵanı menen óziniń payda bolıwında burınnan bar milliy dereklerdi tiykar etip alǵanın kórsetip beredi. Bunda milliy salt-dástúr jırlarınıń tásirin bılay kórsetedi: “...salt-dástúr jırlarındaǵı (bádik, gúlapsan, háwjarlardaǵı) aytıslıq elementler (top-top bolıp ekige bólinip aytısıw, improvizaciya, jırdaǵı geypara qatarlardıń turaqlı qaytalanıp otırıwı hám t.b.) boldı, yaǵnıy shayırlar aytısınıń dáslepki tırnaq tası erte dáwirlerdegi turmıs salt-jırlarınan baslap qalana basladı. Bunı biz shayırlar aytısınıń salt-dástúr jırlarınan ádewir kesh payda bolǵanlıǵı fakti menen de dálillewimiz múmkin” [2.21-22], – dep jazadı hám bul pikirlerin mısallar menen dálillep beredi. Sonıń menen birge, shayırlar aytısın qáliplestiriwdegi juwap aytıslarınıń ornın, improvizaciyanıń áhmiyetin, shıǵıs klassikleri dóretiwshiligindegi aytıs úlgileriniń qaraqalpaq jazba ádebiyatın qáliplestiriwge qatnasın, doslıq qatnasıqtaǵı qaraqalpaq-qazaq shayırlarınıń aytısınıń rawajlanıw jolların, jazba-xat túrindegi aytıslardıń rawajlanıw baǵdarların ilimiy jaqtan tiykarlap beredi.

Bunnan soń K.Allambergenov, XX ásirdiń 1930-40-jıllarınan baslap “repressiyaǵa ushırap”, qaralanǵan dástanlardıń biri “Edige” boyınsha izertlew jumısın alıp baradı. Dástan syujetindegi erkinlikke umtılıw, óz aldına el, xalıq bolıw ideyası menen usı ideyanıń baslawshıları bolǵan tariyxıy shaxslar obrazı ótken XX ásirdegi burınǵı awqam ideologiyasına tuwrı kelmeytuǵın edi. Eldegi naduris siyasattıń sebebinen burınǵı awqamlıq Respublikalardıń milliy mádeniy miyraslarına, sonıń ishinde tereń xalıqlıq ideyalar menen suwǵarlıǵan ayırım dástanlarǵa jámiyetke jat ideologiyalıq kózqarastaǵı miyraslar degen ayıp taǵılıp, onı jırlaw, úyreniw, oqıtıw, izertlew hám bastırıp shıǵarıw qadaǵan etilgen edi. K.Allambergenov 1990-jıllardan baslap XIV-XV ásirlerde jasaǵan tariyxıy shaxs Edige hám “Edige” dástanın úyreniwge batıllıq penen aralasadı. Elimiz ǵárezsizlikke eriskennen soń tyurkolog alım sıpatında qaraqalpaq xalqınıń tariyxıy-qaharmanlıq dástanı “Edige”ni dúnya júzine tanıtqan alım boldı. Dástannıń ayırım variantların, atap aytqanda 1994-jılı Jumabay jıraw Bazarovtan “Edige” dástanın jazıp alıp videotaspalarǵa túsirip, Respublikalıq jurnallarda bastırıp shıǵaradı. Edige haqqında qısqa metrajlı tariyxıy húwjjetli filmler jaratıwǵa qatnasıp, ilimiy másláhátshilik etti. Eń baslısı – dástannıń hár qıylı mashqalaları boyınsha qırıqqa jaqın ilimiy jurnal maqalaların járiyalap, 1995-jılı “Bilim” baspasınan “Qaraqalpaq xalıq dástanı “Edige” atamasında 14 baspa tabaqtan ibarat kólemli monografiyasın járiyalaydı. 1997-jılı Tashkent qalasında Ózbekstan Respublikası Ilimler akademiyası Ózbek tili, ádebiyatı hám folklorı institutında “Qaraqalpaq xalıq dástanı “Edige” (Genezisi, janrlıq belgileri, milliy versiyalar tipologiyası hám poetikası) degen temada doktorlıq dissertaciyasın jaqlaydı hám filologiya ilimleriniń doktorı ilimiy dárejesine iye boladı.

K.Allambergenov bunnan soń da “Edige” dástanı boyınsha izertlew jumısların dawam etip 2014-jılı “Mif, ertek, tariyx hám dástan (Er Edige, “Edige” dástanı hám Altın orda Máwerennaxr dáwiri tariyxınıń geypara máseleleri) atlı monografiyasın, 2017-jılı “Bilim” baspasınan “Er Edige, “Edige” dástanı, Altın Orda hám Mawarawannahr dáwiri tariyxınıń geypara máseleleri” atlı monografiyasın járiyaladı. Ilimpaz bul izertlewlerinde 80 ge jaqın ádebiyatshı, tariyxshı hám folk-

lorist alımlardıń izertlewlerinen paydalanǵan hám ilimiy fakt hám dálillewlerge súyenip “Edige” dástanınıń qaraqalpaqsha versiyası qazaq, noǵay, bashqurt, tatar versiyaları menen salıstırmalı úyrenilip tekstlik mısallardıń járdeminde isenimli dálillengen. Izertlewlerinde avtor “Edige” dástanınıń avtorlıǵı máselesine, yaǵnıy dóretiwshisi hám onıń atqarıwshısına, Edige ulısı, onıń jurtı hám jasaǵan jeri haqqında, “Edige” dástanınıń batırlıq jırdan qaharmanlıq dástanǵa ósip, jetilisiw máselesine, ásirese dástannıń payda bolıwı, tolıqtırılıp, qayta jırlanıw waqıyaların anıqlawǵa úlken itibar qaratadı. Ilimpazdıń kóp jıllıq izlenisleri hám izertlewleriniń nátiyjesinde “Edige” dástanınıń jır sıpatında payda bolıwı 1391-1406-jıllarǵa tuwrı keledi degen sheshimge keledi [3.43]. Al, dástannıń avtorlıǵı máselesinde, dástanda danıshpan jıraw sıpatında qatnasatuǵın, tariyxta jasaǵan qaraqalpaq jırawshılıq óneriniń saǵasında turatuǵın Soppaslı Sıpıra jıraw menen dástannıń dóretiliw dáwiri tuwrı keletuǵınlıǵı dálillenip, anıq ilimiy fakt hám dálillewler tiykarında “Edige” dástanınıń dóretiwshi avtorı Soppaslı Sıpıra jıraw degen pikirge keledi. Bunnan aldın “Edige” dástanınıń avtorı Soppaslı Sıpıra jıraw bolıwı múmkin degen pikir professor K.Mámbetov tárepinen bildirilgen edi [4.120]. Sonday-aq, “Edige” dástanınıń qaraqalpaq versiyası eń eski nusqa ekenligin, “Edige” qaraqalpaqlardıń etnogenezinde tiykarǵı orındı iyeleytuǵın mańǵıtlardıń aqmańǵıt tiyresinen shıqqan tariyxıy tulǵa ekenligin, jáne de Edigeniń jurtı tariyxta da, dástanda da qaraqalpaqlardıń bir bólegi jaylaǵan mákan bolǵanlıǵın dálillep beredi. Alım dástannıń batırlıq jırdan qaharmanlıq dástanǵa ósip jetilisiw evolyucyasın anıqlawda, “Edige” jırı qashan payda bolǵan, qashan tolıqtırılıp, dástan sıpatında qayta jırlandı, payda bolıwı hám qayta jırlanıwına qanday waqıyalar sebepshi bolǵan degen sorawlardı ortaǵa qoyadı hám bul sorawlarǵa juwap tabıwda dúnyaǵa belgili alımlardıń izertlewlerine súyenip óz pikirlerin bildiredi. Sonday-aq, “Edige” dástanın kópshilik ilimpazlar, atap aytqanda V.M.Jirmunskiy, Q.Ayımbetov, K.Mámbetov, S.Bahadırova hám t.b. “qaharmanlıq dástan” dep atap kelgen edi. Biraq, K.Allambergenov “Edige” dástanında tariyxıylıq hám qaharmanlıqqa tán sıpatlı belgilerdiń ekewi de teńdey ushırasatuǵının esapqa alıp, tariyx hám dástan birliginiń sáykes keliwleriniń tiykarına qarap, dástannıń epikalık variantların “tariyxıy-qaharmanlıq dástan” [5.20], – degen sheshimge keledi. Solay etip, ilimpaz “Edige” dástanın tereń izertley atırıp nadurıs túsinilip kiyatırǵan ayırım ilimiy pikirlerge anıqlıq kirgizedi. Ásirese, Altın Orda dáwirin izertlegen tariyxshı alımlar V.V.Bartold, V.M.Jirmunskiy, V.D.Grekov, A.Yu.Yakubovskiylerdiń Edigeni Ámir Temurǵa qıyanet etken unamsız shaxs sıpatında túsindirgen pikirleriniń tiykarsızlıǵın ilimiy jaqtan isenimli dálillep beredi [6].

Ilimpaz qaraqalpaq folklortanıw iliminde “Alpamıs”, “Qırıq qız”, “Sháryar”, “Yusup-Axmet” hám t.b. dástanlar boyınsha hám jıraw-baqsılar haqqında da ilimiy-teoriyalıq pikirlerge qurılǵan maqalaların jazdı. Solardıń ayırımlarına toqtap óteyik, mısalı, “Qorqıt ata kitabı” hám qaraqalpaq qaharmanlıq dástanları” (“Qaraqalpaqstan muǵallimi” jurnalı, 1994, №4) maqalasında jazba esteliktiń qaharmanlıq dástanlarǵa tásiri máselesin ashıp berse, “Folklor mashqalalarına jańasha pikir juwırtayıq” (“Qaraqalpaqstan muǵallimi” jurnalı, 1995, №1-2) maqalasında qaraqalpaq folklortanıw ilimindegi izertleniwi tiyis mashqalalarǵa qózqarasın bildiredi. “Alpamıs” hám “Edige” dástanın tipologiyalıq jobada úyreniwdiń geypara máseleleri” (“Qaraqalpaqstan muǵallimi” jurnalı, 1997, №3-4), “Shıǵıs hám batıs xalıqları folklorın tipologiyalıq salıstırmalı úyreniwdiń geypara máseleleri” (“Ilim hám jámiyet” jurnalı, 2014, №3) maqalalarında salıstırmalı úyreniwdiń áhmiyetin belgilep beredi. Bulardan basqa ilimpazdıń “Ertekten dástanǵa shekem” (“Qaraqalpaqstan muǵallimi” jurnalı, 2001, №3-4), “Qaraqalpaq eposlarında qariyalar obrazı – danıshpanlıq tımsalı” (“Qaraqalpaqstan muǵallimi” jurnalı, 2002, №1-2), “Qaraqalpaq erteklerin tipologiyalıq salıstırıp izertlewdiń geypara máseleleri” (Konferenciya materialları, Nókis, 2010), “Qazaq-qaraqalpaq folklorı hám ádebiyatı baylanısı máseleleri” (“Ámiwdárya” jurnalı, 2011, №5) sıyaqlı t.b. qaraqalpaq folklortanıw iliminiń mashqalaları boyınsha júzden aslam qunlı ilimiy maqalaların jazdı. Joqarı

oqıw orınları studentleri ushın qaraqalpaq ádebiyatı hám folklorı boyınsha oqıw baǵdarlamaları, kórsetpeleri, metodikalıq qollanbaları hám sabaqlıqların jazdı. Mısalı, folklortanıw ilimi boyınsha “Qaraqalpaq folklorı (Oqıw baǵdarlama)” (“NMPI” tipografiyası, 2002), “Qaraqalpaq xalqınıń awızeki kórkem dóretpeleri” (Oqıw kórsetpe) (“NMPI” tipografiyası, 2007) atlı oqıw baǵdarlama hám metodikalıq kórsetpelerin oqıw processine usındı. Sonday-aq, “XX ásir qaraqalpaq ádebiyatı tariyxı” (Nókis, “Bilim”, 2010) (Avtorlar menen birge) sabaqlıǵın jazdı.

Ilimpazdıń ilimiy-izertlew jumıslarınıń sheńberi júdá keń. Ol ilimde tek folklortanıwshı alım sıpatında ǵana emes, al qaraqalpaq ádebiyatınıń bir neshe tarawları boyınsha da izertlewlerin jazdı. Atap aytqanda, qaraqalpaq ádebiyatınıń saǵaları haqqında, jazba ádebiyat penen awızeki ádebiyattıń tipologiyası máselelerin, ádebiyattı dáwirlestirip úyreniw máselelerin, qaraqalpaq hám qazaq folklorındaǵı dástúriy baylanıslardı, sonday-aq, orta ásirlerdiń jazba esteligi “Qorqıt ata kitabı” haqqında hám ótkendegi ullı oyshıl shayırlar Sulayman Baqırǵanıy, Xoja Axmet Yassawiy, Axmet Yugnakiy haqqında maqalalaların, sonıń menen birge qaraqalpaq klassik shayırları Jiyen jıraw, Kúnxoja, Ájiniyaz, Berdaq shıǵarmaları boyınsha qunlı ilimiy maqalaların jazdı. Kúndelikli ádebiy processke de belsene qatnastı hám jazıwshı, shayırlardıń dóretiwshiligine recenziyalıq sın pikirlerin bildirip bardı.

Oqıwshılar jámiyetshiligi K.Allambergenovtı ilimpaz, bir neshe povest hám romanlar avtorı, belgili prozaik retinde jaqsı biledi. Lekin, ol talantlı dramaturg sıpatında da tanıldı. Onıń “Ámir Temir hám Er Edige. (Ullı atlanıs)” (Nókis, 2017) draması poeziya tili menen (qosıq penen) jazılǵan. Qosıq qurılısı jaydarı, sillabika (barmaq) ólshemine tiykarlanǵan, uyqasları bir ólshemde jaqsı ısılǵan. Qosıq ırǵaqları (ritm) házirgi zaman sillabika qosıǵına tiykarlanǵan, tiyisli orınlarda dástanǵa da uqsap ketedi. Ariyalardıń muzıkalılıǵı jaqsı, atqarıwshılıq ónerge beyimlestirilgen. Bir sóz benen aytqanda, ariyalarda drama avtorınıń jańa shayırlıq talantı kórinedi. Demek, K.Allambergenovtıń shayırlıq talantı da bar ekenligi kózge taslanadı.

Bunnan soń, K.Allambetrgenov 2018-jılı Ámiwdárya jurnalınıń 4, 5-sanlarında “Qırıq qız (Úmit sholpanı)” atamasındaǵı 3 aktli, 7 perdeli tariyxıy-muzıkalı dramasın járiyaladı. Bul drama batırlıqtı, xalıqtıń turmıs-tárizin, xarakterin kórsetiwge arnalǵan. Ondaǵı súwretlengen waqıyalar XVIII ásirdiń birinshi yarımında Túrkstanda jasaǵan qaraqalpaqlardıń tariyxıy jaǵdaylarına sáykes keledi. Avtor tiykarınan tariyxıy maǵlıwmatlardı, sonday-aq, “Qırıq qız” dástanındaǵı zárúrli turmıslıq tariyxıy áhmiyetli materiallardı paydalanǵan.

K.Allambergenovtıń ómiriniń sońǵı kúnlerinde jazıp tamamlaǵan shıǵarması “Altın qazıq” (2023) dep atalatuǵın jańa roman-essesi esaplanadı. Bul roman-essede qaraqalpaq xalqı tariyxınıń áhmiyetli dáwirlerinen esaplanǵan XVIII ácirdegi tariyxıy waqıyalar súwretlengen. Romannıń tiykarǵı qaharmanı bolǵan tarıyxıy shaxs Nurtay Batır Jangeldi batır ulınıń portreti shıǵarmada isenimli, ádebiy kórkemlik penen júdá jaqsı ashıp berilgen. Romannıń esselik, publicistikalıq, dramalıq, ilimiy-kórkem xarakterge iye bolıwı romannıń áhmiyetin jáne de arttıradı. Sebebi, bul roman-esse qaraqalpaq ádebiyatında kóp janrlılıqta dóretilgen birinshi shıǵarma esaplanadı.

Ustaz K.Allambergenov Respublikamızǵa ilimiy dárejeli kadrlar tayarlawda da pidayılıq kórsetti. Onıń ilimiy másláhátshiliginde 3 (DSc), al, ilimiy basshılıǵında 12 (PhD) doktorant hám izleniwshiler doktorlıq dissertaciyaların jaqladı. Ol filologiya tarawı boyınsha 4, pedagogika tarawı boyınsha 1 qánigelistirilgen (DSc), (PhD) ilimiy keńestiń hám ilimiy seminarlarınıń aǵzası boldı.

K.Allambergenovtıń xalıq iygiligi ushın islegen xızmetleri húkimetimiz tárepinen ılayıqlı bahalanıp, oǵan 2010-jılı professor, 1993-jılı Berdaq atındaǵı mámleketlik sıylıqtıń laureatı, 2018-jılı “Qaraqalpaqstan xalıq jazıwshısı” húrmetli ataqları berildi.

Juwmaqlap aytqanda K.Allambergenovtıń ómir jolı, el, xalıqqa islegen xızmetleri, filolog pedagoglardı hám ilimiy kadrlardı tayarlawdaǵı ustazlıq isleri áwladlar yadında máńgi saqlanıp

qaladı. Onıń kórkem ádebiy shıǵarmalarınan kóp mıńlaǵan oqıwshılar ruwxıy azıq alsa, ilim-iy-izertlew jumısları qaraqalpaq ilminiń rawajlanıwına bahalı xızmet etedi

Ádebiyatlar:

1. Allambergenov K. Qaraqalpaq ádebiyatında aytıs. – Nókis, "Qaraqalpaqstan", 1985.

2. Allambergenov K. Qaraqalpaq xalıq dástanı "Edige". – Nókis, "Bilim", 1995.

3. Allambergenov K. Er Edige, "Edige" dástanı, Altın Orda hám Mawarawannaxr dáwiri tariyxınıń geypara máseleleri. – Nókis, "Bilim", 2017.

4. Allambergenov K. Mif, ertek, tariyx hám dástan. – Nókis, 2014.

5. Mámbetov K. Áyyemgi qaraqalpaq ádebiyatı. – Nókis, "Qaraqalpaqstan",1976.

6. Quramboyev K. Qo'sh iste'dod sohibi // Kórkem ádebiyat hám ilim dárbentiniń úlken darǵası. – Nókis, 2016. – B.22.

SHAHOBIDDIN NURIDDINOV,
Qarshi davlat universiteti, O‘zbek mumtoz adabiyoti kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari doktori, dotsent

KOMIL XORAZMIYNING TOSHKENTGA BAG‘ISHLANGAN QASIDASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Komil Xorazmiyning 1891-yilda Toshkent shahriga amalga oshirgan sayohati natijasida yaratilgan qasidasi matnshunoslik aspektida tadqiq qilingan. Qasida matnining qo‘lyozma va nashrlardagi variantlari qiyosiy tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *devon, qo‘lyozma, toshbosma, qasida, matn, nashr, ta’rix, matniy tafovut.*

Annotation. *This article examines the ode of Kamil Khorezmi, created as a result of his trip to Tashkent in 1891, from the point of view of textual criticism. The manuscript and published versions of ode text are comparatively analyzed.*
Key words: *divan, manuscript, lithography, ode, text, edition, chronogram, text difference.*

Komil Xorazmiy o‘z davrining salohiyatli davlat arbobi va yetakchi ma’rifatparvari sifatida Muhammad Rahimxon II hamrohligida bir necha marta Moskva va Sankt-Peterburg shaharlariga davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish ishlari yuzasidan safarda bo‘ladi. O‘z davri madaniy hayoti uchun ko‘pgina yangiliklarning xonlik hayotiga joriy bo‘lishida bosh-qosh bo‘lgani ma’lum. Xususan, maqom kuylarini notaga tushirib “Tanbur chizig‘i”ni yaratishi, Xivada toshbosma usulida nashr ishlarining yo‘lga qo‘yilishi hamda ko‘plab ilmiy va badiiy asarlarning chop etilishida Komil Xorazmiyning beqiyos xizmatlarini e’tirof etish lozim.

Xiva xonligi siyosiy va madaniy hayotining mutasaddisi sifatida 1891-yilning 28-avgustidan 13-sentabriga qadar valiahd shahzoda Asfandiyorxonning Toshkent safariga hamrohlik qiladi. Ushbu safar tafsilotlari “Turkiston viloyatining gazeti” muharriri N.Ostroumovning kundalik qaydlari hamda o‘sha davr matbuotida o‘z aksini topgan [7.28-35; 8.3]. N.Ostroumovning shaxsiy qaydlarida ushbu safar tafsilotlari eng kichik detallarigacha bayon qilib borilgan. Mazkur qaydlar Komilning Toshkentga bag‘ishlangan qasidasi va “Iki sho‘x” radifli g‘azalining matn tarixini o‘rganishda qimmatli manba vazifasini o‘taydi. Bular xususida taniqli adabiyotshunos olimlar Sh.Yusupov va A.Abdug‘afurovlar atroflicha to‘xtalib o‘tishgan [6.165-168; 1.10-16].

Komil Xorazmiy sayohat davomida Toshkentning xushmanzara va diqqatga sazovor joylari, madaniy hamda maishiy hayotdagi o‘zgarishlarni sinchkovlik bilan kuzatadi va qalamga oladi. Safar taassurotlari natijasida yaratilgan “Dar ta’rifi tavsifi Toshkand” asari Komil Xorazmiy ijodining eng sara namunalaridan bo‘lib, ushbu qasida shoir devonining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidagi 1025, 1949 raqamli qo‘lyozma nusxalari, 1895-yilda Xivada va 1910-yilda Toshkentda chop etilgan toshbosmalaridan o‘rin olgan. Shuningdek, asar “Turkiston viloyatining gazeti”ning 1894-yil 8-oktabr sonida ham e’lon qilingan. Qasida matnlari orasida ancha jiddiy tafovutlar kuzatiladi. Qasida ellik baytdan iborat bo‘lib, manbalarda uning uch xil varianti mavjud. Sharqshunoslik instituti fondida 1895-yildagi toshbosmaning uch nusxasi

(inv.№8953, 8965, 15422) mavjud bo‘lib, qasida matni barcha nusxalarning so‘ngida ilova tarzida qo‘lda ko‘chirilgan. Bizningcha, qasida aslida nashrga kiritilgan. Biroq texnik xatolik sababli ayrim nusxalarda nashrdan tushib qolgan va keyinchalik noshirlar tomonidan ilova sifatida kiritilgan. Ulardagi matnlar ham 1025 raqamli qo‘lyozma matni bilan bir xil. Qo‘lyozma bilan qiyoslanganda ularda ayrim matniy tafovutlar kuzatiladi. Masalan, 8953 va 8965 raqamli toshbosmalarda qasida 49 baytdan iborat. 8953 raqamli toshbosmada quyidagi bayt tushib qolgan:

Bir qadam qo‘ysa onga ul shohi mulki xofaqayn,
Muncha yuz obod o‘lur erdi diyori Toshkand.
Xuddi shunday 8965 raqamli toshbosmada esa
Ul vasila birla hosil aylagan in’omni –
Aylagaylar sarf ahli ro‘zgori Toshkand.

bayti ko‘chirilmay qolgan. Qasidaning 15422 raqamli toshbosmadagi matni esa 50 baytdan iborat. Shu o‘rinda yana bir holatni ta’kidlash joiz. Qasidaning 7–8-baytlari 1949, 1025 raqamli qo‘lyozmalar va 8953 raqamli toshbosma nusxalarda quyidagicha:

Yo‘lda bir manzilda aylab ko‘b ziyofatlar ayon,
Hokimi shahr ila oqsaqoli chori Toshkand.
Bo‘ldi mehmon joyimiz Haq lutfidin bir bog‘kim,
Mevadoru, lolazoru, naxldori Toshkand.

8965 va 15422 raqamli toshbosmalarda mazkur baytlarning o‘rni almashgan. Bizningcha, voqealarning bayoni va tasvirning izchilligiga ko‘ra yuqorida berilgan holat to‘g‘ri bo‘ladi.

Shuningdek, ayrim so‘zlarning yozilishida tafovutlar mavjud. Masalan,

Suv sefib yo‘llarg‘a saqqolar bila farroshlar,
Bahri Sayhunning labidin to kanori Toshkand.

baytidagi “saqqolar” so‘zi barcha manbalarda “saqqolari” tarzida beriladi. Bu o‘rinda ١٠٢٥ raqamli qo‘lyozmada “suv sepuvchi, suv tashuvchi” ma’nolaridagi bu so‘zning “saqqolari” tarzida yozilishi to‘g‘ri bo‘ladi.

Manbalarda qo‘llanishi turlicha bo‘lgan so‘z quyidagi baytda ham mavjud:

Chun valiahdi *saodat mahd* istiqbolig‘a,
Chiqdilar ayonu ashrofi hisori Toshkand.

Birinchi misradagi “saodat mahd” so‘zlari boshqa manbalardan farqli ravishda ١٠٢٥ raqamli qo‘lyozmada “saodatmand” tarzi qo‘llangan. Bir qarashda har ikki tushuncha ham bayt mazmuniga mosdek ko‘rinadi. Podshohlar va ulug‘ martabali kishilarning uzoq yo‘lda yurishi uchun ot yoki tuya ustiga o‘rnatilgan moslama (kajava) “mahd” deb yuritiladi. Yuqoridagi baytda aynan shu nazarda tutilib, saodat valiahdining mahdiga shahar qal’asining ulug‘lari peshvoz chiqqani bayon qilingandek tasavvur uyg‘otadi. ١٠٢٥ raqamli qo‘lyozmada qo‘llangan “saodatmand” so‘zi esa bayt mazmunini butunlay o‘zgartiradi: Toshkent qal’asining a’yonlari va e’tiborli kishilari saodatli valiahd (Asfandiyorxon) istiqboliga chiqdilar. Bizningcha, bu o‘rinda baytning ١٠٢٥ raqamli qo‘lyozmadagi keltirilgan varianti to‘g‘ri:

Chun valiahdi saodatmand istiqbolig‘a,
Chiqdilar ayonu ashrofi hisori Toshkand.

Qasidaning 1949 raqamli qo‘lyozma nusxadagi matni ham 50 baytdan iborat. 1025 raqamli qo‘lyozma va toshbosmadagi matnning 25-30-baytlari 1949 raqamli qo‘lyozmada so‘nggi baytdan oldin kelgan. Komil devonining 1975-yildagi nashrida ham qasidaning (qisqartirib bosilgan) matni ayni shu nusxadan olingan.

G‘.Karimov asarni “Qasidai Navro‘ziya”, “Qasidai Navro‘z” nomlari bilan ham yuritiladi, deydi [2.221;3.244]. Lekin Komil devoni qo‘lyozma va toshbosmalarida keltirilgan “Qasidai Navro‘z” butunlay boshqa asar. U Muhammad Rahimxon Ikkinchiga bag‘ishlangan

Lak al-hamd, yo shohi mulki qadar,
Bori shohlardur sanga xoki dar –

bayti bilan boshlanuvchi qasidadir. Ushbu asar 922, 1025, 1949 raqamli qo‘lyozmalarda “Qasidai Navro‘z”, boshqa manbalarda “Masnaviy” sarlavhasi bilan berilgan.

Qasida “Turkiston viloyatining gazeti”da 1894-yil 8-oktabrda “*Janobi oliyjoh Xiva xonining mirzoboshisi Pahlavon mulaqqab shuaroning g‘azallari ushbudur*” izoh-sarlavhasi bilan chop etilgan bo‘lib, undagi matn qasidaning bizga ma’lum bo‘lgan manbalari orasida eng dastlabki hisoblanadi. Qasida matni 48 baytdan iborat. Biroq qo‘lyozma va toshbosmalardiga matnlar bilan qiyoslaganda jiddiy o‘zgarishlar bor. Gazetadagi 9 bayt boshqa manbalarda uchramaydi. Ularda Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasining tarjimoni Asfandiyorov (qasidada “tarjimon Asfandiyori Toshkand” jumlasi orqali beriladi), general-gubernator fon Kaufman, baron A.Vrevskiy, Sirdaryo oblast harbiy gubernatori N.Grodekov kabi chor amaldorlarining faoliyati tavsiflanadi. Aytish mumkinki, asar Toshkent safaridan keyin yaratilgan va Komil bilan yaqin munosabatda bo‘lgan N.Ostroumovning iltimosiga ko‘ra, chor matbuoti uchun muallif tomonidan qayta ishlangan. Uning so‘ngida keltirilgan ikki bayt va ta’rix yechimiga oid izohda asarning vaqtini aniqlash imkoni bor:

Lekin ushbu yilg‘a to‘g‘ri aylabon bead hisob,
Dedi ta’rixini hotif: “Chashmasori Toshkand”.
Umr boqiy bo‘lsa olti yil yana, Komil, sanga,
Yozg‘il oning soli tarixin: “shumori Toshkand”.

“Maxfiy qomasunkim, “Chashmasori Toshkand” bir ta’rixdur. Lekin hisobi jumalda ming uch yuz sakson to‘rt (1384) bo‘lur. Ammo ta’miya qoidasi bila mundin yetmish to‘rt isqot bo‘lur. Bu tariqadakim “bead” iborati shunga ishoratdur. 1316 bo‘ladur. Yana olti yildin so‘ng muvofiq bo‘lur. Nedinkim muning mashq etilganda ta’rix bir ming uch yuz o‘nda erdi” [5].

Shoir qayd etganidek, qasida 1310 (milodiy 1892-93) yilda yaratilgan. *“Chashmasori Toshkand”* iborasining jumali (1384)dan ta’miya usuli bilan (ع va د ning yig‘indisi) 74 isqot qilinsa, 1310 hosil bo‘ladi. Olti yildan so‘ng 1316 bo‘ladi. Bu milodiy 1898-99-yillarga to‘g‘ri keladi.

Qasida kiritilgan yana bir manba shoir devonining 1910-yilda Toshkentda nashr etilgan toshbosmasi bo‘lib, unda gazetada chop etilgan matnning turli o‘rinlaridan olingan bor-yo‘g‘i 12 bayti berilgan. She’r so‘ngida berilgan ta’rix yechimi ham gazeta matnidagi bilan deyarli bir xil. Toshbosmadagi izohga quyidagi gap qo‘shimcha qilingan: *“Shumori Toshkand” ham bir ta’rixdur. Hisobda 1316 dur”*. Demak, muallif qasida so‘ngida ta’rix sanasini ikki ibora orqali beradi.

E’tiborli jihati shundaki, tugallanma bayt 1025, 1949 raqamli qo‘lyozmalar hamda Xiva toshbosmasida biroz tahrir qilingan:

Yona uch yil umr boqiy bo‘lsa gar, Komil, sango,
Yozg‘il oning soli tarixin shumori Toshkand.

Ishoraga ko‘ra, yana uch yildan so‘ng ta’rix “shumori Toshkand”, ya’ni 1316 bo‘ladi. Demak, mazkur manbalardagi variant 1313 yilda yozilgan. Bu 1895 yilga to‘g‘ri keladi. Haqiqatan, Xiva toshbosmasi 1895-yilda amalga oshirilgan. 1025 raqamli qo‘lyozma kolofonida ham ushbu sana qayd qilingan: “Tammat. Tamom. 1313”. 1949 raqamli qo‘lyozmada uning ko‘chirilgan sanasi ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, “Sharq qo‘lyozmalari to‘plami”da uning ham 1895-yilda ko‘chirilgani

qayd qilingan [9.134]. Bu, albatta, qo‘lyozma nusxaning tashqi belgilariga ko‘ra aniqlangan. Biroq Komil Xorazmiyning hayotlik vaqtida ko‘chirilgan 1025 raqamli qo‘lyozma nusxa hamda nashriga bevosita o‘zi bosh-qosh bo‘lgan toshbosmadagi qasida matni nisbatan ishonchli va mukammal ekani to‘g‘risida xulosa chiqarishga asos bo‘ladi.

Komil she’rlari o‘tgan asrda tuzilgan bir qator majmua, xrestomatiya, antologiyalar kiritilgan, shuningdek, “Tanlangan she’rlar”, “Devon” shaklida ham nashr etilgan. Biroq mazkur qasida ikki nashrdan o‘rin olgan. “Devon”da “Toshkent madhi” nomi bilan qisqartirib chop etilgan [4.215-216]. Nashrda qasidaning 31 bayti berilgan. Turli sabablarga ko‘ra 19 bayt qisqartirilgan. “Tanlangan she’rlar”da esa qasidaning Toshkent toshbosmasiga kiritilgan o‘n ikki bayti g‘azallar qatorida berilgan. Asarning janri yoki qisqartirilgani to‘g‘risida esa hech bir izoh berilmagan.

Quyida “Dar ta’rifu tavsifi Toshkand” qasidasi Komil Xorazmiy devonining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 1025 raqamli qo‘lyozmasi va Xiva toshbosmalaridagi matnlari asosida berildi. Qasida birinchi marta to‘liq holatda nashr etilmoqda.

Qasida

Istabon shahzoda chun sayri diyori Toshkand,
As’adi sootda bo‘ldi suvori Toshkand.
Baski, g‘olib erdi shahzoda zamirida mudom,
Orzuyi dashti sahro xorxori Toshkand.
Ko‘rguzub o‘n kunda subhu shom ta’jili tamom,
Chun ko‘rundi ko‘zga tog‘u ko‘hsori Toshkand.
Suv sefib yo‘llarg‘a saqqolar bila farroshlar,
Bahri Sayhunning labidin to kanori Toshkand.
Chun valiahdi saodatmand istiqbolig‘a,
Chiqdilar ayonu ashrofi hisori Toshkand.
Qal’a ahli ko‘rguzub e’zozu ikromi tamom,
Chiqdilar borcha piyodau suvori Toshkand.
Yo‘lda bir manzilda aylab ko‘b ziyofatlar ayon,
Hokimi shahr ila oqsaqolu chori Toshkand.
Bo‘ldi mehmon joyimiz Haq lutfidin bir bog‘kim,
Mevadoru lolazoru naxldori Toshkand.
Vus’ati nuzhatda rashki jannatu-l-ma’vodurur,
Kavsaru tasnimi nahru jo‘ybori Toshkand.
Ro‘zu shab sayr aylar onda huru g‘ilmon o‘rnig‘a,
Sarv qaddu, guljabinu, guluzori Toshkand.
To‘bi oso bosh chekib charxi muallo avjig‘a
Orchau yel birla shamshodu chinori Toshkand.
Ta’mu lazzatda erurlar bir-birisidin alaz,
Furtxolu olma, noki obdori Toshkand.
Maskavu limunu shaftolu, husayniy, soyaki,
Pistavu bodomu anjiru anori Toshkand.
Burji mezonda edi masnadnishin shohi Xo‘tan,
Ham barobar erdilar laylu nahori Toshkand.
Nuru zulmat o‘lcholib tun-kun ufuq mezonida,
Teng edilar subhi sofu shomi tori Toshkand.
Sarbasar ashjori zarrin bargidin bodi xazon,
Farsh qilg‘on barcha qasri zarnigori Toshkand.

Xushhavoliq muncha bo‘lsa onda ayyomi xazon,
YO Rab, erkandur nechuk fasli bahori Toshkand.
Garchi onda bog‘ ila bo‘stong‘a yo‘q haddu shumor,
Lek erur bu bog‘ chun xoli uzori Toshkand.
Olimi ilmi masohat derlar oni yuz tanob,
Har biri gaz uch ming olti yuz shumori Toshkand.
Har gazidur qoyimalig‘ yetti qabza shar’da,
So‘rsangiz derlar oni qoziyu chori Toshkand.
Har gazi xoli emas ashjor ila asmordin,
Sabzazoru lolazoru marg‘zori Toshkand.
Kelturub har kun ming alvon at’imau ashriba
Mezbonu tarjumon Asfandiyori Toshkand.
Aylabon omoda ayron, istagan chog‘da qimiz,
Suv yeriga limunotu xushguvori Toshkand.
Har kishi gar qilsa istifsor oning noibin,
Mirza Abdulla erur xizmatguzori Toshkand.
Yona bir bog‘yeki, Maskavda nechukkim Yurmatosh,
Undadi bir kecha onda hukmdori Toshkand.
Sayr etarlar onda yuz ming erkagu, qizu juvon,
Borchasi ilmu hunarda nomdori Toshkand.
Olibon ilkiga har bir nozanin bir dasta gul,
Peshkash aylab, tutub rasmu shiori Toshkand.
Ul vasila birla hosil aylagan in’omni –
Aylagaylar sarf ahli ro‘zgori Toshkand.
Har kecha kosiblar onda har na qilsa foyda,
Aylagaylar sadqai qashshoqu xori Toshkand.
O‘yla otashbozlig‘lar bo‘ldi ul bog‘ ichrakim,
Yoqti aflok anjumin o‘tlug‘ sharori Toshkand.
Suvlari ta’mi azubat bobida obi hayot,
Yozu qish joriydurur nahru bihori Toshkand.
Neajab, desam olarni manbai aynu-l-hayot,
Barcha ruhafzo zuloli chashmasori Toshkand.
“Kullu shay’ hayyun min al-mo’i” dedi hayyu qadiym,*
Tong emas, jonbaxsh ersa obshori Toshkand.
O‘tkarib boshin hisori zirvai ayyuqdin,
Arshi a’zam hamsaridur ko‘hsori Toshkand.
Ravshan etkondek sipehr ayvonini sham’i nujum,
Shabni ro‘z aylar charog‘oni fanori Toshkand.
Tiyra ko‘zlarni qilur ravshan tamoshosi oning,
Go‘yiyo kuhlul-javohirdur g‘ubori Toshkand.
Zoyiru soyir topar har damda ming fayzu futuh,
Avliyoullohdin mamlu mazori Toshkand.
Murshidi komildur onda garchi Shayx Xovand Tahur,
Xoja Ahrori Vali shayxi kibori Toshkand.
Loyiq ermas oni tashbih aylamak hech shahrga,
Aylasa har yerga tashbih o‘lg‘ay, ori, Toshkand.
Aylamang oni Buxorog‘a barobarkim, base,

Yaxshidur asbi Buxorodin himori Toshkand.
Lof emasdur desam o‘zga shahrlar gulzoridin,
Xushnamudur changalistonida xori Toshkand.
Garchi debdurlar Samarqand sayqali ro‘yi zamin,
Xorij ondin ko‘hsor uzra hisori Toshkand.
Nosixi Maskav desam oni demang lofu gazof,
Bormu onda marg‘zoru lolazori Toshkand.
Munqasimdur to‘rt qism ila aholisi oning,
Yetmishu uch firqadin yuz ming shumori Toshkand.
Bu jihatdin to‘rt bo‘lmishdur oning qozilari,
Jismda unsur kibi ul choriyori Toshkand.
Garchi unsurdek esalar ham emas bir-birga zid,
Ittifoq o‘lmish hama fe’lu shiori Toshkand.
To‘rt oqsaqqoli ondoqkim kiromu-l-kotibin,
Bordur onlarg‘a mufavvaz koru bori Toshkand.
Mulki abdonda anosir yonglig‘ aylab zabti rabt,
Bor bu to‘rtov zabtidin sobit qarori Toshkand.
Bir qadam qo‘ysa onga ul shohi mulki xofaqayn,
Muncha yuz obod o‘lur erdi diyori Toshkand.
Yona uch yil umr boqiy bo‘lsa gar, Komil, sanga,
Yozg‘il oning soli tarixin shumori Toshkand.

** “Kullu shay’ hayyun min al-mo’i” – Qadimda yashaganlar: Hamma narsa suv tufayli tirikdir, deganlar.*

Lug‘at

abdon – badanlar, jismlar
azubat – shirinlik, totlilik
ayyuq – ziynatli, ko‘rkam, chiroyli
alaz – eng lazzatli
alvon – turli-tuman
anjum – yulduzlar
anosir – unsurlar
asb (asp) – ot
asmor – mevalar
as’adi soot – eng baxtli soatlar; eng saodatli damlar
at’ima – (*taom*ning ko‘pligi) taomlar
aflok – falaklar, osmon
ashjor – daraxtlar
ashriba – ichiladigan narsa, ichimlik
ashrof – sharaf va e’tibor egalari, oliy tabaqa
bihor – (bahrning ko‘pligi) dengizlar
vasila – vosita, sabab, bahona.
vus’at – kenglik, kengchilik; yoyiqlik.
gaz – 0,71 metrga teng uzunlik o‘lchov birligi
gazof – 1. bema’ni, behuda, asossiz so‘z; 2. behad, behisob.
guljabin – go‘zal, husndor
yel (yel) – qoraqarag‘ay

joriy – oqadigan, oquvchi
jo‘ybor – daryo, soy, katta ariq
zabti rabt – mustahkam bog‘langan
zamir – 1. ko‘ngil, dil; 2. yashirilgan fikr, mazmun.
zarnigor – zar(oltin) bilan bezatilgan, oltin suvi yugurtilgan
zirva – tog‘ning eng yuqori yeri, cho‘qqi
zoyir – ziyorat qiluvchi
ilmi masohat – yer o‘lchash ilmi
istifsor – izoh so‘rash, izoh talab qilish; so‘rab bilish.
kanor – chet, qirg‘oq
kuhlul-javohir – qimmatli tosh qotishtirib ishlangan surma
ko‘hsor – tog‘lik joylar
layl – tun, kecha, oqshom
limun – limon
limunot – limonad
mamlu – to‘lgan, to‘la
marg‘zor – o‘tloq, yashillik
maska – uzum navi
masnadnishin – yuqori o‘ringa o‘tiruvchi; taxtga o‘tiruvchi
munqasim – bo‘lingan, taqsim qilingan
murshidi komil – to‘g‘ri yo‘lga soluvchi pir
mufavvaz – ishonib topshirilgan
naxldor – daraxtzor, bog‘
nahor – kunduz
nahr – daryo
nosix – bekor qiluvchi, yo‘qqa chiqaruvchi
nuzhat – 1. ko‘ngil ochish, huzur qilish; 2. bezanish.
obdor – sersuv
obshor – shalola, sharsharak
omoda – tayyor, tayyorlangan
orcha – archa
otashbozliq – mushak otish, mushakbozlik
peshkash – tortiq, tuhfa, sovg‘a
ruhafzo – ruhlantiruvchi, jonlantiruvchi
sarbasar – butunlay, boshdan oyoq
saqo, saqqo – suv beruvchi; suv sepuvchi; suv tashuvchi, meshkob.
sipehr – osmon, osmon gumbazi; falak
soyir – sayr etuvchi, kezuvchi
soyaki – uzum navi
suvori(y) – otliq, otda yuruvchi
tasnim – jannatdagi buloq
ta’jil – oshiqish, shoshilish
to‘bi oso – jannatdagi go‘zal daraxt kabi
ufuq – ufq
fayz – 1. baraka, mo‘llik; 2. lutf-karam, in’om-ehson; 3. quvonch, dil ravshanligi.
farsh – 1. to‘shash, yotqizish; 2. to‘shama, to‘shalgan narsa.
furtxol (po‘rtaxol) – apelsin

futuh – ochilish, kushoyish
xizmatguzor – xizmat qiluvchi
xor – 1. bechora; 2. tikan.
xorxor – 1. orzu; tinchsizlik, ko‘ngil hayajoni; 2. g‘am, qayg‘u.
xofaqayn – mashriq va marg‘ib
xushguvor – xushta’m, mazali, lazzatli
xushnamud – chiroyli ko‘rinuvchi, ko‘rkam
charxi muallo – baland osmon, yuksaklik
chashmasor – chashmalari ko‘p bo‘lgan joy
shayxi kibor – ulug‘larning shayxi (ulug‘ shayx)
sharor – uchqun, alanga; tovlanish, yarqirash.
shior – asar, belgi; odat
shumor – sanoq, hisob
Yurmatosh – Ermitaj
had – chek, chegara
himor – eshak
hisor – qal’a, qo‘rg‘on
husayniy – uzum navi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdug‘afurov A. Komil Toshkentda. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 1983, №1. – B.10-16.

2. Karimov G‘. Ezgu niyatlar kuychisi. “Sharq yulduzi” jurnali, 1976, №1. – B.221.

3. Karimov G‘. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1966, – B.244.

4. Komil. Devon. Nashrga tayyorlovchilar: A.Hayitmetov, V.Mo‘minova. – Toshkent: 1975. – B.215-216.

5. “Turkiston viloyatining gazeti”, 1894-yil 8-oktabr.

6. Yusupov Sh. Komil haqida yangi ma’lumot. “Sharq yulduzi” jurnali, 1988, №7. – B.165-168.

7. O‘zbekiston Milliy arxivi. N.Ostroumov fondi materiallari. 1009-fond, 67-hujjatlar to‘plami, 28–35-sahifalar.

8. “Туркестанские ведомости” gazetasi, 1891-yil 17-sentabr.

9. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. Т.VII. – Ташкент: Издательство АН Р Уз, 1964. – С.134.

“ADABIY MEROS” JURNALIGA QABUL QILINADIGAN MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Nashrga original, ilgari nashr qilinmagan maqolalar va jurnal mavzusiga mos keladigan materiallar qabul qilinadi.

Original maqolaning hajmi (annotatsiya, kalit so‘z va so‘z birikmalari hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bundan mustasno) 1 intervaldan 10-12 betdan oshmasligi kerak.

Matn – Microsoft Word.

Format – A4.

Matnning ikki yonida qoldiriladigan o‘lcham – 2 sm.

Shrift – Times New Roman.

Shriftning kattaligi – 14.

Qatorlar oralig‘i – 1. xat boshi – 1,25.

Maqolalar o‘zbek, rus, ingliz, turk tillarda qabul qilinadi.

Maqolaning tuzilishi quyidagicha tavsiya etiladi:

Qo‘lyozmaning nomi:

Maqola va boshqa materiallar sarlavhasi qisqa, Mazmunga muvofiq va 12 so‘zdan oshmasligi kerak.

Mualliflar:

Mualliflarning to‘liq nomlari quyidagi tartibda qayd etilishi kerak: ismi, otasining ismi, familiyasi, ikki yoki undan ortiq mualliflar bo‘lsa, vergul bilan ajratiladi.

Muallif(lar)ning ish joyi:

Ushbu ma’lumot quyidagi tartibda taqdim etilishi kerak: kafedra, institut, shahar va mamlakat.

Yozishmalarga javobgar muallif:

Ismi, otasining ismi, familiyasi; bo‘lim, muassasa, mamlakat, to‘liq pochta manzili, telefon raqami, faks raqami, elektron pochta manzili keltirilgan bo‘lishi kerak.

Maqolaning sarlavhasi (ingliz, rus va o‘zbek), muallif (mualliflar) haqidagi ma’lumotlar lotin alifbosi (transliteratsiya)da beriladi.

Annotatsiya va kalit so‘zlar:

Annotatsiya – ilmiy xarakterdagi maqola hajmidan tashqari berilgan ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi qisqacha bayon.

Annotatsiyada maqolaning asosiy jihatlarini bayon etishda quyidagilarga e’tibor beriladi:

Tadqiqotning asosiy ma’lumotlarini qamrab olishi va ishda mavjud bo‘lmagan faktlar bo‘lmasligi lozim;

Maqolaning tuzilishi annotatsiyada takrorlanadi: kirish, maqsad va fazifa, usullar, natija/muhokama, xulosa/mulohaza;

Natijalar aniq va lo‘nda bo‘lib, uzviylikda beriladi;

Annotatsiyada maqola sarlavhasi takrorlanmaydi, keraksiz izohlar, “kirish jumlalari” (Muallif maqolada shuni nazarda tutadiki…) bo‘lmasligi lozim;

Annotatsiyada iqtibos keltirilmaydi;

Annotatsiya matnining hajmi 250–300 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.

Annotatsiya ostida “Kalit so‘z va so‘z birikmalari” (8–10 ta) yozuvi joylashtiriladi. Kalit so‘zlar maqolaning asosiy mazmunini ifodalab, asosan, sohaga doir muhim tushunchalardan tashkil topgan bo‘lishi lozim.

Kirish:

Maqolada tadqiqotning maqsadi va maqola yozilishi vaqtida ilmiy muammoning holati aks etishi kerak.

Maqsad va vazifa:

Maqolaning mazmun-mohiyati maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tizimli ravishda ochib beriladi.

Usullar:

Tadqiqot usullari batafsil tavsiflangan bo‘lishi lozim.

Natijalar va mulohaza:

Natijalar va mulohazalar kengaytirilgan shaklda taqdim etilishi kerak (ba’zi o‘rinlarda jadvallar va tasvirlar yordamida), shuningdek, ilgari nashr etilgan natijalarning qiyosiy tahlili va talqini beriladi.

Xulosa:

kirish qismida qo‘yilgan savollarga javoblar, xulosalar aniq ko‘rsatilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlarning berilish tartibi:

Adabiyotlar ro‘yxati lotin alifbosiga transliteratsiya qilinadi.

Ro‘yxatga kiritilgan adabiyotlar soni 10 tadan kam 50 tadan oshmasligi kerak.

Maqola matni ichida adabiyotlar quyidagicha berilishi lozim: [Muallif familiyasi, nashr yili: sahifa].

Masalan, 1. Familiya, ism (nashr yili). asar nomi, nashriyot nomi, shahar, sahifa.

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ЛИТЕРАТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ”

Требования к оформлению статьи

К публикации принимаются оригинальные, ранее не публиковавшиеся статьи и материалы, относящиеся к тематике журнала.

Размер исходной статьи (без аннотаций, ключевых слов и словосочетаний, а также списка использованной литературы) не должен превышать 10-12 страниц в 1 интервале.

Текст – MicrosoftWord.

Формат – A4.

Размер слева от текста – 2 см.

Шрифт – TimesNewRoman.

Размер шрифта – 14.

Межстрочный интервал – 1.

Абзац – 1.25.

Статьи принимаются на узбекском, русском, турецком и английском языках.

Рекомендуемая структура статьи следующая:

Название рукописи:

Название статьи и других материалов должно быть коротким, актуальным и не более 12 слов.

Авторы:

Полные имена авторов следует записывать в следующем порядке: имя, отчество, фамилия, через запятую, если авторов два и более.

Место работы автора:

Эта информация должна быть предоставлена в следующем порядке: отдел, институт, город и страна.

Автор корреспонденции:

Имя, отчество, фамилия; отдел, учреждение, страна, полный почтовый адрес, номер телефона, номер факса, адрес электронной почты.

Название статьи (английский, русский и узбекский), сведения об авторе (авторах) даются латинским алфавитом (транслитерация).

Аннотация и ключевые слова:

Аннотация представляет собой краткое изложение научной статьи на английском, русском и узбекском языках, прилагаемое к объему научной статьи.

Обобщая основные положения статьи, нужно обращать внимание на следующее:

аннотация должна охватывать основные данные исследования и не содержать фактов, которые отсутствуют по делу;

в аннотации повторяется структура статьи: введение, цель и задача, методы, результат / обсуждение, заключение / обзор;

результаты ясны и лаконичны и даны согласованно;

аннотация не должна повторять название статьи, не должна содержать лишних комментариев, “вводных предложений” (автор подразумевает в статье…);

аннотация не цитируется;

размер текста аннотации должен составлять 250-300 слов.

Ключевые слова и фразы должны быть размещеныпод аннотацией (8-10 слов). Ключевые слова должны выражать основное содержание статьи и состоять в основном из важных понятий, относящихся к данной области.

Введение:

Статья должна отражать цель исследования и состояние научной проблемы на момент написания статьи.

Цель и задачи:

Содержание статьи должно бытьраскрытосистематизировано, исходя из целей и задач.

Методы:

Следует подробно описать методы исследования.

Результаты и отзывы:

Результаты и отзывы должны быть представлены в развернутой форме (с использованием таблиц и рисунков, где это необходимо), а также должны включать сравнительный анализ источников и литературы по тематике исследования.

Вывод:

Ответы на вопросы, поставленные во вводной части, выводы должны быть четко указаны.

Порядок оформления использованной литературы:

Библиография транслитерируется латинским алфавитом. Перечисленные публикации должны бытьне менее 10 и не превышать более 50.

ADABIY MEROS

2024-YIL 2-SON / ILMIY JURNAL

ISSN 2181-2500